ISSN 2181-7839

XALQ TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Muassis:
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi

PUBLIC EDUCATION

SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL
MINISTRY OF PUBLIC EDUCATION OF THE
REPUBLIC OF UZBEKISTAN

2022

6-son

(Noyabr-Dekabr)

Jurnal 1918-yil dekabr oyidan chiqa boshlagan
O'zMAA tomonidan 2013-yil 4-martda qaytadan ro'yxatga olinib, 0104-raqamli guvohnoma berilgan.

TOSHKENT

MUNDARIJA

		TAHRIRIYAT
	4	Ijtimoiy tarmoqlarda muloqot madaniyati
		TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI
O. Xujaniyozova	6	O'quvchilarni kreativ yondashuv asosida ijodiy mehnat faoliyatiga yo'naltirish mazmunini takomillashtirish (7-9-sinf o'quvchilari misolida)
T. Xalikov	9	Bo'lajak kompetentli o'qituvchining kommunikativ-kreativ salohiyatini rivojlantirish
O. Ruzimuradov	13	Zamonaviy o'qituvchining kasbiy ehtiyojlari va kasbiy mahoratni rivojlantirish yo'llari
J. Fozilov	18	O'quvchi-yoshlarda obyektiv dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishda aksiologik yondashuvning o'ziga xosjihatlari
F. Rahmatova	22	Kasbiy mahorat va kompetentlilikni rivojlantirish jarayonida motivlashtirish
A. Qutbedinov, Sh. Toshpulatova, Y. Mavlonova	27	Bo'lajak fizika fani o'qutuvchilarning mantiqiy savodxonligini rivojlantirishda pisa dasturidan foydalanish
Z.M. Dadaboyeva	34	Kasbiy ta'lim o'qituvchilarini tayyorlash jarayoning muhim jihatlari
B. O'razov	38	Bo'lajak texnologik ta'limi o'qituvchilarining kasbiy ma'naviyatini rivojlantirish
N. Abdullaeva	42	Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarning mas'uliyatini shakllantirish
S. Muxlisov	46	Bo'lajak informatika o'qituvchisining kasbiy faoliyatida kompetensiya
I. Bobomurodov	49	O'quvchilarining bilish faoliyatini rivojlantirish asosida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlari
		TA'LIM VA TARBIYA METODIKASI
M. Tirkashov	52	Rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasi axborot-tahliliy yondashuvning metodik asosi sifatida
S.Sarimsoqova	57	Tabiiy fanlarni o'qitishda kompetentli-yo'naltirilgan topshiriqlardan foydalanish
D. Alibekov	61	O'smir yoshdagi o'quvchilar gender madaniyatini irivojlantirishda o'yinlarning pedagogik funksiyalari
G.A. Ergasheva	65	Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning imloviy savodxonligini shakllantirish
S. Sobirov	69	Badiiy adabiyotlarga illyustratsiyalar ishlashning an'analari (тarbiya klasteri asosida)
A. Avliyoqulov	74	Umumta'lim maktablarida matematikani o'qitish metodologiyasi va fanlararo aloqasining konseptual asoslari
B. Ergashev, S. Otamirzayev	78	Professional ta'lim tizimi o'quvchilarini kimyo faniga oid kompetensiyalarini rivojlantirish usullari
H. Dosanov	82	"Gap bo'laklari va ularning tasnifi" mavzusini o'rgatishga doir qarashlar

	ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI	
N. Valixonova	86	Boshlang‘ich ta’limni takomillashtirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish
S. Alimboboeva	89	Xorijiy tillarni o‘qitishda innovatsion yondashuvlarning ahamiyati
N.K. Botirova	94	Kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishda axborot ta’lim muhitidan foydalanish
J. Mamatov	97	O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda darsga nisbatan intizomli munosabatni shakllantirish yo‘llari
	MILLIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARI	
B. Amrillayeva	101	Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tabiiy fanlar(science) ni o‘qitishda mutafakkirlarning ilmiy asarlaridan foydalanish
Z. Qoraboeva	104	Professional ta’lim tizimida maktabgacha ta’lim tashkilotlariga kompetentli kadrlar tayyorlash sifatini oshirish omillari
	TA’LIMDA MENEJMENT	
D. G‘aniyeva	110	Inson kapitali taraqqiyotida xodimlarning kompetensiyalarini rivojlantirish innovatsion faoliyat va muvaffaqiyatning kafolati
	JISMONIY TARBIYA VA SPORT	
S. Valixanov	114	Jismoniy tarbiyani tashkil qilishda ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarning fiziologik xususiyatlari
	MALAKA OSHIRISH VA QAYTA TAYYORLASH	
S. Raximova	120	Innovatsion yondoshuv asosida maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlari malakasini oshirishning nazariy-metodologik asoslari
	MAKTABGACHA TA’LIM	
G. Nazirova	124	Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda ilmiy-pedagogik shart-sharoitlar yaratishdagi muammolar
	MUTOLAA MADANIYATI	
Sh. Xo‘jamberdieva	128	Maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirishning metodik asoslarini takomillashtirish
	QIYOSIY PEDAGOGIKA	
I. Matyakubov	132	Finlandiya ta’lim tizmi: tahlil, tajriba, sinov
	МЕТОДИКА ОБРАЗОВАНИЯ И ВОСПИТАНИЯ	
Н. Эргашева	137	Дидактические принципы обучения второго иностранного языка в Узбекистане
	СОВРЕМЕННЫЕ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ	
Р. Абдухаиров	141	Развитие непрерывной педагогической культуры учителя трудового обучения на основе личностно-деятельностного подхода

IJTIMOIY TARMOQLARDA MULOQOT MADANIYATI

Kompyuter texnologiyalarining shiddatli taraqqiyoti dunyoning milliardlab foydalanuvchilariga butunjahon tarmog‘iga kirish imkoniyatini berdi. Natijada, har kuni minglab odamlar internetga ulanib, uning manbalaridan faol ravishda foydalanmoqda. Bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda tarqatilayotgan ma’lumotlarning katta qismini yoshlar ma’naviyatining tubanlashuviga turtki bo‘luvchi, milliy va diniy qadriyatlarimizga zid bo‘lgan xabarlar, urf-odatlar tashkil etadi. Bu esa, Internet, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa zamonaviy telekommunikatsiya yutuqlaridan foydalanish tizimini tartibga solish, ularning imkoniyatlaridan oqilona istifoda etish, muayyan odob-axloq qoidalarga amal qilish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Avvallari yoshlar qalbidagi nozik kechinmalarni aks ettirgan va eng kamida savod talab qilgan xatlar bugunga kelib harflar, so‘zlar, tinish belgilaridan iborat qisqa va hissiz xabarlarga aylanmoqda. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardagi yozma muloqotlarda so‘zlarni iloji boricha qisqartirish, yangi so‘zlar va iboralarni “kashf qilish”, til me’yorlarini qo‘pol ravishda buzish odati avj olmoqda. Vaqtni tejash bahonasi bilan grammatik butunlikka putur yetkazib, so‘zlarni ma’nosi buzilishigacha bo‘lgan xatolarni sodir qilish ayni davrda aksariyat yoshlarni savodsiz bo‘lishiga xalq tili bilan aytganda “chalasavod” bo‘lishiga olib kelmoqda.

Yoshlar ijtimoiy tarmoqlar kengayib borayotgan davrda o‘sib ulg‘aymoqda. Bu quvonarli hol albatta. Biroq har narsaning me’yori bo‘lmog‘i zarur. Yoshlar virtual olamning haqiqiy olam emasligini bilib borishlari shart. Ba’zan bolalar kattalar tomonidan nazoratsiz va ularning ruxsatisiz tarmoqqa tashrif buyurish imkoniga ega bo‘lib qoladilar.

Ruhshunoslar qisqa matnchalar yordamida ko‘p muloqot qilish salbiy oqibatlarga olib kelishini aytishmoqda. Ayniqsa, inson quloqlari ostida doimiy telefon signalining jarang sochishi yoki mobil aloqaning vibratsiyasini muntazam his qilis ruhiy xastalikning dastlabki belgilari hisoblanadi. Ijtimoiy tarmoqlardagi yozishmalarga mukkasidan ketish ayniqsa, yoshlarda bezovtalik bilan izohlanadi. Yaqinlari mehri va e’tiborini ulardan kelayotgan sms xabarnomalar bilan o‘lchaydi.

Ijtimoiy tarmoqlar vazifalari ustida ishlayotgan kishilar ularni kundan-kunga yaxshiroq, qiziqarliroq, rang-barang qilishga urinmoqda: kirgan odam iloji boricha ko‘proq vaqtini o‘tkazsin, pul sarflasin, nimadir xarid qilsin va hokazo.

Odamlarni bir biridan uzoqlashtirayotgan va ijtimoiy tarmoqlar orqaligina yaqinlashtirib qo‘yayotgan yana bir omil bu smartfon egalarini ko‘payayotganidir. Britaniyalik tadqiqotchilarning izlanishlariga qaraganda, smartfon egalarining yarmi ijtimoiy tarmoqlar hamda elektron pochta orqali muloqot qilishni afzal ko‘rishadi.

Ijtimoiy tarmoqlarda shunday guruhlar ham paydo bo‘lganki, foydalanuvchilar bir-birini maqtab ko‘kka ko‘tarishlari, shuningdek, kimlarningdir nomini loyga chaplashlari, obro‘sini to‘kish, yerga urish, buning uchun bor imkoniyatidan foydalanishga harakat qilishadi. Bu holat bilan ular muloqotning eng tuban yo‘lini tanlashadi. G‘iybat ular uchun oddiy holga aylangan. Qarashlar shu qadar bahsli, shu qadar qutbliki, uni o‘qigan sog‘lom fikrli inson yoshlar tarbiyasi va dunyoqarash madaniyati transformatsiya

qarshisida turibdi degan fikrga boradi. Shu sabab ko‘pchilik bu tarmoqlarni yoqtirishmaydi. Lekin shunga qaramay, statistik ma’lumotlarga nazar solsak, dunyo yoshlarining 96 foizi ijtimoiy tarmoqlar vositasida o‘zaro muloqotga kirishishmoqda.Yoshlar ijtimoiy tarmoqlar kengayib borayotgan davrda o‘sib ulg‘aymoqda. Bu quvonarli hol albatta. Biroq har narsaning me’yori bo‘lmog‘i zarur. Yoshlar virtual olamning haqiqiy olam emasligini bilib borishlari shart. Ba’zan bolalar kattalar tomonidan nazoratsiz va ularning ruxsatisiz tarmoqqa tashrif buyurish imkoniga ega bo‘lib qoladilar.

Yangilik va axborot xurujlari avj olayotgan zamonamizda ijtimoiy tarmoqlardan madaniyat bilan foydalanmaslik insonning o‘zi va yaqinlari uchun ham qimmatga tushishi mumkin. Chuqurroq o‘ylab qarasak, ijtimoiy tarmoqlar qabih niyatda yaratilmaydi balki imkoniyat va yengillik yaratish, uzoq masofani yaqin qilish uchun kashf etiladi. Zamonaviy matematika, dasturlash, iqtisodiyot asoslari, psixologiya, chet tillar kabi bugunning eng dolzarb, talab yuqori bo‘lgan fan yo‘nalishlari bo‘yicha ham istalgancha videodarslar, qo‘llanmalar topish mumkin. Virtual auditoriya uchun tashkil etiladigan onlayn darslarda qatnashsa bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, ijtimoiy tarmoqlar arzon va bepul ta’lim olish uchun imkoniyat eshiklarini juda keng ochgan. Bu nafaqat ilm olish, balki ilm tarqatishda ham qo‘l keladi. Turli soha mutaxassislari o‘z pedagogik mahoratlarini namoyish etishi, virtual o‘quvchilar yig‘ishi mumkin. Ular kun kelib bu mutaxassisning hayotdagi real talabalariga aylanishi ehtimoli ham yuqori. Ammo ba’zi insonlarning ichki buzg‘unchiligi sababli kutilgan natijadan teskari javob qaytadi.

Internet imkoniyatlarini suiste’mol qilib, soxta akkauntlar ochib, yolg‘on xabarlar, surat va videolavhalar tarqatishadi. Hatto birovning noqulay vaziyatini ham kulgu qilib muhokamaga qo‘yib muloqot qiladigan guruhlar ham ijtimoiy tarmoqlarda kam emas. Holbuki, moddiy kamchilikni berkitish, misol uchun badanni berkitish uchun kiyim olib berish bo‘lsa, ma’naviysi esa yomon ish qilganini ko‘rib bekitish, hech kimga aytmaslikdir.

Bu da’vat dinimizda ham asosiy mezon hisoblanadi. Shu sababli ham bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda muloqot qilish madaniyatini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish suv va havodek nihoyatda dolzarblik kasb etmoqda. Sababi insoni sha’ni or nomusi birgina internet orqali toptalsa turgan gapki u uchun yashash ham muammodek tuyuladi. Albatta bunda davlat siyosatining to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi bo‘lsa, ikkinchidan va eng asosiy sharti bu oilada tarbiyaviy muhitning mukammalligidir.

Oilada yoshligidan go‘zal va axloqiy tarbiya olgan farzand ijtimoiy tarmoq bo‘ladimi, jonli muloqot bo‘ladimi ma’lum odob va axloq chegarasini aslo hatlab o‘tmaydi. Pichoqni qotil ham, oshpaz ham o‘z maqsadi yo‘lida ishlatar ekan, gap qurolda emas, uni tutgan qo‘lda. Ijtimoiy tarmoqlarning hayotimiz va oilamizga ta’sirini tartibga solish uchun internetdagi axborotlarga munosabatimizni o‘zgartirishimiz lozimligini tushunishimiz kerak.

Bu virtual obrazlar jamlanmasi, xolos. Ulardan qanchasidir haqiqat-u qanchasi ro‘yo bo‘lishi mumkinligini hamisha yodda tutish lozim. Oynai jahonda bot bot ko‘tarilayotgan muloqot madaniyati tushunchasi shunchaki qurbon bo‘ladigan atama bo‘lib qolmasligi, balki har birimiz uchun mustahkam qonun bo‘lishi kerak. Sababi endi zamonaning ilg‘or ijtimoiy tarmoqlari orasida o‘z madaniyatimiz, e’tiqodimiz va tilimiz aslini yo‘qotib qo‘ymasligi, o‘sha yuqorida saviyasi quyilar uchun suyqasi chiqqan, aslida, bebaho muloqot madaniyatiga nihoyatda bog‘liq.

Oygul XUJANIYOZOVA,
Urganch davlat universiteti o'qituvchisi

O'QUVCHILARNI KREATIV YONDASHUV ASOSIDA IJODIY MEHNAT FAOLIYATIGA YO'NALTIRISH MAZMUNINI TAKOMILLASHTIRISH

(7-9-sinf o'quvchilari misolida)

Annotatsiya

Maqolada o'quvchilarni ijodiy mehnat faoliyatiga yo'naltirishda pedagoglar tomonidan ilgari surilayotgan amaliy hamda nazariy pedtexnologiya, ta'lim modellari taklif etilgan. Shuningdek, ta'lim muassasalarida MDH olimlari tadqiqotlari asosida tatbiq etilayotgan pedagogik yondashuv usullari bayon etilgan.

Kalit so'zlar. Kreativlik, ta'lim, ijodiy mehnat, tadqiqot, nazariya va amaliyot, pedagogik modellar.

В статье предложены практические и теоретические педтехнологии, образовательные модели, продвигаемые педагогами в ориентации учащихся на творческую трудовую деятельность. Также изложены методы педагогического подхода, применяемые в образовательных учреждениях на основе исследований ученых СНГ.

Ключевые слова. Креативность, воспитание, творческий труд, Исследования, базис и практика, педагогические модели.

The article offers practical and theoretical pedagogical technologies, educational models promoted by teachers in the orientation of students to creative work. The methods of the pedagogical approach used in educational institutions based on the research of CIS scientists are also described.

Key words. Creativity, education, creative work, Research, basis and practice, pedagogical models.

Mehnat insonning hayotida muhim o'rin tutibgina qolmay, turmushni mehnatsiz, yaratuvchiliksiz tasavvur etib bo'lmaydi. Mehnat tarbiyasi tarbiyaning mag'zini, mazmunini tashkil etadi. Barcha xalqlarning eng ilg'or an'analari mehnat jarayonida paydo bo'lib takomillashadi. Mehnat an'analarining tayanchi sifatida yoshlarni hayotga, ijtimoiy mehnat faoliyatida ishtirok etishga tayyorlash ham muhim rol o'ynaydi.

Prezidentimizning "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoniga binoan umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinflari o'quvchilariga kasbiy ta'lim berishga ixtisoslashgan o'quv-ishlab chiqarish majmualari (O'IChM) yoshlarimizni kasbga o'rgatish vazifasini lozim darajada bajarmaganligi sababli haqli ravishda tugatilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning asosiy maqsadlaridan biri yoshlarni chuqur bilim olishlari, iste'dodlarini ro'yobga chiqarishda har tomonlama qo'llab-quvvatlash, shu bilan birgalikda ularning mustaqil hayotga tayyorlash ko'nikmalarini ham shakllantirib borish

ta’lim tizimining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Aynan shuning uchun zamonaviy bilim olish bilan bir qatorda o‘quvchi yoshlarda hayotiy ko‘nikmalarni shakllantirib borish, oddiy qilib aytadigan bo‘lsak, yoshlarni kasb tanlashga, ularni ijodiy fikrlashga, yoki konstruksion buyumlardan materiallar yasash, oddiygina elektr chirog‘i patronini o‘rnatish, uydagi suv tarmoqlari tizimlari to‘g‘risida, shuningdek, oddiy yog‘ochga ishlov berish, uy ro‘zg‘orda kichik ta’mirlash ishlari va hokazolar kabi hayotiy kasbiy ko‘nikmalarni to‘liq yetkazib berolmayotganligimiz hech kimga sir emas.

Ijodkorlikni rivojlantirishga bolalikdan poydevor qo‘yiladi va ta’lim-tarbiya vositasida takomillashtirib boriladi. O‘quvchi-yoshlarda ijod qilishga qiziqishni rivojlantirish ma’lum madaniy muhitni yaratish asosida mustaqil maqsad qo‘yish, o‘z faoliyatining mazmun-mohiyatini anglash, ijodkorlik qobiliyatni shakllantirish bilan uyg‘un holda olib borilsagina samarali natijaga erishish mumkin. Ijodkor shaxsni rivojlantirish tizimini takomillashtirish muammoning ilmiy-nazariy, metodologik asoslari, pedagogik yo‘llari va mexanizmlarini tadqiq etishga bo‘lgan talab va ehtiyojni oshiradi. Ijodkorlik estetik, axloqiy, milliy, ekologik, huquqiy, nutq, mehnat va muloqot madaniyati sifatida namoyon bo‘ladi va turli-tuman qobiliyatlarning rivojlanish darajasini anglatadi. U insonning har tomonlama rivojlanishi, atrof-muhit sharoitida yashay olish qobiliyatini ifoda etadi va jamiyat madaniyatini o‘zida aks ettiradi. Kreativlik, shaxs madaniy qadriyatlarining shakllanishi, ijodiy qobiliyat, ijodiy faoliyat va shaxsni o‘rganishga tizimli yondashuvga oid masalalar bilan MDH olimlari ham shug‘ullanganlar va o‘z tadqiqotlarida turli samarali yechimlar topishga muvaffaq bo‘lganlar. O‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga imkon beradigan madaniy bo‘shliqlarning to‘ldirishni nazariy va amaliy modellari va boshqalarning izlanishlarida ochib berilgan. Umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarini kreativ yondashuv asosida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlariga hamda pedagogik ishlarda ijodkorlik yoshlarning qadriyatli yo‘nalishining tarkibiy qismi sifatida belgilanishiga to‘xtab o‘tilgan. Shuningdek, kreativ yondashuvni yuqori sinf o‘quvchilarining o‘zini-o‘zi shaxsiy va ijodiy rivojlantirish manbai sifatidagi konsepsiya o‘quv jarayonida o‘smirlar ijodkorligini rivojlantirishning psixologik shart-sharoitlarni ijodkorlikning kognitiv asoslarini o‘rganishga doir qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.

Ijodiy fikrlash o‘quvchilardan o‘quv topshiriq, masala va vazifalarini bajarishda ko‘plab yangi noodatiy g‘oyalarga tayanishni talab etadi. Ya’ni, topshiriqni yoki masalani yechishda o‘quvchi yechimning bir necha variantini izlaydi (ko‘p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to‘g‘ri yechimda to‘xtaladi (bir tomonlama fikrlash). Shunga asoslanib aytish mumkinki, o‘quvchilarning kreativligi ularning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi, ya’ni kreativlik shaxsni yaxlit yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi.

Ijodkorlikni o‘rganish jarayonida umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining intellektual va psixologik rivojlanishi tizimlarini shakllantirish muammolari ishlab chiqilgan bo‘lib, ular shaxsiy-ijodiy fikrlash uslubining tarkibiy qismlarini shakllantirishga qaratilgan. Kreativ pedagogika bilan bog‘liq muammolarni, shaxsning ijodiy salohiyatini, ijodiy ta’limning konseptual asoslarini o‘rganish qator ilmiy tadqiqot ishlarining obyektiga aylangan.

Mavjud tahlillar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarda kreativ kompetentlikni rivojlantirishning zaruriy sharti avvalambor, pedagoglarning kreativlik potensialga egaligiga bog‘liq ekan. Ayniqsa, o‘quvchi ijodiy faoliyatining dastlabki sharti va natijasi ham

o‘qituvchining kreativ kompetentlikka egaligidir. An’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonini samaradorligi ta’minlashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratishi, mavjud pedagogik muammolarni ijobiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyatlarga egaligi pedagog kreativligini belgilovchi asosiy mezonlardir. Mazkur mezonlar o‘qituvchilarning o‘zini-o‘zi ijodiy namoyon qila olish layoqatiga egaligi va unga tayyorgarlik darajasini ham ifodalaydi. Pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo‘lmasligi tufayli o‘quvchilar ham qiziqarli va ajoyib g‘oyalarga ega bo‘lsalar-da, biroq, ularni ifodalashda sustkashlikka yo‘l qo‘yadilar. Buning sababi ta’lim jarayonida qo‘llanilayotgan metodlar o‘quvchilarda erkin, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qilmasligi bilan belgilanadi.

Hozirda kreativ fikrlash qobiliyati nafaqat o‘quvchilar uchun balki, har bir mamlakatning kelajagi uchun zarurdir. Bu jarayonni amalga oshiradigan o‘qituvchilar uchun ham, chunki faqat ijodiy o‘qituvchi ijodiy o‘quvchini o‘qitishi mumkin. O‘qitishning ijodiy texnologiyalarini o‘zlashtirish o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini modellashtirish, innovatsion ijodiy texnologiyalarni joriy etish, har bir o‘quvchiga individual yondashish va undagi ijodiy potensialni o‘sishiga imkon beradi. Ijodiy o‘quvchilarni o‘qitadigan ijodkor o‘qituvchi har bir o‘quvchining kasbiy va shaxsiy ijtimoiylashuvida, ya’ni jamiyatda o‘z o‘rnini topishida yetakchi o‘rin tutadi. Shuningdek, turli inqiroz va stresslarga boy davrda yashayotgan har bir insonning o‘ziga xos moslashuvchanlik qobiliyati kretiv pedagogikaga asoslanishi lozim.

Kreativlik kompetensiyasiga ega pedagog o‘zida quyidagi malakalarni namoyon eta olishi lozim:

– bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilishi;

– muammoning qo‘yilishini tahlil qila olishi;

– muammoni hal qilish rejasini tuzish;

– muammoni hal qilishda tizimli metodlar (analiz, sintez, induksiya, deduksiya, taqqoslash)larni qo‘llash;

– muammoni hal qilish usullarini tanlay olish;

– qabul qilingan qarorning to‘g‘riligini asoslash va qayta tekshirish;

– muammoni hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;

– muammoni hal qilish sharoiti;

– jarayonning borishi va muammoning yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish.

Xulosa o‘rnida, o‘quvchilarda kreativlik asosida o‘quvchilarni ijodiy faoliyatga yo‘naltirish ularda mustahkam qaror qabul qila olish, o‘zining xohish yo‘nalishlarini ishonch bilan tanlash hamda ta’limda yanada tashabbuskor bo‘lishda yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gafforov. Ya.X. Maktab islohoti va o‘qitish metodlarini takomillashtirish. Science and education. Sgientific Journal. 2020.

2. Toshtemirova S. A. (2020). Ta’lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida.

3. Yo‘ldoshev J.G‘, Usmonov C.A, “Pedagogik texnologiya asoslari”.– T.,2004-y.

To‘lqin XALIKOV,
Termiz davlat univarsiteti, ‘‘Rus va jahon adabiyoti’’ kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK KOMPETENTLI O‘QITUVCHINING KOMMUNIKATIV-KREATIV SALOHIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada kommunikativ-kreativ salohiyatni takomillashtirishning tarixiy muammolari yoritilgan.Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchining kreativligini rivojlantirishga oid yondashuvlar batafsil bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Kommunikativ, takomillashtirish, yondashuv, kreativ, qobiliyat, ijodkorlik, assotsiatsiya, madaniyat, inkulturatsiya, ijodiy fantaziya, ijodiy tasavvur.

В данной статье освещаются исторические проблемы совершенствования коммуникативно-творческого потенциала. Также подробно описаны подходы к развитию креативности будущего педагога.


Ключевые слова. Коммуникативный, совершенствующий, подходящий, креативный, способности, креативность, ассоциация, культура, инкультурация, творческая фантазия, творческое воображение.

This article highlights the historical problems of improving the communicative and creative potential. Approaches to the development of creativity of the future teacher are also described in detail.

Key words. Communicative, improving, suitable, creative, abilities, creativity, association, culture, inculturation, creative imagination, creative imagination.

Ilmiy muhitda shaxsning kreativligiga qiziqish madaniy jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida kuzatilishi mumkin. Shu bilan birga, ushbu shaxsiy xususiyatni rivojlantirishga yondashuvlarning xilma-xilligini xam ta'kidlash lozim. Bu holda yondashuv deganda biz yo‘l, usullar majmuini tushunamiz.

Talabalar shaxsida kreativlikni rivojlantirishga bag‘ishlangan zamonaviy psixologik-pedagogik adabiyotlar va dissertatsiyalar mazmunini tahlil qilish ikkita yondashuvni ajratib ko‘rsatishga imkon berdi.



1.Birinchi yondashuvning mohiyati kreativlikni rivojlantirish uchun psixologik-pedagogik sharoitlarni yaratishdan iborat.

Ye. Sherbakovaning “Kasbiy tayyorgarlik sharoitida oliy o‘quv yurti talabalarining pedagogik kreativligini shakllantirish” nomli dissertatsiya tadqiqotida kommunikativ va didaktik kreativlikni sintezi sifatida pedagogik kreativlikning mohiyati asoslab berilgan. Muallif talabalarning ijodiy kayfiyatining shaxsiy ko‘rsatkichlarini (o‘zini o‘zi boshqarish va o‘zini nazorat qilish, hissiy barqarorlik, kuchli iroda fazilatlari, quvonch hissi, mehnatga layoqat darajasi, odamlarga muhabbat va mehr), shuningdek, ijodiy ko‘rsatkichlarini (topqirlik, kombinatsiya qilish qobiliyati, divergent fikrlash, vizual ijodkorlik, assotsiatsiya qilish qobiliyati) aniqlashda tizimli yondashuvni qo‘llagan.

“Oliy o‘quv yurtida pedagogik ta’lim bo‘yicha bo‘lajak bakalavrlarning kreativligini rivojlantirish’’ nomli Yu.R.Varlakovaning so‘nggi tadqiqotlaridan birida ta’kidlanishicha, ijodkorlikning rivojlanishiga quyidagilar imkon beradi: yaxlitlilik, "hayotiy format”, muammolilik, kontekstlilik bilan ta’riflanadigan amaliy bilimlarni kiritish hisobiga; talabalarni kasbiy masalalarni hal etish bo‘yicha faoliyatga; nazarda tutilgan kuzatuvlarni tashkillashtirishga, tanlangan kasb kontekstida tajriba va kreativlikka munosabatni qayta anglashga va h.k.; ta’lim jarayonining muammoli xususiyatini ta’minlashga.

Bunda, pedagogik ta’limda bo‘lajak bakalavrlarni kreativligi ‘‘o‘z-o‘zini anglash ehtiyojlariga, pedagogika va dizayn sohasida bilimlarga asoslangan, kelajak kasbiy faoliyatida ijodiy natijalarga erishish uchun nostandart va funksional jihatdan qo‘llanishi mumkin bo‘lgan g‘oyalarni tezda ishlab chiqaradigan malakalar bilan ta'riflanadigan qayta o‘zgartiradigan faoliyatga qobiliyat” deb tushuniladi.

I.V. Shovgurovaning “Etnomadaniy an’analarni gumanitar o‘rganish asosida bo‘lajak texnologiya o‘qituvchisining kreativligini shakllantirish” nomli ilmiy ishi diqqatga sazovor. Ushbu tadqiqotda birinchi marta kreativlik bo‘lajak o‘qituvchining asosiy kasbiy qobiliyati sifatida qaraladi, uni etnik-madaniy an’analar va o‘quvchining o‘ziga xos madaniyatini uyg‘unlashtirish sharoitida kasbiy faoliyatni amalga oshirishga yo‘naltiradi, ushbu faoliyatning o‘ziga xos xususiyati texnologiya fani doirasida ko‘rsatilgan, etnik-madaniy an’analarning ijodiy komponenti va undan texnologiya o‘qituvchilarining pedagogik amaliyotda foydalanish imkoniyatlari ochib beriladi.

I.Ye. Bryakova, tomonidan ishlab chiqilgan filolog-talabalarning kasbiy ta’lim jarayonida kreativ qobiliyatlarini shakllantirish konsepsiyasi qiziqish uyg‘otadi, bu talabalarning shaxsiy kreativligi va ularning kasbiy vakolati o‘rtasidagi bog‘liqlikni ochib beruvchi qonuniyatlar va tamoyillarga asoslanadi. Ushbu konsepsiya maktab o‘quvchilarining adabiy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish usullarini egallash jarayonida talabalar tomonidan ijodiy faoliyat tajribasini o‘zlashtirishni nazarda tutadi.

A.G. Shumovskaya bo‘lajak o‘qituvchining ilmiy hamkorlikdagi kreativ qobiliyatlarini shakllantirish masalasini ko‘rib chiqqan. Tadqiqotda ilmiy hamkorlik deganda “tadqiqot faoliyatidagi pedagogik jarayon sub'ektlari o‘rtasidagi bosqichlar bo‘yicha uzaro ta'sir qilish usuli” tushuniladi. Kreativ kompetensiyani shakllantirish fan, o‘quv, darsdan tashqari va kurs modullaridan iborat muallif tomonidan ishlab chiqilgan modul dasturi orqali amalga oshirildi. Sinfdan tashqari modul doirasida “Mening mavqeim” ilmiy loyihalar tanlovini o‘tkazish taklif etiladi.

N.V. Kruglova tadqiqotida kreativlikning rivojlanishi kulturologik sikl fanlarini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarni inkulturatsiya jarayoniga jalb qilish orqali amalga oshiriladi. Kreativlikni rivojlantirishning dasturiy va uslubiy ta’minoti loyiha metodikasi, matnli faoliyat, ishbilarmonlik o‘yinlari, assotsiativ texnikalar, tanlovlar, viktorinalar va

ijodiy vazifalar tizimini o‘z ichiga oladi.

Yuqoridagilarni umumlashtirib, shuni aytishimiz mumkinki, ushbu yondashuvning mohiyati kreativlikni rivojlantirish uchun quyidagi psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishdir, masalan: hissiy ko‘rinishlarni mulohazasiz qabul qilish va qo‘llab-quvvatlash, hissiy ta’sirlanish va holatlarga mos ravishda muammolilik, dialogik va individuallashtirishdan foydalanish, tizimli ravishda refleksiyani amalga oshirish, yaxlitlik, ‘‘hayotiy format”, muammolilik, kontekstlilik va boshqalar bilan ta’riflanadigan amaliy bilimlarni qo‘shish hisobiga ta’lim mazmunini o‘z hayotiy tajribasi bilan boyitish.

2. Ikkinchi yondashuvning asosini kreativ salohiyatni rivojlantirishning umumlashtirilgan kreativ texnologiyalaridan foydalanish tashkil etadi.

Shu nuqtayi nazardan, V.G.Rindak tomonidan taklif qilingan kreativlik pedagogikasi kabi yo‘nalish alohida qiziqish uyg‘otadi. Xuddi shu nomdagi monografiyada ‘‘shaxs kreativligini rivojlantirishning zamonaviy muammolari keng yoritiladi, kreativ o‘qituvchi va kreativ darsning mohiyati va tuzilishi belgilanadi, kreativlilik pedagogikasining umumiy asoslari tavsiflanadi, kreativlilik nazariyasi asoslanadi va kreativ texnologiyalar tasniflanadi. Kreativ texnologiyalarni turli asoslar bo‘yicha tasniflash qiziqarlidir:

1) kristallashtirish, axborotni o‘zgartirib yuborish, imultan obrazlarni, hayoliy tasvirlarni yaratish qobiliyatlariga asoslangan texnologiyalar;

2) tushunishga, ‘‘g‘oyalar maydoni’’ni shakllantirishga asoslangan texnologiyalar;

3) rivojlantiruvchi va muammoli ta’limga asoslangan texnologiyalar; yangi g‘oyalarni yaratish texnologiyasi;

4) shaxsning hissiy sohasi; axloqiy tanlovi;

5) shakl, uslub va amalga oshirish qobiliyatini rivojlantirish texnologiyalari; bir xillikni buzish va qayta qurish texnologiyalari;

6) vizual kreativlik texnologiyalari;

7) qobiliyatlarning kamolotini ta’minlovchi texnologiyalar.

Ikkinchi yondashuvning yo‘nalishlaridan biri ixtirochilik masalalarini hal qilish nazariyasidir (IMHQN). G.S. Altshuller ixtirochilik muammolari uchun amaliy usullarni yaratishga oid texnik tizimlarning rivojlanish mexanizmlarini o‘rganuvchi bilimlar sohasini ishlab chiqdi. IMHXQNning maqsadi psixologik inersiyani olib tashlash va ijodiy tasavvurni kuchaytirish orqali ixtirolarning sifatini oshirish va darajasini o‘stirishdir. IMHQNning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat: har qanday murakkablik va yo‘nalishdagi ixtirochilik muammolarini hal qilish; texnik tizimlarning rivojlanishini oldindan bilish; ixtirochilik faoliyatida (birinchi navbatda obrazli tasavvur va tizimli tafakkurda) insonning tabiiy qobiliyatlarini uyg‘otish, mashq qildirish va to‘g‘ri foydalanish; jamoalarni (shu jumladan ijodiy jamoalarni) o‘z ideali yo‘nalishi bo‘yicha (vazifalar bajarilganda, ammo bu hech qanday xarajatlarni talab qilmaganda takomillashtirish. Rivojlanish natijasida IMHQN texnik sohadan tashqari boshqa sohalarda (adabiyot, pedagogika, siyosat va boshqalar)ham qo‘llaniladi. IMHQN kontekstida ixtirochilik masalalarini yechish algoritmi (IMeA)-ishlab chiqilgan. Aslida, bu algoritm-tizimli fikrlashni, usullar, metodlar va vositalar haqida maxsus bilimlarni talab qiladigan muammoli vaziyatlarning algoritmidir. IMeA ixtirochilik muammolarini hal qilish kafolatini bermaydi, lekin u bo‘lajak muhandislarga texnik tizimlarning rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan qarama-qarshiliklarni ko‘rish qobiliyatini beradi, injenerlik masalalarini ko‘p qirralik asosida hal qilish, ya’ni har qanday obyektni tizimli, muammolarni har tomonlama idroq qilish qobiliyatlarini shakllantiradi.

M.M. Zinovkina tomonidan ishlab chiqilgan IFUSh-IMHQN ko‘p darajali kreativ

ta’limning uzluksiz tizimi (ijodiy fikrlashni uzluksiz shakllanishi - ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasi) fanga katta hissa qo‘shadi. Kreativ pedagogikaning predmetini uzluksiz ta’lim tizimida kreativ shaxsni shakllantirishning psixologik-pedagogik xususiyatlari, qonuniyatlari va mexanizmlari tashkil etadi. IFUSh-IMHQN tizimining metodologik, uslubiy va texnologik asoslari quyidagilardir: G.S. Altshuller tomonidan ixtirochilik muammolarini hal qilish nazariyasi.; ijodiy tasavvur va fantaziyani rivojlantirish metodologiyasi; ijodiy shaxsni rivojlantirish nazariyasi; M.M.Zinovkinaning faol ta’limning muammoli-algoritmik tizimi; N.G. Xoxlovning ilmiy-pedagogik konsepsiyasiga muvofiq integratsiyalashgan ta'lim tizimi.; R.T.Gareevning kreativ muhandislik ta’limida ko‘p o‘lchovli evristik dialoglari; R.T. Gareev, M.M. Zinovkinalarning fikrlash uchun kompyuter intellektual qo‘llab-quvvatlash tizimi; V.I. Andreevning raqobatshunoslik-raqobatbardoshlikni ijodiy o‘z-o‘zini rivojlantirish texnologiyalari; S.P.Andreevning raqobatbardoshlikni shakllantirish modeli; kasbiy va ijodiy salohiyatni rivojlantirishni psixologik va pedagogik qo‘llab-quvvatlashlik. IFUSh-IMHQN tizimining didaktik asosini kasbiy ijodning zamonaviy metodologiyasini o‘zlashtirish orqali talabalarni kasbiy ijodiy faoliyatga tayyorligini shakllantirishga qaratilgan ‘‘ijodkorlik metodologiyasi asoslari va fikrlashni kompyuter intellektual qo‘llab-quvvatlash’’ integrativ sikli tashkil etadi. Talabalarning faol izlanish faoliyati uchun shart-sharoit yaratilsa, ijodiy tizimli tafakkurni shakllantirish jarayoni samarali bo‘ladi, ta'lim jarayoni tizimli va uzluksiz xususiyatga ega bo‘ladi.

Har bir tadqiqot nuqtayi nazari pedagogika fanida e’tirofga loyiqdir. Tadqiqotda texnologik yondashuv ishlab chiqiladi-ya’ni umumlashtirilgan kreativ texnologiyalardan foydalanib, uni bo‘lajak o‘qituvchining ijodiy o‘quv va kasbiy faoliyatida kreativ salohiyatini rivojlantirish texnologiyasi bilan to‘ldiriladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi ‘‘Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi PQ-2909-son qarori. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 18-son, 313-modda, 19-son, 335-modda, 24-son, 490-modda, 37-son, 982-modda.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi ‘‘Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlari ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi PQ- 3151-son qarori. // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017-y., 30-son, 729-modda; Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 25.05.2018 y., 06/18/5447/1269-son, 01.08.2018y., 06/18/5497/1604-son.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-noyabrdagi “Ilmiy tadqiqot muassasalaring infratuzilmasini yanada mustahkamlash va Innovasion faoliyatni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3365-son qarori. // Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 01.11.2017 y.; O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 06.11.2017 y., 44-son, 1109-modda.

4. Арипджанова А.Р. Развитие креативного потенциала педагогов высших образовательних учреждений в условиях информатизации образования. Дис. док…фил… (PhD).–Т.,2017.

Otabek RUZIMURADOV,
Qarshi davlat universiteti

ZAMONAVIY O‘QITUVCHINING KASBIY EHTIYOJLARI VA KASBIY MAHORATINI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada zamonaviy o‘qituvchining kasbiy ehtiyojlari va kasbiy mahoratni rivojlantirish yo‘llari, kasbiy o‘zini o‘zi tarbiyalash va o‘zini o‘zi tarbiyalashning yetakchi tarkibiy qismlari, pedagogik jarayonni takomillashtirish uchun professional ravishda muhim fazilatlarni rivojlantirish kabi masalalar yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Bilim, ko‘nikma, malaka, kompetent, kasbiy rivojlanish, ehtiyoj, integratsiyalash, mahorat.

В данной статье рассматриваются такие вопросы, как профессиональные потребности современного педагога и пути развития профессиональных навыков, ведущие компоненты профессионального самообразования и самообразования, развитие профессионально важных качеств для совершенствования педагогического процесса.

Ключевые слова. Знание, умение, компетенция, компетентность, профессиональное развитие, потребность, интеграция, умение.

This article discusses such issues as the professional needs of a modern teacher and ways of developing professional skills, the leading components of professional self-education and self-education, the development of professionally important qualities to improve the pedagogical process.

Key words. Knowledge, skill, competence, competence, professional development, need, integration, skill.

Ta’limning bosqichma-bosqich takomillashtirib borilishi o‘qituvchiga kasbiy faoliyatini sezilarli o‘zgartirish va yangi talablarni o'zlashtirish talabi ehtiyoji kelib chiqmoqda. Bu esa kompetentli-faoliyatli yondashuvga asoslangan bo‘lib, ular o‘quvchilarda shunchaki bilim, ko‘nikma, malakalarni shakllantirish emas, balki uzluksiz ta’lim olishga, ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilganligi bilan farq qiladi.

Bu esa o‘qituvchi kasbiy mas’uliyatining oshishi va jamiyatdagi o‘rnining o‘zgarishini ko‘rsatadi. Pedagoglarni ta’lim jarayonidagi jadal o‘zgarishlarga tez moslashish, faollik, doimiy o‘zini rivojlantirish, mustaqil bilim olishga tayyorgarlik, o‘qitishning zamonaviy yondashuvlari, texnologiyalaridan xabardor bo‘lish va faoliyatda samarali qo‘llay olish sifatlariga ega bo‘lishi lozimligini anglatadi. Shuning uchun ham o‘qituvchi faqatgina o‘quv dasturlari, darsni tashkil qilish, baholash bilan cheklanmasdan, o‘quvchilarning ichki salohiyatini rivojlantirishi, ularni qiziqtirishi, ergashtira olishi va doimo “oldinda” yurishi lozim.

Kuzatishlar natijasida pedagog xodimlarning barchasi ham mustaqil ravishda kasbiy rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash, faoliyatlarini qayta qurish, o‘zaro ta’sir va kommunikativ munosabatlarga tez kirishish layoqatlariga yetarlicha ega emasliklari hamda ko‘p ikkilanishlarini ko‘rsatdi. Ular zaruriy adabiyotlar, kasbiy ehtiyojlari va qiyinchiliklarini anglash, o‘zlarini namoyon qilish, pedagogik g‘oyalarini amaliyotga tatbiq etish, qanday hollarda ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi qaysi subyektlarga murojaat qilishlarini

aniqlashlarida amaliy yordamga muhtojlik sezadilar. Shu sababdan pedagoglarning kasbiy ehtiyojlarini qoplash, muayyan muammoli vaziyatlarda kerakli yechimlarni topishda ichki salohiyatidan foydalanish, o‘z-o‘zini motivlashtirish, o‘z-o‘zini rag‘batlantirish, o‘z-o‘zini rivojlantirish strategiyalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek, pedagoglarning ijodiy qobiliyatlarini faollashtirish, innovatsion jarayonlarga doir ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, muxtasar aytganda, kasbiy rivojlanishlarida ilmiy-metodik kuzatuvni tashkil qilishga qulay sharoitlar yaratishga asosiy e’tiborni qaratish zarur.

Demak, pedagoglar kasbiy rivojlanishida ilmiy-metodik kuzatuv modeliga shunday sharoit yaratilishining pedagogik kafolati sifatida qaralishi mumkin.

Ilmiy-metodik kuzatuv maqsadi, strategiyalarini belgilashda quyidagi yo‘nalishlarda axborotlarni to‘plash va tahlil qilish jarayonni tashkillashtirishning maqbulligi hamda natijadorligini ta’minlaydi:

– pedagogning kasbiy rivojlanishiga davlat va jamiyat buyurtmasi: pedagoglar kasbiy kompetentliligiga qo‘yiladigan davlat talablari, ta’lim subyektlariga qo‘yiladigan vazifalar tez o‘zgarishining obyektiv sabablari, ijtimoiy-pedagogik omillari, jamiyatdagi o‘zgarishlar, tegishli muassasalarning ehtiyojlari, jamoat tashkilotlari, mutaxassislar, o‘quvchilar va ota-onalarining talab va takliflari, tavsiyalari;

– pedagogning kasbiy ehtiyojlari: kasbiy muvaffaqiyatlarga erishish, ehtiyojlari, muammolari, qiyinchiliklarini anglash, aniqlash, korreksiyalash, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi raqobat muhitida o‘zining o‘rnini tushunishi, kompetentliligini oshirishga yo‘naltirilgan shaxsiy-istiqbolli dasturini mustaqil shakllantirishi, o‘zini namoyon qilish, ilg‘or tajribalarini respublika, viloyat, shahar va tuman miqyosida ommalashtirish;

– pedagoglar va o‘quvchilar bilan o‘tkaziladigan turli monitoring natijalari: maktab metodik birlashmasi faoliyati yakunlari, pedagoglar attestasiyasi, malaka toifalarini belgilash, pedagogik hamda metodik kengash xulosalari, malaka oshirishdan pedagog faoliyatni o‘rganish, turli tanlovlar, o‘quvchilar yakuniy attestasiyasi natijalari va boshqalar.

Kasbiy qiyinchiliklar deganda, o‘qituvchining muayyan vaziyatlarda kasbiy ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalar yechimini aniq taqdim etishdagi va samarali ta’minlay oladigan hamda maqsadga yo‘naltirilgan kasbiy harakatni bajarishdagi qiyinchiliklari tushuniladi.

Kasbiy o‘zini o‘zi tarbiyalash, boshqa harakatlar singari, faoliyat manbalari juda murakkab tizimiga ega.

O‘z-o‘zini tarbiyalashni rag‘batlantiruvchi tashqi omillar:

– pedagogik jamoa;

– maktab rahbariyati uslubi;

– bo‘sh vaqt omili;

O‘z-o‘zini hisoblash:

O‘z-o‘zini bilish. O‘z-o‘zini tarbiyalash maqsadlarini to‘g‘ri kiritish uchun, siz o‘zingizning kuchli va zaif tomonlaringizni bilishingiz kerak, ya’ni o‘zingizni bilishingiz kerak. O‘z-o‘zini bilishning eng muhim usullaridan biri bu sizning tajribangiz, ham ijobiy va salbiy tomoni. O‘zingizni bilishning yana bir usuli:

– boshqalar bilan taqqoslash;

– o‘z-o‘zini dasturlash;

– o‘zini o‘zi harakatlantirish. Usul maqsadga erishish uchun yo‘ldir.

O‘z-o‘zini tarbiya usullari – o‘zini takomillashtirish usullari. Ularning boshini ko‘rib chiqaylik.

O‘z-o‘zini shakllantirish usullari:

O‘z-o‘zini tarbiyalash. Bunga ilmiy-texnik adabiyotlarni o‘qish, maxsus ma’ruzalar, ko‘rgazmalar, muzeylar, doiralar va amaliy muammolarni hal qilish, amaliy muammolarni hal qilish, turli kasbli odamlar bilan aloqa qilish, kitoblar va pedagogik dasturlar bilan tanishish orqali amalga oshirish mumkin.

O‘z-o‘zini integratsiyalashgan holda, bir vaziyatda yoki boshqa narsada qanday harakat qilish kerakligi. Turli xil hayotiy vaziyatlarni aqliy yo‘qotish, odam ularni haqiqiy sharoitlarda eng yaxshi tarzda hal qilishga tayyorlanishi kerak.

O‘z-o‘zini tejash kuchli aqliy ishlarni talab qiladi. Uning maqsadi ma’lum xulq-atvor, ishning to‘g‘riligi yoki aksincha, xatti-harakatning yolg‘onligi, harakatning xiyonati ekanligini isbotlash.

O‘z-o‘ziga yondashuv – bu maxsus sharoitda eng muvaffaqiyatli ishdir. Biror kishi buni amalga oshirish, o‘zining tanqidi, ammo harakatni boshlash, unga birinchi qadamni qo‘yish.

Atrofdagining harakatlari va o‘quvchilarining xatti-harakatlari va harakatlarini ko‘rish va ijodiy dizayni sifatida kuzatish, tasavvurni rivojlantirishga qaratilgan mashqlar.

Boshqarish va o‘zini o‘zi baholash.

Bularga turli xil yopilishi, o‘zini kamaytirish, mushaklarning yengilligi (yengillik), maqsadli o‘zini baholashning usullari tufayli maxsus og‘zaki formulalar mavjud O‘z-o‘zini dasturlash usullari:

1. O‘z-o‘zini tarbiyalash bo‘yicha dasturlarni o‘rganish.
2. O‘zingizning dasturingizni tuzing.
3. Rag‘batlantirish usullari.
4. O‘z-o‘zini boshqarish.
5. O‘z-o‘zidan foydalanish muddati.
6. O‘z-o‘zini tanqid qilish.

Professional o‘zini takomillashtirish – ongli, kasbiy kompetensiya darajasini oshirish va ijtimoiy talablar, kasbiy faoliyat va uning rivojlanish dasturiga muvofiq esa fazilatlarni rivojlantirish jarayoni.

O‘qituvchining kasbiy mahoratini oshirish

Bugun o‘zgarish davridir va birinchi navbatda, bu o‘zgarishlar maktab hayotiga, o‘quv jarayoniga bo‘lgan talablarning oshishiga bog‘liq. Agar ilgari ta’lim uzoq vaqt davomida berilgan bo‘lsa va insonning biron-bir sohada yoki faoliyat sohasidagi uzluksiz kasbiy faoliyatini ta’minlash uchun mo‘ljallangan bo‘lsa, endi biz doimiy ravishda yangilanishni o‘z ichiga olgan tubdan yangi ta’lim tizimini shakllantirish haqida gaplashmoqdamiz. Bundan tashqari, bunday ta’limning asosiy xususiyati nafaqat bilim va texnologiyalarni uzatish, balki ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishdir.

O‘qituvchining kasbiy shakllanishi bu shaxsning kasbga kirishishning murakkab va ko‘p qirrali jarayoni bo‘lib, u o‘qituvchining shaxsiyatining yetakchi roli bilan shaxsiy va faoliyat tarkibiy qismlariga hissa qo‘shishi bilan tavsiflanadi. O‘qituvchining kasbiy mahorat modeli o‘quv jarayonining barcha tarkibiy qismlari (maqsadlari, mazmuni, vositalari, obyekti, natijasi va boshqalar), o‘zingizning kasbiy faoliyat subyekti sifatidagi bilimlarni o‘z ichiga olishi kerak. U shuningdek, professional tajriba va ijodiy tarkibiy qismni o‘z ichiga olishi kerak. O‘qituvchining eng xilma-xil xatti-harakatlarining birikmasi bo‘lgan pedagogik faoliyatning funksiyalari bilan bog‘liq bo‘lgan kasbiy va pedagogik mahorat ko‘p jihatdan o‘qituvchining individual psixologik xususiyatlarini ochib beradi va uning kasbiy mahoratidan dalolat beradi.

Shaxsning emotsional va ijtimoiy shakllanishini maktabda olib borishini hisobga

olib, ushbu shakllanishni ta’minlashga da’vat etilgan o‘qituvchiga alohida talablar qo‘yiladi.

Zamonaviy o‘qituvchi – bu tabassum qila oladigan va uni o‘rab turgan narsalarga qiziqadigan odam, chunki maktabda o‘qituvchi bola uchun qiziq bo‘lsa, u tirik. Zamonaviy jamiyatda o‘qituvchining o‘rni haqidagi savolga qanday pozitsiyadan qaramasligimizdan qat’iy nazar, biz uni asosiy deb bilamiz. Zero, o‘qituvchi ta’lim tizimining asosiy bo‘g‘ini, poydevori va ruhidir. Jamiyat o‘qituvchidan yuqori mehnat zo‘riqishlari, fikrlashning dinamikasi, tashabbuskorligi, qat’iyatliligi va kelajak avlodni o‘qitish va o‘qitish uchun to‘liq kuch sarflashini kutadi.

Hozirgi bosqichda ta’limni modernizatsiya qilish sharoitida markaziy vazifalardan biri o‘qituvchining ijtimoiy mavqeyini oshirish, o‘qituvchilarning maqomini tartibga soluvchi qonunchilik bazasini ishlab chiqishdir.

Asosiy yo‘nalishlardan biri bu o‘qituvchi salohiyatini rivojlantirishdir. O‘qituvchilarning uzluksiz tayyorgarligini tashkil etish, o‘qitish shakllari va usullarini takomillashtirish, o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga pedagogiklarga e’tibor qaratilmoqda. O‘qituvchining kasbiy mahorati deganda muvaffaqiyatli pedagogik faoliyat uchun zarur bo‘lgan kasbiy va shaxsiy fazilatlar yig‘indisi tushuniladi. O‘qituvchilarni professional barkamol deb atash mumkin, ular pedagogik faoliyatni, pedagogik aloqani juda yuqori darajada olib boradilar, o‘quvchilarni o‘qitish va o‘qitish jarayonida izchil yuqori natijalarga erishadilar. Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish – bu ijodiy shaxsni rivojlantirish, pedagogik yangiliklarga retseptivlikni shakllantirish, o‘zgaruvchan pedagogik muhitga moslashish qobiliyati.

O‘z-o‘zini o‘qitish xabardor bo‘lib, professional mutaxassisni his qilishi va tanlangan kasbga muvofiqligini baholashi kerak. Bu ta’lim muassasasiga muhim rol o‘ynaydi. O‘z-o‘zini o‘qitishning asosiy vazifalari bo‘lajak mutaxassislarning o‘zini o‘zi tarbiyalash bo‘yicha asosiy vazifalar quyidagilardan iborat: shaxsiy ta’lim jarayonining ahamiyati, o‘ziga xoslik jarayonining muhimligini tushuntirish; O‘zini yetarli darajada baholash qobiliyatini bilish; O‘z-o‘zini tarbiyalash bo‘yicha maslahat, tavsiyalar beradigan kattalar bilan hamkorlik qilishga tayyorlik. O‘z-o‘zini tarbiyalash – bu bir necha bosqichlarni o‘tkazadigan uzoq jarayon: o‘z-o‘zini bilish, rejalashtirish, rejani (dastur), boshqarish va tartibga solish.

O‘z-o‘zini bilish. Ushbu bosqichda o‘qituvchi o‘z qobiliyatlari va imkoniyatlarini, rivojlanish darajasini namoyish etadi. O‘z-o‘zini bilish quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha amalga oshiriladi:

1. O‘qitish faoliyati sharoitida ijtimoiy-psixologik munosabatlar tizimida o‘zini o‘zi bilish, ushbu faoliyatni ta’minlaydigan talablar.

2. O‘z-o‘zini kuzatish, harakatlar, xatti-harakatlar intellektini chiqarish, amaliy faoliyati.

3. O‘zining nutqidagi bayonotlarni tanqidiy tahlil qilish, faoliyatning turli sharoitlarida o‘zini o‘zi tekshirish;

4. Mavjud bilimlarni, ko‘nikmalarga, shaxsiy xususiyatlarini ularning yutuqlari va kamchiliklariga nisbatan tanqidiy munosabatini ta’minlaydigan talablar asosida o‘z-o‘zini hurmat qilish.

O‘z-o‘zini bilish va o‘zini o‘zi qadrlash asosida, o‘zini o‘zi tarbiyalash zarurligi, kelajakdagi ishlarning modelini yaratish.

O‘z-o‘zini bilish bosqichida o‘z-o‘zini kuzatishni, o‘z-o‘zini tahlil qilish, o‘zini o‘zi qadrlash tavsiya etiladi.

O‘z-o‘zini kuzatuv Bu ularning harakatlari, harakatlari, fikrlari, his-tuyg‘ularini kuzatish. Bu uning xatti-harakati va faoliyati ustidan shaxsiy nazorat qilishning shartidir.

O‘z-o‘zini tahlil qilish. Men sizning xatti-harakatlaringiz, individual harakatlar ustidan mulohaza yuritaman. Uning ishlatilishi muvaffaqiyat yoki muvaffaqiyatsizlik sabablarini aniqlash, o‘z-o‘zini anglash va o‘z-o‘zini bilishni rivojlantirishga yordam beradi.

O‘zini tuta bilish. U insoniy fazilatlar, xususiyatlar va ularni ma’lum standart, namuna bilan taqqoslash darajasi to‘g‘risida shaxsning hukmidir.

O‘z-o‘zini tarbiyalashni rejalashtirish. Bu quyidagilarni ta’minlaydi:

1. Kelajak uchun maqsadlar va asosiy vazifalarni va talabaning hayoti va faoliyatining ayrim bosqichlarida aniqlang.

2. Shaxsiy rivojlanish dasturini (rejasi) ishlab chiqish.

3. O‘zining shaxsiyligini oshirish bo‘yicha yaxshi rejalashtirilgan ishlar – bu mustaqil ta’lim samaradorligining kalitidir.

Reja tarkibidagi vazifalarning aniq ketma-ketligi bo‘lishi kerak.

O‘z-o‘zini tarbiyalash dasturini amalga oshirish.

O‘z-o‘ziga yondashuv. Bu mavjud prinsiplardan hech qachon chekinmaslik qarorining qarori.

O‘z-o‘zini tarbiyalashni boshqarish va tartibga solish. Ushbu bosqichda o‘z-o‘zini boshqarish, o‘zini o‘zi boshqarish, baholashning o‘zi qo‘llash.

O‘zini boshqarish Bu insonning o‘z xatti-harakati va faoliyati, ularning maqsadlari, talablari, qoidalariga, namunalarlariga tayinlanishini ta’minlash uchun ongli tartibga solishning o‘ziga xos turlaridan biridir.

O‘zini himoya qilish. Bu o‘z-o‘zidan turli shakllarda (aqliy, kundalik va boshqalar) oldida o‘zlari (aqliy, kundalik va boshqalar) oldida o‘z-o‘zini tarbiyalash dasturi va dasturini amalga oshirish to‘g‘risida hisobot berishdir.

Kasbiy o‘zini o‘zi tarbiyalash jarayonini rejalashtirish bo‘yicha ko‘rsatmalar bu mutaxassisning malaka tavsifi bo‘lib, uning asosida kelajakdagi kasbiy faoliyatga individual mustaqil faoliyat turlari qurilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арефьев Р.С. Формирование готовности к самопроектированию коммуникативной компетентности у студентов педагогического вуза: Дисс.… канд. пед. наук. – С.: 2004. – С. 174.

2. Абрамян Г.В. Теоретические основы профессионального становления педагога в информационной среде: автореф. дисс. пед. наук. – Санкт-Петерберг, 2001. – С 19.

3. Artiqboyeva Z.A. Malaka oshirish tizimida maktab matematika o‘qituvchilarining kasbiy-metodik ko‘nikmalarini takomillashtirish: ped.f.n. ... diss. – T., 2004.–148-b.

4.. Muslimov N.A. Kasb ta’lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.f.dok. ...diss. –T.,2007, – 275-b.

5. Rakhimov O.D., Manzarov Y.K., Karshiyev A.E. Description of pedagogical technology and problematic teaching technology // Проблемы современной науки и образования. 2020. С 62.

6. Yuldashev.M.A. Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirishda ta’lim sifati menejmentini takomillashtirish: ped.fan.dok. ...diss. –T., 2016. – 248-b.

Jamoliddi FOZILOV,
O‘zPFITI mustaqil izlanuvchisi, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

O‘QUVCHI-YOSHLARDA OBYEKTIV DUNYOQARASHNI SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISHDA AKSIOLOGIK YONDASHUVNING O‘ZIGA XOSJIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘quvchi-yoshlarda obyektiv dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishda aksiologik yondashuvning o‘ziga xos jihatlari, aksiologik yondashuvning pedagogik imkoniyatlari haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, “obyektiv dunyoqarash”ni moddiy borliq va shaxsning ushbu borliq ichida mavjudligi haqidagi yaxlit tasavvuri ekanligi ifodalangan.

Kalit so‘zlar. Obyektiv dunyoqarash, aksiologik yondashuv, moddiy borliq, tanqidiy tafakkur, sifatli ta’lim, pedagogik imkoniyatlar, aksiologiya, qadriyatli yondashuv, pedagogik qadriyatlar, ilmiy bilish, tasavvur.

В данной статье рассматриваются специфические аспекты аксиологического подхода в формировании и развитии объективного мировоззрения учащихся и педагогические возможности аксиологического подхода. Также ‘‘объективное мировоззрение’’ выражается как целостное восприятие существования материальной сущности и человека внутри этой сущности.

Ключевые слова. Объективное мировоззрение, аксиологический подход, материальное бытие, критическое мышление, качественное образование, педагогические возможности, аксиология, ценностный подход, педагогические ценности, научное знание, воображение.

This article discusses the specific aspects of the axiological approach in the formation and development of an objective worldview in students and the pedagogical possibilities of the axiological approach. Also, the “objective worldview” is expressed as a holistic perception of the existence of a material entity and a person within this entity.

Key words. Objective worldview, axiological approach, material existence, critical thinking, quality education, pedagogical possibilities, axiology, valuable approach, pedagogical values, scientific knowledge, imagination.

XXI asrda jahon miqyosida ta’lim barqaror taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy omil sifatida e’tirof etilib, 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta’lim konsepsiyasida “sifatli ta’lim olish va ijodiy qobiliyatni rag‘batlantirish” dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu esa ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy va tanqidiy tafakkurini rivojlantirish, o‘quvchilarda obyektiv dunyoqarashni tarkib toptirishning zamonaviy pedagogik yondashuvlarini aniqlashtirishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, o‘quvchi-yoshlarda obyektiv dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishning kreativ komponentlariga ustuvorlik berish, aksiologik yondashuv asosida ularda olamning haqiqiy mavjud manzarasini yaxlit idrok etish malakalarini tarkib toptirishga alohida ehtiyoj mavjud.

Bugungi kunda rivojlanayotgan Yangi O‘zbekiston jamiyati yuksak kasbiy mahorat va intellektual, ilmiy salohiyatga ega bo‘lgan yoshlarga ehtiyoj sezmoqda. Mikrosotsiumga qadam qo‘yayotgan har bir yosh ijtimoiy munosabatlar, ilmiy

taraqqiyotga ziyraklik bilan qaray olishi va obyektiv baholay olishi, yangiliklarni tez idrok eta olishi lozim. Aksariyat hollarda o‘quvchi-yoshlarda ma’naviy-madaniy his-tuyg‘ular, obyektiv dunyoqarash yetarlicha shakllanmaganligi ayon bo‘lmoqda. Chunki ularning obyektiv dunyoqarashi muhim qarorlar qabul qilishlariga asos bo‘ladi va bu dunyoqarash o‘quvchilarga erkin tanlov imkoniyatini beradi. Obyektiv dunyoqarash o‘quvchining nuqtai nazarini barqarorlashtiruvchi asosiy vositadir.

O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasida dunyoqarashga quyidagicha ta’rif berilgan: “Dunyoqarash – dunyoga va insonning undagi o‘rniga, kishilarning o‘z atrofidagi voqelikka va o‘z-o‘ziga munosabatiga bo‘lgan umumiy qarashlar tizimi, shuningdek, bu qarashlarga asoslangan odamlarning e’tiqodlari, ideallari, bilish va faoliyat tamoyillari”.

Falsafa qomusiy lug‘atida “dunyoqarash – dunyoga va undagi insonning o‘rniga, kishilarning o‘z atrofidagi voqelikka va o‘z-o‘ziga munosabatiga bo‘lgan umumiy qarashlar tizimi”, deya ta’kidlangan.

Obyektiv dunyoqarash esa dunyo va insonning undagi o‘rni, kishilarning o‘z atrofidagi voqelik va o‘z-o‘ziga munosabatiga bo‘lgan obyektiv qarashlar tizimi hamda bunday nuqtayi nazarga nisbatan insonning e’tiqodi, uni bilish va o‘zlashtirishga nisbatan intilishidir. Bunday dunyoqarashni shakllantirish natijasida o‘quvchi-yoshlarning aqliy-intellektual taraqqiyoti ta’minlanadi.

Aksiologiya aksiologik ong, qadrlash tuyg‘usi, aksiologik bilish, qadrlash tamoyiliga tayanib to‘plangan qadriyatlar to‘g‘risidagi bilimlar tizimidir. Zamonaviy qadriyatshunoslikda obyektiv, subyektiv va plyuralistik oqim hamda yo‘nalishlar mavjud. Aksiologiya qadriyatlar tizimining ijtimoiy taraqqiyotga bog‘liqligi prinsipi, mazkur tizimning o‘zgarishi va takomillashuvi bilan bog‘liq aksiologik qonunlarni o‘z ichiga oladi. Insoniyat yangi taraqqiyot bosqichiga o‘tish jarayonida shakllanadigan yangi qadriyatlar ham aksiologik yondashuvlar doirasida o‘rganiladi.

Hayotda shaxs sifatida mavjud bo‘lish va faoliyat ko‘rsatish, dunyoning istiqboldagi taraqqiyotini anglash va dunyo tamaddunini anglab yetish obyektiv dunyoqarashning mahsulidir. Obyektiv dunyoqarash tufayli o‘quvchi dunyo manzarasi, uning taraqqiyot jarayoni, rivojlanish tendensiyalari, olamni yaxlit idrok etishga oid qarashlar tizimini anglab yetadi. Shu bilan bir qatorda, obyektiv dunyoqarash moddiy borliq va shaxsning ushbu borliq ichida mavjudligi haqidagi yaxlit tasavvuridir. Moddiy borliqning nechog‘li chuqur va batafsil aks etishi shaxsning ilmiy-diniy dunyoqarashi ko‘lamiga bog‘liq. Obyektiv dunyoqarash shaxsning moddiy borliqni idrok etishi, dunyoqarashi, nuqtai nazari va olamga bo‘lgan obyektiv munosabatini ifodalaydi. U shaxs chiqaradigan hukmning xarakterini belgilaydi, uning xulq-atvor va faoliyat yo‘nalishini aniqlaydi. Shaxsning fikri, hissiyotlari obyektiv dunyoqarashi ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘quvchi-yoshlarda shakllantirilgan tayanch va fanga oid kompetensiyalar ijtimoiy-pedagogik jihatdan ta’lim ularda obyektiv dunyoqarashni shakllantirishda barqarorlikni ta’minlash imkonini beradi. Obyektiv dunyoqarash o‘quvchilarning bilimlarni mustaqil o‘zlashtirishlarini ta’minlaydi. Xuddi shu bilimlar o‘quvchilar tomonidan qayta ishlanadi va ijodiy o‘zlashtiriladi. O‘quvchida vujudga kelgan ilmiy nuqtai nazarning barqarorligi unda hosil bo‘lgan obyektiv dunyoqarashning tadrijiyligi va izchilligini ta’minlaydi.

Ana shu sababli o‘quvchi-yoshlarni umuminsoniy madaniyat talablari asosida tarbiyalash, aksiologik yondashuv asosida ularning obyektiv dunyoqarashini rivojlantirishning refleksiv-pedagogik modelini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik voqelikni o‘rganishda ilmiy bilishning boshqa usullari bilan birga

aksiologik yondashuv ham katta ahamiyat kasb etadi. Ilmiy bilishda olam, undagi narsa, voqea, hodisa va boshqalar qadriyatning inson ongida aks etishi, qadriyatni anglashning reallikka mos kelish qonunlari, daraja va imkoniyatlari, uning me’yor va mezonlarini aniqlash nihoyatda muhim.

Bunga umumiy bilish nazariyasi (gnoseologiya) bilan bir qatorda ijtimoiy va tabiiy fanlarning ma’lumotlariga, ayniqsa, valeologik va aqliy faoliyatning dalillariga, mantiq, tilshunoslik kabi fanlarning yutuqlariga tayaniladi. Qadriyatlarni anglash, o‘rganishda hissiy va aqliy bilishning uyg‘unligi, hukm, xulosalarning tushuncha, atama va belgilarni umumlashtirishi, tabiiy va ijtimoiy voqelikdagi aksiologik jarayonlarni tahlil qilish, ularga tayanib amaliy faoliyat yuritish bir-biri bilan bog‘liq uzviy jarayonni anglatadi.

Pedagogik hodisalarga ijtimoiy-jamoaviy yondashilganda voqea va jarayonlar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik, tarixiy aloqadorlik, sabab va oqibat bog‘lanishining ifodasi bo‘lgan uzluksizlikning ahamiyati ortadi. Bunday yondashuv qadriyatlarga, ular bilan bog‘liq jarayonlarga nisbatan qo‘llanilganda ijobiy ilmiy va amaliy natija beradi.

Bunda pedagogik qadriyatlar tartibsiz namoyon bo‘ladigan va bir-biri bilan bog‘lanmagan ijtimoiy hodisa sifatida emas, balki u yoki bu davr, ijtimoiy subyekt va boshqalar bilan bog‘langan aksiologik tizimlar hamda ularning elementlari sifatida namoyon bo‘ladi. Qadriyatlarga bunday yondashishda ijtimoiy fanlarning yutuqlari, tarix, etnografiya, demografiya va sotsiologik tadqiqotlarning natijalariga tayanish yaxshi natija beradi.

Ammo qadriyatlarni o‘rganishda faqat ana shular bilan chegaralanib qolish yaramaydi. Balki reallik, uning namoyon bo‘lish shakllari, voqea-hodisa va jarayonlarning qadri, ijtimoiy ahamiyatini anglash ham nihoyatda muhim. Bunda ularning ijtimoiy funksiyalari, o‘ziga xos tashqi ta’sirini anglash katta ahamiyat kasb etadi. Faqat aksiologik yondashuv asosida qadriyatlarning ilmiy kategoriya sifatidagi mohiyati, boshqa tushunchalardan farqi, obyektiv asoslari va subyektiv anglab olinishi, namoyon bo‘lish shakllari haqida to‘g‘ri ma’lumotlar olish mumkin.

Bunda narsa voqea-hodisalar, kishilar va ularning faoliyatiga qadr hamda qadrlanish darajasi nuqtai nazaridan qaraladi. Mazkur qarashda foydalilik, qiymat va ularni ifodalaydigan iqtisodiy baho emas, balki qadrning ahamiyati asosiy o‘rin tutadi. Bunda qadr va baho bir-biriga mos kelmaydigan, narsa yoki obyektning qadri uning iqtisodiy qiymatidan bir necha marta salmoqliroq bo‘lishi ham mumkin bo‘lgan hollar ko‘p uchraydi. Masalaning bu jihatini o‘rganish axloqshunoslik, estetika, huquqshunoslik, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslikning dalillari va ma’naviyatning ijtimoiy qirralariga tayanadi. Bunda, ayniqsa, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy faoliyat va jarayonlarning jamiyat hamda ijtimoiy subyektlar uchun ahamiyati, hayotning turli qirralarini aks ettiradigan muammolar hamda ularning yechimlarini ifodalaydigan qarashlar, g‘oyalar, ta’limotlar, talab va ehtiyojlarning real jarayonlar uchun qadr-qimmatini aniklash katta ahamiyat kasb etadi.

Demak, olamni o‘rganish va voqelikning qonuniyatlarini tavsiflashda gnoseologik, sotsiologik va aksiologik yondashuvlarning uyg‘unligi, zarur bo‘lganda ulardan foydalanishda kompleks munosabat lozim. Koinotdagi hodisalarning sayyoramiz hayotiga, Yer yuzida ro‘y berayotgan jarayonlarning odamlar umri va turmush tarziga ta’siri, ekologik halokat va urush xavfi natijasida insoniyatni saqlab qolish ehtiyojlari, odam zoti va tiriklikning eng qadrli ma’nolar sifatidagi ahamiyatini to‘g‘ri anglash uchun aksiologik yondashuvga tayangan ma’qul.

Obyektiv dunyoqarash – shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatlilikning o‘zaro aloqadorligini

aks ettiruvchi shaxsning ichki pozitsiyasidir.

Aksiologik munosabat faqat yakka, alohida shaxsgagina tegishli hodisa emas. Balki u ijtimoiy guruh, qatlam, millat, davlat, jamiyatga ham tegishli bo‘lishi mumkin. Shu ma’noda, aksiologik yondashuv va qadriyatli munosabatning individual hamda ijtimoiy namoyon bo‘lish darajalarining alohida, xususiy va umumiy shakllarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Muayyan pedagogik hodisaga aksiologik yondashuv asosida baho berilganida uning muayyan bir davrda ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishdagi ahamiyati, qadr-qimmati nuqtayi nazaridan ajralib turishi, o‘ziga xosligiga e’tibor beriladi. Bunda mazkur davrning yutuqlari, pedagogik fikrlar taraqqiyotidagi hissasi, ularning keyingi davrlar uchun qay darajada qadrli bo‘lgani hisobga olinadi. Bu ayniqsa, pedagogik fikrlar, nazariya va yondashuvlarga aksiologik baho berganda yaqqol ko‘rinadi.

Aksiologik yondashuv asosida o‘quvchi-yoshlarda obyektiv dunyoqarashni shakllantirish va rivojlantirishda quyidagilar e’tirof etiladi: shaxs pedagogik jarayonning obyekti emas, subyekti sifatida aks etadi; shaxs – qandaydir tashqi maqsadlarga erishish vositasi emas, ta’lim tizimi maqsadi; har bir ta’lim oluvchi qobiliyatli, ko‘plab ta’lim oluvchilar iqtidorli; shaxsning muhim sifatlari sifatida yuksak axloqiy qadriyatlar (yaxshilik, sevgi, mehnatsevarlik, vijdon, qadr-qimmat, fuqarolik va boshqalar) aks etadi; pedagogik muhabbat, ta’lim oluvchilar taqdiriga qiziqish bilan qarash; ta’lim oluvchiga yuksak ishonch bilan qarash; hamkorlik, muloqot mahorati; to‘g‘ridan-to‘g‘ri majburlashdan voz kechish; ijobiy rag‘batlantirishning muhimligi; ta’lim oluvchi shaxsiga ta’lim subyekti, faollik va erkin tanlash sohibi sifatidagi munosabat.

O‘quvchilar dunyoqarashining tarkibiga turli voqea-hodisalar, obyektlar haqidagi umumlashgan hukmlar, tasavvurlar kiradi. G‘oyalarning vujudga kelishini dunyoqarashni tahlil etuvchi birlik sifatida talqin etish lozim. Shu tariqa dunyoqarashni olamning o‘ziga xos negizi sifatida tushunish mumkin. Umumiy qonuniyatlar haqidagi tasavvurni o‘zida mujassamlashtirgan qarashlar negizini dunyo, jamiyat va inson birligi tashkil qiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarda obyektiv dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishiga olam haqidagi nazariy, amaliy bilimlar samarali ta’sir ko‘rsatadi. Shu bilan bir qatorda ijtimoiy-madaniy tushunchalar, milliy til xususiyatlari va boshqa belgilar tizimi ham o‘quvchilar dunyoqarashining boyishiga asos bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and euitable quality education ang lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22-may 2015, Incheon, Republic of Korea)

2. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 3-jild. – T.: Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. – 382-b.

3. Falsafa. Qomusiy lug‘at. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti. – T.: Sharq, 2004. – 115-b. 100-b.

Feruza RAHMATOVA,
Jizzax davlat universiteti kafedra mudiri, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

KASBIY MAHORAT VA KOMPETENTLILIKNI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA MOTIVLASHTIRISH

Annotatsiya

Maqolada o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish hamda ularda uzluksiz malaka oshirishga bo‘lgan ijobiy motivlarni shakllantirish haqida so‘z yuritilgan. Shuningdek, muallif kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish motivlarining o‘ziga xos xususiyatlari, rivojlantirish jarayonlari va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining samaradorligini oshirish bo‘yicha qator tavsiyalar berib o‘tgan.

Kalit so‘zlar. Kasbiy kompetentlilik, motivlashtirish jarayonlari, malaka oshirish tizimi, tarbiyaviy munosabatlar, xususiyat.

В статье рассматривается совершенствование процессов развития профессиональной компетентности учителей и формировании у них положительной мотивации к непрерывному повышению квалификации. Также автором дан ряд рекомендаций по особенностям мотивов развития профессиональной компетентности, процессам развития и повышению эффективности процессов воспитательных отношений.

Ключевые слова. Профессиональная компетентность, процессы мотивации, система повышения квалификации, воспитательные отношения, характеристика.

This article discusses the improvement of the processes of development of professional competence of teachers and the formation of their positive motivation for continuous professional development. The author also gives a number of recommendations on the specifics of the motives for the development of professional competence, the processes of development and improving the effectiveness of the processes of educational relations.

Key words. Professional competence, motivation processes, professional development system, educational relations, characteristics.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalarini, fan-texnika yutuqlarini, pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarishning innovatsion texnologiyalarini o‘rganishga undovchi motivlarni aniqlash va ulardan o‘z mohiyatiga ko‘ra, to‘g‘ri foydalanish zarur hisoblanadi, chunki kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish motivlarining o‘ziga xos xususiyatlari kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlari va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining samaradorligiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi, ya’ni turli xil motivlar ta’lim muassasalarida kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limiy muhitni o‘zgarishiga olib kelishi mumkin. Yuksak malakali mutaxassislar tayyorlashga yo‘naltirilgan ta'limiy muhitni ta'lim muassasalarida shakllantirish uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratishda o‘qituvchilarning ehtiyojlari va imkoniyatlarini o‘rganish asosida ularning kasbiy kompetentliligini rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish va rivojlantirish zarur bo‘lib, mazkur jarayonda motivlashtirish o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Ularda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida ham motivlar o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi, chunki ularda kasbiy kompetentlilikni rivojlanishi ta’lim-tarbiya jarayoni va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining samaradorligiga bog‘liq bo‘lib,

mazkur jarayonlarning samaradorligi kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlari natijaviyligini ifodalaydi

Ta'lim muassasalarida umumiy manfaatlar uyg'unlashuvida va ehtiyojlarni qondirish. yo'nalishida belgilanadigan maqsadni tanlash va unga erishish jarayonida, ya'ni o'qituvchilarni o'z kasbiy mahoratini rivojlantirishga undovchi va harakatga keltiruvchi motivlarning ahamiyati va ta'siri ularning tasavvuri orqali sinovdan o'tadi. Motivlarni o'qituvchilar tomonidan qabul qilinishida ularning asoslanganligi va ta'sirchanligi muhim ahamiyat kasb etadi. Motivlarning ishonchliligi, ta'sirchanligi va ahamiyatini asoslash orqali o'qituvchilarga ta'sir ko'rsatish motivlashtirishni ifodalaydi.

Psixologik adabiyotlarda motivlashtirish keng ma'noda inson hayotining (uning xulq-atvori va mohiyatining) murakkab, ko'p qirrali boshqaruvchisi deb keltiriladi. O'qituvchilar faoliyati turli motivlar yordamida boshqarilishi mumkin. Motivlar yordamida irodaviy xatti-harakatlarni vujudga keltiruvchi va faoliyatni muvofiqlashtiruvchi ta'siri samarali hisoblanib, faoliyat natijalarining samaradorligi motivlarning xususiyatiga bog'liq bo'ladi, bu o'z navbatida motivlashtirish jarayonining samaradorligini ifodalaydi.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish o'qituvchilarni umummilliy qadriyatlarni, milliy urf-odatlarni, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalarini, fan-texnika yutuqlarini o'rganishga undashning ko'p darajali va murakkab tizimi bo'lib, ehtiyojlar, qiziqishlar, intilishlar, vositalar, e'tiqod, maqsad, orzu-istak, manfaatlar, talablar, qadriyatlar, urf-odatlar va boshqalar mazkur tizimning komponentlari hisoblanadi. Ko'pgina tadqiqotlarda o'quv motivlari va o'quv samaradorligini o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi bo'yicha ma'lumotlar keltirilganda, shaxsning intellektual darajasi va qobiliyatlari haqida fikr yuritiladi.

Tadqiqotlarda keltirilishicha, ta'lim oluvchilarda zaruriy qobiliyatlar yetarli bo'lmagan hollarda yoki ularda bilim, ko'nikma va malakalar talab darajasida bo'lmagan vaziyatlarda ularning o'rnini ijobiy motivlashtirish bilan to'ldirishi mumkin. Aksincha, qobiliyatlarning har qanday yuksak darajasi ham motivlashtirishning o'rnini bosa olmaydi hamda o'quv faoliyatining samaradorligini yetarli darajada ta'minlay olmaydi.

Motivlashtirish ma'lum bir ehtiyojlardan kelib chiqib, o'qituvchilar faoliyatini psixologik ta'sir etish yo'llari bilan maqsadga muvofiq yo'naltirishdir. Motivlashtirish jarayonida o'qituvchi ehtiyojlari yoki o'qituvchilarning umumiy manfaatlarini ifodalovchi ehtiyojlarni inobatga olish zarur, chunki motivlashtirish ehtiyojlarning qondirilishi asosida amalga oshiriladi. O'qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish ularda kelajakka ishonch, mustaqillik, erkinlik va bag'rikenglikni qadrlash kabi tushuncha va ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishga, shuningdek, ijtimoiy amaliyot va ta'lim ehtiyojlaridan kelib chiqib, ularning qiziqishlarini, egallayotgan bilim, ko'nikma va malakalarini tahlil qilish orqali o'qituvchilar kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida motivlashtirish juda muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ta'lim muassasalarida nafaqat malaka oshirish kurslarida ta'lim olish, balki mustaqil ta'lim olish uchun ham shart-sharoitlar yaratilishi zarur bo'lib, bunda o'qituvchilarning mustaqil ta'lim olish jarayonini ham nazorat qilish va muvofiqlashtirish o'ziga xos ahamiyat kasb etadi va unda davlat va jamiyat, shaxs, fan va ishlab chiqarish ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda motivlashtirish amalga oshiriladi.

Motivlashtirish o'qituvchilarning o'z kasbiy kompetentliligini rivojlantirish yo'nalishidagi xatti-harakatlariga turtki berib, erishish zarur bo'lgan maqsadlarni belgilaydi. Motivlashtirish ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilarining hamkorlikdagi faoliyatini rivojlantirish

va takomillashtirish yo‘nalishida harakatga keltiruvchi dinamik jarayon hisoblanadi. Motivlashtirish jarayonida o‘qituvchilar ehtiyojlari yoki ularning umumiy manfaatlarini ifodalovchi ehtiyojlarni inobatga olish zarur, chunki motivlashtirish ehtiyojlarning qondirilishi asosida amalga oshiriladi. Demak, ehtiyojlar o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlillkni rivojlantirishga xizmat qiluvchi faoliyatga, ya’ni o‘qish, o‘rganish va bilim olishga yo‘naltiruvchi motivlar bo‘lib, o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishga xizmat qilishi bilan bir qatorda, ularni jismoniy yoki aqliy mehnatga, dam olish, bilim olish, hunar o‘rganish, umuman olganda yashash uchun kurashishga chorlaydi.

O‘qituvchilarning ehtiyojlari turli xil bo‘lib, ularning psixologik xususiyatlariga, ya’ni odati, didi va kayfiyati, yoshi va sog‘ligi, jinsi, oilaviy ahvoli, mehnat qilish va yashash sharoitlariga ham bog‘liq bo‘ladi. Masalan, ko‘p yillik tajribaga ega bo‘lgan o‘qituvchi bilan birinchi yil faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchining, oila qurgan o‘qituvchi bilan oila qurmagan o‘qituvchining ehtiyojlari bir-biridan tubdan farq qiladi.

Ixtiyoriy insonning ehtiyojlari o‘zgaruvchan bo‘lishi kabi o‘qituvchilarning ham ehtiyojlari o‘zgaruvchan bo‘lib, yashash va ish sharoitlari o‘zgarib, rivojlanib borgan sari ehtiyojlar ham ortib boradi. O‘qituvchilar o‘sib-ulg‘ayib, ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlar taraqqiy etib borar ekan, barcha ehtiyojlar ham ularga uzviy bog‘liq holda ortib boraveradi.

O‘qituvchilar hayotida mavjud bo‘lgan xilma-xil ehtiyojlarni aniqlash, tahlil qilish va ularda uzluksiz malaka oshirishga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish asosida kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish uchun turli tadbirlarni tashkil etish va mazkur tadbirlarda ularning ishtirokini ta’minlash hamda o‘quv faoliyatini muvofiqlashtirishda motivlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Motivlashtirish jarayoni mavjud ehtiyojlarga qoniqish hosil qilish uchun, ya’ni ehtiyojlarning qondirilishi uchun maqsadni belgilash va unga erishish uchun harakat qilishdan boshlanadi. Mazkur jarayonda ehtiyojning qondirilish darajasi o‘qituvchilarning muayyan faoliyatining holatini belgilaydi. Demak, ta’lim muassasalarida o‘qituvchilar uchun kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarini tashkil etish va tarbiyaviy munosabatlar jarayonini muvofiqlashtirish asosida ularda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarining samaradorligini ta’minlash o‘qituvchilarda o‘quv motivlarini shakllantirish, ya’ni motivlashtirishga bog‘liq bo‘lib, motivlashtirishning samaradorligi o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarining natijaviyligini ifodalaydi.

Pedagogik jarayonlarda motivlashtirishning samaradorligi belgilangan maqsadga erishish yo‘nalishida o‘qituvchilar faoliyatining natijalarini ifodalab, barcha o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish uchun yetarli darajada shart-sharoitlar yaratish hamda o‘qituvchilar uchun zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratuvchi ijodiy muhitni vujudga keltirish zaruriyatini belgilaydi.

Natijaviylik kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida o‘qituvchilar faoliyati natijalari bo‘lib, belgilangan maqsadga erishish yo‘nalishidagi xatti-harakatlar bilan qo‘lga kiritilgan muvaffaqiyatli natijalar o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalaydi deb aytishimiz mumkin. Bunda natijaviylik motivlashtirish samaradorligining ko‘rsatkichi sifatida qo‘llaniladi.

O‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishda motivlashtirishning samaradorligiga erishish mumkin bo‘lgan natijalar bilan erishilgan natija o‘rtasidagi munosabatlarni ifodalashi, o‘qituvchilarning kasbiy kompetentliligini rivojlantirish jarayonlarida natijaviylikni ta'minlash uchun quyidagi shartlarning bajarilish zaruriyatini belgilaydi:

– o‘qituvchilarning bilimi, ko‘nikma va malakasi, tajribasi hamda o‘z faoliyati sa-

maradorligi haqidagi fikrlariga ilmiy yondashish;

– kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlari hamda tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarida motivlarning o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish;

– o‘qituvchilarda uzluksiz malaka oshirishga bo‘lgan ijobiy motivlarni shakllantirish;

– o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish uchun zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratuvchi ijodiy muhitni vujudga keltirish;

– kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarining o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligini inobatga olish;

– o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlariga murakkab innovatsion pedagogik tizim sifatida yondashish;

– kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida o‘qituvchilarda o‘z faoliyati samaradorligini o‘rganish, tahlil qilish va obyektiv baholash ko‘nikmalarini shakllantiruvchi refleksiv yondashuvni joriy etish;

– kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’sirni ahamiyatini va o‘ziga xos xususiyatlarini inobatga olish.

Mazkur belgilangan shartlarga va yuqorida keltirilgan ma’lumotlarga asoslanib aytishimiz mumkinki, o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishda motivlashtirishning samaradorligini kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikning rivojlanish dinamikasi yoki ularda ijobiy motiv hisoblangan muvaffaqiyatga intilish motivlarining shakllanganlik darajasi ko‘rsatkichlari bo‘yicha baholash maqsadga muvofiq hisoblanadi.

O‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish yo‘nalishidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etishda alohida e’tibor qaratilishi zarur bo‘lgan omillardan biri pedagogik jarayonlarni samaradorligining motivlashtirishga bog‘liqligidir.

Motivlashtirish o‘qituvchilarda yetarli darajada faollikni ta’minlash uchun zarur. Bunda motivlarning xususiyatlarini hisobga olish, qanday motivlar o‘qituvchilarni uzluksiz malaka oshirishga yo‘naltirishi va qaysilari ularning faolligini ta’minlashga, mustaqil o‘rganishga, mustaqil ma’lumot olishga va o‘zini-o‘zi tarbiyalashga imkoniyat yaratishini bilish, o‘qituvchilarning bilim, ko‘nikma va malakasi hamda tajribasi darajasini oldindan aniqlash o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida samaradorlikka erishish uchun motivlarning turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini, o‘qituvchilarda mavjud bo‘lgan ehtiyojlarni, ularning bilimi, ko‘nikma va malakasi hamda tajribasi darajasini, dunyoqarashi va qiziqishlarini, o‘qituvchilar yashayotgan va ishlayotgan muhitning holatini. tarbiyaviy munosabatlarni, shaxsga yo‘naltirilgan ta'sirning o‘ziga xos xususiyatlarini, refleksiv va tizimli yondashuvlarning hamda innovatsion faoliyatning zaruriyatini motivlashtirish jarayoni samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar sifatida inobatga olinishi zarur. O‘qituvchilarda motivlashtirish jarayoni samaradorligiga ta’sir etuvchi omillarni inobatga olgan holda, samaradorlikning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan quyidagi ko‘rsatkichlarini ajratib ko‘rsatish mumkin:

– o‘qituvchilarning bilimi, ko‘nikma va malakasi hamda tajribasi darajasini, duyoqarashi, tasavvuri, qiziqishi va imkoniyatlarining belgilangan maqsadlarga mos kelishini ifodalovchi xususiyatlar;

– belgilangan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish natijalariga mos keluvchi omillar va vositalarning o‘ziga xos xususiyatlari;

– o‘qituvchilar uchun zaruriy va qulay shart-sharoitlar yaratuvchi ijodiy muhitning o‘ziga xos xususiyatlari;

– davlat, jamiyat va shaxs ehtiyojlarining rivojlanishi, kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlari ishtirokchilarining ehtiyojlari va qoniqish hosil qilish darajasi;

– kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlari ishtirokchilarining ilmiy-metodik ta’minoti darajasi;

– kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarini tashkil etishda refleksiv yondashuv, tizimli yondashuv, innovatsion yondashuv, shaxsga yo‘naltirilgan ta’sir va boshqa yondashuvlarning o‘ziga xos xususiyatlari;

– axborotlarning ishonchliligi va yangiligi.

O‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirishda motivlashtirish jarayoni samaradorligining o‘zaro bog‘liq va aloqador bo‘lgan ushbu ko‘rsatkichlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, axborotlarning ishonchliligi va yangiligi ham asosiy ko‘rsatkichlardan biri sifatida keltirilmoqda. Bu o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish yo‘nalishidagi pedagogik jarayonlarni tashkil etishda alohida e’tibor talab qiluvchi omillardan biri motivlashtirish jarayonida axborotlarning, ahamiyatli ekanligini tasdiqlaydi. Motivlashtirish jarayonida axborotlar bilan ishlash:

– o‘qituvchilarning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning natijalari, fan-texnika yutuqlari bo‘yicha tushunchalarini aniqlash;

– tasavvuri va dunyoqarashi, qiziqishi va imkoniyatlarini o‘rganish;

– belgilangan maqsadlarga muvaffaqiyatli erishish natijalariga mos keluvchi motivlar, omillar va vositalarning turlari va ularning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganish va tahlil qilish;

– o‘qituvchilarning ehtiyojlari va qoniqish hosil qilish darajasini aniqlash;

– o‘qituvchilarga qo‘yilayotgan zamonaviy talablar bo‘yicha zaruriy ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishlash va uzatishdan iborat bo‘lib, o‘qituvchilarda uzluksiz malaka oshirishga bo‘lgan ijodiy motivlarni shakllantirish va ularning o‘quv faoliyatini muvofiqlashtirish jarayonida qo‘llaniladi.

O‘z navbatida, o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarida axborotlarning o‘ziga xos ahamiyatini ifodalaydi, shuning uchun ham axborotlar yangi va ishonchli bo‘lishi zarur hisoblanadi. Ularning yangiligi va ishonchliligi to‘plangan axborotlarni o‘rganish va tahlil qilish jarayonida aniqlaniladi. Ishonchli va yangi hisoblangan axborotlar asosida o‘qituvchilar faoliyatini o‘zgartirish, takomillashtirish, ya'ni ularning faolligini oshirish ishlari amalga oshiriladi. Yangi va ishonchli deb topilgan axborotlarga asoslangan holda, kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlari samaradorligini ham tahlil qilish imkoniyati tug‘iladi va ularga asosan kasbiy kompetentlilikni rivojlantirish jarayonlarini takomillashtirish hamda o‘qituvchilarda uzluksiz malaka oshirishga bo‘lgan ijobiy motivlarni shakllantirish va motivlashtirish yo‘nalishlaridagi vazifalar belgilanadi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Adizova T.M. Boshqaruv muloqoti. – T.: Nizomiy nomli TDPU 2000.

2. Azizxo‘jaeva N.N. O‘qituvchi mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000.

3. Топоровский ВюПю Аналитическая деятельность руководителя образовательного учереждения. Санкт-Петербург, 2000

4. Turg‘unov S.T. Xalq pedagogikasining dolzarb muammolari. – T.: O‘qituvchi,1990.

Axmat QUTBEDINOV,
Navoiy davlat pedagogika instituti, “Fizika va astronomiya” kafedrasi dotsenti
ShaxloTOSHPULATOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti, “Fizika va astronomiya” kafedrasi dotsenti
Yulduz MAVLONOVA,
Navoiy davlat pedagogika instituti, “Fizika va astronomiya” kafedrasi o‘qituvchisi

BO‘LAJAK FIZIKA FANI O‘QITUVCHILARINING MANTIQIY SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISHDA PISA DASTURIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak fizika o‘qituvchisining fizika fanidan mantiqiy fikrlash savodxonligini rivojlantirishda PISA tadqiqotining o‘ziga xos xususiyatlari bayon qilingan. Bundan tashqari, fizika fanini o‘qitishda shaxsning mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi nostandart test topshiriqlarining produktiv va reproduktiv turlaridan foydalanish metodikasi berilgan.

Kalit so‘zlar. PISA, fizika, nostandart test, produktiv test, reproduktiv test, mantiqiy fikrlash.

В статье раскрывается специфика исследования PISA, оценивающего грамотность логического мышления студентов по физике. Кроме того, дана методика использования продуктивного и репродуктивного типа нестандартных тестовых заданий в обучении физике, развивающих индивидуальные навыки логического мышления.

Ключевые слова. PISA, физика, нестандартный тест, продуктивный тест, репродуктивный тест, логического мышления.

The article reveals the specifics of the PISA study, which assesses the logical thinking literacy of students in physics. In addition, a method is given for using the productive and reproductive types of non-standard test items in teaching physics, developing individual skills of logical thinking.

Key words. PISA, physics, non-standard test, productivity test, reproductive test, logical thinking.

Ma’lumki, Respublikamizda uzluksiz ta’limni joriy etish jarayonida ta’lim mazmuni yangilandi, o‘quv dasturlari va o‘quv fanlari bo‘yicha DTS modernizatsiyalandi. Bu esa o‘z navbatida ta’lim-tarbiya jarayonining boshqa tarkibiy qismlari: o‘qitish metodlari, vositalari va shakllarini innovatsiya kiritish orqali modernizatsiyalashni talab etmoqda.

Zamon bilan hamnafas pedagogik faoliyat yuritayotgan novator o‘qituvchilar yuqorida qayd etilgan talablarga monand holda o‘qitishda interfaol metodlar, pedagogik va axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha dastlabki tajribalarni egallamoqda.

Bunday raqobatbardosh kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish zamirida inson kapitali, sodda qilib aytganda inson va uning salohiyatini kashf etish hamda uni buyuk maqsadlarga erishishga safarbar qilish kabi ulug‘vor vazifalar turadi. Ayniqsa, yangi asr ostonasida ushbu tashkiot negizida dunyo ta’limining asosiy bo‘g‘ini bo‘lgan umumiy o‘rta ta’limni rivojlantirish maqsadida PISA (The Programme for Enternational Student


Assessment) – O‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro dastur ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq umumiy o‘rta va maktabdan tashqari ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni ma’naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatdan yangi darajaga ko‘tarish, o‘quv tarbiya jarayoniga ta’limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida, O‘zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta’limi tizimida ta’lim sifatini baholash sohasidagi xaqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o‘quvchilarning o‘qish, matematika va tabiiy yo‘nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo‘naltirilgan ta’lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilandi.

Konsepsiya doirasida, o‘quvchilarning fizika fanidan ham mantiqiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish ko‘nikmalari va kompetensiyalarining rivojlanishiga alohida urg‘u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta’lim dasturlari va yangi davlat ta’lim standartlarini joriy etish, o‘quvchilarning bilim darajasini, ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro PISA va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan. PISA tadqiqoti fizika fanida quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga va fizika fani bo‘yicha quyidagi savodxonlik natijalariga ega:

- fizika fanidagan o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash savodxonligini baholovchi, keng ko‘lamli xalqaro monitoring tadqiqotlaridan biri sanaladi;
- fizika fanidan umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida ta’lim olayotgan 6-8-sinf o‘quvchilari ishtirok etishadi;
- o‘quvchilarning kompetensiyaviy darajasi, ya’ni ularning maktabda egallagan nazariy bilim va eksperimental ko‘nikmalaridan hayot faoliyatida uchrashi mumkin bo‘lgan muammolarni hal etishda qay darajada foydalana olishlari baholanadi;
- o‘quvchilarning fizika fanlar yo‘nalishlari va global muammolarni hal etish borasidagi funksional savodxonligi baholanadi;
- tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar ta’lim tizimining o‘ziga xosligi bo‘yicha fizika fanidan ma’lumotlar olish imkonini beradigan kontekst axborot.

Fizika fani bo‘yicha savodxon bo‘lgan shaxsda quyidagi kompetensiyalar shakllangan bo‘ladi:



Hodisalarni ilmiy jihatdan tushuntirish kompetensiyasi texnologiylar, fizik hodisajarayonlarning izohlarini bilish, taklif qilish va baholash. Bunda quyidagi qobiliyatlar namoyish etiladi:

- fizika fanidan tegishli bilimlarni yodga olish va ulardan foydalanish;
- izohlovchi modellar va tasvirlarni anglash, yaratish va ulardan foydalanish;
- tegishli prognozlar qilish va asoslash;

- izohlovchi farazlarni taklif etish;
- ilmiy bilishning jamiyat uchun amaliy ahamiyatini tushuntirish.

Umumiy o‘rta talim maktablarida pedagogik faoliyat yuritayotgan novator-o‘qituvchilar ta’lim-tarbiya jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish yuzasidan muayyan tajribalarni egallash barobarida, olingan natijalarni tahlil qilish, umumlashtirish, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalaridagi bo‘shliqlarni aniqlash, ularni bartaraf etish yo‘llarini belgilash borasida ma’lum qiyinchiliklarga uchrayotganligi sir emas.

O‘quv kurslari bo‘yicha tuzilgan test topshiriqlarining aksari reproduktiv darajadagi test topshiriqlari bo‘lib, ishchi dasturda ko‘rsatilgan bilim, ko‘nikma va malakalarning faqat bilimni aniqlash imkonini beradi. Ko‘nikma va malakalarni aniqlash uchun tavsiya etilgan topshiriqlarning aksari qismi bir xil tarzda tuzilgan bo‘lib, talabalarning mustaqil va ijodiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish e’tiborda chetda qolayotganligini ko‘rsatadi.

Yuqorida tasvirlangan holat oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonining ajralmas qismi bo‘lgan teskari aloqa, ya’ni maktab va oily ta’lim jarayoni talab darajasida tashkil etilmayotganligidan dalolat beradi.


O‘quvchilar tomonidan ta’lim mazmunining asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan ijodiy faoliyat tajribalarini aniqlashda foydalaniladigan nazorat sinovlari o‘quvchilar tomonidan aqliy operatsiyalar: tahlil, sintez, taqqoslash, qiyoslash, umumlashtirish va xulosalashni, ya’ni ijodiy fikr yuritishni talab etadi.

O‘quvchilarda ijodiy faoliyat tajribalarini tarkib toptirish va rivojlantirishda fizika fanining mazmunidan o‘rin olgan Keys-stadi topshiriqlari va qiyinlik darajalari produktiv, qisman-izlanishli va ijodiy (kreativ) testlar muhim o‘rin tutadi. Shuni qayd etish lozimki, novator-o‘qituvchilar ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma, malakalari va kompetensiyalarini nazorat qilish va baholashda kvalimetriyaning asosiy metodlaridan biri, test topshiriqlaridan foydalanish, nazorat tarkibiga standart va nostandart test topshiriqlari kiritishi lozim.

Yuqoridagi fikrlar e’tiborga olingan holda quyidagi nostandart test topshiriqlaridan foydalanishni taklif etamiz:

I-qiyinchilik darajasidagi testlar- (reproduktiv) (I) – tahsil oluvchilar tomonidan o‘quv materiali qayta ishlanmasdan, ularning xotirlash qobiliyatini aniqlovchi, hodisa, voqea, qonun va atamalarning mohiyatini bilishni talab qiladigan daraja


1. Qaysi rasmda berilgan moddalardan zichligi eng kichigi qaysi?



1 2 3

A) 1 B) 2 C) 3 D) 1 va 3

2. Quyida berilgan ikkita rasmdan qaysi birida jismning kinetik energiyasi ortadi?




A) 1 B) 2 C) ikkalasida ham bir xil

II-qiyinchilik darajasidagi testlar-o‘rtacha qiyin (produktiv) (II) - tahsil oluvchilardan obyektlarni tahlil qilish, sintezlash, taqqoslash, bir nechta qonun va qonuniyatlarni bir vaqtda qo‘llab, umumlashtirish orqali xulosa yasashni talab qiluvchi daraja

1. Jismlarning zaryadlanish holatini ajrating va jadvalga har bir rasm ostiga mos raqamlarni yozing.

1) to‘g‘ri chiziqli tekis harakat; 2) to‘g‘ri chiziqli tekis tezlanuvchan harakat; 3) to‘g‘ri chiziqli tekis sekinlanuvchan harakat; 4) notekis harakat; 5) egri chiziqli tekis harakat;



Javobi:

2	3	1	2	1

2. Elektr maydon kuchlanganligi va elektr maydon potensialiga mos raqamlarni jadvalning o‘ng tomoniga yozing.

1) vektor kattalik; 2) skalyar kattalik; 3) birligi volt;

4) birligi N/kl; 5) kuchni xarakteristikasi; 6) ishni xarakteristikasi;

7) φ-ning gradiyenti.


Fizik tushuncha nomi	Javob raqamlar
Elektr maydon kuchlanganligi	
Elektr maydon potensiali	

Javob:


Fizik tushuncha nomi	Javob raqamlar
Elektr maydon kuchlanganligi	1 4 5 7
Elektr maydon potensiali	2 3 6

3. Ichki energiyaning almashinishi turlarini ajrating va jadvalga har bir rasm ostiga mos raqamlarni yozing.


Konveksiya; 2) Nurlanish; 3)Issiqlik o‘tkazuvchanlik.



1)



2)


3)

1	2	3

Javobi:

3)	2)	1)

III-qiyinchilik darajasidagi testlar

1. Fizikani rivojlanish yo‘lida qilingan ishlarni bu ishlarga o‘z xissasini qo‘shgan olimlar nomi bilan juftlang.






1	XVI asrda ingiliz olimi qaxrabodan boshqa 20 dan ortiq modda ishqalanganda o‘zaro tortishishini aniqladi	A	V.Franklin, M.V.Lamonosov, G.V.Rixman
2	Atmosferada ro‘y beradigan “Yashin” elektr hodisasi ekanligi isbot qilindi	B	SH.Kulon
3	Buralma tarozi yordamida elektr zaryadlari orasidagi o‘zaro ta’sir kuchini ifodalovchi qonunni topgan	S	V.Gilbert
4	Elektr va magnit maydon nazariyasining asoschisi	D	Lorens
5	Elektromagnit to‘lqinlarning mavjudligini, yorug‘likning elektromagnit tabiatini nazariy jihatdan kashf qildi	E	G.Gers
6	Elektromagnit to‘lqilarni birinchi bo‘lib tajribada isbotlagan olim	F	Maksvell
7	Klassik elektron nazariyaga asos soldi.	J	M.Faradey

Javob:	1-	2 -	3 -	4 -	5-	6-	7-

Javob:

Javob:	1-S	2-A	3-B	4-J	5-F	6-E	7-D

2. Qoidalar ustida bajariladigan amallarni ta’riflari bilan juftlang.


№	Qoidalar ta’rifi	№	Amallar
1	buyum F masofada joylashgan bo‘lsa, linzadan o‘ygan nurlar parallel ketib uning tasvirini hosil qilib bo‘lmaydi.	A	
2	Buyum linzadan cheksiz uzoq masofada joylashgan bo‘lsa, uning tasviri ikkilangan fokus oralig’ida haqiqiy, buyumga nisbatan kichiklashgan holda hosil bo‘ladi.	B	
3	buyum 2F>d>F masofada joylashgan bo‘lsa, uning tasviri haqiqiy, kattalashgan teskari tasviri hosil bo‘ladi.	C	
4	buyum F>d>0 masofada joylashgan bo‘lsa, uning tasviri mavhum, kattalashgan to‘g’ri tasviri linzaning buyum turgan tomonida hosil bo‘ladi.	D	
5	buyum 2F masofada joylashgan bo‘lsa, uning tasviri ham kattalik jihatdan buyumga teng, haqiqiy, ammo teskari 2F da hosil bo‘ladi.	E	
Javob:	1 -	2 -	3 -	4 -

Javobi:

Javob:	1 - D;	2 - E;	3 - C;	4 - A;	5 - B;

IV-Tahsil oluvchilarning mantiqiy fikrlash kompetentligini aniqlashga yo‘naltirilgan o‘quv topshiriqlari (fizika)

Poyga avtomobilining tezligi



Grafikda poyga avtomobilining 3 kilometrlik aylanma yo‘lni ikkinchi marta aylanishdagi tezligining o‘zgarishi ko‘rsatilgan.

1-topshiriq: Start chizig‘idan yo‘lning eng uzun to‘g‘ri chiziqli qismigacha taxminan qancha masofaga bor?

A) 0,5 km B) 1,5 km C) 2,3 km D) 2,6 km

2-topshiriq: Ikkinchi aylanishda yo‘lning qaysi qismida avtomobilning tezligi eng kichik qiymatga ega bo‘lgan?

A) Start chizig‘ida B) Taxminan 0,8 km nuqtada


C) Taxminan 1,3 km nuqtada D) Taxminan yo‘lning o‘rtasida

3-topshiriq: Yo‘lning 2,6 km va 2,8 km lik nuqtalari orasida avtomobilning tezligi haqida nima deyish mumkin?

Javob: Avtomobil tezligi ortadi

4-topshiriq:

Quyida 5 ta turli xil shakldagi poyga yo‘llari tasvirlangan. Bu poyga yo‘llarining qaysi biri grafikda tezligi ko‘rsatilgan poyga avtomobiliga tegishli? (ushbu yo‘l ko‘rsatilgan harfni aylanaga oling) (Javob: B)



Biz yuqorida taklif etgan fizika fani bo‘yicha tuzilgan nostandart test topshiriqlari bo‘lajak fizika o‘qituvchilarida reproduktiv, produktiv darajadagi test topshiriqlari asosida ishchi fan dasturda ko‘rsatilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni aniqlash imkonini yaratib, talabalarni mustaqil, ijodiy va mantiqiy fikr yuritish ko‘nikmalarini rivojlantirish kompetentligini shakllantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” PF-5712-sonli Farmoni.

2. PISA 2015 Science Framework, OECD, 2017. www.oecd.org/about/publishing/corrigenda.htm.

3. PISA Released items – Science. December 2006. ACER, WESTAT.

4. Bisenova B., Toshpulatova Sh. Fizikadan ta’lim mazmumini nazorat qilish va baholashda kvalimetrik tahlil. Navoiy-2018.60-64 b.

5.Tospulatova Sh., Mansurova Sh. PISA-o‘quvchilarning mantiqiy fikrlasj savodxonligini baholash sifatida. Navoiy - 2021.84-b.

Zamira DADABOYEVA,
Andijon davlat unversiteti pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

KASBIY TA’LIM O‘QITUVCHILARINI TAYYORLASH JARAYONINING MUHIM JIHATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada kasbiy ta’lim o‘qtuvchilarini tayyorlashnngi muhim jihatlari, kompyuterda modellashtirishga tayyorlash, kasbiy ta’limga nisbatan “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari bayon etilgan. Shunungdek kasbiy talim o‘qtuvchilarini tayorgarligini rivojlantirish bosqichlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Pedagogika, metodika, kompetensiya,kompetentlik modellashtirish.

В этой статье описаны важные аспекты подготовки педагогов профессионального образования, подготовка к компьютерному моделированию, понятия “компетентность” и “компетентность” в отношении профессионального образования. Также освещаются этапы развития профессиональной подготовки педагогов.

Ключевые слова. Педагогика, методика,компетентность, компетентностное моделирование.

This article describe important aspects of the training of teachers of vocational education, preparation for computer modeling, the concepts of “competence” and “competence” in relation to vocational education. The stages of the development of professional training of teachers are also highlighted.

Key words. Pedagogy, methodology, competence, competence modeling.

Hozirgi vaqtda kasbiy ta’lim o‘qituvchilarini kasbiy faoliyati axborot resurs hamda kompyuter dasturlari yordamisiz amalga oshirib bo‘lmaydi. Kasbiy ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy qiyofasi, uning kasbiy-pedagogik tayyorgarligi, oliy ta’lim tizimida amalga oshiriladi. Bo‘lg‘usi pedagoglarning kasbiy-pedagogik faoliyatini ta’lim muassasalarining tizimli hamkorligini amalga oshirish, masofaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish sharoitida samarali yo‘lga qo‘yish o‘qitish jarayonida o‘qituvchining o‘z bilim ko‘nikmalarini muntazam oshirib borishga qanchalik tayyor ekaniga, kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanish qobiliyatiga, ilm-fan, ishlab chiqarish sohalari hamda kasbiy faoliyat usullari va tarkibini o‘zgarib borishi bilan ijtimoiy ong va munosabatlarni qayta qurishni taqozo etuvchi ehtiyojga bog‘liq.

Kompyuterda modellashtirishga tayyorlash bo‘yicha belgilangan maqsad va vazifalar quyidagilardan iborat:

– turli murakkablikdagi tizim va obektlarni kompyuterda modellashtirishning asosiy tushunchalari va usullari haqidagi nazariy bilimlarni umumlashtirish va chuqurlashtirish;

– kompyuter yordamida axborotni taqdim etish, saqlash, qayta ishlash va uzatish asoslari va usullarini o‘rganish va o‘zlashtirish;

– shaxsiy kompyuterda ishlash ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

– axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan ishlash metodlarini o‘zlashtirish;

– kasbiy-o‘qituvchilik faoliyatida yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish usullari va metodlarini o‘rganish va ishlab chiqish.

Kasbiy ta’lim o‘qituvchisi faoliyatida kompyuterda modellashtirish kasbiy sohada amalga oshiriladigan quyidagi axborot bilan ishlash vazifalarini yuklaydi:

1. O‘quv jarayonini kompyuterda modellashtirish:

– axborot texnologiyalaridan foydalangan holda talabalarning individual, mustaqil va o‘quv-tadqiqot ishlarini tashkil etish;

– o‘quv jarayonini yo‘lga qo‘yishda interfaol texnologiyalar, keys metodi, multimediali o‘qitish kabi kompyuter texnologiyalaridan foydalanish;

– o‘quv jarayoni va ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishda ma'lumotlarni operativ tartibda to‘plash, saqlash va tizimlashtirish;

– masofaviy ta'limni yo‘lga qo‘yishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internet, ijtimoiy va axborot tarmoqlaridan foydalanish.

Jarayon va texnologik tizimlarni kompyuterda modellashtirish:

– texnologik ob'ekt va jarayonlarni loyihalash shuningdek optimallashtirishda ilmiy-texnik ma'lumotlarni hamda boshqa zaruriy materiallarni qidirish va to‘plash;

– kasbga oid muammolarni hal qilish, tahliliy va miqdoriy yechimlarini topishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish;

– texnologik jarayonlarni optimallashtirish mobaynida 2 yoki 3 o‘lchamli modellashtirish tizimlaridan foydalanish;

Axborot bilan ishlash madaniyatini oshirish bilan taqqoslaganda, kasbiy ta’lim o‘qituvchisini kompyuterda modellashtirishga tayyorlash tizimi quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1) axborot (kompyuter) savodxonligini oshirish;

2) ma’lumotning ahamiyati va mazmuniy tarkibini o‘zlashtirish;

3) ma’lumotlarni taqdim etish ko‘nikmasini rivojlantirish;

4) axborot bilan ishlash kompetensiyalarini shakllantirish.

Kompyuter savodxonligi tushunchasi mazmuni sezilarli darajada farqlanadi. Biroq, barcha nazariy munozaralarga qaramay, kompyuter savodxonligi tushunchasi mazmunini algoritmlar va haqiqiy dasturlash tilini (kursini) o‘rganishni o‘z ichiga oladi. Bunday kursning o‘ziga xos xususiyati “foydalanuvchi” xarakterida edi. “Kompyuter savodxonligidan” ko‘zlangan asosiy maqsad talabalarda matn tahrirlash, elektron jadval, dasturiy vositalar, elektron taqdimotlar, qidiruv tizimlaridan foydalanishni nazarda tutuvchi kompyuter texnologiyalaridan malakali va oqilona foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Ma’lumot ahamiyati va uning mazmuniy tarkibi axborot olamida qabul qilingan tasdiqlar, qarashlar va munosabatlar nuqtayi nazaridan shaxsiy ahamiyatga ega urinishlar, axborot bilan ishlash faoliyati va axborot bilan o‘zaro munosabatda bo‘lish tushuniladi. O‘qituvchilarning oldiga qo‘ygan maqsadi inson tabiatini, holatini (xususiyati, fazilati, xulq-atvorini) o‘zgartirishdan iborat. Masalaning muhim jihati talabaning informatika va axborot texnologiya sohasida egallagan ko‘nikma darajasi emas, balki shu sohalarda shu orttirilgan ko‘nikma ahamiyati, shaxsiy va mazmunan yo‘naltirilganligi sanaladi. Bu talabalarning bo‘lajak kasbiy faoliyatida jarayon va obyektlarga oid ma’lumotlarni topishga tayyorligi hamda axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida aniq vaziyatlarni modellashtirish usullarini taklif qilishning didaktik vazifasi sifatida qaraladi.

Refleksiya (o‘z ruhiy holati haqida fikr yuritish, xayol qilish, uni tahlil qilishga moyillik) (lotincha refleksio orqaga qaytish so‘zidan) ko‘p asrlik tarixga ega bo‘lgan fanlararo tushuncha bo‘lib, subyektning e’tiborini o‘ziga va ongiga, xususan, o‘z faoliyati natijalariga, shuningdek, ularni qayta tahlil chiqishga qaratilgan.

Kasbiy ta’limga nisbatan “kompetensiya” va “kompetentlik” tushunchalari F.Zeer tomonidan quyidagicha ta’riflangan: shaxs kompetensiyasi uning bilimi, malakasi,

tajribasini muayyan ijtimoiy-kasbiy vaziyatlarda qo‘llay olish qobiliyatini belgilaydi; kompetensiyalar kasbiy faoliyatning samarali bajarilishini ta’minlaydigan umumlashtirilgan harakat usulidir. E.F.Zeerning ta’kidlashicha, kompetensiyalar orasida tushuncha, tamoyillar, mazmun shakllantiruvchi holatlar shaklidagi bilimlar bo‘lib, ular ko‘p vazifalarni bajaruvchi va fanlararo kompetensiyalar mavjud Bunday kompetensiyalar tayanch kompetensiyalar deb ataladi. Asosiy kompetensiyalarga ilmiy; ijtimoiy-iqtisodiy; huquqiy, axborot-kommunikativ, politexnik va umumiy kasbiy kompetensiyalarga ajraladi. I.A. Zimnyaya kompetensiyaga nisbatan aktual, shaxsiy sifatlarni shakllantiruvchi, insonning bilimga asoslangan, intellektual va shaxsning shartli ijtimoiy-kasbiy xususiyati, uning shaxsiy sifatlari sifatida yondashadi. Kompetensiya ichki, potensial, yashirin psixologik yangidan yuzaga kelgan bilim, tasavvur, faoliyat dasturlari (algortimlari), qiymat va munosabat tizimi sifatida inson layoqatida namoyon bo‘ladi.

I.A. Zimnyaya kompetentlik quyidagi tarkibiy qismlarga ajratadi:

a) kompetentlik bilim va ko‘nikmalardan kengroq bo‘lgan tushuncha bo‘lib, u har ikkalasini ham qamrab oladi;

b) kompetentlik axloqiy normalarning hissiy-irodaviy tuzilmasidan iborat;

c) kompetentlikning alohida jihatlari uni namoyon etishga xizmat qiladi;

d) shaxsning faoliyati va xulq-atvorida o‘zini to‘la namoyon etishga yordam beruvchi kompetentlik har qanday vaziyatda uni namoyon etish imkoniyati sifatida insondagi ishga solingan tayyorlik bilan tavsiflanadi.

Kompetensiya (lotinchadan, competentia) tushunchasini inson o‘zi yaxshi biladigan, unga doir bilim va tajribaga ega bo‘lgan qator masalalarni anglatadi. Muayyan sohada kompetentli bo‘lgan shaxs tegishli bilim va qobiliyatlarga ega bo‘lib, asosli xulosalar chiqarish imkonini beradi. Kompetensiya tushunchasi ta’lim jarayonini modernizatsiya qilishda muhim ahamiyatga molik, chunki u ta’limdan ko‘zlangan natijaga erishishga imkon beruvchi bilim va ko‘nikmalarni o‘zida mujassamlashtiradi hamda madaniyat va xizmat ko‘rsatishning keng sohalari bilan chambarchas bog‘liq ko‘nikma va bilimlarni birlashtiradi. Inson ongini tashkil etuvchi bilimlar yig‘indisiga kompetensiya deyiladi. A.S.Belkin kompetensiya deganda jamiyat a’zolari, ijtimoiy guruh, jamoaning ijtimoiy ahamiyatga ega huquq va majburiyatlarini amalga oshirishda shaxs bajaradigan ijtimoiy vazifalar yig‘indisini tushunadi.

Turli kompetensiyalarni shakllantirishning asosiy bosqichlarini o‘rganish natijalari va kasbga yo‘naltirish hamda kasb-hunar ta’limi muammolarini hal qilishning asosiy yondashuvlari kasbiy kompetensiyalar ularning ketma-ket yangidan hosil bo‘lishi jarayonida yuzaga keladigan serqirra bilimlar degan xulosaga shakllandi. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi kompyuterda modellashtirishga tayyorgarlik jarayonining natijasi va unga berilgan bahodir. Bularning barchasi kasbiy-pedagogik faoliyatning turli sohalarida axborot texnologiyalaridan muntazam foydalanish imkonini beruvchi kompyuterda modellashtirishga tayyorgarlik natijasida shakllangan shaxsiy fazilatlardir. Kompyuterda modellashtirishga tayyorlashdan ko‘zlangan asosiy maqsad talabalarni maxsus amaliy dasturlar paketlaridan foydalanishga tayyorlash va bo‘lajak kasbiy ta'lim o‘qituvchilarida kasbiy-pedagogik faoliyatning muayyan turi bo‘yicha axborot bilan ishlash kompetensiyalarini yanada oshirishdan iborat.

Kasbiy ta'lim o‘qituvchiining axborot bilan ishlash kompetensiyasi quyidagi kasbiy-o‘qituvchiik faoliyat turlari bilan ifodalanishi mumkin:

– o‘quv-kasbiy faoliyat - o‘quvchilarning bo‘lajak kasbiy faoliyatida axborot texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha bilim, ko‘nikma va tajribalarni shakllanishiga

qaratilgan faoliyat turi;

– ilmiy-tadqiqot faoliyati axborot texnologiyalaridan foydalangan holda yangi bilimlarni o‘zlashtirish va qo‘llash, nazariy va amaliy muammolarni hal etish, o‘z-o‘zini tarbiyalash va axborot texnologiyalaridan foydalanib tadqiqiy qobiliyatlari va ko‘nikmalarini amalga oshirishga qaratilgan;

– o‘quv va loyihalash faoliyati o‘quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etgan holda o‘quv jarayonining traektoriyasini loyihalashtirishga qaratilgan;

– o‘quv jarayonini muvaffaqiyatli tashkil yetish uchun zarur bo‘lgan zamonaviy axborot texnologiyalari bilan jihozlash bilan bog‘liq tashkiliy va texnologik faoliyat;

– mehnat va kasbiy faoliyatni zamonaviy simulyator tizimlari va kompyuter yordamida loyihalash tizimlaridan foydalangan holda ishchi kasbiga o‘qitish bilan bog‘liqligi.

Axborot texnologiyalarini takomillashtirish, ularni yangi funksiyalar bilan boyitishi hisobga olgan holda, ishchi-xodimlarni tayyorlashda axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari ortib bormoqda, bu esa har bir faoliyat turi, axborot bilan ishlash komponensiyasini talab qilgani holda, kasbiy ta’lim sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchi-o‘qituvchilai faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 25. 01. 2020-yil.

4. Razzoqov Sh.I., Yo‘ldoshev Sh.S., Ibragimov U.M. Kompyuter grafikasi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. – T.: Noshir, 2013. – 141-143 b.

2. Mamarajabov M.E., Tursunov S.Q., Nabiulina L.M., “Kompyuter grafikasi va web-dizayn”//Oliyo‘quvyurtitalabalariuchun darslik. – T.: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2013-yil.– 87-89-b

3. Aripov M.M., J.O‘.Muhammadiev J.O‘. Informatika, informatsion texno-logiyalar. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. –T.: Toshkent davlat yuridik instituti, 2004 y. -112 b.

4. Аксянов И. М. Методические подходы к совершенствованию информационной подготовки преподавателей учреждений системы среднего профессионального образования: На примере курса информатики для системы повышения квалификации: автореф. дис. … канд. пед. наук: 13.00.02 / Аксянов Ильзар Мустафович. – М., 2004. – С. 25.

Baxtiyor O‘RAZOV,
Jizzax davlat pedagogika universiteti dotsenti

BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA‘LIMI O‘QITUVCHILARINING KASBIY MA’NAVIYATINI RIVOJLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak texnologik ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy ma’naviyatini rivojlantirishda innovatsion pedagogik metodlarning o‘rni va samarasi yoritilgan. Shuningdek, bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-axloqiy fazilatlarini takomillashtirishda ma’naviy qadryatlar ahamiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar. Bo‘lajak o‘qituvchi, kasbiy ma’naviyat, metodika, talabalar, ma’naviyat,referat.

В статье освещается роль и эффективность инновационных педагогических методов в развитии профессиональной духовности будущих педагогов технологического образования. Также проанализировано значение духовных ценностей в совершенствовании профессионально-нравственных качеств будущих педагогов.

Ключевые слова. Будущий учитель, профессиональная духовность, методика, ученики,духовность, конспект.

The article highlights the role and effectiveness of innovative pedagogical methods in the development of professional spirituality of future teachers of technological education. The importance of spiritual values in improving the professional and moral qualities of future teachers is also analyzed.

Key words. Future teacher, professional spirituality, methodology, students, spirituality, synopsis

Talabalarni ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashni o‘quv jarayonida va darsdan tashqari vaqtlarda bajarilishi mumkin bo‘lgan o‘quv-uslubiy ishlar majmui deb qarab, biz tomonimizdan texnologik ta‘limi fakultetlarida ma‘naviy-axloqiy tarbiyalashning quyidagi tarkibiy majmuasi ishlab chiqildi.


Shunga ko‘ra, ma’naviy-axloqiy tarbiya aqliy, ilmiy, amaliy, ijodiy jarayonini bir-biri bilan uzviy bog‘lovchi, ularda to‘g‘ri yo‘nalish beruvchi, bir-biri bilan uzviy bog‘lovchi yaxlit tizim sifatida namoyon etuvchi vosita hisoblanadi. Yuqorida biz tilga olib o‘tgan madaniyat-ma’naviyatning shakli va ko‘rishi hisoblanadi. Madaniyatni yuzaga chiqaruvchi, uni namoyon etuvchi kuch-ma’naviyatdir. Aqliy tarbiya ma’naviyatga olib boruvchi yo‘l va vosita ekanligini nazarda tutgan holda, bo‘lajak o‘qituvchining ma’naviy-axloqiy tarbiyasida:

1. Har bir talabani mehnatsevarlik o‘z yurtiga muhabbat va mehr-sadoqatli bo‘lish ruhida tarbiyalash.

2. Talaba-yoshlarni millati, vatani tarixi, urf-odatlari, rasm-rusumlarini uni jahon sivilizatsiyasida tutgan o‘rnini bilish.

3. Talaba yoshlarni axloqan va fikran sog‘lom bo‘lishini tamin etish.

4. Ijtimoiy tarbiya tizimini rivojlantirishda vatan va millatni ulug‘lovchi vosita ekanligini keng targ‘ibot etish.



Bo‘lajak o‘qituvchida kasbiy bilimlar bilan uzviy holda rivojlanib boradigan ma’naviy-axloqiy fazilatlar: insonparvarlik, vatanparvarlik, mehr-shavqatli bo‘lish, do‘stlik, o‘zaro hurmat ahillik, birodarlik, bag‘rikenglik, fidoyilik, o‘z kasbining ustasi bo‘lishi-shaxsiy kasbiy fazilatlar uyg‘unligini ta’minlash barobarida milliy va kasbiy komillik belgisidir.

Haqli ravishda shuni aytish lozimki, bizning mamlakatimiz talaba-yoshlar mamlakati. Millatimiz kelajagini ta’min etuvchi yoshlar barkamolligini ularning ma’naviy-axloqiy qandayligi bilan belgilanadi.

Talaba-yoshlarda kasbiy komillik fazilatlar aynan ma’naviy-axloqiy tarbiyadan oziqlanadi. Yuksak ma’naviy-axloqiy fazilatlar yuksak rivojlanish omili hisoblanadi. Ma’naviyatni hayotiy zarurat ekanligi ham mana shunda.

Bugungi zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabalarning mustaqil bilim olishlari texnologik ta’lim yo‘nalishiga oid to‘g‘arak mashg‘ulotlarida erkin qatnashishlari uchun yaratilgan yangi imkoniyatlar, shart-sharoitlar, ijodiy barkamollik yo‘lidagi sa’y-harakatlar bo‘lajak o‘qituvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Darslarda kasbga oid ma’naviy-axloqiy pauzalar qilishning talabalarning ma’naviy tarbiyasidagi ahamiyati qanday, u nima beradi? Bu avvalo qisqa vaqtli, chuqur ayni paytda ijobiy his-tuyg‘ularga to‘liq kasbiy va ma’naviy-axloqiy tarbiya vositasidir. O‘rganilayotgan mavzularga qarab, kasbiy ma’naviy-madaniy tarbiya suhbat, davriy matbuot sahifalaridagi yangi ma’lumotlarni aytib berish va kasbga oid videofilmlar ko‘rsatish shaklida bo‘lishi mumkin. Qaysi bir kasbiy ma’naviy pauzani tanlash o‘qituvchidan boy tajriba, kuchli tayyorgarlik talab qiladi, chunki berilayotgan material yorqin, qiziqarli, har xil, his hayajonli damlarga to‘liq bo‘lishi kerak, aks holda talabalar uchun zerikarli bo‘lib qoladi. Bundan tashqari barcha pauzalar faqat mavzularga qattiy tegishli bo‘lishi ham shart emas. Bu mavzuga mos dastlabki manbalarning nechog‘liq bor-yo‘qligini tashkiliy shart-sharoitlar, o‘qituvchi faoliyati, moddiy-texnika bazasi bilan ta’minlanganligi kabi qator omillariga bog‘liq bo‘lib, bizning tajribamiz natijalariga ko‘ra, oxirgi tur kasbiy ma’naviy pauza turini qo‘llash nisbatan ancha maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Buni quyidagi izohlash mumkin, talabalar bir xil tempdagi yangi mavzuni tushuntirish bayonida ko‘pincha nafaqat charchab toliqadi va hatto zerikadi ham, shunday paytda mavzuni mustahkamlashga oid biron videofilm (bichish-tikish, maishiy-xizmat, hunarmandchilik va boshqa madaniy merosimiz yoki zamonaviy dastgohlarimizga oid) kuzatish talabalar uchun ham dam olish va ham qo‘shimcha ma’lumot bilan mavzuni boyitish bolib xizmat qiladi. Shuningdek, bunday qisqa vaqt ichida ular juda katta axborot olishga muvaffaq bo‘ladilar. Agar birinchi marta ulardan pauza qancha davom etdi deb so‘rab ko‘rilsa, ular 10-15 minut davom etadi deb javob berishadi, aslida esa bunga atiga 3-4 minut vaqt ketganini aytishganda hatto ajablanishadi.

Ayniqsa, darsning o‘rtasida berilgan bunday pauzalar talabalarga qo‘shimcha kuch, kayfiyat bag‘ishlab, ularning charchog‘ini tarqatadi, ko‘rsatilgan kasbiy ma’lumotlar ularning qalbida uzoq saqlanib qoladi.

O‘qituvchi berilgan ma’lumotlar asosida izoh, sharh va qo‘shimcha to‘ldirishlar bilan dars mohiyatni yanada boyitadi. Bunday to‘g‘ri tashkil qilingan dars jarayonida har bir talaba qoniqish hosil qiladi.

Shunday qilib dars jarayonida 3-4 minutlik kasbiy ma’naviy tarbiyaga oid pauzalar talabalar charchog‘ini olib, ularning maqsadga muvofiq dam olishlarini ta’minlaydi, o‘qtuvchi bilan munosabatini yaxshilaydi, darsga va kasbga qiziqishini orttiradi. Bunday dars soati (byudjet) ichida (qoshimcha dars jadvalsiz) darsni tashkil qilish, konkrent mashg‘ulot uchun kasbiy ma’naviy pauzalarni muvofiq tanlash o’zini oqlaydi va bo‘lajak kasb ta’limi o‘qituvchilarni kasbi oid ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda katta pedagogik hamda psixologik ahamiyat kasb etadi.

Kasbiy yo‘nalishda ma’naviy tarbiyalashning muhim yo‘nalishlaridan biri darsdan tashqari vaqtlarda ish yonalishlarda referatlar yozish, disputlar o‘tkazish, sayohatlar o‘tkazish, ig‘orlar bilan va mohir ustalar bilan uchrashuvlar o‘tkazish, bitiruv malaka ishlarining mavzusini kasbiy yo‘nalishdagi milliy hunarmandchilik, tikuvchilik, kashtachilik kabi mavzu mazmunga moslab tanlash, ularni yangi izlanishlarga va ixtirochilikka jalb qilish hisoblanadi.

Quyida texnologik ta’limi yonalishidagi ma’naviy tavsifdagi referatlarning taxminiy mavzulari keltirilgan:

1. Dastlabki igna yasab kiyim tikkan kim? (tikuvchilik o‘tmishi, bugungi va kelajagi).
2. Uy-joy oldin paydo bo‘lganmi, kiyim-kechak ularning rivojlanish bosqichlari?.
3. Hunarmandchilik rivojlanishining madaniy merosimiz elementlari rivojidagi ro’li.
4. Milliy kashtachilik ma’naviyatimiz ajralmas bo‘lagi?

5. Do‘ppi va milliy ma’naviyatimiz an’analari.

6. Beqasam tarixi va u bilan bog‘liq ma’naviy qadriyatlarimiz.

7. Atlas-millatimiz ayollari faxri va hokazo.

Refarat mavzusini tuzishda talabalar yoritiladigan savollarning har tomonlama chuqur va qiziqarli hamda u yoki bu ma’naviy qadriyatlarimizni tiklashga dastlabki qadam bo‘lib xizmat qilishi va ijodiy ishlarida alohida takomillashtirishlar, o‘zgarishlar qilinishiga turtki bo‘lishi nazarda tutilishi kerak. Bu ularning kasbga qiziqishlarini yanada oshiradi.

Ma’naviy qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalashning ta’sirchan shakllaridan biri-bu disput (baxsli suhbat) hisoblanadi. Kasbiy yo‘nalishdagi bunday suhbatlarni yuqoridagi refarat mavzulari va yana boshqa qo‘shimcha mavzular bo‘yicha uyushtirish maqsadga muvofiq. Munozarali bahsda refarat yozishda talaba e’tibordan chetda qoldirilgan muammolar haqidagi qimmatli takliflar ularning bilim doirasini yanada kengaytiradi. Ijodiy izlanishga va kelajakda refaratni bitiruv malaka ishi tarzda davom ettirishda uni hisobga olishda undaydi.

Xulosa qilib aytganimizda, dastlabki ijodiy ishni refaratdan boshlab bitiruv malaka ishi darajasiga kasbiy ta’limga oid ma’naviy-axloqiy qadriyatlarimiz bilan bog‘liq rivojlantirib borish, bo‘lajak texnologik ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy ma’naviyatini rivojlantiradi, bu ularning maktablarga, ishga borganida barkamol avlodni kasb madaniyatiga yo‘nalishida poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muslimov N.A. Kasb ta’lim o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: ped.f.dok. ...diss. – T., 2007.

2. Yuldashev M.A. Xalq ta’limi xodimlarining malakasini oshirishda ta’lim sifati menejmentini takomillashtirish: ped. fan.dok. ...diss. – T., 2016.

3. Toshpo‘latova M.I. Bo‘lajak boshlang'ich sinf o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish: ped.f.dok. (PhD) diss. – T., 2017.

Nasiba ABDULLAEVA,
Andijon davlat universiteti, ‘‘Umumiy pedagogika’’ kafedrasi dotsenti

PEDAGOGIKA OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA BO‘LAJAK O‘QITUVCHILARNING MAS’ULIYATINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada kasbiy sifatlar sirasiga kiruvchi muhim fazilatlardan biri bo‘lgan pedagogik mas’uliyat nazariy jihatdan tahlil qilinib, uning o‘qituvchilik faoliyatdagi ahamiyati va bo‘lajak o‘qituvchilarda shakllantirish masalalariga atroflicha tavsif berilgan.

Kalit so‘zlar. Professional pedagog, zamonaviy pedagog, huquqiy me’yorlar, o‘qitish usullari, pedagogik mas'uliyat, kasbiy sifatlar, kasbiy fazilatlar, shaxsiy o‘sish, ijtimoiy maqom.

В данной статье с теоретической точки зрения даётся анализ одного из сторон, входящих в ряд основных профессиональных качеств как педагогическая ответственность и дана всестороняя характеристика важности данного качества в профессиональной деятельности учителя и рассмотрены проблемы и их решения в формировании педагогической ответственности у будущих учителей.

Ключевые слова. Профессиональный педагог, современный педагог, правовые нормы, методы обучения, педагогическая ответственность, профессиональные качества, профессиональные высокие человеческие качества, личностный рост, социальный статус.

Pedagogical responsibility, which is one of the important qualities of professional qualities, is theoretically analyzed in this article, its importance in teaching activity and issues of formation of future teachers are described in detail.

Key words. Professional pedagogue, modern pedagogue, legal norms, teaching methods, pedagogic responsibility, professional qualities, professional virtues, personal development, social status.

Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini yangi bosqichga ko‘tarish, pedagog kadrlar tayyorlash sifatini ilg‘or xalqaro standartlar asosida takomillashtirish va oliy pedagogik ta’lim bilan qamrov darajasini oshirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirib kelinmoqda.

Pedagogika ta’lim sohasini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari sifatida tarbiya va o‘qitish usullari, ta’lim jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash ko‘nikmalariga ega professional pedagog kadrlar tayyorlash, talabalarda pedagoglik kasbga yuqori darajada qiziqishi uyg‘otish va kasbiy muhim sifatlarni rivojlantirish, kasbga maqsadli tayyorlash masalalari belgilab olindi.

Mas’uliyat talabaning boshqarish qobiliyati, aniq maqsadga, ya’ni davlat yoki jamiyat, millat oldidagi ijtimoiy-axloqiy, huquqiy me’yorlarga muvofiqligi hamda javobgarlik tuyg‘usi va unga bo‘lajak o‘qituvchining munosabatini shakllanishiga ko‘maklashadi. Demak, pedagogning mas’uliyatli bo‘lishi uning mehnatsevarligi bilan bir qatorda o‘z kasbiga vijdonan yondashishi, hurmat va sadoqat bilan munosabatda bo‘lishiga ham bog‘liqdir. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘z majburiyatlarini bajarmagan shaxs mas’uliyatsiz shaxsdir.

Bunday kasbiy sifat, ya’ni mas’uliyatlilik insonlarda o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmaydi. Talabalar misolida aytadigan bo‘lsak mas’uliyat yillar davomida tizimli ta’sir ko‘rsatish natijasida shakllantiriladi va rivojlantiriladi. Bo‘lajak pedagoglarda kasbga sadoqat,

mehnatsevarlik, vijdonlilik, javobgarlik hissi kabi ko‘plab muhim kasbiy fazilatlar asosida mas’uliyat hissi mukammallashib boradi.

M.V.Gamezo va uning hammualliflari rivojlanish tendensiyalari bilan bog‘liq zamonaviy sivilizasiya, turli ma’lumotlar yoshlar faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishini e’tirof etgani holda, uzoq muddatli o‘qish davrida bu ayrim yoshlarni mas’uliyatsiz infantilizmga olib kelishi, anomiya, ya’ni yoshlarning qonunga beadab va mas’uliyatsiz munosabatiga, axloqiy qadriyatlarni mensimaslikka olib kelishini ta’kidlaydilar. Pedagogika oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik mas’uliyatini shakllantirish o‘quv-tarbiya jarayonida shaxsiy o‘sishga salbiy ta’sir etuvchi quyidagi to‘siqlarni bartaraf etadi:

1. Ijtimoiy-psixologik – bu yoshlarning jismoniy va intellektual kompetensiyalarini rivojlantirish va uning ehtiyojlarini qondirishda qat’iy vaqt chegarasi qo‘yish hamda iqtisodiy cheklovlar o‘rtasidagi ziddiyatlardir.

2. Adaptiv – eski va yangi turmush sharoitlari o‘rtasidagi ziddiyatlar. Bu ko‘pincha yashash joyi, ijtimoiy muhit o‘zgarishi, moddiy imkoniyatlarning sezilarli darajada o‘zgarishi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlar xarakteri, yashash sharoiti bilan bog‘liq bo‘ladi.

3. Motivatsion, talabalar tomonidan reja asosida o‘zlari tanlab olgan yo‘nalishlarga qabul qilinishi bilan bog‘liq ziddiyat.

4. Didaktik, bilim olish yo‘llari va o‘qitishning konservativ shakllarida mustaqillikka intilish yoki, aksincha, axborot almashinuvining reproduktiv ko‘nikmalari va uni mustaqil ravishda qo‘llash, o‘quv faoliyatini kuzatish, baholash uchun turli talablarning mavjudligi.

5. Axborotlashtirishga oid – axborotning ko‘pligi va uni qayta ishlash uchun cheklangan resurslar, ilmiy bilimlarni qisqartirish, soddalashtirish muammolari.

6. Birinchi asosiy ko‘rsatmalarni yaratish va tashqi hodisalar ta’sirida yoshga bog‘liq inqiroz davrida refleksiv jarayonlarning kuchayishi.[1]

Tadqiqotlarimiz natijasida biz bu ziddiyatlarni to‘siq sifatida emas, balki bo‘lajak o‘qituvchining kasbiy rivojlanish manbasi, deb ta’rif berdik. Zamonaviy ta’limning metodik xususiyatlari zamirida bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy mas’uliyatini rivojlantirishga alohida ahamiyat kasb etishi lozim. Bu mamlakatimizda ta’limning tez sur'atlar bilan o‘sishi, shakl, metod hamda o‘quv dasturlari, ta’lim muassasalarining turlari o‘zgaruvchanligining ortib borishi bilan bog‘liq. Bunday vaziyatda bo‘lajak pedagogning kasbiy mas’uliyatini shakllantirish bilan bir qatorda ta’limni tashkil etishda uning javobgarligiga qo‘yiladigan talablarning ortishiga mos ravishda talabalar faoliyatini tashkil etish masalalariga e’tibor qaratilishi lozim.

Muhim sifatlardan biri bo‘lgan pedagogik mas’uliyatni belgilashga turlicha yondashuvlar mavjud. Pedagogikaga oid ensiklopedik lug‘atlarda mas’uliyat shaxsning o‘zi anglagan narsaga qaramligi, munosabati, qaror qabul qilishi va o‘zgalarni bevosita yoki bilvosita asrab-avaylash, uni rag‘batlantirishga qaratilgan harakatlarni amalga oshirishni belgilovchi asosiy sifati tarzida talqin qilinadi.

Mas’uliyat obyekti boshqa odamlar, kelajak avlodlar, hayvonlar, atrof-muhit bo‘lishi mumkin. Mas’uliyatlilikka quyidagilar sabab bo‘lishi mumkin: a) shaxs maqomiga ega bo‘lgan (masalan, ota-onaning) mas’uliyati bexosdan (tabiiy yoki tasodifan); b) ongli ravishda qabul qilingan ijtimoiy maqom (o‘qituvchining mas’uliyati) yoki tuzilgan shartnomalar. Javobgarlik ikki tomonlama bo‘lishi mumkin: a) guruh, rasmiy vazifalar orqali belgilanadi va bu juda katta mas’uliyatni talab etadi; b) shaxs tomonidan shaxsiy va

[1] Ayubova I.X. Texnika oliy ta'lim muasasalari talabalarida ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish tizimlari: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi –T., 2019 –149-b.

umum e’tirof etilgan vazifa sifatida mustaqil qabul qilinadi. Falsafa tarixida mas’uliyat g‘oyasi erkinlik (iroda, qaror qabul qilish, harakat), imputasiya va aybdorlik mavzulari bilan bog‘liq holda rivojlanadi.

Mas’uliyat muammolari bilan shug‘ullangan tadqiqotchi R. Mamatqulova mas’uliyat muammosiga fanda azaldan erkinlik va zarurat kategoriyalarining o‘zaro nisbati, shaxs xulq-atvori va faoliyatining axloqiy jihati nuqtai nazaridan, ijtimoiy amaliyotda esa ma’muriy yoki yuridik nuqtayi nazardan, ijtimoiy tartibga solishning turli, shu jumladan, huquqiy me’yorlarini amalga oshirishni nazarda tutuvchi ijtimoiy nazoratni amalga oshirish sifatida yondashib kelinadi, deya ta’kidlaydi.

Pedagogik mas’uliyatning asosiy funksiyalarini tahlil qilishda uning rivojlanish jarayoni shaxsning ichki olami bilan ham, tashqi muhit bilan ham o‘zaro bog‘liq ekaniga e’tibor qaratdik. Ichki rivojlanish orqali inson jamiyat va uning oldidagi o‘z mas’uliyatini anglab boradi. Tashqi muhitda inson uchun mavjud ma’naviy-axloqiy me’yorlar, urf-odat, an’analarga rioya qilish talab etilgani sababli uning faoliyati tartibga solinadi. Demak, bunday sharoitda bo‘lajak o‘qituvchilar kasbga oid fazilatlar, estetik va axloqiy qoidalar, o‘qituvchi mahorati sirlari, innovatsion faoliyat ko‘nikmalarini egallash va ish faoliyati davomida ta’limiy maqsadlar va vazifalarni me’yoriy hujjatlarga muvofiqlashtirish zarurligini ixtiyoriy (ba’zan majburiy) qabul qiladi hamda ushbu vazifalarni bajaradi.

Tadqiqotda bo‘lajak o‘qituvchilarni mas’uliyatli faoliyatga tayyorlashda ular uchun eng muhim bo‘lgan o‘zini o‘zi tahlil qilish, o‘zini o‘zi baholash, pedagogik madaniyat va etikani shakllantirish natijasida o‘zini rivojlantirishga ehtiyoj paydo bo‘lishi kabi masalalarga alohida e’tibor qaratildi. Chunki o‘qituvchilikni tanlagan har bir talaba yuqorida ifoda etilgan fikrlarga tayanib, o‘qish jarayonning mazmun va mohiyatini anglab yetadi, qaysi qadam samara beradi, qaysinisi buning aksi ekani haqida o‘z tajribasi, intuitsiyasiga tayangan holda qaror qabul qilishga intiladi. Bu esa undan mas’uliyatli bo‘lishni talab etadi. O‘zini o‘zi tahlil qilish darajasi qancha yuqori bo‘lsa, shaxsda mas’uliyat darajasi ham shuncha yuqori bo‘ladi. Bo‘lajak o‘qituvchilarda o‘zini o‘zi baholashning shakllanishi malakaviy va pedagogik amaliyot davridan boshlanadi. Bunday xulosaga kelishimizga sabab ularning pedagogik faoliyati tahlili natijasidir. Amaliyotchi o‘zgalar tomonidan unga bildirilayotgan ishonch va bahoga qarab, o‘zini tahlil qiladi, o‘z faoliyatiga tanqidiy nuqtayi nazar bilan qaray boshlaydi.

Bo‘lajak o‘qituvchilar pedagogik amaliyot davrida mustaqil ishlashi va o‘zini o‘zi rivojlantirishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni anglab etadi. Natijada, ularda o‘z faoliyatini sifatli va yangiliklar asosida tashkil etishga intilish shakllanadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonida quyidagi nazariy-metodologik yondashuvlarga tayaniladi: tizimli-tuzilmali, rejali-maqsadli, kasbiy-faoliyatli, kasbiy-shaxsiy. Yuqoridagi yondashuvlar asosida malakaviy va pedagogik amaliyot vaqtida talabalar o‘z faoliyatlarini to‘g‘ri tashkil etishga erishadilar. Natijada, javobgarlik bilan mas’uliyat hissi ortib, kasbiy madaniyati takomillashib boradi.

Fikrimizcha, pedagogik va malakaviy amaliyotga qadar talabalar tashkil etilgan ta’limning ushbu shakliga yetarlicha uslubiy jihatdan tayyorlansa, faoliyatini samarali tashkil etish bilan bir qatorda, jarayonga nisbatan mas’uliyat hissi ortadi. O‘qituvchilik kasbiga tayyorlashda zarur bo‘lgan amaliyotlarning muhimligi talabada bu boradagi bilimlarni maqsadli tashkil etilishiga bog‘liq.

Yu.D.Mishinaning talabalarda pedagogik mas’uliyatni rivojlantirishga oid tavsiyalariga tayangan holda o‘quv jarayonini amalga oshirish masalalarini ko‘rib chiqamiz.

1. Jarayonga faol yo‘naltirish bosqichi:

a) ixtiyoriy ta’lim shaklini tanlash;

b) mashg‘ulotlar mazmunini tanlash;

v) kerakli manbalarni tanlash;

g) amaliyot uchun yo‘nalishlarni belgilab olishlari.

2. Maqsadli bosqich tanlab olingan vazifaning murakkablik darajasiga qarab amalga oshiriladi:

a) minimal zaruriy;

b) zarur va yetarli;

v) yuqori darajada muhim.

Yuqorida bayon etilgan bosqichlar talabalarga natijaga erishish yo‘llarini aniqlash imkoniyatini beradigan tushunchalarni ilgari suradi. Shu bois quyidagilarni faoliyatda qo‘llash mumkin: yozma, og‘zaki, yakka va jamoaviy topshiriqlar; muhokama va amaliy darslar, mustaqil tayyorgarlik, kollokviumlar.

3. Nazorat bosqichida talabalar o‘zlarining bilimlarini nazorat qilish tizimi haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar:

a) talabalarni tizimli, kunlik, uzoq muddatli, har bir mashg‘ulot, seminar va imtihonlar orqali nazorat qilish, yakuniy baholash;

b) faqat sessiya oralig‘ida o‘tkaziladigan individual va jamoaviy nazorat, u og‘zaki va yozma shaklda bo‘lishi mumkin

Ma’lumki, ta’lim-tarbiya berish jarayoni jamiyat va uning qonunlaridan tashqarida mavjud bo‘la olmaydi. O‘qituvchining u yoki bu me’yorlarni yaxshi o‘zlashtirishi natijasida kasb madaniyati va etikasi takomillashib boradi. Natijada, jarayonning yaxlitligini saqlash uchun mas’uliyat muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi. Demak, pedagogik mas’uliyatning asosiy funksiyalaridan biri gnoseologik, ya’ni bilishga oid funksiya hisoblanib, u yangi texnologiyalar, fanning so‘nggi yutuqlarini faoliyatga tatbiq etishda samarali natijalarni ta’minlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva G.K. Ta’limda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish afzalliklari / “Ta’lim va texnologiyalar” ilmiy-uslubiy maqolalar to‘plami. – Termiz, 2018. – 340-b.

2. Ayubova I.X. Texnika oliy ta’lim muassasalari talabalarida ekologik xavfsizlik madaniyatini shakllantirish tizimlari: pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) diccertasiyaci –T., 2019 – 149-b.

3. Axmedov A.Yu. Bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik jihatlari. ACADEMIC RESEARCH IN EDUCATIONAL SCIENCES VOLUME 1 | ISSUE 4 | 2020 ISSN: 2181-1385 Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804 (779-b)

4. Бим-Бад Б.М.; редколл Безруких М.М., Болотов В.А., Глебова Л.. и др. Педагогичекий энциклопедичекий ловар. – М.: Большая Российская энциклопедия, 2002. –.528.

5. Гамезо М.В. Возрастная психология: от молодости до старости / М.В. Гамезо [и др.].–М.: Ноофера, 1999. –. 102.

6. Мишина Ю.Д. Психолого-педагогичекие условия развития ответтвенности у студентов педагогических ВУЗов: дис. ... канд. пед. наук: 13.00.08. -Томк, 2002. – 261 : ил. –Библиогр.: – . 216-232.

Sodiqjon MUXLISOV,
Buxoro davlat universiteti, O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i o‘rinbosari

BO‘LAJAK INFORMATIKA O‘QITUVCHISINING KASBIY FAOLIYATIDA KOMPETENSIYA

Annotatsiya

Maqolada bo‘lajak informatika o‘qituvchilari kasbiy faoliyatida kompetensiya tushunchasi va unga olimlar tomonidan berilgan ta’riflar tahlil qilingan. Shuningdek, bo‘lajak informatika o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligiga oid kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablarga qisqacha to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar. Bo‘lajak informatika o‘qituvchisi, kompetensiya, pedagogik kompetensiya, infokommunikatsiya texnologiyalari

В статье анализируется понятие компетентности в профессиональной деятельности будущих учителей информатики и определения, данные учеными. Также были кратко затронуты требования к компетенциям, связанным с профессиональной подготовкой будущего учителя информатики.

Ключевые слова. Будущий учитель информатики, компетентность, педагогическая компетентность, инфокоммуникационные технологии.

The article analyzes the concept of competence in the professional activities of future computer science teachers and the definitions given by scientists. The requirements for competencies related to the professional training of a future computer science teacher were also briefly touched upon.

Key words. Future computer science teacher, competence, pedagogical competence, infocommunication technologies.

So‘nggi yillarda pedagog va psixolog olimlar, tadqiqotchilar tomonidan bo‘lajak informatika o‘qituvchilarini tayyorlashning mazmuni, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy talablar uning mazmuni muammosining tadqiq etilishiga e’tibor qaratila boshlandi.

Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasida boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish, elektron davlat xizmatlari va telekommunikatsiya xizmatlari spektrini kengaytirish, telekommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish va qo‘llash sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish hamda munosabatlarni tartibga solish kabi vazifalarning belgilab berilganligi informatika o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi mazmuni, bo‘lajak informatika o‘qituvchilarida tashkiliy-pedagogik kompetentlikni tadqiq etishni dolzarbligini ifodalaydi.

Ba’zi mualliflar informatika o‘qituvchilarini tayyorlash mazmuniga o‘zgartirish kiritishni taklif qilmoqdalar. Jumladan, V.P.Julanova o‘quv jarayonini tashkil etishda ta’lim oluvchilarni doimiy talabalik pozitsiyasidan “yashashi”, bilim olishda ishtirok etishi uchun mashg‘ulot vaqtining ko‘p qismini mustaqil, guruhli va tarmoq ishlariga ajratishni taklif etadi.

O.V.Sadikova “Informatika o‘qituvchisining fan tayyorlashning hozirgi amaliyoti

“Informatika” fanining barcha tarkibiy qismlarini qamrab olmaydi, fanining hozirgi bosqichdagi rivojlanish darajasini to‘liq aks ettirmaydi”, - deb hisoblaydi. Natijada, texnologiyaning rivojlanish darajasi va jamiyatda qo‘llanilish ko‘lamini aks ettiruvchi ixtisoslashtirilgan kurslarni loyihalashtirishga zarurati tug‘ilmoqda.

T.A.Shastun tadqiqotlarida zamonaviy AKT vositalariga ehtiyojning doimiy ortib borishi, informatika o‘qituvchisining maxsus-texnologik kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarning murakkablashishi va ularni shakllantirishning nazariy va uslubiy asoslarining yetarli darajada rivojlanmaganligi o‘rtasida qarama-qarshilik borligini ta’kidlaydi .

L.M.Ivkina tadqiqotlarida Megaclass platformasidagi o‘quv klasterida bo‘lajak informatika o‘qituvchisini metodik tayyorlash modeli taklif qilinadi. Shuningdek, muallif, pedagogik eksperimentni tashkil etish shartlarini tavsiflaydi va taklif qilingan modelning samaradorligini isbotlovchi natijalarni taqdim etadi. Biroq, ularda bo‘lajak informatika o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi mazmuni nazariy va amaliy jihatdan yetarlicha o‘rganilmagan. Bo‘lajak informatika o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligi mazmunining tadqiq etilishi oliy ta’lim tizimida pedagogik jarayonni to‘liq kasbiy faoliyatga yo‘naltirishda, xususan, bo‘lajak informatika o‘qituvchisini tayyorlash jarayonida yuzaga keladigan noaniqlik va to‘siqlarni samarali bartaraf etishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Kompetentlik umumlashgan tavsifda: ta’limdagi va mustaqil kasbiy, ijtimoiy faoliyatda muayyan kompetensiyalarni individual o‘zlashtirish va ijodiy tarzda egallash yo‘li orqali shaxsning yangidan shakllangan xislati, kasb sohibi bo‘lgan fuqaroning fazilati. Bu professionalning (kasbiy yetuk shaxsning) hayotiy tajriba, amaliyot, mustaqil ta’lim orqali individual o‘zlashtirilgan kompetensiyalar asosida yangi (kasbiy, ijtimoiy) shart-sharoitlarda ijodiy yondashib ish ko‘rish sifatidir.

I.N.Shodiyevning tadqiqotlarida kompetentlik quyidagicha izohlanadi: “Kompetentlikning o‘zi pedagogda umumiy dunyoqarashning kengligi va madaniyatning yuqoriligi, pedagogika, psixologiya, boshqaruv nazariyasi va ta’limni boshqarishning ilmiy asoslari bo‘yicha kasbiy bilimlarining mavjudligi, o‘z bilimlarini amaliyotda rivojlantirishga layoqatlilik, ijtimoiy va psixologik-pedagogik tadqiqotlar metodlarini bilish, pedagogik va boshqaruv ko‘nikmalarining zaruriy majmuasiga ega bo‘lishni nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, kompetentlik kasbiy bilim va ko‘nikmalarning mavjudligi, shuningdek, ularni amaliy faoliyatda qo‘llash va takomillashtirishga layoqatlilik bilan belgilanadi. Ya’ni, kompetentlik – bu faqatgina o‘zlashtirilgan bilimlar va tajribalarning mavjudligi va ularning salmoqli hajmi bo‘libgina qolmay, balki, ularni kerak vaqtda ishga sola bilish va o‘zining xizmat vazifalarini bajarish jarayonida ulardan foydalana olish demakdir”.

A.V.Xutorskiy kompetentlikni “...shaxsning tegishli Kompetensiyalarga ega bo‘lishi, shuningdek, faoliyat predmetiga shaxsiy munosabati” deb tushunadi. Muallif bu ikki tushunchani aniq farqlab, yana shuni ta’kidlaydiki, “...kompetentlik – bu o‘quvchining ta’limga tayyorgarligining kelajakdagi mavhum prognoz qilingan talab, kompetentsiya esa o‘quv predmetiga xos bo‘lgan, allaqachon shakllangan, aniqrog‘i shaxsiy sifatidir”.

Ilmiy-nazariy tahlillar asosida, kompetentlik nafaqat bilim, ko‘nikma va malakalarning yig‘indisi, balki motivatsion, ijtimoiy va xulq-atvor kabi tarkibiy qismlarni ham o‘zida ifodalaydigan ya’ni, kompetensiya rivojining yuqori darajasidir. Ushbu holatda kompetensiya, shaxsning integral sifatlarini o‘z ichiga olgan kompetentlikka “aylanadi” va shaxsning ma’lum bir sohadagi faoliyat tajribasini anglatadi deb xulosa qilishimiz mumkin.

Jamiyatning rivojlanishi ta’lim tizimini jadal rivojlantirishni, uning asosiy paradigmasini qayta ko‘rib chiqishni ham taqozo etmoqda va bu jarayon bo‘lajak informatika va

axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligiga ham ma’lum talablarni qo‘yadi.

Ma’lumki, informatika fanini o‘qitishdan maqsad axborot madaniyatini shakllantirish, pedagogik faoliyat sohasida ishlash uchun zarur bo‘lgan axborot madaniyatining muhim tarkibiy qismi axborotlashtirish vositalari va infokommunikatsiya texnologiyalardan samarali foydalanish ko‘nikmalarini rivojlantirishdir. A.S.Sharovning tadqiqotlarida bo‘lajak informatika o‘qituvchisining pedagogik faoliyatda axborotlashtirish vositalari va infokommunikatsion texnologiyalardan foydalanishga tayyorlashning nazariy asoslari ishlab chiqilgan bo‘lib, tadqiqotchi tomonidan nazariy bilimlardan amaliyotga o‘tish ta’lim oluvchilar faoliyatining uchta asosiy shakli orqali yuzaga chiqishini ta’kidlaydi. Bular: belgilarni aks ettira olish (bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘zlashtirish va qo‘llash), o‘zgartirish-modellash (olingan bilim, ko‘nikma va malakalarni tushunish, rivojlantira olish va amalga oshirish) va prognostik-amaliy faoliyat (olingan va “ishlab chiqilgan” bilim, ko‘nikma va malakalarni tuzatish va tizimlashtirishni o‘z ichiga oladi).

Bo‘lajak informatika o‘qituvchisining kasbiy kompetentligi kasbiy tayyorgarlikning yetakchi maqsadi bo‘lib, u o‘ziga xos kasbiy vazifalarni, shuningdek, uning fan o‘qituvchisi sifatidagi pedagogik faoliyatining real vaziyatlarida yuzaga keladigan muammolarni bilim va kasbiy imkoniyatlardan foydalangan holda hal qilish qobiliyatini anglatadi.

T.V.Dobudko informatika o‘qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish muammosini o‘rganar ekan, o‘qituvchining kasbiy kompetentligi uning pedagogik faoliyatni amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarligining birligi degan xulosaga keladi.

Mavjud yondashuvlarning tahlili shuni ko‘rsatdiki, umumlashtirilgan shaklda o‘qituvchining pedagogik kompetentsiyasi – bu shaxsning ishlab chiqarish faoliyatida qatnasha olishi uchun zarur bo‘lgan qobiliyatlari, fazilatlari va xususiyatlariga asoslangan orttirilgan yaxlit ta’limi, shuningdek, kasbiy faoliyatda nazariy va amaliy tayyorgarlikni belgilovchi bilim, ko‘nikma va malakalari majmuidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5349-son Farmoni, 19.02.2018-yil.

2. Жуланова В. П. Современные направления и пути совершенствования содержания подго-товки учителя информатики [Электронный ресурс] // Наука и перспективы. 2015. № 1. Режим доступа. https://www.cyberleninka.ru/article/n/sovremennye-napravleniya-i-puti-sovershenstvovaniya-soderzhaniya-podgotovki-uchitelya-informatiki (дата обращения: 17.09.2018).

3. Садыкова.О.В. Методические подходы формирования проектировочного компонента профес-сиональных компетенций будущих учителей информатики // Современные исследования социальных проблем. 2017. № 4–2. С. 280–283.

4. Шастун Т. А. Формирование специально-технологических компетенций учителя информатики в вузе // Крымский научный вестник. 2017. № 2–3. С. 83–93.

5. Ивкина Л. М. Кластерная модель методической подготовки будущего учителя информатики // Вестник Красноярского государственного педагогического университета им. В. П. Астафьева. 2017. № 2. С. 66–69.

Ikrom BOBOMURODOV,
Termiz davlat universiteti Ijtimoiy fanlar fakulteti o‘qituvchisi

O‘QUVCHILARNING BILISH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA NUTQIY KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyatini rivojlantirish asosida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy didaktikaning yetakchi masalalaridan biri ekanligi, uning dolzarbligi, optimal usullar va vositalarni ishlab chiqishning zarurligi bayon etilgan.
Kalit so‘zlar. Bilish, faoliyat, o‘quv-biluv, nutq, kompetensiya, didaktika, tafakkur, subyekt-subyekt munosabatlari, metodiktizim.

В данной статье констатируется, что формирование речевой компетенции учащихся начальных классов на основе развития познавательной деятельности является одним из ведущих вопросов современной дидактики, его актуальность, необходимость разработки оптимальных методов и средств.
Ключевые слова. Знание, деятельность, учебное знание, речь, компетенция, дидактика, мышление, субъект-субъектные отношения, методическая система.

In this article, it is stated that the formation of speech competence of elementary school students based on the development of cognitive activity is one of the leading issues of modern didactics, its relevance, the need to develop optimal methods and tools.
Key words. Knowledge, activity, educational knowledge, speech, competence, didactics, thinking, subject-subject relations, methodical system.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyatini rivojlantirish asosida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy didaktikaning yetakchi masalalaridan biri hisoblanadi. Uning dolzarbligi optimal usullar va vositalarni ishlab chiqishning zarurligi bilan izohlanadi.

O‘quvchilarning ona tili boyliklarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishlari, ularning aqliy rivojlanishlarini jadallashtirish imkonini beradi. Chunki, ona tilining so‘z boyligi o‘z navbatida o‘quvchilarda fikrlash va bilish faoliyati taraqqiyotini ta’minlashning asosini tashkil qiladi. Shuning uchun ham boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyati asosida nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish muammosi alohida dolzarblik kasb etmoqda.

Pedagogik atamalar lug‘atida bilish atamasiga quyidagicha ta’rif berilgan:

“Bilish – 1) ta’lim jarayonida o‘quvchi va talabalarga taqdim etilgan o‘quv materialining o‘zlashtirilganlik darajasi;

2) borliq va uning obyektiv qonuniyatlarini o‘rganish, o‘zlashtirish, egallash” jarayonidir.

Bilish pedagogik nuqtayi nazardan o‘quvchi faoliyatining o‘quv materiallarini ongda aks ettirish jarayonidir. O‘quv jarayoni o‘quvchilarning o‘quv-biluv munosabatlariga kirishish jarayoni bo‘lib, u o‘quvchilarni intellektual hamda ma’naviy jihatdan rivojlantirishga qaratiladi. O‘quv jarayonidagi barcha harakatlar o‘qituvchi hamda o‘quvchilar

orasidagi subyekt-subyekt munosabatlariga asoslanadi. Bu munosabatlarni o‘qituvchi hamda o‘quvchilar bilish faoliyati orqali amalga oshiradilar. O‘quvchilarning bilish faolligi ularning ta’lim jarayoni hamda o‘quv materiallariga nisbatan ijobiy munosabatlarining ifodasidir. Pedagogik jarayon dinamik rivojlanuvchi murakkab hodisa bo‘lib, mazkur faoliyat natijasida o‘quvchilar egallagan bilimlar obyektiv borliqdagi turli-tuman bog‘lanishlar va munosabatlarni tushuncha, qonun, tamoyil, nazariyalar sifatida ular ongiga singdiradi. Shuning uchun o‘quvchilar o‘quv materiallarini o‘zlashtirish jarayonida bilish faoliyatiga ega bo‘lishlari nihoyatda zarur. Chunki, bu jarayonda o‘quvchilar voqelikka xos bo‘lgan barcha qonuniyatlarni bilim va ijtimoiy tajriba shaklida o‘zlashtirib, o‘z faoliyatlari mazmuniga aylantiradilar. Har doim o‘quvchilarga taqdim etiladigan yangi mavzular tarkibidagi bilimlar bilish obyekti bo‘lganligi uchun ham ular o‘quvchilarning bilish faoliyati tarkibiga kiritiladi. Mazkur bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirish uchun esa o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalarini shakllantirish nihoyatda zarur hisoblanadi.

FAOLIYAT — kishilarning tashqi olamga faol munosabati shakli, insonning o‘zini o‘zi maqsadga muvofiq tarzda o‘zgartirish usuli, inson borlig‘ining muhim xususiyatlaridan biri. Faqat faoliyat zamiridagina inson mohiyati namoyon bo‘lishi, jamiyatning, har qanday ijtimoiy tuzilmaning mavjudligi ta’minlanishi mumkin.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyati deganda, ularning o‘quv materiallarini o‘zlashtirish, borliq va uning obyektiv qonuniyatlarini o‘rganish, egallash jarayonidagi ishchanlik va faollik darajalari tushuniladi.

Bugungi kunda pedagogika fanida o‘quvchilarni rivojlantirish yo‘nalishlarini jadallashtirish imkoniyatlarini izlash jarayoni amalga oshirilmoqda. Bunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyatlarini unumli tashkil etish masalasi asosiy o‘rin egallamoqda. Bunday yondashuvning samaradorligi shundaki, uning yordamida o‘quvchilarning bilish faolliklarini ta’minlashga yo‘naltirilgan yaxlit ilmiy metodik tizim yaratiladi.

Ilmiy metodik tizim o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini boshqarish vazifasini bajarishga yo‘naltiriladi. Buning ta’sirida o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyalari shakllanadi. Buning uchun o‘quvchilarning bilish faoliyatlarini faollashtirishga yo‘naltirilgan o‘quv-tarbiya jarayonini tashkil etish talab qilinadi. Bunday ilmiy metodik tizimni ishlab chiqish jarayonida amalda mavjud bo‘lgan ilmiy tadqiqotlarning natijalariga tayanish lozim. O‘quvchilarning bilishga qiziqishlarini rivojlantirish imkoniyatlarini izlash har doim pedagoglarning diqqat markazida bo‘lib kelgan.

O‘quvchi tomonidan bayon qilingan mantiqiy va tanqidiy fikrning ishonchliligi u keltirgan dalillar bilan belgilanadi. Dalillar qanchalik haqqoniy bo‘lsa, ifodalangan fikr ham shunchalik ishonchli bo‘ladi. Agar biror dalil ifodalangan fikrning aniqligini ifodalasa, xuddi shu dalil fikrning ishonchlilik darajasini ta’minlaydi.

Mantiqiy va tanqidiy fikrlashning valiyligi uning qay darajada ekanligini belgilaydi. Fikrning validligi uning darajasini aniq ifodalaydi, yuqori darajada tanqidiy fikrlovchi o‘quvchilar, o‘rtacha tanqidiy fikrlovchi o‘quvchilar yoki past darajada tanqidiy fikrlovchi o‘quvchilar kabi.

O‘quvchilarning mantiqiy va tanqidiy fikrlash darajasini o‘rganish uchun ularning muloqotga kirishish jarayonlarini kuzatish muhim ahamiyat kasb etadi. Kuzatish metodidan o‘quvchilarning fikrlash va muloqotga kirishish ko‘nikmalarini qiyoslashda keng foydalaniladi.

Boshlang‘ich sinflarda ona tili mashg‘ulotlarini shu tarzdagi o‘quvchilarning tanqidiy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladigan o‘quv topshiriqlari yordamida tashkil etish, ularning egallagan bilim, ko‘nikmalarini izchil tizimga solish imkonini beradi,

o‘quv jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi va uning samaradorligini ta’minlaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyatiga oid muammoni bir qator boshqalari bilan bog‘liq holda talqin qilish mumkin:

– shaxsga yo‘naltirilagn ta’lim jarayonida o‘quvchilarning bilish faoliyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan nazariy yondashuvlarni ishlab chiqish;

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyatini shakllantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonning mazmuni, vositalari, shakllari, usullari va metodlarini aniqlash;

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyatini rivojlantirishda o‘qituvchining tutgan o‘rni va bajaradigan vazifalarini pedagogik jihatdan asoslash;

– boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faoliyatini rivojlantirish asosida nutqiy kompetensiyalarini qay darajada shakllantirish kerak degan savollarga javob izlash muammoning asosiy yo‘nalishlarini tashkil qiladi.

Demak, o‘quvchilarda mantiqiy hamda tanqidiy tafakkurning rivojlanishi ulardagi bilish faoliyatining oshishi asosida nutqiy kompetensiyalarining rivojlanishi bo‘yicha maxsus tizimli ishlarga ehtiyoj borligi, uning uchun o‘quvchilarni maxsus tayyorlash zarur.

Yuqoridagi ta’kidlardan quyidagilarni xulosa qilish mumkin:

O‘quvchilarda mantiqiy hamda tanqidiy tafakkur– o‘quv auditoriyasidagi ruhiyatni o‘zgartira oladigan strategiyalar majmuidir, ya’ni mashg‘ulot o‘qituvchi va o‘quvchilarning ijodxonasiga aylanadi. Bunday jarayonda o‘quvchilar izlanishlar, o‘rganishlar natijasida manbalardan unumli foydalanish orqali mustaqil fikrlash va mustaqil tafakkur yuritishni o‘zlashtira oladilar.

O‘quvchilarda mantiqiy hamda tanqidiy tafakkuni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratish, o‘quvchilar tomonidan bayon qilingan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni bag‘rikenglik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta’minlash, har bir o‘quvchida nutqiy kompetentligini rivojlantirishga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish uchun pedagogik ta’sir ko‘rsatish mexanizmlarini ishlab chiqish talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli qarori // O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017. 14-son, 230-modda.

2. Абишев А., и другие. Категории мышления и индивидуалное развитие. – Алма-Ата, 1991. – С. 215.

3. Pedagogik atamalar lug‘ati. Tuzuvchilar R.X.Djuraev, O‘.Q.Tolipov va b. –T.: Fan, 2008, 18-b.

4. Xodjayeva F.O. O‘quvchilarni tanqidiy fikrlashga o‘rgatish va uning muhim jihatlari. / “Zamonaviy ta’lim” ilmiy-amaliy ommabop jurnali, 2017-yil, № 6, 43-47-b.

5. Abdullayeva Q.A., Safarova R.F. va boshq. Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi. // Boshlang‘ich ta’lim j. – T., 1998. -№6. – B. 12-18-b

6. Аверин В. А. Психическое развитие детей младшего школьного возраста: Учеб. пособие С.Пб.: Изд-во Михайлова В. А., 2000. – С. 64.

Muhiddin TIRKASHOV,
Qarshi davlat universiteti o'qituvchisi

RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM NAZARIYASI AXBOROT-TAHLILIY YONDASHUVNING METODIK ASOSI SIFATIDA

Annotatsiya

Maqolada rivojlantiruvchi ta'lim nazariyasida bola bilan ishlashda axborot tahliliy yondashuvning pedagogik ahamiyati yoritilgan. "Bola-o'qituvchi" va "bola-bola" munosabatlarini farqlash, shuningdek, ta'lim faoliyatini rivojlantirish jarayonida bolalarning hamkorligi va o'zaro ta'siri kontekstida birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish bayon qilingan.

Kalit so'zlar. Psixlogiya, peadgogik yondashuv, axborot-tahliliy metodika, bola, maktabgacha ta'lim.

В статье освещается педагогическое значение информационно-аналитического подхода в работе с ребенком в теории развивающего обучения. Намечается дифференциация отношений "ребенок-учитель" и "ребенок-ребенок", а также осуществление совместной деятельности в контексте сотрудничества и взаимодействия детей в процессе развития учебной деятельности.

Ключевые слова. Психология, педагогический подход, информационно-аналитическая методика, ребенок, дошкольное образование.

The article highlights the pedagogical significance of the information-analytical approach in working with a child in the theory of developmental learning. Differentiation of the "child-teacher" and "child-child" relationships is planned, as well as the implementation of joint activities in the context of cooperation and interaction of children in the development of educational activities. Keywords.

Key words. Psychology, pedagogical approach, information and analytical methodology, child, preschool education.

Psixologiya va pedagogikaning asosiy muammolaridan biri – bola ruhiyatini rivojlanishi bilan uni o'qitish va tarbiyalash o'rtasidagi o'zaro bog'lanishlarni rivojlantirib borishdir. Psixologlarning ushbu muammoga alohida qiziqishlarining eng muhim ikkita sababi bor. Ulardan birinchi sabab amaliy ijtimoiy-pedagogik ma'noga ega bo'lib, zamonaviy ilmiy-texnikaviy shiddatli o'zgarib borishi davrida ishlab chiqarish va ijtimoiy hayotda faol ishtirok etuvchi shaxsdan yetarlicha yuqori darajadagi umumiy madaniy hamda kasbiy tayyorgarlik talab etiladi. Bu o'z navbatida, uning ehtiyojlari va qobiliyatlarini, xususan, intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Lekin, shu bilan birga, mavjud ta'lim-tarbiya tizimi mazkur ijtimoiy vazifadan kelib chiquvchi muhim muammolarni tegishli darajada samarali hal eta olmayapti.

Ikkinchi sabab – muammo ilmiy-nazariy tushunish bilan bog'liq bo'lib, o'tgan asrning boshlaridayoq psixologlar tomonidan bolalarning rivojlanish jarayonlari, ularni ta'lim-tarbiyasining o'ziga xos o'zgaruvchan sharoitlarda nisbatan global darajada ko'rib chiqila boshlaganligidadir. Biroq, ta'lim olishning keng ommalashuvi-insonlarning ma'naviy shakllanishiga ijtimoiy-psixologik ta'sirini ko'rsatdi. Bu esa inson psixi-

kasi ontogenezi va uning ta’lim-tarbiyasida ma’lum bir tizimiga ichki bog‘liqligini amalda namoyon etdi.

Ilmiy-tadqiqot ishimizda ushbu bog‘liqlikni amaliyot mazmuni bilan birgalikda shakllantirishga harakat qildik.

Ulardan birinchisini – psixik taraqqiyotda shaxs mustaqilligini ta’minlash va tarbiyalash nazariyasi deb atash mumkin, uning namoyondalari Zigmud Freyd, Jan Piaje va boshqalardir. Aqliy rivojlanish butunlay mustaqil jarayon sifatida talqin etiladi, uning natijalari faqat ta’lim-tarbiyada tadbiq etilgan holda ulardan foydalaniladi.

Ikkinchi nazariya – intellektual rivojlanish va ta’lim o‘rtasidagi bog‘liqlikni tan olishadi ularning namoyondalari G.S. Kostyuk, N.A. Menchinskaya va boshqalardir. Mazkur nazariyaga ko‘ra, rivojlanishning ayrim ichki omillari va shu bilan birga, o‘ziga xos xususiyati inson rivojlanishining real darajasiga bog‘liq holda ta’lim va tarbiya bilan belgilanadi.

Uchinchi nazariya – psixik rivojlanishning zaruriy va universal shakllari sifatida harakat qilish ta’lim va tarbiya orqali amalga oshiriladi, deb hisoblashadi, ularning namoyondalari L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev va boshqalardir. Ushbu shakllar bolaning kattalar bilan bir kishining boshqalar bilan o‘z-o‘zidan va maxsus tashkil etilgan muloqotining har xil turlarida inson tarixan shakllangan madaniyat yutuqlarini o‘zlashtiradigan muloqotda namoyon bo‘ladi. Bu o‘zlashtirishning rivojlanishida ma’lum rol o‘ynaydi. Boshqacha qilib aytganda, intellektual rivojlanish o‘z mazmuniga ko‘ra mustaqil jarayon bo‘lib, u muloqot, o‘zlashtirish, o‘qitish va tarbiyalash shakllarida davom etadi. Shu sababdan ham rivojlanishni undagi o‘zlashtirishning haqiqiy roli, ta’lim va tarbiyaning ayrim turlarining rolini ochib berishdan mustaqil ravishda o‘rganib bo‘lmaydi. Bu nazariyaning asosiy g‘oyasi shundan iboratki, bolaning intellektual rivojlanishi – ta’lim-tarbiya orqali amalga oshiriladi.

Pedagogika kechagi kunga emas, balki bola rivojlanishining kelajagiga e’tibor qaratishi kerak. Shundagina u o‘rganish jarayonida hozirda proksimal rivojlanish zonasida yotgan rivojlanish jarayonlarini hayotga tatbiq eta oladi. O‘rganish va rivojlanish o‘rtasidagi ichki bog‘liqlik ifodalanib, psixologiya faniga “proksimal rivojlanish hududi” tushunchasi kiritildi. Ushbu hududni mavjudligi bolada hali ham mavjud bo‘lmagan ruhiy xususiyatlarning shakllanishini anglatadi. Har bir yoshdagi ta’lim-tarbiya jarayonlari – bolaning mavjud, uyushgan va yetuk xususiyatlariga emas, balki uning proksimal rivojlanish hududida joylashgan xususiyatlariga bevosita bog‘liqdir.

“Hudud” tushunchasining umumiy ma’nosi shundan iboratki, bola o‘z rivojlanishining ma’lum bir bosqichida mustaqil ravishda emas, balki kattalar rahbarligida va yanada aqlli sheriklar bilan hamkorlikda ma’lum bir qator muammolarni hal qilishi mumkin. Bolaning dastlab rahbarlikda va hamkorlikda bajaradigan vazifalari va harakatlari uning proksimal rivojlanishining aniq hududini tashkil qiladi. Ya’ni, bolada hamkorlikdan rivojlanish ta’limdan rivojlanishdan farq qiladi. Rivojlanish uchun ta’limning ahamiyati shunga asoslanadi va bu aslida proksimal rivojlanish hududi konsepsiyasining mazmuni hisoblanadi.

Shu bilan birga, ta’lim-tarbiya o‘z-o‘zidan intellektual rivojlanish jarayonlari bilan bir xil emas. Biroq to‘g‘ri tashkil etilgan ta’lim bolaning intellektual rivojlanishi bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Demak, ta’lim bolada insonning tabiiy emas, balki tarixiy xususiyatlarini rivojlantirish jarayonida ichki va zarur universal momentdir.

Rivojlanish psixologiyasining asosiy vazifalaridan biri inson psixik rivojlanishida davrlashtirishni o‘rganishdir. Faqat uni qurishning umumiy tamoyillarini hisobga olgan

holda, ushbu rivojlanishning tegishli yosh davrlarini ko‘proq yoki kamroq aniq ajratib ko‘rsatish, ularni aniqlash mezonlarini topish va eng muhimi, ularning o‘ziga xos psixologik xususiyatlarini tushuntirish mumkin. Agar muayyan yoshdagi psixologik xususiyat psixika rivojlanishining u yoki bu davriyligiga asoslanmagan bo‘lsa, unda o‘ziga xoslik yo‘qoladi. Har bir inson o‘z yoshiga nisbatan psixik rivojlanishining sifat jihatidan belgilangan bosqichini ifodalaydi.

Shaxs – hayoti va sifat jihatidan o‘ziga xos davri nuqtai nazaridan ma’lum bir yetakchi faoliyat turiga mos kelishi haqidagi g‘oyaga asoslanadi. Uni o‘zgarib borishi yosh davrlarining o‘zgarishini tavsiflaydi. Har bir yetakchi faoliyatda tegishli psixologik neoplazmalar paydo bo‘ladi va shakllanadi, ularning uzluksizligi bolaning intellektual rivojlanishining birligini yaratadi. Ya’ni:

1. Kattalar bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri hissiy aloqa chaqaloq hayotining birinchi haftaligidan bir yoshgacha bo‘lgan davr uchun xosdir. Bunday muloqot tufayli chaqaloq boshqa insonlar bilan muloqotga bo‘lgan ehtiyojni, ular bilan aqliy hamjamiyatni, ularga nisbatan hissiy munosabatni rivojlantiradi.

2. Obyekt-manipulyativ faoliyat bir yoshdan uch yoshgacha bo‘lgan bolalarga xosdir. Ushbu faoliyatni amalga oshirish - dastlab kattalar bilan hamkorlikda bola narsalar bilan harakat qilishning ijtimoiy rivojlangan usullarini takrorlaydi; u nutqni, narsalarning semantik belgilanishini, obyektiv dunyoni umumlashtirilgan tushunchalarini idrok etishni va vizual-samarali fikrlashni rivojlantiradi. Bu markaziy neoformatsiya bolada o‘z farzandlarining “Men” shaklida boshqalar uchun harakat qilish ongining paydo bo‘lishidir.

3. O‘yin faoliyati uch yoshdan olti yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun tavsiflidir. O‘yinda u tasavvur va ramziy vazifani, inson munosabatlari va harakatlarining umumiy ma’nosiga yo‘naltirishni, ulardagi bo‘ysunish va nazorat qilish holatlarini, shuningdek, umumlashtirilgan tajribalarni va ulardagi mazmunli yo‘nalishni aniqlash qobiliyatini rivojlantiradi.

4. Ta’lim faoliyati dastlab olti yoshdan o‘n yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun xosdir. Uning asosida kichik yoshdagi o‘quvchilar nazariy ong va tafakkurni, tegishli qobiliyatlarini: fikrlash, tahlil qilish, rejalashtirish hamda o‘rganish kabi ehtiyojlari va motivlarini rivojlantiradilar.

5. O‘n yoshdan o‘n besh yoshgacha bo‘lgan bolalarga xos va ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan faoliyatga mehnat, tarbiya, ijtimoiy-tashkiliy, sport va badiiy faoliyat turlari kiradi. O‘smirlarda har qanday ijtimoiy ahamiyatga ega ishda ishtirok etish istagi uyg‘onadi.

6. Ta’lim va kasbiy faoliyatni besh yoshdan o‘n yetti-o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilari va kasb-hunar maktablarining o‘quvchilari amalga oshiradilar. Uni yordamida ularda mehnatga bo‘lgan ehtiyoj, kasbiy qiziqishlar, tadqiqotchilik ko‘nikmalari va elementlari shakllanadi. O‘z hayotiy rejalarini tuzish qobiliyati, insonning odob-axloq, fuqarolik fazilatlari va dunyoqarash asoslari mazkur yoshlarda shakllanadi. Bu yoshda o‘g‘il bolalar va qizlar ommaviy kasblardan birida boshlang‘ich malakaga ega bo‘lishlari mumkin.

Shu nuqtayi nazaridan boshlang‘ich ta’lim yoshining psixologik-pedagogik xususiyatlarini batafsil ko‘rib chiqish kerak.

Boshlang‘ich ta’lim yoshi bola hayotida yaqinda sodir bo‘lgan tarixiy davr hisoblanadi. Boshlang‘ich ta’lim yoshi bolalikning boshlang‘ich bo‘g‘ini sifatida uning psixologik xususiyatlarini yakunlangan va o‘zgarmas deb hisoblash mumkin emas. Uning

sababi umumiy o‘rta ta’lim mazmuni va vazifalari bilan bog‘liq bo‘lgan muammolardir. Bola maktabga qadam qo‘yganidan boshlab, undagi voqelik bilan munosabatlarining butun tizimi qayta tuzilmasi amalga oshadi. Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi ikki ijtimoiy munosabatlar tizimida mavjud: ta’limiy-o‘yin faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan “bola-kattalar” va “bola-bolalar” va uning natijalari bolaning ota-onalari bilan xuddi bolalar o‘rtasidagi munosabatlar ham aniqlanmagani kabi ota-onalar bilan munosabatlariga ta’sir qilmaydi. Bu munosabatlar parallel ravishda mavjud bo‘lgan ierarxik aloqalar bilan bog‘langan va bolaning farovonligi oila ichidagi uyg‘unlikka bog‘liq. Maktabda esa bu munosabatlarning yangidan tuzilishi paydo bo‘ladi. Demak, “bola – kattalar” munosabatlari quyidagi ikkita tizimga bo‘linadi: ulardan birinchisi, eksperimental ravishda ko‘rsatilgan, “bola-o‘qituvchi”, bolaning ota-onaga bo‘lgan munosabatini va bolaning bolalarga bo‘lgan munosabatini aniqlashga kirishadi. Bolaning kattalar va tengdoshlari bilan munosabatlari a’lo baho, yaxshi xulq-atvor orqali shakllanadi. “Qanday o‘qiysiz?”- Kattalar tomonidan boladan so‘raladigan birinchi savoldir. Ushbu quyi tizim bola hayotining markaziga aylanadi, barcha qulay sharoitlar yig‘indisi unga bog‘liq.

Birinchi marta bola-o‘qituvchi munosabatlari bola-jamiyat munosabatlariga aylana boshlaydi. Agar bolalar uchun MTTda kattalar shaxs sifatida harakat qilsa va oilada munosabatlarning tengsizligi mavjud bo‘lsa, maktabda “hamma teng huquqli” tamoyili qo‘llaniladi. Bunda bir xil standartlar tizimi mavjud, bir xil baholash choralari va jamiyat talablari o‘qituvchida mujassam. Maktabga qatnay boshlash bilanoq qabul qilingan qoidalarga asoslangan aniq belgilangan munosabatlar tizimi qurilishi kerak. Gegel falsafasiga ko‘ra, maktabga borish insonni ijtimoiy me’yorga olib keladi. Bolalar o‘qituvchining ularga qanday munosabatda bo‘lishiga juda sezgir bo‘lishadi: agar bola o‘qituvchining “sevimlilari” borligini sezsa, u holda uning o‘qituvchiga bo‘lgan ixlosi qaytadi. Dastlab, bolalar o‘qituvchining ko‘rsatmalariga qat’iy rioya qilishga harakat qilishadi, lekin agar u qoidaga sodiqlikka yo‘l qo‘ysa, unda qoida ichkaridan buziladi. Bola o‘qituvchi kiritgan standartga qanday munosabatda bo‘lishligi asosida tengdoshi bilan shunday munosabatda bo‘la boshlaydi.

“Bola-o‘qituvchi” vaziyati bolaning butun maktab hayotiga kiradi. Agar maktab yaxshi bo‘lsa, u uyda ham, bolalar bilan ham, atrofdagi hamma jarayonlarda ham yaxshi bo‘ladi. Bolaning rivojlanishidagi bunday ijtimoiy vaziyat o‘rganish deb ataladigan maxsus faoliyatni talab qiladi.

Avvalo, bu bilimlarni o‘zlashtirish uchun asosiy faoliyatdir. Ammo o‘yin davomida ham bola bilimlarga ega bo‘ladi. Ta’lim faoliyati – insoniyat tomonidan to‘plangan fan-madaniyat obyektlarini, ular bilan harakat qilishni o‘rganishi kerak bo‘lgan maxsus obyektlarni o‘zlashtirishga qaratilgan harakatdir. Boshlang‘ich ta’limning vazifasi – o‘quv faoliyatini tashkillashtirish va uni amalga oshirishni boshlashdir. Ta’lim jarayoni shunday tuzilishi kerakki, uning motivi bolaning maktabda bajarishi kerak bo‘lgan faoliyat mazmuni bilan emas, balki o‘zlashtirish subyektining o‘ziga xos, ichki mazmuni bilan bog‘liq bo‘lishi lozim. O‘quv faoliyatining motivi va mazmuni bir-biriga to‘g‘ri kelmaydi, shuning uchun motiv asta-sekin o‘z kuchini yo‘qota boshlaydi, ba’zan hatto ikkinchi sinf boshiga kelib ham ishlamaydi. Bolaga maktabda o‘qitiladigan mazmun o‘rganishni rag‘batlantirishi kerakva bilish motivatsiyasini shakllantirish lozim. Bilish motivatsiyasining shakllanishi ta’lim mazmuni va metodlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Hali tarbiyaviy bo‘lmagan faoliyatni ta’limga aylantirishning asosiy shartlaridan biri – motivatsiyaning o‘zgarishiga olib keladi. Maktab odatda tashqi ogohlantirish

usullari bilan ishlaydi, bu esa oxir-oqibat majburlash tizimining paydo bo‘lishiga olib keladi. Bunday holda, maktab belgisi rag‘batlantiruvchi kuch sifatida ishlaydi. O‘tgan asrning yetmishinchi yillarida tajriba maktablarida ta’lim mazmunida tub o‘zgarishlar amalga oshirildi. Bu haqiqiy motivatsiya bolalar maktabga shoshilganda sodir bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatdi, u yerda ular o‘zlarini yaxshi, mazmunli, qiziqarli his qiladilar.

Har qanday faoliyat kabi, o‘quv faoliyati ham o‘z predmeti bilan tavsiflanadi. Bilimlarni uyg‘unlashtirish, bolaning o‘zi ularda hech narsani o‘zgartirmaydi va bu ta’lim faoliyatining paradoksidir. Birinchi marta o‘quv faoliyatidagi o‘zgarishlar subyekti o‘zini o‘zi o‘zgartiruvchi sifatida harakat qiladigan ushbu faoliyatni amalga oshiruvchi subyektga aylanadi. Ta’lim faoliyati– bolani o‘ziga qaratadigan, mulohaza yuritishni, talab qiladigan faoliyatdir. Shuning uchun ham har qanday ta’lim faoliyati bolaning baholanishi bilan boshlanadi. Baholash orqali ta’lim faoliyatidagi o‘zgarishlar subyekti sifatida ajralib turadi.

Dastlabki bosqichlarda o‘quv faoliyati o‘qituvchi va o‘quvchining birgalikdagi ishi shaklida amalga oshiriladi. Erta yoshda obyektiv harakatlarni o‘zlashtirishga o‘xshatish orqali aytishimiz mumkinki, dastlab hamma narsa o‘qituvchining qo‘lida, u o‘quvchining qo‘li bilan harakat qiladi. Maktab yoshida bunday faoliyat ideal obyektlar, ya’ni raqamlar, tovushlar bilan amalga oshiriladi, o‘qituvchining mimikalari esa uning fikrlarini to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri ekanligini ifodalaydi. O‘quv faoliyati bir xil obyektiv faoliyatdir, lekin uning predmeti nazariy va idealdir, shuning uchun birgalikdagi faoliyat qiyin kechishi mumkin. O‘quv faoliyatining rivojlanish jarayoni uning individual bo‘g‘inlarini o‘qituvchidan o‘quvchiga o‘tkazishdan iborat.

Ishtirokchilar o‘rtasida bo‘lingan holda, bu faoliyat birinchi navbatda intellektual faoliyatning shakllanishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi, keyin esa yangi psixik funksiyaning mavjud bo‘lish shakliga aylanadi. Yuqori aqliy funksiyalar birgalikdagi faoliyatdan jamoaviy munosabatlar va o‘zaro ta’sirlarning muayyan shakllaridan kelib chiqadi. Insonning psixologik tabiati – shaxsning ichki funksiyalari va uning tuzilishi shakllariga aylanadigan insoniy munosabatlar yig‘indisidir. Shunday qilib, birgalikdagi faoliyat individual faoliyatning zarur bosqichi va ichki mexanizmidir. Aynan faoliyatni taqsimlashdagi o‘zaro munosabatlar va harakat usullarining o‘zaro almashinuvi psixologik asosni tashkil etadi va shaxsning o‘z faoliyati rivojlanishining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi. “Bola-o‘qituvchi” va “bola-bola” munosabatlarini farqlash, shuningdek, ta’lim faoliyatini rivojlantirish jarayonida bolalarning hamkorligi va o‘zaro ta’siri kontekstida birgalikdagi faoliyatni amalga oshirish masalalariga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergasheva M. ‘‘Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarida rivojlantiruvchi ta'limni amalga oshirishning pedagogic shart sharoitlari haqida ma'lumot’’ Ta’lim fidoiylari,13-son.

2. Ergasheva, M. (2021). The role of mathematical issues in improving the methodological training of future.

Salomat SARIMSOQOVA,
Farg‘ona viloyati Beshariq tumani, 23-maktab biologiya fani o‘qituvchisi

TABIIY FANLARNI O‘QITISHDA KOMPETENTLI-YO‘NALTIRILGAN TOPSHIRIQLARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada biologiya fanini ta’limida kompetentli yo‘naltirilgan ta’lim mohiyati, o‘quvchilarning ilmiy va amaliy kompetentligini shakllantirishga kompetensiyaviy yondashuv mazmuni, tabiiy fanlarni o‘qitishda kompetentli yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanishning o‘ziga xos xususiyatlari, kompetensiyaviy yondashuv talablariga mos holda o‘quvchilarning kompetentli-yo‘naltirilgan topshiriqlar asosida amaliy kompetentligini rivojlantirishga oid metodik tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar. Tabiiy fanlar, kompetentli yo‘naltirilgan ta’lim, kompetentlik, kompetentli yondashuv, kompetentli-yo‘naltirilgan topshiriqlar (KYT), amaliy kompetensiya

В статье изложены сущность компетентностно-ориентированного обучения в образовании по биологии, содержание компетентностного подхода к формированию научно-практической компетентности учащихся, особенности использования компетентностно-ориентированных заданий в преподавании естественных наук, методические рекомендации по развитию практической компетентности учащихся на основе компетентностно-ориентированных заданий в соответствии с требованиями компетентностного подхода.

Ключевые слова. Естественные науки, компетентностно-ориентированное образование, компетентность, компетентностный подход, компетентностно-ориентированные задачи (КОЗ), практическая компетентность.

The article describes the essence of competence-based learning in biology education, the content of the competence-based approach to the formation of scientific and practical competence of students, the features of the use of competence-oriented tasks in the teaching of natural sciences, methodological recommendations for the development of practical competence of students based on competence-oriented tasks in accordance with the requirements of the competence approach.

Key words. Natural sciences, competency-based education, competency, competency-based approach, competency-based tasks (PCAs), practical competency.

Respublikamizda bilish paradigmasidan kompetentli ta’lim paradigmasiga o‘tish, o‘quvchilarning o‘zlashtirgan nazariy bilimlarini hayot faoliyati bilan bog‘liq amaliy vaziyatlarda muvaffaqiyatli qo‘llashni taqozo etadi.

Kompetentli yo‘naltirilgan ta’lim – bu ahamiyatli amaliy yo‘naltirilgan muammolarni hal etish tajribasini egallash sifatida talqin etilsa; kompetentli yo‘naltirilgan ta’limning natijasi – o‘qitishning keyingi bosqichida mustaqil samarali, mahsuldor faoliyatga javobgarlik mas’uliyati, kompetentlikni namoyish etish bilan belgilanadi.

Kompetentli-yo‘naltirilgan topshiriqlar (KYT) – kompetentli-yo‘naltirilgan ta’limning integrativ didaktik birligi bo‘lib, o‘zida o‘qitish mazmuni, texnologiyalari, o‘qitish sifati monitoringini qamrab oladi va talabalar kasbiy kompetentligini samarali shakllantirishga xizmat qiladi.

Kompetentli-yo‘naltirilgan topshiriqlar (KYT)ning maqsadi: alohida faoliyat yoki

ularni ma’lumotlar bilan yuklantirish emas, talabaning kasbiy-pedagogik faoliyatini tashkil etish.

Kompetentli-yo‘naltirilgan topshiriqlarning tuzish algoritmi: shakllantirilishi zarur bo‘lgan kompetensiya jihatlarini aniqlash, baholash; tanlangan jihat asosida topshiriqlarni tahrirlash; rejalashtirilgan faoliyatni amalga oshirishga imkon beradigan manbalarni qidirish; rag‘batni shaklantirish; shkala, modelli javoblar, kalitlarni ishab chiqish.

Topshiriqlarni bajarish algoritmi:

1. Topshiriq matnini diqqat bilan o‘qing. Agar matnni tushunishda qiyinchilik bor bo‘lsa, yana bir marta o‘qing.

2. Rasm, chizma, jadval, fazoviy suratlar, xaritalarni qarab chiqing.

3. Savolni diqqat bilan o‘qing, “yashirin” ma’lumotlarni toping.

4. Topshiriqni bajarish natijasini, shuningdek, yakuniy natijani bashoratlang.

5. Topshiriqni yechish uchun turli manbalardan olingan ma’lumotlarni birlashtirish zarur. Shuni yodda tutish kerakki, nafaqat biologik bilimlar, balki boshqa sohalarga (kimyo, geografiya, matematika) oid bilimlar ham kerak bo‘ladi.

6. Bilingki, topshiriqda ortiqcha ma’lumotar ham bor.

7. Javobni ko‘rsatmaga muvofiq yozing.

8. Javobni aniq yozing.

Quyida umumiy o‘rta ta’lim maktablarida kompetentli yo‘naltirilgan topshiriqlar asosida o‘quvchilarning ilmiy, amaliy kompetensiyalarini shakllantirishga oid topshiriqlardan namunalar taqdim etamiz:

1. Tabiiy sharoitlarning xilma-xil bo‘lishiga qaramasdan, o‘simliklarni nafaqat yerning issiq va nam joylarida, balki quruq cho‘llarda, izg‘irin tundra va sovuq taygalarda ham uchratish mumkin. O‘simliklar hayvonlar kabi turli muhit sharoitlarida yashashga moslashgan va tarqalgan. Keltirilgan o‘simliklar ro‘yxatidan tropik cho‘l zonasida tarqalgan o‘simliklarni ajrating (2 tadan kam bo‘lmagan moslanishlar asosida).

Moslanishlarga misol:

1) Yuza joylashgan ildizlar yomg‘irdan so‘ng namlikni tezroq yutish uchun

2) Juda chuqur ildizlar – yer ostidagi suvlardan foydalanish uchun

3) Keng barg plastinkasi – quyosh yorug‘ligini ko‘proq yutish uchun.

4) Barg o‘rniga tikanlar hosl bo‘lishi – namlikni kamroq bug‘lantirish uchun.


5) Barg to‘kilishi – o‘simliklarni sovuq urishdan saqlash uchun

Javob:

2. Savol: “Kartoshkani qaysi organini biz ovqatga ishlatamiz?”, Javob: “mevasini”. Sizlar bilasizlarki, kartoshka mevasi zaharli va ovqatga faqat tugunagi – shakli o‘zgargan ildizi ishlatiladi.

Topshiriq. Rasmda kartoshka tugunagi (1-rasm), ya’ni shakli o‘zgargan ildiz va daraxt va daraxtning kurtak novdasi turibdi (2-rasm). Rasmga diqqat bilan qarab, rasmda tasvirlangan biologik obyektlarning o‘xshashlik va farqlarini belgilang. Nima uchun kartoshka tugunagini meva deb atash mumkin emas?





Modelli javob:

Obyektlarning kelib chiqishi	Obyektlarning farqi
Poyasi bor	Poya turlari har xil
Kurtagi bor	Tugunak ko‘plab kraxmaldan iborat
Qobig‘i bor	Daraxt kurtagidan barg hosil bo‘ladi
Yon ildizlar hosil qiladi.	Tugunak yeyiladi, novda yeyilmaydi.

Baholash mezonlari:
3-4ta o‘xshashlik va farqlarini aytilsa
5 ball;
2-3ta o‘xshashlik va farqlarini aytilsa 4 ball;
1-2 ta o‘xshashlik va farqlarini aytilsa 3 ball.

3. Planetamizda insonlar hayoti uchun zarur tabiiy boyliklarimiz bor. Insonlarning tabiat boyliklaridan ming yillar davomida uzluksiz foydalanishi, ta’sir ko‘rsatishi natijasida ko‘plab muammolar yuzaga kelgan. Taqdim etilgan she’rni o‘qib, muallif o‘z asarida qanday muammoni ko‘targan?

...Va men insonlarga murojaat qilib:
Ato eting barcha tirik jonzotlarga abadiylik
Suvda nima bo‘lsa, suzsin abadiy,
Hayvonlar, qushlarga bering cheksizlik
Xotirjamlik bering yerda ularga
Tabiiylikni saqlang abadiy.
Do‘stlar saqlang ona tabiatni!
Kelajak avlodga keltirmang kulfat,
Sovg‘a qiling ularga sof Zamin albat.

Variativ javoblar:
1) Kislotali yomg‘irlar muammosi
2) Ozon qatlami yemirilishi muammosi
3) Tabiiy va energetik muammo

4) Tabiatga ehtiyotkorona munosabat muammosi
5) Sanoat chiqindilarini utilizatsiyalash muammosi.

Xulosa qilib aytganda kompetentli-yo‘naltirilgan topshiriqlar o‘quvchilarning tabiiy fanlardan tabiiy-ilmiy savodxonligini, mustaqil aqliy operatsiyalarni, muhim amaliy kompetensiyalarni shakllantirishga, egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni hayotiy noaniq vaziyatlarda muvaffaqiyatli qo‘llashga xizmat qiladi.

Kompetentli yo‘naltirilgan topshiriqlar tartibga solish, bilish, tadqiqot va kommunikativ universal ta’lim faoliyati uchun nazorat va baholash materiallari turlaridan biri sifatida ishlatilishi mumkin. Darsda kompetentli yo‘naltirilgan topshiriqlarni keng qo‘llash maktabga nafaqat bitiruvchilarning malakasini oshirishga, balki zamonaviy jamiyatdagi o‘zgarishlarga tezda moslashishga imkon beradi.

Muvaffaqiyatli ta’lim faoliyati uchun “Men bilaman”ga qo‘shimcha ravishda “Men qila olaman”, “Men uddalayman”, “Men xohlayman”, “Men o‘z qobiliyatlarimga ishonaman” kabi iboralar bilan o‘z fikrlarimga yakun yasamoqchiman, zero, biz kelajak uchun nafaqat bilimli, balki mustaqil faoliyat yuritishga qodir barkamol shaxslarni voyaga yetkazishimiz zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.S. Usmonova Bo‘lajak biologiya o‘qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish. Diss.(PhD) Farg‘ona-2020. 70-b.

1. Русскова Л.Н. “Компетентностно-ориентированные задания на уроках биолгии” //https://nsportal.ru/shkola/biologiya/library/-2016/12/13/prezentatsiya-kompetentnostno.

2. Белова Н.А.“Компетентностно-ориентированные задания на уроках биолгии”https://infourok.ru/kompetentnostnoorientirovannie-zadaniya-koz-na-urokah-biologii-1720322.html. //

3. https://docs.google.com/viewerng/viewer?url=https://nsportal.ru/sites/default/files/2016/12/13/kompetentnostno-orientirovannye_zadaniya_po_biologii.pdf

Dilshod ALIBEKOV,
T.N.Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti mustaqil izlanuvchisi

O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILAR GENDER MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA O‘YINLARNING PEDAGOGIK FUNKSIYALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘smir yoshdagi o‘quvchilar gender madaniyatini rivojlantirishda o‘yinlarning pedagogik funksiyalari yoritilgan. Shuningdek, maqolada muntazam rivojlanayotgan o‘smirlarning ruhiy-fiziologik ehtiyojlari o‘yinlar ko‘lamini kengaytirish zaruriyatini yuzaga kelishi, o‘yin turlari, vazifalari hamda ijtimoiylashtirish vositasi ekanligi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar. O‘smir yoshdagi o‘quvchi, gender madaniyat, o‘yinlar, pedagogik funksiya, ijtimoiy rollar, milliy madaniyat, ehtiyoj, qiziqish, ta’lim mazmuni, gender o‘z-o‘zini namoyon qilish.

В данной статье освещаются педагогические функции игр в развитии гендерной культуры школьников-подростков. Также в статье утверждается, что психологические и физиологические потребности регулярно развивающихся подростков являются причиной необходимости расширения сферы игр, видов игр, их задач, средств социализации.

Ключевые слова. Школьник-подросток, гендерная культура, игры, педагогическая функция, социальные роли, национальная культура, потребность, интерес, содержание образования, гендерное самовыражение.

This article highlights the pedagogical functions of games in the development of gender culture of adolescent students. Also, the article states that the psychological and physiological needs of regularly developing teenagers are the reason for the need to expand the scope of games, the types of games, their tasks, and the means of socialization.

Key words. Adolescent student, gender culture, games, pedagogical function, social roles, national culture, need, interest, educational content, gender self-expression.

Gender madaniyatni rivojlantirish o‘smirlarga nimani o‘rgatish va nimadan himoyalanish kerakligini o‘rgatishni aniqlash imkonini beradi. O‘smirlarga o‘z-o‘zini anglash ko‘nikmasini shakllantirishga xizmat qiladigan didaktik vositalarni taqdim etish muhim ahamiyatga ega. Salbiy axborotlarni o‘zlashtirish o‘smirlarning o‘z-o‘zini anglash imkoniyatlarini pasaytiradi. O‘zbek xalqining milliy madaniy boyliklarini o‘zlashtirish asosida o‘quvchilar madaniy boyliklarning subyektiga aylanadilar. Ularning yosh xususiyatlari va o‘zlashtirish imkoniyatlarini hisobga olgan holda madaniy boyliklarning turli qismlarini ta’lim mazmuniga singdirib taqdim etish talab qilinadi. Shu tariqa o‘zbek xalqining madaniy boyliklari o‘smir yoshdagi o‘quvchilar madaniyatining tarkibiy qismiga aylanadi.

Ma’lumki, o‘yinlarga bo‘lgan ehtiyojni ijtimoiy talab belgilaydi. Muntazam rivojlanayotgan o‘smirlarning ruhiy-fiziologik ehtiyojlari ham o‘yinlar ko‘lamini kengaytirishni taqozo qiladi. O‘yinlarning pedagogik vazifalari ularning turli-tumanligi va foydaliligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham, har bir o‘yin turi muayyan pedagogik ahamiyatga ega. O‘smir yoshdagi o‘quvchilarni birgalikdagi faoliyatga undovchi o‘yinlar, san’atga muhabbat uyg‘otuvchi o‘yinlar, ijtimoiylashtiruvchi o‘yinlar, o‘zbek xalqining

turmush tarzida mos o‘yinlar, bayram o‘yinlari, dam olish o‘yinlari, topishmoq o‘yinlar, mashqlantirish o‘yinlari, trening o‘yinlari, hordiq chiqaruvchi o‘yinlar, tasavvur qilishga ko‘maklashadigan o‘yinlar, tuzatish o‘yinlari, muloqot o‘yinlari, ijtimoiy rollarga yo‘naltiruvchi o‘yinlar kabilar.

Yuqoridagi o‘yinlardan aksariyatini o‘zida mujassamlashtirgan integratsiyalashgan o‘yinlar ham mavjud. Bunday o‘yinlar har qanday vaziyatda o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni jalb etib ularning o‘ziga xos gender madaniyatini namoyon qiladi. Shu bilan bir qatorda, o‘yinlar quyidagi vazifalarni ham bajaradi:

– ijtimoiy-madaniy, rolli ahamiyatga egaligi;

– millatlararo va shaxslararo muloqot muhitini vujudga keltirishi;

– o‘smirlarning o‘z-o‘zini namoyon qila olishiga ko‘maklashishi;

– o‘yinlarning aloqa o‘rnatish, tashxislash, davolash muolajalarini o‘tkazish, faoliyatga tuzatishlar kiritish, hordiq chiqarishga ko‘maklashish imkoniyatiga egaligi.

O‘yinlarning ijtimoiy-madaniy mohiyatga egaligi uning o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni ijtimoiylashtirish vositasi sifatida namoyon bo‘lishida o‘z ifodasini topadi. O‘yinlar o‘smirlarning shakllanishlariga ijtimoiy rollarga yo‘naltirilgan vosita sifatida namoyon bo‘ladi va samarali ta’sir ko‘rsatadi.

O‘yinlar yordamida o‘smir yoshdagi o‘quvchilar jamiyatda mavjud bo‘lgan bilimlar, ma’naviy qadriyatlar, ijtimoiy me’yorlarni o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘ladilar. O‘yinlarning ijtimoiy madaniy mohiyati o‘quvchilarning o‘zbek xalqi madaniy boyliklarini, tarbiyaviy imkoniyatlarini uyg‘un tarzda o‘zlashtirishlariga ko‘maklashib, ularni jamiyatning to‘laqonli a’zosi sifatida faoliyat ko‘rsatishlariga imkon beradi. Chunki didaktik o‘yinlar o‘z tabiatiga ko‘ra, xalq madaniyatining etoloni hisoblanadi. Ular o‘zbek xalqining turmush tarzini to‘la namoyon qiladi. O‘yinlarda xalqning ruhiy holati, milliyligi, an’analari aks etadi. Milliy o‘yinlardagi ijtimoiy-madaniy ruh o‘quvchilarda ijtimoiy xulq-atvor me’yorlari, qadriyatlarga amal qilish, jamoaviy harakat yo‘nalishlarini egallash, musobaqalashish va ijtimoiy rollarga kirishish, o‘zbek xalqiga xos milliy xarakter, gender madaniyatni shakllantirish, jamoada harakat qilishga o‘rgatishga ko‘maklashadi. Shu bilan bir qatorda, o‘yinlar turli millat vakillari bo‘lgan o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda o‘z xalqiga xos bo‘lgan milliy gender xarakter elementlarining saqlanishiga ko‘maklashadi. Shuningdek, o‘yinlarda avlodlar orasidagi aloqadorlik va umumiylik namoyon bo‘ladi.

O‘yinlar millatlar orasida aloqa o‘rnatish vazifasini ham bajaradi. O‘yinlar milliy, umummilliy, millatlararo hamda umuminsoniy xarakterga ega. Ularning millatlararo xarakterga egaligi yagona insoniy faoliyat tajribasini ifodalash xarakteriga egaligidadir. Shuning uchun ham ular turli millat vakillari bo‘lgan o‘quvchilarni ham hamjihatlikka undab yaqinlashtira oladi.

O‘yinlar turli hayotiy vaziyatlarni modellashtirish imkonini beradi, ziddiyatlardan qutulish yo‘llarini izlashga undaydi, hayotiy voqelarni turli kechinmalar asosida idrok etishga ko‘maklashadi. O‘yin jarayonida o‘quvchilar turli hayotiy muammolarni yechishga o‘rganadilar. Xalqaro tajribalarning guvohlik berishicha, barcha o‘quvchilar o‘yinning bunday imkoniyatidan birday foydalana oladilar. O‘yinlar xalq madaniyatini o‘zida mujassamlantirib, umuminsoniy ma’naviy qadriyatlarning negizi hisoblanadi.

O‘yinlar jarayonida o‘quvchilarning o‘z-o‘zlarini namoyon qilishlari ularning ijtimoiy gender ko‘nikmalarini egallaganliklari ifodasidir. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, bizning tadqiqotimiz doirasida mazkur hodisaga o‘yinlarning asosiy vazifasi sifatida yondashiladi. Muayyan rejaning amalga oshishi o‘quvchilarning xohish-istaklari ifodasidir. Chunki o‘yinlar jarayonida o‘quvchilar o‘zlarini mustaqil shaxs va jamoa a’zosi

sifatida namoyon qilishga intiladilar. Shuning uchun ham o‘smir yoshdagi o‘quvchilar uchun o‘yin jarayoni pedagogik nuqtayi nazardan o‘ta muhim hisoblanadi. Bu jarayonda o‘quvchilar o‘yinning natijasi, mazkur jarayondagi raqobatlashuv, g‘alaba qozonish imkoniyati, muayyan maqsadga erishishga alohida e’tibor qaratmaydilar. Chunki o‘yin jarayoni o‘smir yoshdagi o‘quvchilar uchun gender o‘z-o‘zini namoyon qilish maydoni hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda, o‘yinlar o‘quvchilar uchun xalqning amaliy tajribasini o‘zlashtirish jarayoni hamdir. Mazkur jarayonda ular o‘zlari to‘plagan tajribalarni amalda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Xalqning amaliy tajribasi shuning uchun ham muntazam tarzda o‘yinlarga singdiriladi. Chunki ular yordamida hayotiy vaziyatlar modellashtiriladi, natijada o‘smir yoshdagi o‘quvchilar ijtimoiy tajriba, gender rollarni o‘yinlar yordamida o‘zlashtirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Barcha o‘yinlarda obyektiv voqelik va hayot haqiqatlari ifodalangan bo‘ladi. O‘yin o‘quvchilar hayotining tarkibiy qismiga aylanib, mazkur jarayonda ular erkinlik, gender sifatlar va mustaqillik ko‘nikmalarini egallaydilar.

Muloqot o‘yinlari o‘smir yoshdagi o‘quvchilarni ijtimoiy faoliyat ko‘rsatish va hamkorlikka kirishishga undab, aniqlik xarakteriga ega. Uning yordamida o‘quvchilar madaniy shaxslararo munosabatlar vaziyatiga olib kiriladilar. Chunki o‘quvchilar o‘z tengdoshlari bilan birga bo‘lish, birgalikda faoliyat ko‘rsatishni ma’qul ko‘radilar. Ular jamoaviy faoliyat tajribasini o‘zlashtirish, o‘zaro bir-birlarining kechinmalarini baham ko‘rishga intiladilar. Har qanday o‘yin jarayoni ayni paytda jamoaviy muloqot jarayoni hamdir. Bu jarayonda o‘quvchilar keng ko‘lamli muloqot asosida hamkorlikka kirishadilar. O‘yin jarayonida o‘smirlar bir-birlari bilan tez til topishadilar, o‘zaro tajriba almashadilar va tajribalarini o‘zlashtiradilar. O‘quvchi jamoaviy o‘yin jarayoniga kirishar ekan, o‘z jamoadoshlari nazdida bir qator ma’naviy burchlarga ega bo‘ladi. Chunki o‘yin o‘rtoqlik, do‘stlik, hamjihatlikka kirishishga asoslangan shaxs ongining g‘alabasidir. Muloqot o‘yin jarayonining asosiy, gender madaniyatni vujudga keltiruvchi manbai hisoblanadi. Aksariyat o‘yinlar birinchi navbatda jamoaviylik xarakteriga egaligi bilan ajralib turadi. Ular o‘zaro aloqadorlikka asoslangan faoliyat, muloqot jarayonida ajdodlar tajribasi, qadriyatlar va ijtimoiy tajribani o‘zlashtirish va bir-birlariga uzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

O‘yin jarayoni insonning boshqa barcha faoliyatlariga nisbatan tashxislash uchun qulayroq vaziyat hisoblanadi. Chunki o‘quvchi o‘yin jarayonida o‘z salohiyati, ikoniyatlari va layoqatini mustaqil tarzda tekshirish imkoniyatiga ega bo‘ladi. O‘yin o‘quvchilarni o‘z-o‘zlarini bilishga undaydi, ularda ichki faollikning ortishi uchun zamin hozirlaydi. O‘smir yoshdagi o‘quvchilar uchun o‘yin ularning aql-zakovatlari, harakatchanliklari, ijodiy salohiyatlari, shaxslararo munosabatlar sifatiga samarali ta’sir ko‘rsatadi.

O‘yinning davolovchilik vazifasi ham alohida ahamiyatga ega. Bunda o‘yinlar davolash vositasi sifatida muayyan mohiyat kasb etadi. O‘yin orqali davolash pedagogikada o‘zining istiqbolli yo‘nalishlariga ega. Bunda o‘yinlardan turli qiyinchiliklarni bartaraf etishda foydalaniladi. Bunday qiyinchiliklar asosan o‘smir yoshdagi o‘quvchilarning xulq-atvorida vujudga keladi. Bunda o‘smirlarning o‘zlari davolash vositasi sifatida o‘zlaridagi qo‘rquvlarni bartaraf etish maqsadida o‘yinlarga murojaat qiladilar.

O‘yinning tuzatuvchilik vazifasi ham alohida pedagogik qimmatga ega. O‘yinlardagi psixologik tuzatish o‘quvchilar faoliyatida ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Chunki o‘yinning asosiy mohiyati o‘quvchilarni to‘laqonli tarzda ijtimoiy hayotdagi hamkorlik faoliyatiga tayyorlashdan iborat. Bu vazifa o‘yinlarda ijtimoiy hayotni modellashtirish orqali amalga oshadi. Mazkur faoliyatga o‘quvchini olib kirish, bu jarayonda vujudga

keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etish, bevosita gender rollarga kirishish layoqatining mavjud emasligi, ruhiy tushkunlikning mavjudligi bilan bog‘liq. O‘yinlar davomida tuzatish jarayonida tabiiy xarakterga ega bo‘lib, agar barcha ishtirokchilar o‘yin qoidalarini birday o‘zlashtirgan bo‘lsalar, ular o‘zlari va sheriklarining bajaradigan rollarini yaxshi bilsalar, agar o‘qituvchi o‘yinning maqsadi va borishini o‘quvchilarga to‘g‘ri tushuntira olgan bo‘lsa, harakatlanish uchun qulay sharoit yaratsa, tuzatish harakatlari samarali kechadi. O‘yinlardan psixologik korreksiya vositasi sifatida foydalanish amaldagi ta’lim jarayonining tarkibiy qismiga aylanishi lozim.

O‘yinlarning hordiq chiqaruvchilik vazifasi uning ijtimoiy vazifalaridan biridir. Bu birinchidan, ularning muayyan ehtiyojlari va intilishlarini qondirish, o‘z xatti-harakatlaridan qoniqish hissini bag‘ishlash, shaxsiy tajribani o‘zlashtirishlariga ko‘maklashish, ikkinchidan o‘z vaqtini maroqli o‘tkazishni tashkil qilish, uchinchidan nimagadir qiziqish uyg‘otish, boshqalarning hissiyotlari, qiziqishlarini his etishga ko‘maklashadi. Dam olish insonning turli qiziqishlarini qondirishga xizmat qiladi. Ruhiy holatidagi osoyishtalikni ta’minlash, shaxsning o‘z ehtiyojlarini qondirishi demakdir. O‘yinlarning hordiq chiqaruvchilik vazifasi muayyan qulaylikni vujudga keltirish, yoqimli muhitni ta’minlash, o‘z-o‘ziga quvonch baxsh etish, barqarorlikka erishish imkonini beradi. O‘yin jarayonida o‘smirlar birinchi navbatda o‘rganadilar keyin dam oladilar. O‘yin jarayonida ularning xayoloti kengayib, faoliyatning turli turlariga qiziqadilar. Biroq, qoniqish hosil qilmasdan turib, muayyan faoliyatga qiziqish mumkin emas. Shuning uchun ham o‘yin jarayonida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda o‘z xatti-harakatlaridan qoniqish hosil qilish hissini shakllantirish lozim. Shunga ko‘ra o‘yin o‘quvchilarni tarbiyalash va rivojlantirishning muhim vositasidir.

Xulosa qilib aytganda, o‘quvchilarning moddiy borliqni bilishlari, jamoaviy tajribaning to‘planishi, kechinmalarning ifodalanishi, jismoniy taraqqiy etishlari, ijtimoiy xulq-atvor me’yorlarini egallashlari, mehnat ko‘nikmalarining shakllanishi, shaxslararo aloqa va muloqot, gender aloqalarning tarkib topishi, estetik hamda hazil-mutoyibani tushunish ko‘nikmalarining shakllanishida o‘yinlar alohida pedagogik qimmatga ega.

Foydalanilgan manbalar:

1. Tojiboyeva X.M. “Gender yondashuv asosida o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda “ommaviy madaniyat”ga qarshi immunitetni shakllantirishning pedagogik strategiyalari” // Monografiya. – T.: “Tafakkur qanoti” nashriyoti, 2021. – 208 bet.

2. Букатов В.М. Педагогические таинства дидактических игр: Уч. пособие. – М.: Московский психолого-сотсиалный институт / Флинта, 1997. – 96 с.

3. Игры – обучение, тренинг, досуг / Под ред. В.В. Петрусинского. – М.: Новая школа, 1994. – С. 368.

4. Sadullayev B.B. O‘quvchilarni hamkorlikka undaydigan o‘yinlar, ularning turlari va pedagogik-psixologik xususiyatlari // Xalq ta’limi – T., 2012.-№ 5 – 37-41-b.

Gulshoda ERGASHEVA,
Samarqand viloyati Pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi “Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari” kafedrasi katta o‘qituvchisi

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA O‘QUVCHILARNING IMLOVIY SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Maqolada boshlang‘ich ta’lim tizimida savodxonlik va nazariy bilimlar bilan amaliyotning bog‘liqligi, savodxonlikka erishishning metod va usullari xalq ta’limi tizimini rivojlantirish omillaridan biri ekanligi xususida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar. Imloviy malaka savodxonlik, yozma nutq, xalq ta’limi, mantiqiy izchillik,tilning fonetikasi, husnixat va imlo qoidalari.

В статье рассматривается связь между грамотностью и теоретическими знаниями и практикой в системе начального образования, а также методы и приемы достижения грамотности, являющиеся одним из факторов развития системы государственного образования.

Ключевые слова. Орфографические навыки, письменная речь, народное образование, логическая связность, фонетика языка, орфография и грамматика.

The article discusses the connection between literacy and theoretical knowledge and practice in the primary education system, the methods and techniques of achieving literacy is one of the factors in the development of the public education system.

Key words. spelling skills, written speech, public education, logical coherence, language phonetics, spelling and grammar.

Ma’lumki, til fikrni shakllantirish va bayon qilish, taassurot, his-tuyg‘ularini ifodalashda muhim o‘rin tutishi, til jamiyat a’zolarining bir-biri bilan o‘zaro aloqasi uchun xizmat qilish vositasi ekani maktabda ona tilini chuqur o‘rganish zaruratini keltirib chiqaradi. Hech bir inson nutq birligi bo‘lmish so‘zning ma’nolarini va ularning imlosini bilmasdan turib, uni og‘zaki va yozma nutqida qo‘llamaydi.

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati ”da orfografiyaga quyidagicha ta’rif beriladi: “Orfografiya yunoncha so‘z bo‘lib, “to‘g‘ri yozuv” degan ma’noni bildiradi. Orfografiya (imlo) adabiy tilning yozma shakli bilan bog‘liq bo‘lib, to‘g‘ri yozish haqidagi qoidalar yig‘indisidir”.

Boshlang‘ich sinflarda kichik yoshdagi o‘quvchilarda imloga oid malakani shakllantirish ustida 1-sinfdan 4-sinfgacha bosqichma bosqich ishlanadi.

“Imloviy malaka maxsus nutq malakasidir. To‘g‘ri yozuv – maxsus nutq faoliyati; yozuv ham murakkab harakat bo‘lib,uning asosida nutq yotadi. Imloviy malaka nutq faoliyatining komponenti sifatida gapni sintaktik jihatdan to‘g‘ri tuzish, so‘zni uslubiy aniq qo‘llashni ham o‘z ichiga oladi”.

Imloviy malakani shakllantirish uchun 1-sinfning savod o‘rgatish davridayoq so‘zlarning tovush va harf tarkibi ustida ishlash, so‘zning orfografik o‘qish va orfoepik o‘qilishini taqqoslash, alifbe davrida “Alifbe” va “Yozuv daftari”da qo‘llangan so‘zlarning tarkibini tovush-harf tahlilini tashkil qilish kabi tahlillar muntazam o‘tkazilishi kerak. Orfografik ko‘nikma yillar davomida shakllantiriladi. Uni malakaga aylantirish uchun bola

so‘zlarning imlosi ustida ta’limning keyingi bosqichlarida ham ishlashi zarur.

Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida ko‘chirib yozish jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarga ko‘pincha ‘‘Ko‘chiring” degan topshiriq bilan cheklanmoqdalar. ‘‘So‘zni (yoki gapni) o‘qing. Yozayotganingizda so‘zni ichingizda bo‘g‘inlab aytib turib yozing. Yozganingizni kitobga qarab tekshiring”, ‘‘Yozuvda qanday xatoga yo‘l qo‘ydingiz? Nima uchun shunday xatoga yo‘l qo‘ydingiz?” topshiriqlari asosida o‘quvchilar ustiga mas’uliyat yuklamaydilar.

Ko‘chirib yozishda so‘zni harflab ko‘chirishga yo‘l qo‘ymaslik kerak. Chunki bola so‘zni harflab ko‘chirishda ayrim harflarni nigohidan o‘tkazib yuboradi, ya’ni tushirib qoldiradi. Ayrim o‘qituvchilar so‘zni bo‘g‘inlab ko‘chirish bilan keyinchalik so‘zni yaxlit ko‘chirish almashadi, so‘ngra u gapni ko‘chirish bilan almashadi, degan fikrni bildiradilar. Biz o‘z tajribamiz asosida shuni aytmoqchimizki, orfografik malaka hosil bo‘lmaguncha, bola hech qachon yozuv jarayonida bo‘g‘inlab aytib turmay yozmaydi. Umuman olganda, boshlang‘ich sinfda yozuv murakkab harakat sifatida ongli jarayonligicha qoladi.

To‘g‘ri yozuv malakasining shakllanishi uchun o‘quvchidan fikrlash faoliyati talab etiladi. Biror to‘g‘ri yozuv hodisasini o‘zlashtirish uchun o‘quv va yodda saqlashgina yetarli emas, balki analiz va sintez kabi tahlilga zarurat seziladi. Bunda grammatik va imloviy hodisalarning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlash uchun taqqoslash hamda so‘z va so‘z shakllarini ma’lum grammatik yoki grafik guruhlarga ajratish, muayyan tizimga solish, tushuntirish va isbotlash kabi aqliy faoliyat usullari ishga solinadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida to‘g‘ri yozuv malakasi grammatik nazariyani asoslanib shakllantiriladi. “Imlo qoidalari, - deyiladi K.Qosimovaning darsligida,- bir so‘znigina emas, balki umumiylik mavjud bo‘lgan butun so‘zlar guruhining yozilishini tartibga soladi. Bu xususiyati bilan u qoida xat yozuvchini har bir so‘zni yodda saqlash, xotirlashdan qutqaradi va qoidaga amal qilib, belgilangan me’yorga muvofiq butun so‘zlar guruhini yozish imkonini yaratadi”

Boshlang‘ich sinfda va hatto yuqori sinfda ham imlo qoidalarini yod oldirishga yo‘l qo‘ymaslik kerak, chunki yod olish imloni o‘zlashtirish degan gap emas. Chunki bir imlo qoidasi necha minglab so‘zlarni o‘ziga birlashtiradi. Har bir so‘z o‘z tovush tarkibiga ega. Bu ularning har biri ustida orfografik va orfoepik tahlilni taqozo etadi. To‘g‘ri, “Imlo qoidasi grammatik umumiylik asosida birlashgan so‘zlarning yozilishini bir xillashtiradi. Bu yozma ravishdagi aloqani yengillashtiradi”. Lekin bu qoida uzoq yillar davomida shakllanishini hisobga olsak, maktab ta’limida so‘z tarkibini doimiy ravishda imlosi nuqtai nazardan kuzatish hamda tahlil qilishni talab etadi.

Ona tili darslarida dastlab grammatik, fonetik, so‘z yasalishiga oid tushunchalar shakllantirilgandan so‘ng ularning imlo bilan bog‘liq tomonlari ochib berilishi kerak.

“Tilning fonetikasi ,- deb yozadi A.Hamroyev,- uning birdan-bir aniq tomoni hisoblanadi. Masalan, “b” tovushi faqat “b” tovushini bildiradi. Fonetika, fonema, bo‘g‘in, urg‘u kabi lingvistik kategoriyalar abstrakt tafakkur mahsuli bo‘lsa-da, nutq tovushi (b), so‘zning bir qismi (bo-bo), so‘z bo‘g‘inlaridan birining kuchli aytilishi (ish-chi-man) bizning ongimizga bog‘liq bo‘lmagan hodisadir.

Fonetikani o‘zlashtirish o‘quvchilarning tafakkurini o‘stirish bilan bevosita bog‘langan. Buning uchun har bir nutq tovushi so‘z tarkibida o‘rgatiladi. Natijada, o‘quvchi so‘zning fizik tomoni hisoblangan nutq tovushlarini so‘z tarkibida farqlash ko‘nikmalarini hosil qiladi. Ma’lum nutq tovushi bo‘yicha so‘z ma’nolarining o‘zgarishi ustida ishlash (o‘n-en-in-un; il-iz-ich-ip-ish), so‘zlarni tovush va bo‘g‘inlariga ko‘ra tahlil qilish, berilgan harf va aytilgan tovush ishtirokida so‘z, soz birikmasi, gap tuzish bolalarda nutq qura

olish layoqatlarini o‘stiradi.”

Ma’lumki, ona tili ta’limiga oid leksika materiallari boshlang‘ich sinflardan boshlab o‘rganiladi. O‘quvchilar so‘zlarning ma’nolari, yaqin ma’noli so‘zlar, qarama-qarshi ma’noli so‘zlar va shu kabi leksik hodisalarni o‘rganish orqali har bir so‘zni o‘z o‘rnida ishlatish uslubini ham o‘zlashtirish yo‘lidan borishadi.

Chunki grammatik nazariya imlo qoidalari uchun poydevor bo‘ladi. Shuning uchun boshlang‘ich sinflarda imlo qoidasi shu qoidaga asos bo‘ladigan grammatik nazariyaga bog‘liq holda o‘rganiladi. Masalan, shakl yasovchi qo‘shimchalarning yozilishi haqidagi qoidalar “Ot”, “Sifat”, “Son”, “Kishilik olmoshlari”, “Fe’l” mavzularidagi otlarning kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi, fe’llarning bo‘lishsiz shakllarining imlosi, otlarning ko‘plik shakllari imlosi, kishilik olmoshlarining kelishik qo‘shimchalari bilan qo‘llanishi bilan bog‘liq imlo, shuningdek, so‘z yasovchi morfemalar bilan bog‘liq ot, sifat, fe’l so‘z yasovchi qo‘shimchali so‘zlar imlosi kabi.

Boshlang‘ich sinfda imlo ustida ”Ona tili” darsligi bo‘yicha ishlanadi. Masalan, 1-sinf ”Ona tili” darsligining 1-mashq asosida ”Tovush so‘zning ma’nosini belgilab beradi. So‘z tarkibidagi bitta tovushning o‘zgarishi bilan so‘z ma’nosi o‘zgaradi”, ”Shuning uchun so‘zning tovush tarkibini sinchiklab kuzatishga o‘rganing. Tovushlarni boshqasi bilan almashtirib yozib qo‘ymaslikka harakat qiling. Shuning uchun qachon to‘g‘ri yozishga ishonch hosil qilsangiz yozing” kabi yo‘llanmalar berib borishni tavsiya qilamiz. Bunda o‘quvchilar imlo qoidasini o‘qimasdan imloga doir dastlabki talablarni bajaradilar.

Shu tarzdagi takror bajarilgan amaliy ishlardan so‘ng darslikda to‘rtburchak ichida berilgan ma’lumotlar ustida ishlanadi. Masalan, 1-sinfda quyidagi ma’lumot berilgan:

Tovushlar harflar bilan ifodalanadi.

Harflarni yozamiz, ko‘ramiz va o‘qiymiz. O‘zbek yozuvida 29 ta harf bor.

Darslikdagi mazkur ma’lumot qismlarga bo‘lib o‘rgatiladi. Aslida o‘quvchilar bu vazifani mashq jarayonidayoq bajarib qo‘ygan bo‘ladilar. Lekin o‘qituvchi uni qismlarga bo‘lib o‘rgatishi lozim. Buning uchun quyidagicha savol-javob o‘tkaziladi:

– To‘rtburchak ichidagi 1-gapni o‘qing. Unda nima deyilgan ekan?

– ”Tovushlar harflar bilan ifodalanadi”degan fikrni bajargan mashqlaringizdan misollar keltirib tushuntirib bering.

– To‘rtburchak ichidagi 2-gapni o‘qing. Unda nima deyilgan ekan?

– ‘‘Harflarni yozamiz, ko‘ramiz va o‘qiymiz” degan fikrni doskaga

2-mashqda yozgan bitta so‘zini yozib tushuntiring. (hunar - unar)

So‘zdagi biror harf tushib qolsa, nimaga ta’sir qilar ekan?

O‘quvchilar yuqoridagi ma’lumotlarni boshqa so‘zlarga tadbiq etadilar. Masalan: so‘z – ko‘z, so‘z-siz, so‘z-soz va boshqalar.

O‘quvchilar mazkur ma’lumot tarzida berilgan qoidaga misol aytish va xilma-xil mashqlarni bajarish yo‘li bilan uni yangi til materialiga, ya’ni yozuv tajribasiga tatbiq etishni o‘rganadilar.

Qoida ustida ishlash metodikasi shu qoidaning xarakteriga qarab tanlanadi. Masalan, -ma bo‘lishsizlik qo‘shimchasining yozilishini deduktiv yo‘l bilan o‘rgatish mumkin. Jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi (-ga) ning oxiri -k bilan tugagan otlarga -ka,-q bilan tugagan otlarga -qa shaklida qo‘shilishi haqidagi qoidani induktiv yo‘l bilan tushuntirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

O‘quvchilar qoidadagi asosiy fikrni ajratishga yordam beradigan vazifalarni bajarsalar, uni o‘zlashtirish xiyla qulay bo‘ladi. Chunki bolalar aniq material bilan ishlaydilar va uni tahlil qilish vaqtida qoidaning muhim qismlarini ajratadilar, qoidani ongli o‘zlashtiradilar.

Nimanidir, masalan, so‘zlarning talaffuzi va yozilishini, so‘z turkumlarini, so‘z qismlarini bir-biriga taqqoslash o‘quvchilarning aqliy faolligini oshiradi. Bunda yana qoidaning ajratilgan belgisini aniq yozib ko‘rsatish ham ahamiyatli hisoblanadi. Qoidada aks ettirilgan muhim fikrni ajratishga o‘qituvchining savollari yordam beradi. Bu savollar, o‘z navbatida, qoidani shakllantirish rejasi ham hisoblanadi.

Qoida ustida jamoa bo‘lib ishlash bilan birga, darslikdan foydalanib, mustaqil ishlash usulini qo‘llash ham mumkin.

Yangi qoidani o‘zlashtirishda o‘rganilgan bilimlarga suyaniladi. Buning uchun yangi qoida ilgari o‘rganilgan qoidalar bilan bog‘lanadi. Bunda qarshi qo‘yish yoki taqqoslash usulidan foydalaniladi va o‘xshash tomonlari aniqlanadi. Masalan, tushum kelishigi qo‘shimchasining yozilishini o‘zlashtirishda u ilgari o‘rganilgan qaratqich kelishigi qo‘shimchasining yozilishi bilan taqqoslanadi va tushum kelishigi qo‘shimchasi otning fe’l tomonidan boshqarilishini bildirishi aniqlanadi.

Imloviy malaka ongli nutq faoliyatining avtomatlashgan komponentidir. Faoliyat avtomatlashishi uchun uzoq vaqt davomida maqsadga qaratilgan mashqlar bajarib boriladi. Imloga oid mashqlar imloviy ziyraklik ko‘nikmasini shakllantirishga, tegishli o‘rinda qoidani tatbiq qilishga, mashqlarning qismlari o‘rtasidagi bog‘lanishni belgilash, ularni umumiy va yagona faoliyat tizimiga kiritishga, o‘quvchilar uchun qoidaning mohiyatini aniqlash va uni shakllantirishga qaratiladi. Qoidani tatbiq qilish davridagina uning mazmuni chuqurroq o‘zlashtiriladi. Metodikada imloga oid mashqlarga:

Maktab ta’limida imloga o‘rgatuvchi quyidagi mashqlar o‘tkaziladi:

1) grammatik-orfografik tahlil;

2) ko‘chirib yozuv:

3) diktantlar;

4) leksik-grammatik tahlil;

5) bayon. Har bir darsga grammatik-orfografik va leksik-orfografik tahlil singdiriladi. Boshlang‘ich sinfdan boshlab, orfografiya grammatika va leksika bilan bog‘lab o‘rgatiladi.

“Ko‘chirib yozuv ko‘rib idrok qilingan so‘z, gap va matnni yozma shaklda ifodalashdir”, - deyiladi yuqoridagi darslikda. K.Qosimovaning “Ona tili o‘qitish metodikasi” darsligida o‘quvchilarda ko‘chirib yozuv ko‘nikmasini shakllantirishga quyidagi talablar qo‘yiladi:

1. Ko‘chirib yozishdan oldin ko‘chirib yozadiganingni yaxlit o‘qib chiq.

2. Har bir gapdagi so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajrat va ichda bo‘g‘inlab ayt.

3. Ko‘chirib yozganingni asliga solishtir va xatolaringni to‘g‘rila.

1-4-sinf “Ona tili” darsligidagi aksariyat mashqlar sharti ko‘chirib yozish asosida bajariladi.

Boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi oldida turgan asosiy ish o‘quvchilarni mashq matnlarini husnixat va imlo qoidalariga rioya qilib yozdirish, tuzatishlarga yo‘l qo‘ymay va tartibli, tinish belgilarini to‘g‘ri qo‘llab ko‘chirib yozishga o‘rgatishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Boshlang‘ich ta’lim bo‘yicha yangi tahrirdagi Davlat ta’lim standarti.//“Boshlang‘ich ta’lim”, 2005.– № 5. 5-bet.

2. Davlat ta’lim standarti va o‘quv dasturi. –T., 2017.

3. K. Qosimova va b. Ona tili o‘qitish metodikasi. – T.: Noshir, 2009.

4. H. Jamolxonov. O‘zbek tili. –T., 2008.

Sarvar SOBIROV,
Chirchiq davlat pedagogika universiteti, “Tasviriy san’at” kafedrasi katta o‘qituvchisi

BADIIY ADABIYOTLARGA ILLYUSTRATSIYALAR ISHLASHNING AN’ANALARI

(Tarbiya klasteri asosida)

Annotatsiya

Maqolada badiiy adabiyotda illyustratsiyalar bilan ishlashning zamonaviy yondoshuvlari, ta’lim klasterining ahamiyati, rassomning illyustratsiyalashdagi vazifalari, illyustratsiyalashda rassomning adabiy asar syujetini ochib berishi, bolalar kitobiga ishlangan illyustratsiyalarning o‘ziga xos xususiyatlari va obrazni ifodalashdagi ahamiyati haqidagi fikrlar bayon etilgan, Shuningdek, bolalar kitoblariga illyustratsiyalashda bolalarning yosh xususiyatlari, kitob mazmunini idrok qilishda illyustratsiyalarning ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim klasteri, vizual, hissiy idrok, estetik sezgirlik, zamonaviy kitob, illyustratsiya, dizayn, syujet, illyustrator, adabiy uslub, grafik elementlar, grafik rassom, kompyuter grafikasi, vektor grafikasi, o‘yma.

В статье описаны современные подходы к работе с иллюстрацией в художественной литературе, значение образовательного кластера, задачи художника в работе иллюстратора, способность художника раскрыть сюжет литературного произведения в работе иллюстратора, особенности иллюстрации к детским книгам и их значение в выражении образа, а также детских книг. Выделены возрастные особенности детей при работе с иллюстрациями, значение иллюстраций в понимании содержания книги.

Ключевые слова. Образовательный кластер, визуальный, эмоциональное восприятие, эстетическая чувствительность, современная книга, иллюстрация, дизайн, сюжет, иллюстратор, литературный стиль, графические элементы, художник-график, компьютерная графика, векторная графика, гравюра.

The article discusses the modern traditions of working with illustrations in fiction, the importance of the educational cluster, the role of artists in illustration, the complementarity of the writer and the artist in the work of illustration, the specifics of children’s illustrations and the importance of image. goes In addition, the role of illustrations in understanding the content of the book, the age difference in children when working with illustrations in children’s books.

Key words. Educational cluster, visual, emotional perception, aesthetic sensitivity, modern book, illustration, design, plot, illustrator, literary style, graphic elements, graphic artist, computer graphics, vector graphics, engraving.

Badiiy adabiyotning matnini vizual ochib berish juda murakkab jarayon bo‘lib, rassomlardan muayyan vazifalarni bajarishni talab qiladi.Kitob illyustratsiyasi tasviriy san’atning o‘ziga xos yo‘nalishi sifatida hissiy idrokini shakllantirishga alohida ta’sir ko‘rsatadi, estetik sezgirlikni rivojlantiradi, badiiy tasvirlar orqali adabiy asar mazmunini ochib beradi, ayniqsa, tezkor idrokni rivojlantiradi. Illyustratsiyalar, shuningdek, ma’lumotni yaxshiroq o‘zlashtirishga, taqdim etilgan materialni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Bolalar kitoblari va badiiy adabiyotlarga ishlangan illyustratsiyalar o‘ziga xos didaktik funksiya bajaradi. Jumladan, o‘quvchi yoshlarning ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishning muhim omili hisoblanadi. Kitob grafikasiga oid materiallar

orqali o‘quvchi-yoshlarni milliy qadriyatlarimiz bilan tanishtirish, ularda insonparvarlik, vatanparvarlik, xislatlarini rivojlantirish, ma’naviy dunyoqarashini shakllantirish hozirgi globallashuv davrida juda muhim ahamiyatga ega. Zero, adabiy asarlar, ularga ishlangan illyustratsilarda shunday insoniy xislatlar tarannum etilgan.

Illyustratsiya – kuchli ta’sir vositasidir. U badiiy asarni ham, boyitishi ham qashshoqlashtirishi mumkin. Bu illyustratorning mahoratidan balki, bayon qilingan tafsilotlarga munosabati, voqealarning qay darajada o‘zlashtirgani va uning dunyoqarashiga bog‘liq. Demak, chiroyli bezakning yechimini grafik rassomning mahoratigina emas, balki uning asarni o‘qib qay darajada tushunganligi ham hal qiladi. Illyustratsiyalarda har doim rassomning syujetga, qahramonlarga, ularning taqdiri va harakatlariga individual munosabati aks etadi.Yaxshi kitob kattalar uchun naqadar foydaligini bilsak, kichik yoshdagi bolalarni voyaga yetishida beqiyos ahamiyatga ega. Ushbu masalada illyustrator ya’ni grafik rassom kichkintoylar didi dunyoqarashini tarbiyalovchi birinchi tarbiyachisi hisoblanadi.Yorqin rang-barang quvnoq chizgilar tasviri bir umrga yosh bolaning xotirasida qoladi.

Bolalar uchun mo‘ljallangan kitoblarni bezash uchun rassomdan tasvirlanayotgan predmetga, yosh bolaning fikri va ko‘zi bilan qaragan holda yondashish talab etiladi. Bunday yondoshish orqali muvaffaqiyat qozoniladi. Kitob rassomi va o‘quvchi o‘rtasida badiiy bog‘lanish bo‘ladi. Odatda bolalar o‘zlariga yoqqan rasmlardan nusxa ko‘chirishga urinadilar, bu bilan ular o‘zlarining qobiliyatini ko‘rsatmoqchi bo‘lishga intiladilar. Hali ularning tajribasi, fikrlashi mustaqil tarzda illyustratsiyalar (bezaklar) chizishga yetarli emas. Illyustratsiyadagi ranglar bolalar tasavvuriga ta’sir etishiga alohida e’tibor qaratish zarur. Illyustratsiya bolalar uchun kitobning eng muhim elementi bo‘lib xizmat qiladi, bu uning badiiy qiymati, hissiy ta’sir darajasi, undan o‘quvchining estetik tarbiyasi jarayonida foydalanish imkoniyatini aniqlaydi. Rasm bolalarning bilimlarini oshirish, axloqiy qadriyatlar, estetik g‘oyalarni rivojlantirish va badiiy asarlarni idrokini chuqurlashtirishga yordam beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar kitobni illyustratsiyasiga qarab tanlaydilar. Bundan tashqari illyustratsiyalar bolalar tomonidan ertak va badiiy asar matnini o‘zlashtirishga, ertak va badiiy asarning mavzusi, g‘oyasi, obrazlari haqida tasavvurlarini shakllantirishga yordam beradi. Bolalarni ertak va badiiy kitoblarni o‘qish uchun qiziqtiruvchi va rag‘batlantiruvchi omil bu illyustratsiylardir. Tasviriy san’atning o‘ziga xos turi sifatida kitob illyustratsiyasi dunyoni hissiy idrokini shakllanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi, bolada estetik sezgirlikni rivojlantiradi.

Kitobdagi rasm bolalarning tasviriy san’at olami bilan birinchi uchrashuvidir. Kitob mazmunini to‘ldirish va chuqurlashtirish, bolada haqiqiy san’at asari vujudga keladigan tuyg‘u va tuyg‘ularni uyg‘otish, uning vizual idrokini boyitish va rivojlantirishda kitob illyustratsiyasi estetik vazifani bajaradi. Bola idrokining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan illyustratsiyalar tufayli kitobga qiziqish paydo bo‘ladi. Ushbu ma’lumotni inobatga olgan xolda o‘qituvchi, ulardan maktabgacha yoshdagi bolalarni estetik va axloqiy tarbiyalash vositasi sifatida foydalanishi tavsiya etiladi[1].

Klassik adabiyot asarlari uchun ishonchli rasmlar bu o‘sha davr rassomlari tomonidan yaratilganligi uchun yangi nashrlarda ko‘pchilik muharrirlar ilgari ishlatilgan yoki eski rasmlarni qayta bosib chiqarish an’anasi paydo bo‘lgan. Kitobni loyihalashtirishga bunday yondashuv qarama-qarshi bo‘lgan qarordir, chunki bizning davrimizda

[1] Sobirov S.T, Sultanov X.E, Ismatov U. Sh. “Illustration and the Influence of Illustrator on Children’s Understanding of Fairy Tales and Works of Art in Books”. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192. 02 Apr 2020.

ko‘plab rassomlar buning teskarisini isbotlaydilar – ular ma’lum bir davr hayotini va har qanday tarixiy tafsilotlarini yangi davrning ijtimoiy muhitidan kelib chiqqan holda aks ettirishga qodir.

Ularning asarlari badiiy va mafkuraviy fazilatlar bo‘yicha mukammalligi bilan ajralib turadigan, oldingi davrlar haqida yangi tushuncha va tasavvurga ega rasmlardir. V. N. Lyaxovning so‘zlariga ko‘ra, “Rassomlarni izlanishga undaydigan kuchli turtki bu, avvalambor, klassik va zamonaviy adabiyotni anglashda yangi ufqlarni kashf etishdir. Bir qator tadbirlarning ochib berilishi va o‘zlashtirilishidan qoniqmagan san’atkorlar adabiyotning tubiga kirib boradilar, yaqinda ularning e’tiboridan chetda qolgan asarlardan parchalar olishga harakat qilmoqdalar”[2].

Zamonaviy kitob – bu kitobni nafaqat taqdim etilgan materiallar, balki vizual hamrohlik orqali, o‘quvchining e’tiborini butunlay va to‘liq jalb qila oladigan, uni o‘ziga xos fazoga jalb qiladigan mavzu. M.V. Stroganovning fikriga ko‘ra “Yozuvchi va rassom hammualliflar sifatida birgalikda kitob yaratadilar va tayyorlaydilar, shuning uchun matn va grafik tasvirlar o‘zaro bir-birini to‘ldiradi”. Hozirgi kunda illyustratsiya kitobni shunchaki bezashdan ko‘ra muhimroq funksiyaga ega. Illyustratsiya, birinchi navbatda, badiiy matnni tanib olishning va uni har tomonlama ochishning samarali usuli bo‘lish bilan birgalikda, M.V. Stroganovning fikriga ko‘ra “Adabiy asarga ishlangan illyustrtatsiya o‘quvchisining ijodiy faoliyatini ma’lum darajada cheklaydi, chunki u matnni aniq vizual izohlashni talab qiladi”[3].

Yuqorida aytib o‘tilganidek, illyustrtsiya – muhim tafsilotlarning ishonchli tasvirlanishiga, muallifning maqsadini aniqroq ochib berishga, ma’lumotni yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam beradi. Deyarli ko‘pchilik odamlarning idrok qilishning asosini – ko‘rish qobiliyati orqali idrok etishni tashkil etadi. Negaki, aynan shu vizual tasvirlarni qo‘lga olib ko‘rish mumkin va bu jarayonda ko‘proq esda qoladi. Bu shuni ko‘rsatadiki, hozirgi paytda illyustratsiya matn mazmunini ochish usuli sifatida, balki badiiy tasvirlarda aks ettirilgan ma’lumotni tezda o‘zlashtirish usuli sifatida ham ishlaydi.

Illyustratsiyaning hissiy va ruhiy jihatdan ta’sirli bo‘lishi – ko‘rgan narsasining taassurotlarini sezilarli darajada olishga qodir odamga ta’sir qiladi. Mobodo badiiy adabiyot matn mazmunini ochib berish uchun illyustratsiyalar yoki rasmlar to‘g‘ri tanlanmagan bo‘lsa ko‘zlangan maqsadga erishila olinmaydi. Masalan: kitobning yaxlit dizayni asarning syujetiga, o‘quvchilarning yosh toifasiga, muallifning adabiy uslubiga to‘g‘ri kelmasa ham kitob o‘z auditoriyasini topa olmaydi. Kitobning keng auditoriyani qamrab olish nafaqat illyustrator tomonidan tayyorlangan illyustratsiyalar sifatiga, balki sifatli nashr etilishiga ham bog‘liq. Shuning uchun ham illyustratsiya ishlanadigan kitoblarga sifatli poligrafiya mahsulotlari – qog‘oz bo‘yoqlar ishlatilishi talab etiladi.

Bugungi kunda klassik va zamonaviy badiiy asarlarni illyustratsiyasilar bilan bezash uslublari yaxlitligi, o‘quvchilar auditoriyasiga mo‘ljallanganligi nuqtayi nazaridan bir qator xususiyatlarga ega. Kitobat san’atining taniqli tadqiqotchisi V.N.Lyaxov shunday deydi – “Kitob orqali kitobxonlarning harakatini yo‘naltiradi va shu bilan uni idrok etish ritmini belgilaydi, balki uning umumiy badiiy natijasini to‘ldiruvchi (yoki buzadigan) tasavvur doiralarini kengaytiradi”[4].

---

[2] Бакулина Н.А, Трынова Т.В. “Современные тенденции иллюстрирования художественной литературы”. КУЛЬТУРОЛОГИЯ И ИСКУССТВОВЕДЕНИЕ. IV международная научная конференция. Молодой учённый. С. 25-27.

[3] Stroganov, M. V. M. S. Bashilov - rassom L. V. Tolstoy va M. E. Saltikova-Shchedrin // kiberleninka. URL: https: // kiberleninka. ru / maqola / v / m-s-bashilov-illyustrator-l-n-tolstogo-i-m-e-saltykova-schedrina.

[4] Lyaxov, V. N. Kitob san'ati. / V.N. Lyaxov. – M., 1978.

Kitobni bezashda illyustrator uchun ustuvor yo‘nalish bu muhim uyg‘un parametrlarni birlashtirgan yagona nashr tushunchasini shakllantirishdan, ya’ni grafik elementlar – bosh harflar, rasmlar, shriftlar, o‘lchamlar, uslublari, intervallari va boshqalardan iborat. Agar matnning umumiy tarkibi va uni qo‘llab-quvvatlaydigan vizual materiallar to‘g‘ri tuzilgan bo‘lsa, birinchi navbatda, o‘quvchilarni kitob dizayni va illyustratsiyalar orqali umumiy tushunchaga ega bo‘lish orqali kitobni o‘qishni xohlaydi.

Badiiy adabiyotlarga illyustratsiya ishlashning zamonaviy tendensiyalari kompyuterning turlicha grafik daasturlaridan iboratligi bilan tavsiflanadi. Ayni paytda alohida e’tirof etish joizki, ayrim hollarda kompyuter grafikasida bajarilgan ishlarda tasviriy san’atning ifodaviy vositalariga xos jihatlar to‘laqonli ifodalanmaydi.

Illyustratsiya, avvalo, o‘quvchining hissiyotlariga kuchli estetik ta’sir etuvchi vositasidir. U badiiy asarni ham boyitishi ham qashshoqlashtirishi mumkin. Bu illyustratorning mahoratidan tashqari, bayon qilingan tafsilotlarga munosabati, voqealarning qay darajada o‘zlashtirgani va uning dunyoqarashiga ham bog‘liq. Demak, chiroyli bezakning yechimini grafik rassomning mahoratigina emas, balki uning asarni o‘qib qay darajada tushunganligi ham bog‘liq. Illyustratsiyalarda har doim rassomning syujetga, qahramonlarga, ularning taqdiri va harakatlariga individual munosabati aks etadi.[5]

Kitobni tasvirlashning muhim xususiyati – bu butun vizual doiraning yaxlitligi. Barcha tasvirlarni bitta kompozitsiya bilan birlashtirish ushbu asarning yanada to‘liqroq yoritilishiga yordam beradi, uning ahamiyatini oshiradi va ma’lum tafsilotlarni ta’kidlaydi.

Illyustratsiya va rasmlar ma’lum bir ketma-ketlikda joylashtirilishi va hikoyaga va bir-biriga mos bo‘lishi kerak. Shuni esda tutish kerakki, vizual parchalar kitob bo‘ylab tarqatilishi va shu bilan ma’lum bir ritmga asoslanishi kerak. Har bir rassomning o‘ziga xos uslubi tufayli illyustratsiya subyektivdir. Turli xil illyustratorlar tomonidan badiiy asarga ishlangan illyustratsiyalar chizish uslubi, g‘oyaviy shakl va kompozitsion yechishda, ranglarni tanlashdagi yondoshuvlari, turlicha bo‘ladi. Bunga misol qilib Servantesning “Don Kixot” asariga taniqli rassomlar Dorye hamda Domyelar tomonidan ishlangan illyustratsiyalar, O‘zbekistonlik kitob bezovchi rassomlar Telmon Muhamedov, Abduboqi G‘ulomov, Abduqahhor Maxkamovlarning “O‘zbek xalq ertaklari” ga ishlangan turkum illyustratsiyalar misol bo‘ladi. Barcha ajralib turadigan xususiyatlarning kombinatsiyasi rassomning o‘ziga xos uslubini belgilaydi.

Hozirgi davrga kelib ta’kidlab o‘tganimizdek, kitoblarni badiiy bezashning eng mashhur usullaridan biri kompyuter grafikasi, vektorli grafika, akvarel va turli xil gravyuralash texnikalarini o‘z ichiga olgan an’anaviy usullardan keng ko‘lamda qo‘llanilayotganligi. Ko‘p jihatdan, uslub va texnikani tanlash mo‘ljallangan auditoriya va ularning tayyorgarligiga bog‘liq. Kitobga rasm va illyustratsiyalar ishlashda o‘quvchilarning yosh toifasini hisobga olish kerak, chunki kattalar va bolalar badiiy matnni idrok etish jarayoni sezilarli darajada farq qiladi.

Kitob illustratsiyasi yosh bolalar uchun muhim ahamiyatga ega. Bola uchun kitob illyustratsiyadan boshlanadi va bu bolaning o‘zlashtirishi uchun rag‘bat bo‘lib xizmat qiladi. 5-6 yoshdagi bolalarda o‘qish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmagan bo‘ladi, shuning uchun bolalar idrokining o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ishlangan illyustratsiyalar bolalarning kitobga va o‘qishga qiziqishini oshiradi[6].

[5] Sobirov S.T,Sultanov X.E, Ismatov U. Sh. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192. 02 Apr 2020. p 3526-3533

[6] Sobirov S.T. “IMPORTANCE OF ILLUSTRATIONS FOR PERCEPTION OF CONTENT OF THE BOOK”. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 8 Number 4, 2020 Part II ISSN

Voyaga yetgan o‘quvchilar uchun aksariyat hollarda kitob nashrini tanlashda ustuvor yo‘nalish axloq, tarbiya, ma’naviy tamoyillar va munosabatlar psixologiyasi bilan bog‘liq masalalarni ochib berishdir. Natijada, ushbu yoshdagi bolalar kitoblarda yanada murakkab rasmlar ustunlik qiladi degan xulosaga kelish mumkin.

Bolalar adabiy va badiiy nashrlarida illyustratorlar ko‘pincha an’anaviy akvarel uslubiga murojaat qiladilar, bu esa tasvirlashda yumshoqlik, ranglarning yorqinligi bilan ajralib turadi. Ranglarning yorqinligi va yumshoq ishlanganligi yosh kitobxonlarni o‘ziga jalb qiladi. Hozirgi vaqtda multfilm tasvirlari har bir bolaga tanish bo‘lib, o‘zining yorqinligi, aniq kompozitsion yechimi, oddiy ijro texnikasi va belgilar va atrof-muhitning aniq ravshanligi bilan o‘ziga jalb qiladi.

Bu bolalarga sodir bo‘layotgan voqeliklarning mohiyatini osonlikcha tushunishga yordam beradi, shuningdek, bolaga ilgari ko‘rmagan narsalarni taqdim etadi. Bolaning ta’lim jarayonida kitob juda muhim rol o‘ynaganligi sababli, undagi illyustratsiyalar nafaqat badiiy tomondan kitob nashri dizayni sifatida ko‘rib chiqilishi, balki g‘oyaviy va pedagogik ahamiyatga ega bo‘lishi kerak.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, matn va illyustratsiyalar kitob mazmunini taqdim etishning asosiy shakli bo‘lgani uchun bolaning kitobni tushunishi og‘zaki taqdimot va ko‘rgazmali tasvirning to‘g‘ri nisbati bilan ta’minlanadi. Bolalar uchun kitoblarning illyustratsiya va rasmlarga bo‘lgan ehtiyoji kattadir. Zamonaviy badiiy ifoda etishning barcha vositalaridan foydalangan holda rassom kattalar uchun ham, bolalar uchun ham ta’sir qiladigan, hissiy idrokni shakllantiradigan, estetik sezgirlikni rivojlantiradigan, badiiy tasvirlar orqali badiiy matnning oshkoraligini rag‘batlantiradigan illyustratsiyalar ishlaydi. Illyustratsiya bolalarni matnni yanada chuqurroq va yaxshiroq idrok etishiga va bilimlarining boyitishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Бакулина Н.А, Трынова Т.В. “Современные тенденции иллюстрирования художественной литературы”. КУЛЬТУРОЛОГИЯ И ИСКУССТВОВЕДЕНИЕ.IV международная научная конференция. Молодой учёный. С 25-27.

2. Lyaxov, V. N. Kitob san’ati. / V.N. Lyaxov. – M., 1978.

3. Sultanov X.E,Sobirov S.T . “Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi” (1-sinf uchun). O‘quv qo‘llanma, Toshkent viloyati CHDPI, Chirchiq 2021.

4. Sobirov S.T,Sultanov X.E, Ismatov U. Sh. “Illustration and the Influence of Illustrator on Children’s Understanding of Fairy Tales and Works of Art in Books”. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Vol. 24, Issue 05, 2020 ISSN: 1475-7192. 02 Apr 2020. p 3526-3533.

5. Sobirov S.T. “IMPORTANCE OF ILLUSTRATIONS FOR PERCEPTION OF CONTENT OF THE BOOK”. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 8 Number 4, 2020 Part II ISSN 2056-5852. P98-101.

Abdug‘afur AVLIYOQULOV,
Termiz davlat universiteti katta o‘qituvchisi

UMUMTA’LIM MAKTABLARIDA MATEMATIKANI O‘QITISH METODOLOGIYASI VA FANLARARO ALOQASINING KONSEPTUAL ASOSLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada umumta’lim maktablarida matematika fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitish metodologiyasining konseptual asoslari bayon qilingan.

Kalit so‘zlar. Innovatsiya, uzviylik, integratsiya, aniq fanlar tizimi, ta’lim, o‘qitish, fan, matematika, pedagogik texnologiya, uzviylik integratsiyasi.

В данной статье изложены концептуальные основы методики преподавания математики в общеобразовательных школах на основе интегративного подхода.

Ключевые слова. Инновация, непрерывность, интеграция, система точных наук, образование, обучение, предмет, математика, педагогические технологии, интеграция непрерывности.

This article presents the conceptual foundations of the methodology of teaching mathematics in general education schools based on an integrative approach.

Key words. Innovation, continuity, integration, system of exact sciences, education, teaching, subject, mathematics, pedagogical technology, integration of continuity.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 31-yanvar kuni olimlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari va ishlab chiqarish sektori vakillari bilan o‘tkazilgan uchrashuvda – “Matematika hamma aniq fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo‘lib o‘sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi” – deb ta’kidlab o‘tdilar. Bu esa ta’lim tizimida, xususan, matematika fanini o‘rgatishda ilg‘or milliy va xalqaro tajribalardan foydalanib, darslarni samarali tashkil etishni taqozo etadi.

“Mamlakatimizning dunyo hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, fan-texnika va texnologiyalarning rivojlanishi yosh avlodning o‘zgaruvchan dunyoda raqobatbardosh bo‘lishi fanlarni mukammal egallashni taqozo etadi, bu esa O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimiga matematikani o‘rgatish bo‘yicha xalqaro standartlarini joriy etish orqali ta'minlanadi”. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida “...2030-yilga kelib PISA (The Programme for International Student Assessment) Xalqaro miqyosda o‘quvchilarni baholash dasturi reytingi bo‘yicha jahonning birinchi 30 ta ilg‘or mamlakati qatoriga kirishiga erishish va uzluksiz ta’lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta’lim tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish” vazifalari belgilangan. Shu ma’noda umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilari matematika fanini puxta o‘zlashtirishlari uchun darslarni integrativ yondashuv metodologiyalari asosida o‘qitish samarali natija beradi. Bu esa umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun qabul qilingan “Milliy o‘quv dasturi” asosida tayanch o‘rta ta’lim (V-IX sinflar) o‘quvchilariga matematika fanini nazariy va amaliy asoslariga oid kompetensiyalarini shakllantirishni

ta'minlaydi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida matematika fanini o‘qitishda integrativ yondashuv metodologiyasining konseptual asoslarini ishlab chiqish esa matematika fanini o‘qitishning samaradorligini oshirish bilan birga o‘quvchilarning boshqa fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi. Dunyo hamjamiyati tomonidan ta’limni barqaror taraqqiyot, globallashuv va integrasiyalashuv jarayonlariga moslashtirishda aniq fanlar, jumladan, matematika fanini ta’lim oluvchilarga integrativ yondashuv metodologiyalari asosida o‘qitishga e’tibor qaratilmoqda. Bugungi kunda aniq fanlar, jumladan, matematika fanini o‘qitishda o‘quvchilarning matematik dunyoqarashini rivojlantirish, umumiy o‘rta ta’lim tizimida fanlarni integrativ yondashuv asosida o‘qitish metodologiyasini yaratish, matematik bilimlarni kundalik va hayotiy faoliyatda qo‘llay olish layoqatini oshirish, bilimlarni to‘liq o‘zlashtirish texnologiyasini takomillashtirish, integrativ ta'limni qo‘llash borasida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda ta’lim sohasini rivojlantirish va amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar matematika fanini o‘qitish jarayoniga xalqaro tajribalarni samarali tatbiq etish, o‘quvchilarning intellektual qobiliyatini rivojlantirishda integrativ ta'lim metodologiyalaridan foydalanish darajasini oshirdi. Matematik integratsiya o‘zining texnologiya infratuzilmasi, o‘z tayanch ta’lim texnologiyalariga ega. Matematik integratsiya-ta’lim jarayoni va uning barcha o‘qitilish shaklida didaktik shart sharoitlarni takomillashtiruvchi hodisadir. Matematika darsida integratsion aloqadorlikni ta’minlashda o‘zaro bir-biriga yaqin o‘quv predmetlarining materiallari nihoyatda talabchanlik bilan muvofiqlashtirilishi lozim. Umumta’lim maktablarida beriladigan matematik bilim qanchalik mustahkam bo‘lsa, o‘quvchilarning dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi va kamol topadi. Shu maqsadlarga erishish uchun matematika fani o‘quvchilarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, mantiqiy fikrlash, to‘g‘ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatini oshirish hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi. Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida matematika fanini o‘qitish mazmunini yangilash va boyitish maqsadida o‘quvchilarga matematika fanini integrativ yondashuv metodologiyalari asosida o‘qitish tizimini ishlab chiqish hamda o‘qitishning yangi modernizatsiyalash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, matematika fanini o‘qitishda integrativ yondashuv asosida tashkil etish masalalari keng talqin qilinishi bugungi kunda salmoqli ahamiyatga ega bo‘lib borishi bilan belgilanadi va quyidagilarda o‘z aksini topadi:

1. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilariga matematika fanini o‘qitishni integrativ yondashuv metodologiyalari asosida o‘qitishga ijtimoiy zaruriyat tug‘ilishi;

2. Matematikaga oid tadqiqotlarda pedagogik–psixologik va ilmiy-amaliy jihatdan qo‘llanilishi, muhitga muvofiqlashtirish tendensiyasini kuchaytirish;

3. Umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilariga matematika fanini o‘qitishda integrativ yondashuvni tadbiq etish metodologiyalarini ishlab chiqish.

4. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining tayanch o‘rta ta’lim (V-IX sinflar) o‘quvchilariga matematika (algebra va geometriya) fanini o‘qitishda integrativ yondashuv metodologiyasining konseptual asoslarini ishlab chiqish.

Shuning uchun ham, matematika ta’limini rivojlantirishda integrativ yondashuv metodologiyalaridan unumli foydalanish dolzarbligi muhim vazifaga aylanmoqda.

Respublika Xalq ta’limini rivojlantirishning “Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida tayanch o‘rta ta’lim (V-IX sinflar) maktablarida matematika fanini integrativ yondashuv metodologiyasining konseptual asoslari yordamida ta’limning uzviylik va uzluksizligi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida matematika

fanini o‘qitishda integrativ yondashuv orqali ta’lim metodologiyasining konseptual asoslarini ishlab chiqish masalasi faylasuf, tarixchi, psixolog va pedagog olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelgan. O‘quvchilar matematika fanini paydo bo‘lishi va rivojlanish bosqichlarini, matematika so‘zining ma'nosini (etimologiyasi), matematikaning bir butun mukammal fan bo‘lib shakllanishi qanday kechganligini bilib olishga qiziqadilar. Bu esa umumiy o‘rta ta’lim maktablarida matematika darslarini ketma-ketlik asosida soddadan murakkabga va matematikaning boshqa fanlar bilan o‘zaro bog‘liqlik asosida hamda ushbu fanning uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketlik va mantiqiy bog‘liqlik asosida tashkil etish esa o‘quvchilarni akademik litsey va kasb-hunar kollejlaridan keyin olinadigan bilim olishlari uchun zamin yaratadi. Shuningdek, umumiy o‘rta ta’lim maktab o‘quvchilari matematika fanidan Milliy o‘quv dasturida belgilangan bilimlarini egallashda buyuk allomalarimiz al-Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, G‘iyosiddin al-Koshiy, Umar Xayyom, Nasriddin at-Tusiy, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi va boshqa allomalarning matematika rivojiga qo‘shgan intellektual merosini o‘rganish jarayonida o‘quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish, bilimlarini oshirish, ularni vatanparvarlik, milliy iftixor tuyg‘usida tarbiyalashga e’tibor qaratilgani bejiz emas. Ota-bobolarimiz tomonidan asrlar davomida yaratilgan ilmiy boyliklar, ular tomonidan yaratilgan asarlar xalqimiz, davlatimiz tomonidan, saqlanib o‘rganib kelinmoqda. Matematika fanining hayotimizda tutgan beqiyos o‘rni inobatga olingan holda mazkur fan birinchi sinflardanoq maktab darsligida kiritilgan bo‘lib, yurtimizda barcha aniq fanlar qatori matematika ta’limini integrativ yondashuv metodologiyalari asosida o‘qitishni takomillashtirib borishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu esa, matematikani o‘qitishda integrativ yondashuvlar asosida tashkil etish va mavzular boshqa fanlar doirasida ham qisman o‘zlashtirilgan bo‘lib ularning o‘zlashtirish o‘quvchilar uchun qiyinchilik tug‘dirmaydi va ularni bilim darajasini to‘ldirishga yordam beradi.

Integratsiyalashgan dars-bunday dars usuli fanlararo aloqani bog‘lash, qo‘llash maqsadida o‘tkazilib, umumiy bilimdonlik darajasini aniqlashdan iborat. Umumta’lim maktablarida beriladigan matematik bilim qanchalik mustahkam bo‘lsa, o‘quvchilarning dunyoqarashi, intellektual salohiyati shunchalik rivojlanadi va kamol topadi.
Matematika fani fizika, biologiya, kimyo va boshqa fanlar bilan uzviy bog‘langan bo‘lib tabiatda ro‘y beradigan jarayonlarning ekvivalent matematik modelini yaratish va ularni tadbiq etishdan iborat. Bundan tashqari matematika fani deyarli barcha fanlar bilan bog‘liq, ko‘p fanlar uchun asos bo‘lib hisoblanadi.

Umumta’lim maktablarida matematika fanini integrativ yondashuv asosida o‘qitishdan maqsad esa olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash, belgilangan mavzular asosida qo‘shimcha bilim olishdan iborat. Bunda ushbu ishlarni bajaradilar:

– amaliy mashg‘ulotlar (misol va masalalar yechish)ga tayyorgarlik ko‘rish;
– nazariy (ta’rif, aksiomalar, teorema, isbot) tayyorgarlik ko‘rish;
– uy vazifalarini bajarish;
– o‘tilgan materiallar mavzularini qaytarish;
– mustaqil ish uchun mo‘ljallangan nazariy bilim mavzularini o‘zlashtirish.

Bunda o‘quvchilar mavzularda olgan bilimlarini amaliy mashg‘ulotlarda bajarishlari bilan mustahkamlashi va uni o‘qituvchi tomonidan uzluksiz nazorat qilib borilishi nazarda tutiladi. Mashg‘ulotlarda olgan nazariy bilimlarini misol va masalalar yechish orqali mustahkamlash dars oxirida uy vazifalarini yechish orqali bilim darajalari ortadi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish uchun umumiy o‘rta ta’lim maktablarida matematika fanini integrativ yondashuv metodologiyalari asosida o‘qitish mazmunini takomillashtirish,

masalalar yechishni integratsiyalashgan holda tashkil etish va o‘tkazish metodikasini ishlab chiqish, matematika faniga qo‘yiladigan talablarni zamonaviy yondashuv asosida takomillashtirish dolzarb hisoblanadi.

Matematika fani bo‘yicha o‘quvchilarni integrativ yondashuv asosida o‘qitish kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

– matematika olamni idrok etishda asosiy qurol ekanligi haqida;

– matematika tushunchalarni umumiyligi haqida;

– matematik modellashtirish haqida tasavvurlarga ega bo‘lish;

– algebra va geometriya formulalari haqida umumiy ma’lumotga ega bo‘lish;

Mavzu yuzasidan olgan nazariy bilimlarni mustahkamlash va mashqlarni bajartirib bo‘lgach, ularga uy ishi uchun bir qancha mashqlar bajarib kelish bilan birga bugungi mavzuga tegishli bo‘lgan buyumlar, shakllarini yasab kelishni topshirib, o‘quvchining mehnat ko‘nikmalarini shakllantiramiz. Bu esa mazkur natijalar g‘oyalarini amaliyotga joriy etishning samarali yo‘llarini tanlash imkonini beradi. Shu bilan birga, o‘quv jarayonida integratsiyalashgan ta’limni amalga oshirishda tarixiy materiallardan foydalanish texnologiyasini qo‘llash darsning sifatini oshiribgina qolmay balki o‘quvchilarimizga fanning rivojlanish tarixi haqidagi ma’lumotga ega bo‘ladilar. Integratsiyalashgan metod orqali bir qancha yutuqlarga erishish bilan bir qatorda, kamchiliklarga yo‘l qo‘yish ehtimoli yo‘q emas. Bundan tashqari vaqtni to‘g‘ri taqsimlay olmasak, biz o‘ylagan maqsadlarimizga erisha olmaymiz.

O‘quvchilarga fanlararo integratsiyalashni yo‘lga qo‘yish matematika fanini o‘qitishda algebra va geometriya fanini o‘rganish bilan birga fizika, biologiya, geografiya va boshqa fanlar haqidagi tushuncha va tasavvurlar shakllanadi. Eng asosiysi, bu kabi integratsiyalashgan darslar fanni chuqur o‘zlashtirish bilan birga o‘quvchilarning intellektual salohiyatini yuksaltirib, uni tashqi olam bilan chuqurroq tanishtirish imkoniyatini yaratadi. Bu esa ta’lim tizimida juda katta samara berib, zamon talabiga javob beradigan raqobatbardosh kadrlarni yetishib chiqishida o‘z hissasini qo‘shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2020-yil 31-yanvar kuni olimlar, ilmiy-tadqiqot muassasalari rahbarlari va ishlab chiqarish sektori vakillari bilan o‘tkazilgan uchrashuv. 31.01. 2020-yil. Toshkent shahri.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-5712-sonli Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 06/19/5712/3034 son, 29.04.2019 y.

3. Jumayev M.Ye. “Bolalarda matematik tushunchalarni rivojlantirish nazariyasi va metodikasi”. – T.: Ilm ziyo nashriyoti. 2005-yil. 224-bet.

4. Djovliyeva G.R. “Boshlang‘ich sinf matematika darslari samaradorligini oshirishda tarixiy materiallardan foydalanishning didaktik asoslari”. Monografiya. – T.: Fan va texnologiya nashriyoti. 2019-yil. 142-bet.

Bobir ERGASHEV,
Toshkentsh Pedagogik innovatsiyalar, rofessional ta’lim boshqaruv hamda pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti dekani, pedagogika fanlari doktori, professor
Samad OTAMIRZAYEV,
NamMQI, Sanoatni axborotlashtirish fakulteti o‘quv ishlari bo‘yicha dekan muovini, mustaqil izlanuvchi

PROFESSIONAL TA’LIM TIZIMI O‘QUVCHILARINI KIMYO FANIGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarning kimyo fanidan amaliy kompetensiyalarini rivojlantirishda foydalaniladigan interfaol usullar, ularni o‘quv jarayonida qo‘llash va vujudga keladigan muammolarni bartaraf etish bo‘yicha takliflar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Amaliy kompetensiya, Bumerang metodi, Domino metodi, Keys stadi metodi, o‘z-o‘zini baholash, ta’limdagi muammolar, maqsadni belgilash, interfaol usul, ijodiy fikrlash.

В статье представлены интерактивные методы, используемые для развития практических компетенций учащихся по химии, предложения по их применению в учебном процессе и устранению возникающих проблем.

Ключевые слова. Практическая компетентность, метод бумеранга, метод Домино, метод тематического исследования, самооценка, проблемы в образовании, постановка целей, интерактивный метод, творческое мышление.

The article presents interactive methods used to develop students' practical competencies in chemistry, suggestions for their application in the educational process and the elimination of emerging problems.

Key words. Practical competence, boomerang method, Domino method, case study method, self-assessment, problems in education, goal setting, interactive method, creative thinking.

Jahon ta’lim taraqqiyotida davlatning ravnaqi va uning ijtimoiy-iqtisodiy, zamonaviy ilmiy-texnik taraqqiyoti, fan va ishlab chiqarish sektorlarining integratsiyasi, ilmiy-texnik axborotlar, ilmiy-innovatsion g‘oyalar, Start-up loyihalarning shiddat bilan rivojlanishi va yangi bosqichga ko‘tarilishi, kasbiy faoliyatning turlari kengayishi uzviylik-uzluksizlik tamoyillarining bugungi kun talablari asosida muntazam dinamik o‘zgarishi asosida namoyon bo‘lmoqda. Ta’lim tizimidagi uzviyligi va uzluksizligini ta’minlash bo‘yicha AQSH, Yevropa, Janubiy Korea, Xitoy, Singapur, Yaponiya kabi rivojlangan davlatlarning ilmiy-innovatsion ishlari, o‘quv tizimi, kadrlarning kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorligi va o‘quvchilarning kasbiy faoliyatida kompetensiyaviy yondashuvlari bo‘yicha jahon reytingida yuqori pog‘onalarni egallashi buning yaqqol misoli bo‘ladi.

Hozirgi kunda iqtisodiyot jarayoni globallashayotgan vaziyatda O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barcha tarmoqlarini intensiv rivojlantirish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bunda zamonaviy texnologiyalarga ega bo‘lgan ishlab chiqarish korx-

onalarida bemalol ishlay oladigan yuqori kvalifikatsiyaga ega bo‘lgan mutaxassislarni tayyorlash ta’lim tizimining asosiy vazifalaridan biridir.

Professional ta’lim tizimida ushbu vazifalarni amalga oshirish bo‘yicha respublikamizda juda ko‘p islohotlar amalga oshirilmoqda, bularning eng asosiylari sifatida 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-sonli farmoni “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmonni ko‘rsatish mumkin. Ushbu farmonga asosan tizimdagi ta’lim muassasalarining barchasida ta’lim sifatiga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Hammamizga ma’lumki, professional ta’lim tizimi o‘quvchilarini muassasalarda fanlarni chuqur o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari va mustaqil ishlash ko‘nikmalari o‘quv markazlarida o‘qiyotgan tinglovchilarga nisbatan anchagina past.

Professional ta’lim tizimida o‘quvchilarni mustaqil ishlash ko‘nikmalarini va amaliy-kompetensiyalarini shakllantirishning samaraliroq va uncha ko‘p vaqt talab etmaydigan usuli bu o‘quvchilarni mustaqil izlanish va o‘rganishga undashdir. O‘qitishning mustaqil o‘rganishga undovchi usuli juda samarali bo‘lib, bunda o‘quvchilarning barcha ma’lumotlarni o‘zlari mustaqil tarzda o‘qib o‘rganishlari talab etiladi, o‘qituvchilar topshiriqlarni bajara olishlari uchun mavzu bo‘yicha keng qamrovli ma’ruzalar va maslahatlar berib boradilar.

Kimyo fanidan amaliy mashg‘ulotlarni mustaqil o‘rganishga undovchi dars shaklida olib borish bilan mustaqil o‘rganish jarayonini vujudga keltirish mumkin bo‘ladi. Amaliy mashg‘ulotlarni mustaqil o‘rganishga undovchi quyidagi besh bosqichli dars ko‘rinishida olib borish mumkin:

1-bosqich. Maqsadni belgilash (5-10 daqiqa).

2-bosqich. Rejalashtirish (10-15 daqiqa).

3-bosqich. Qaror qabul qilish (15-20 daqiqa).

4-bosqich. Bajarish va monitoring qilish (25-30 daqiqa).

5-bosqich. Baholash. (10-15 daqiqa).

O‘quvchilarni mustaqil fikrlashlarini va amaliy kompetensiyalarini shakllantirishning yana bir usuli bu interfaol metodlardan foydalanishdir.

“Venn diagrammasi”, “Bumerang”, “Domino”, “Keys-stadi”, “BBB” va boshqa shunga o‘xshash interfaol metodlar o‘quvchilarni ijodiy qobiliyatini o‘stirishga, o‘zaro hamkorlikda ishlashga, mustaqil fikrlashlarini rivojlanishiga olib keladi.

Misol uchun, Domino metodi – fikriy jarayonlarni mos tushunchalar ketma – ketligida to‘g‘ri taqdim etib, biror bir shaklni hosil qilishdir. Bu usul o‘quvchilarni ijodiy va aqliy qobiliyatini o‘stirishga, o‘zaro hamkorlikda ishlashga, nafosat tarbiyasini rivojlanishiga olib keladi. Shu bilan birga fanning bir bo‘limiga yoki mavzuga doir savol va javoblar yozilgan to‘g‘ri to‘rtburchaklar tayyorlash uchun o‘qituvchini o‘z ustida ishlashga hamda fanga doir yangi bilimlar olishga majbur qiladi.

Domino metodini amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llashda o‘qituvchi o‘quvchilarni uchta kichik guruhga bo‘lib, kichik guruhlarda ishlaydilar. Har bir kichik guruhga o‘ng tomoniga savol va chap tomoniga javoblar yozilgan to‘g‘ri to‘rtburchaklar beriladi. Har bir kichik guruhdan bir o‘quvchi ushbu to‘g‘ri to‘rtburchakdan birini olib, stol ustiga (pinbord oynasiga) o‘rnatadi. Keyingi o‘quvchi to‘g‘ri to‘rtburchakning o‘ng tomonidagi savolga mos keladigan javob yozilgan to‘g‘ri to‘rtburchakni uning yoniga o‘rnatadi. Huddi shu ketma-ketlikda qolgan o‘quvchilar to‘g‘ri to‘rtburchaklarni bir-biriga mos ravishda o‘rnatadilar. Oxirgi o‘rnatilgan to‘g‘ri to‘rtburchakdagi savolning javobi birinchi o‘rnatilgan to‘g‘ri to‘rtburchakdagi javobga mos kelishi kerak.

O‘quvchilarning mustaqil fikrlashlarini va amaliy kompetensiyalarini shakllantiruvchi metodlarning eng samaralilaridan biri bu “Keys-stadi” metodidir. “Keys-stadi” metodida ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys-stadi harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday-Qanaqa (How), Nima-natija (What result). Ushbu harakatlar orqali o‘qituvchi o‘quvchini vaziyatni mavjud ma’lumotlardan foydalangan holda samarali yechimlarni topishga yo‘naltiradi.

“Keys-stadi” metodini qo‘llash bilan o‘quvchilarda mustaqil o‘rganish va fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Ushbu metodni Elektr energetikaga doir fanlarning barcha mavzulari uchun qo‘llashning imkoni bo‘lmaydi, chunki har bir mavzu bo‘yicha bir nechta yechimga ega bo‘lgan muammoni topish va bu muammoni yechish uchun o‘quvchilarda yetarli bilim bo‘lishini ta’minlash talab etiladi. Shuning uchun, “Keys-stadi” metodini ma’ruza mashg‘ulotlarida mavzu bo‘yicha nazariy bilimlar berilgandan so‘ng, amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

O‘quvchilarning mustaqil fikrlashlarini va amaliy kompetensiyalarini shakllantiruvchi metodlardan yana biri bu “Bumerang” metodidir. Bunda bir mashg‘ulot davomida o‘quv materialini chuqur va yaxlit holatda o‘rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo‘naltirilgan.

‘‘Bumerang’’ metodi tanqidiy fikrlash va mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi hamda g‘oya va fikrlarni yozma va og‘zaki shakllarda bayon qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi, ya’ni kelajakda jamoa bilan ishlash maxorati, muomalalik, xushfe’llik, o‘zgalar fikriga hurmat, rahbarlik sifatlarini shakllantirish, ishga ijodiy yondashish, o‘z faoliyatini samarali bo‘lishiga qiziqish, o‘zini xolis baholash kabilar.

O‘qituvchi guruh o‘quvchilarini 4 ta kichik guruhlarga bo‘ladi va har bir guruhga alohida tarqatma materiallar tarqatadi. Shundan so‘ng, o‘quvchilar avval o‘z guruhlari ga tegishli mavzuni o‘rganadilar va muxokama qiladilar, so‘ngra yangi tuzilgan guruhlari miqyosida o‘z mavzularini yoritib beradilar. Natijada, har bir o‘quvchi faollashadi, o‘rganadi va o‘rgatadi.

“Bumerang” metodini qo‘llash o‘quvchilarda mustaqil o‘rganish va fikrlash ko‘nikmasini rivojlantiradi. Amaliy mashg‘ulotni quyidagi to‘rt bosqichda olib boriladi:

1-bosqich (10 daqiqa): Davomat aniqlanadi. O‘quvchilar to‘rtta kichik guruhlarga ajratiladi. “Bumerang” metodini qo‘llash bo‘yicha topshiriqlarni slaydlar yoki tarqatma materiallardan foydalanib, o‘quvchilarga tushuntiriladi. Har bir guruhga alohida mavzuga doir masala berilib, guruhdagilar birgalikda ushbu masalani yechishlari talab qilinadi.

2-bosqich (20 daqiqa): Bunda o‘quvchilar ma’ruza mashg‘ulotlarida olgan bilimlariga tayangan holda, o‘zlariga berilgan masalani mohiyatini o‘rganib chiqadilar va uni yechimini topdilar hamda o‘zaro muhokama qiladilar.

3-bosqich (20 daqiqa): Bu bosqichda o‘qituvchi har bir kichik guruhdan bir nafardan o‘quvchini birlashtirgan holda yangi kichik guruh tuzadi. Bunda har bir o‘quvchi bundan oldingi kichik guruhda o‘rgangan masalani yechimini yangi guruhdoshlariga tushuntirib beradi, barcha o‘quvchilar o‘ziga tegishli masalalarni yechimini tushuntirib berganlaridan so‘ng barcha masalalarni o‘zaro muxokama qiladilar. So‘ngra o‘quvchilar o‘zlarining birinchi kichik guruhlariga qaytadilar.

4-bosqich (20 daqiqa): Bu bosqichda har bir o‘quvchi bundan oldingi kichik guruhda o‘rganib kelgan masalani birinchi guruhdoshlariga tushuntirib beradi, barcha o‘quvchilar o‘zlari o‘rgangan ma’lumotlarni tushuntirib berganlaridan so‘ng, mavzularni o‘zaro

muhokama qiladilar. O‘qituvchi o‘quvchilarni mavzuga doir savollariga javob beradi.

5-bosqich (10 daqiqa): Bunda o‘qituvchi darsda eng faol qatnashgan guruhni, eng faol va bilimli o‘quvchini aniqlaydi hamda ularni rag‘batlantiradi, so‘ngra barcha kichik guruhlardagi faol o‘quvchilarni baholaydi. O‘quvchilarga tayyorlab qo‘yilgan mustaqil ish topshiriqlarini tarqatadi.

“Bumerang” metodidan asosan amaliy mashg‘ulotlarda foydalanish tavsiya etiladi, bu metoddan foydalanishda quyidagi muammolar vujudga kelishi mumkin:

– aksariyat guruhlarda o‘quvchilar soni 20-30 nafarni tashkil etadi, bunda 4 yoki 5 ta kichik guruhga ajratilganda bir nechta o‘quvchi ortiqcha bo‘lib qoladi, masalan guruhda 20 nafar o‘quvchi bo‘lsa 4 nafar o‘quvchi ortiqcha bo‘lib qoladi;

– darsning 3-bosqichida bilimi pastroq bo‘lgan o‘quvchi boshqalarga o‘ziga tegishli bo‘lgan mavzuni yaxshi tushuntirib bera olmaydi, natijada ushbu mavzu yaxshi o‘zlashtirilmay qolishi mumkin bo‘ladi;

– dars davomida o‘quvchilar o‘ziga tegishli mavzuni bir-birlariga tushuntirib berayotgan paytda boshqa guruh o‘quvchilariga xalaqit beradi.

Bu va shunga o‘xshash muammolarni oldini olish uchun quyidagi yo‘llarni keltirish mumkin:

– kichik guruhga ajratilganda ortiqcha bo‘lib qolgan o‘quvchilarni, masalan o‘quvchilar soni 18 nafar bo‘lsa, 4 nafardan 4 ta kichik guruhga bo‘linadi, qolgan 2 nafar o‘quvchilarni esa nazoratchi-ekspert etib tayinlaydi, ularning vazifasi o‘qituvchi bilan birgalikda kichik guruhlar faoliyatini nazorat qilish, kerak bo‘lsa mavzuni tushuntirishda o‘quvchilarga yordam berish va baholab borishdan iborat bo‘ladi;

– darsning 3-bosqichida bilimi pastroq bo‘lgan o‘quvchi boshqalarga o‘ziga tegishli bo‘lgan mavzuni yaxshi tushuntirib bera olmasa, o‘qituvchi o‘sha mavzuni tegishli kichik guruhda to‘la yoritib berish maqsadida nazoratchi-ekspert guruhidagi o‘quvchilarni jalb etadi. Shuning uchun o‘qituvchi nazoratchi-ekspert guruhiga eng iqtidorli, bilimi yuqori bo‘lgan o‘quvchilarni tanlashi kerak bo‘ladi;

– dars davomida o‘quvchilar o‘ziga tegishli mavzuni bir-birlariga tushuntirib berayotgan paytda boshqa guruh o‘quvchilariga xalaqit bermasliklari uchun imkon darajada kattaroq auditoriyani tanlash va kichik guruhlarni bir-biridan uzoqroq o‘tqazish kerak bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki agar amaliy mashg‘ulotlarni mustaqil o‘rganishga undovchi dars yoki interfaol metodlar orqali olib borilganda darsning samaradorligi ortadi, chunki bunda har bir o‘quvchi o‘zi mustaqil ravishda ishlashga majbur bo‘ladi va shunga yarasha tayyorgarlik ko‘radi hamda ular o‘zlarini o‘zlari baholaydilar. Shuning uchun, dars davomida birorta o‘quvchi ham chetda qolmaydi,o‘quvchilarni o‘zlariga bo‘lgan ishonchi, fanga va o‘zlari tanlagan kasbga qiziqishi ortadi, shu bilan birga o‘quvchilarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-sentabrdagi PF-5812-sonli “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni.

2. Ergashev B.B. Professional ta’lim yo‘nalishi talabalarini kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik strategiyasini loyihalashtirish. Pedagogika fanlari bo‘yicha doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – T., 2022 – 25-b.

Nuriddin DO‘SANOV,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

“GAP BO‘LAKLARI VA ULARNING TASNIFI” MAVZUSINI O‘RGATISHGA DOIR QARASHLAR

Annotatsiya

Maqolada O‘zbek tilining sintaksisini o‘rganish, gap bo‘laklarini belgilashda ahamiyatli qirralarini oddiy misollar orqali tahlil qilish bayon etilgan. Shuningdek, gap bo‘laklarining birikmali holda qo‘llanishini o‘rgatishda sintaktik aloqa guruhlari va sintaktik munosabat ko‘rinishlari hisobga olinadi.

Kalit so‘zlar. Sintaksis, fonetika, gap bo‘laklari, birikmali bo‘laklar, leksikologiya, sintaktik munosabat.

В статье описан анализ важности изучения синтаксиса узбекского языка и определения частей предложения через простые, побочный продукт, связанный с синтаксическими отношениями и синтаксическими формами при обучении использованию частей речи.

Ключевые слова. Синтаксис, фонетика, частиречи, составныечасти, лексикология, синтаксическое отношение.

The article describes the analysis of the importance of studying the syntax of the Uzbek language and identifying parts of a sentence through simple ones. , a by-product associated with syntactic relations and syntactic forms when learning to use parts of speech.

Key words. Syntax, phonetics, parts of speech, components, lexicology, syntactic relation.

O‘zbek tilining sintaksisini o‘rganish uning fonetikasi, leksikologiyasi va morfologiyasini o‘rganishga qaraganda ancha murakkab ekani hammaga ma’lum. Chunki sintaksis bo‘yicha keyingi yillarda, ayniqsa, Mustaqillik yillarida yangi-yangi qarashlar, fikrlar, g‘oyalar ilgari surildiki, bularning hammasi an’anaviy tilshunoslikni tubdan o‘zgartirib yubordi. O‘zbek tili sintaksisining gap bo‘laklarini belgilash masalasida ham oldingi qarashlardan farqli yangi qarashlar yuzaga keldi. Bularning hammasi talabalarda ushbu mavzularni o‘zlashtirishda ma’lum bir qiyinchiliklar tug‘diradi.

Biz ushbu maqolamizda sintaksisning gap bo‘laklarini belgilash mavzusining ba’zi bir qirralarini oddiy misollar tahlili asosida ochib berishni lozim topdik.

Bu mavzuni o‘tishda quyidagilarga alohida ahamiyat berish kerak: Gap tarkibidagi so‘zlar o‘zaro bir-biri bilan bog‘langan bo‘lib, bu so‘zlarning har biri gap tarkibida biror grammatik vazifani bajaradi. Masalan: Bu yorug‘ olamda vatan bittadir. Bu misolda bittadir so‘zi hukm ifodalab kesim vazifasida kelgan. Vatan so‘zi gapning nima haqida ekanligini ko‘rsatib ega vazifasida kelgan. Bu, yorug so‘zlari esa predmet belgisini ifodalab sifatlovchi vazifasini bajargan, olamda so‘zi voqea-hodisaning bajarilish o‘rnini ifodalab, o‘rin holi vazifasida kelgan.

Gap bo‘laklarining yana bir asosiy belgisi-ularning mustaqil so‘z turkumlari bilan ifodalanishidir. Gap bo‘lagi vazifasida kelgan so‘zlar, albatta, mustaqil so‘z turkumlari bo‘lishi kerak.

Gap bo‘laklarini belgilashda ba’zan ko‘makchi otlar bilan birga qo‘llangan o‘rin hollari yoki boshqa gap bo‘laklarini chalkashtirish holatlari bo‘lmasligi uchun quyidagilarga

ahamiyat berish kerak:

Stolning ustiga kitoblar taxlangan.

Talabalar universitet yonida to‘planishdi.

Har ikki misoldagi tagiga chizilgan so‘zlar shaklan qaratqich + qaralmish tipida tuzilgan bo‘lsa ham, egalik kelishigi affiksini olgan so‘z (yordamchi so‘z turkumiga xos ko‘makchi ot bo‘lgani uchun qaratqich kelishigi) affiksini olgan so‘z bilan birgalikdagina bitta gap bo‘lagi-o‘rin holi vazifasida kelganligi tushuntirilishi kerak.

Shu xil qo‘llangan ko‘makchi otlar bilan birga shakllangan gap bo‘laklari ishtirok etgan gaplarga ko‘proq misollar keltirish va talabalarning o‘zlari tomonidan badiiy asarlardan misollar topish va tahlil qilish vazifasi bajarilishi yaxshi natija beradi.

Ba’zan ko‘makchi otlar mustaqil so‘zlar bilan birga kelmay, yolg‘iz o‘zi gapda ma’lum gap bo‘lagi vazifasini bajarishi mumkin. Bunday holatlarni qiyoslash usuli bilan quyidagicha izohlab berish mumkin:

1) U uyning ichida (uy ichida) o‘tiribdi.
2) Kitobni shkafning ustiga qo‘ydim.
3) Usti yaltiroq, ichi qaltiroq.

Keltirilgan misollarning birinchi va ikkinchisida ustida va ichida ko‘makchi otlari mustaqil so‘z (shkaf, uy so‘zlari) bilan birga kelibgina o‘rin holi vazifasida kelgan. Uchinchi misolda esa yolg‘iz holda kelib gapda maxsus so‘roqqa javob bo‘lib ega vazifasida qo‘llangan. Shu xildagi misollarni qator keltirib gap bo‘laklarini aniqlashdagi ba’zi noaniq o‘rinlarni to‘g‘ri hal etish mumkin.

Gap bo‘laklarini belgilashda ba'zan hol bilan to‘ldiruvchini chalkashtirish holatlari uchraydi. Ayniqsa, o‘rin-payt, jo‘nalish, chiqish kelishigi affikslarini olgan so‘zlarning sintaktik vazifasini belgilashda hol bilan to‘ldiruvchini qorishtirish mumkin. Chunki shu uch kelishik affiksini olgan otlar ikki xil vazifada kela oladi. Bunday holatda so‘roqlar orqali to‘g‘ri belgilashga o‘rgatish mumkin: kim? yoki nima? o‘zagi bilan bog‘liq holda har uch kelishik formasidagi so‘roqlarga javob bersa- to‘ldiruvchi: har uch kelishikdagi qayer o‘zagi bilan bog‘liq so‘roqqa javob bersa- hol ekanligi tushuntirilishi kerak.

Bulardan tashqari, o‘zbek tilida qotib qolgan kelishik affikslari (o‘zakka qo‘shilib ketgan kelishik affikslari) borki, bular haqida eslatma berish o‘rinli bo‘ladi.

Masalan, chindan, rostdan, birga, tezda kabi so‘zlar tarkibidagi o‘rin-payt, jo‘nalish va chiqish kelishiklari ko‘rsatkichlari (-dan, - ga, -da) ajratilmasligi uqtirilishi kerak.

Shuningdek, ayrim ko‘makchilar bilan birga qo‘llangan so‘zlar gapda ikki xil gap bo‘lagi vazifasini bajaradi. Bilan ko‘makchisi otlar ba’zi olmoshlar bilan birga kelib, ravish holi va to‘ldiruvchi vazifasida keladi:

1. Yoshlar bilan suhbatlashdik.
2. Ular bilan ko‘p masalani hal qilish mumkin.
3. Odamlarning fikrini sabr-toqat bilan eshitdik.
4. U o‘z tajribasini zavq bilan gapirib berdi.

Keltirilgan misollarning birinchi va ikkinchisida bilan ko‘makchisi ot va olmosh bilan birga kelib, kim bilan? so‘rog‘iga javob bo‘lgan, keyingi har ikki misolda esa bilan ko‘makchisi otlar bilan birga kelib qay holda? qanday? so‘roqlariga javob bo‘lib holat ma'nosini ifodalagan. Shunga ko‘ra, birinchi va ikkinchi misolda bilan ko‘makchisi bilan birga qo‘llangan so‘zlar vositali to‘ldiruvchi, uchinchi va to‘rtinchi misollardagi bilan ko‘makchisi bilan birga qo‘llangan so‘zlar ravish holi sanalishi izohlab berilishi kerak. Shu xildagi misollarni ko‘plab keltirib, ularni qiyoslash orqali uqdirilsa yanada yaxshi natijaga erishish mumkin. Misol:


Ravish holi to‘ldiruvchi	Vositali
qunt bilan o‘qidi.	o‘quvchilar bilan uchrashdik.
g‘ayrat bilan ishladi.	yigilganlar bilan suhbat qildik
zavq bilan gapirdi.	yoshlar bilan ishladik.
muloyimlik bilan qaradi.	siz bilan bahslashdim.
sabr bilan eshitdi.	
hurmat bilan so‘zladi.	

Gap bo‘laklarini belgilashda avvalgi o‘tilgan mavzu sintaktik aloqa va sintaktik munosabat, ularning turlarini yaxshi bilgan holda sxema (chizgi) chizish yordamida tahlil olib borish yaxshi natija beradi. Odatda har bir gap bo‘lagi uchun bitta katak ajratilib, tobe bo‘lakdan hokim bo‘lakka chiziq tortish orqali sxema chiziladi. Bunda kesim mutloq hokim bo‘lak ekani va ega unga tobe ekanligi; aniqlovchilar aniqlanmishiga, to‘ldiruvchi va hollar fe’l-kesimga tobe ekanligi eslatilgan holda yuqorida (‘‘so‘z birikmalari’’ bo‘limida) ko‘rsatilganicha sxema chizish yaxshi samara beradi.

Sxema chizishda qo‘shma so‘zlar bir katak ichiga olinishi, birikmali bo‘laklar esa, o‘z tarkibidagi bo‘laklarning sintaktik aloqalarini aks ettirilgan holda bir-biri bilan bog‘lanib so‘ngra yaxlit katta katakka o‘rab, tahlil qilinadi. So‘ngra birikmali bo‘lak gapda qanday vazifada kelgani ko‘rsatiladi.


Misollar keltiramiz:

1. Ma’naviy barkamollik buyuklikning aynan o‘zidir.




Bu misolda birikmali ega (ma’naviy barkamollik = Schi + Ssh) va birikmali kesim (buyuklikning aynan o‘zidir = Qch + Qsh) sintaktik munosabatga kirishgan.

1. Vijdon inson qalbining oliy hakamidir.



Bu misolda esa, kesim birikmali holda kelib, uning tarkibida Schi + Ssh, Qch + Qsh li sintaktik aloqa mavjudligi izohlab beriladi.

3. Vatanni sevmoq iymondandir.



Keltirilgan misolda ega birikmali holda kelib, uning tarkibida fe'lning infinitiv shakli boshqaruvi mavjud.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, gap bo'laklarining birikmali holda qo'llanishini o'rgatishda sintaktik aloqa guruhlari va sintaktik munosabat ko'rinishlari hisobga olinadi. Birikmali bo'laklar ichidagi sintaktik aloqa va sintaktik munosabat aniqlanib, birikmali bo'lak yaxlitligicha qanday gap bo'lagi vazifasida kelgani ko'rsatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sayfullaeva R. v a b. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Darslik. – T.: Fan va texnologiyalar, 2010.

2. Mahmudov N., Nurmonov A. O'zbek tilining nazariy grammatikasi. – T.: O'qituvchi, 1995.

3. Qurbonova M. va b. O'zbek tilining struktural sintaksisi. – T.: Universitet, 2004

Nigoraxon VALIXONOVA,
Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

BOSHLANG'ICH TA'LIMNI TAKOMILLASHTIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Maqolada boshlang'ich sinf darslarida pedtexnologiyalarning qo'llanilishi va afzalliklari, zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarni innovatsion ta'limga munosabatini shakllantirish va ta'lim sifatini oshirish samaradorligi haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so'zlar. Boshlang'ich ta'lim, pedtexnologiya, innovatsiya, axborot, o'quvchi, ilm-fan.

В статье описаны использование и преимущества педтехнологий на занятиях в начальной школе, эффективность формирования отношения учащихся к инновационному образованию и повышению качества образования за счет использования современных педагогических методов.

Ключевые слова. Начальное образование, педтехнология, инновации, информация, студент, наука.

The article describes the use and advantages of pedagogical technologies in the classroom in elementary school, the effectiveness of forming students' attitudes towards innovative education and improving the quality of education through the use of modern pedagogical methods.

Key words. Primary education, pedagogical technology, innovations, information, student, science.

Ta'lim va tarbiya mazmuni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, fan, texnika, madaniyatning obyektiv talablariga asoslanadi. Ta'lim va tarbiya mazmuni tabiat, jamiyat, inson va uning mehnati to'g'risida ijtimoiy tartibga mos keladigan bilimlar tizimi sifatida tushuniladi, ularning o'zlashtirilishi yosh shaxsning aqliy, axloqiy, estetik, mehnat, jismoniy tarbiyasini ta'minlaydi. Ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan islohatlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "...Yosh avlodni barkamol, ma'naviy va jismonan sog'lom, yuqori malakali kasb egasi qilib tarbiyalash, ularni mustakil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy saloxiyatga ega bulib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz", degan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, yurtimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlarning yaratuvchisi sifatida shakllanayotgan yosh avlodni voyaga yetkazish, ularning zamon talablari darajasida bilim olishi, shaxs sifatida kamol topishi, pedagogika sirlarini o'rganishi va kundalik turmush yumushlarini hal etishga tayyorlab borish masalasi asosiy muammolar tariqasida ta'lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri bo'lib turibdi.

Boshlang'ich ta'lim tizimini takomillashtirish – bolalarga ta'lim va tarbiya berishning sifat jihatidan yangi, shaxsiy va rivojlanish strategiyasi amalga oshirilmoqda. Eng muhim ustuvor yo'nalish yosh o'quvchilarda bilim va ta'lim qobiliyatlari va ko'nikmalarini shakllantirish, o'rganish istagi, maktab o'quvchilarining ta'lim muammolarini hal qil-

ish uchun o‘quv fanlarini birlashtirish; chet tilini erta o‘rganish, axborot va axborot texnologiyalarini o‘zlashtirish, kompyuter bilan ishlash tajribasini joriy etish; bolaning individualligini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, uning jismoniy va ruhiy salomatligini himoya qilish va mustahkamlashdir.

Boshlang‘ich ta’lim mazmuni quyidagi savollarga javob beradi: “nimaga o‘rgatish kerak?”, “nimani o‘rgatish kerak?”, “qanday o‘rgatish kerak?”.

Bilim va ko‘nikmalar mazmuni uchun tanlov mezonlari quyidagilardir:

1) shaxsning har tomonlama rivojlanishini shakllantirish vazifalarining mazmunidagi aks etishi;

2) yuqori ilmiy va amaliy ahamiyat, ilm-fan, texnika, madaniyat, ijtimoiy munosabatlarning asosiy yutuqlarini mavjud shaklga kiritish;

3) o‘qitish tarkibining boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining haqiqiy o‘rganish imkoniyatlariga muvofiqligi;

4) kontent hajmining ma’lum bir o‘quv intizomini o‘rganish uchun mavjud vaqtga muvofiqligi;

5) boshlang‘ich ta’lim tizimini takomillashtirishda xalqaro tajribani hisobga olish;

6) fanlararo aloqalarni amalga oshirish, o‘quv materialining takrorlanishini yo‘qotish, boshqa fanlarni o‘rganish jarayonida shakllangan bilim, ko‘nikma va malakalarga tayanishni ta’minlash.

Boshlang‘ich ta’lim tizimini takomillashtirishni muhokama etganda, innovatsiyalar to‘g‘risida gapirib o‘tmay bo‘lmaydi. Lekin buning uchun avval, tarbiyaviy tizimning ichki tushunchasini kiritamiz. Shundan keyin tarbiyaviy tizimni falsafiy va texnologik jihatlarda ko‘rib chiqishda, innovatsiyalar yuzaga kelishini o‘rganamiz. Shunday qilib, pedagogikada “tarbiya” kategoriyasining bir vaqtda, bir necha tushunchalari mavjud tarbiyani o‘rganayotgan avlodga tarbiyani eng muhim ijtimoiy tajribalarni yetkazish bo‘yicha maxsus tashkil etilgan jarayon sifatida tushunish, eng keng tarqalgan tushunchalardan hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, har qanday tarbiya jarayonining asosi, haqiqatda, o‘qitish hisoblanadi, degan xulosaga kelish to‘g‘ri bo‘ladi. Ushbu holatda tarbiya jarayoni didaktik vositalar bilan ko‘rina boshlaydi.

Boshlang‘ich ta’limning vazifasi birinchi navbatda, o‘quvchilarda, o‘zini shu dunyoda anglab yetish, boshqalar orasida o‘z o‘rnini topish bilan dunyoga, madaniyatga, atrof-muhitga qadriyatlarni shakllantirishdan iborat. Lekin mana shu vazifani faqat o‘qitish jarayonida amalga oshirib bo‘lmaydi: u individual manfaatlarini qondirish bilan bog‘liq dam olish doirasidagi o‘yin, mehnat, ijodiy faoliyati bilan ham bog‘liq. Shunday qilib, xususan tarbiya tizimi innovatsiyalarini o‘rganish imkoniyati paydo bo‘ladi. Uni yaratish va rivojlantirish jarayonida, har gal qator aniq masalalarni hal etish kerak bo‘ladi:

– bolalarda dunyoning yaxlit va ilmiy asoslangan ko‘rinishini shakllantirish;

– fuqarolik o‘zini anglashni, vatani taqdiri uchun javobgarlikni shakllantirish;

– bolalarni umuminsoniy qadriyatlarga jalb etish, ular orasida mana shu qadriyatlarga mos bo‘lgan xulqni shakllantirish;

– o‘sib kelayotgan kedlajak avlodda, shaxs xususiyatlari sifatida prespektivlikni, “ijodkorlikni” shakllantirish;

– o‘z-o‘zini anglashni shakllantirish, o‘zini amalga oshirishda bolaga yordam ko‘rsatish.

Albatta, bu masalalar ro‘yxatini davom ettirish mumkin. Lekin har qanday holatda ham, mana shu vazifalarning o‘zi yuqorida sanab o‘tilgan vazifalarining “alohidaligini” ko‘rsatadi. Yuqorida bayon etilgan didaktik qarashlar turli jihatlarida innovatsiyalar

yuzaga kelishi va shakllanishi imkoniyatlarini chuqur muhokama qilish kabi, ushbu masala boshlang‘ich ta’lim tizimini falsafiy va texnologik jihatlarini ko‘rib chiqishda innovatsiyalarni qo‘llab o‘rganamiz. Biz avval aytganimizdek, bugungi kun qarashlari ostida, boshlang‘ich ta’lim tizimida turlicha konseptual (ko‘p jihatdan qarama-qarshi) yondashishlar mavjud. Birinchi yondashuv – bu o‘ziga hos mazmunga ega bo‘lgan (falsafiy-pedagogik, g‘oyaviy, psixologo-pedagogik, ma’naviy va boshqa)bola shaxsiga ijtimoiy belgilangan va maqsadga muvofiq ta’sir ko‘rsatishga asoslanadi.

Respublikamizda “Boshlang‘ich ta’lim konsepsiyasi” hamda boshlang‘ich ta’lim uchun o‘quv dasturlari va o‘quv-metodik majmualarda o‘quvchilarning tayanch va fanga oid kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, xalqaro baholash dasturlari asosida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish savodxonlikni rivojlantirishning didaktik tizimini ishlab chiqish, o‘qituvchilarni o‘quvchilarda hayotiy ko‘nikmalarni tarkib toptirishga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish alohida ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “yosh avlodning ijodiy va intellektual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash hamda ro‘yobga chiqarish” kabi muhim vazifalar belgilab berildi. Bu esa o‘qish darslarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida tayanch va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirish, tayanch kompetensiyalarni tarkib toptirishning ijtimoiy-pedagogik tizimini takomillashtirishni taqozo etadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini oson o‘zlashtirish maqsadida pedagogik texnologiyalarning usul, vosita va shakllarini to‘g‘ri tanlab, ulardan foydalanish muhim sanaladi. O‘qish darslarini tashkil etishda pedagogik texnologiyalarning ko‘pgina metodlaridan foydalaniladi. Bola hayotida bog‘chadan so‘ng maktabning dastlabki davrlari muhim o‘rin tutadi. Shu bois, boshlang‘ich ta’lim davri ta’lim jarayonidagi eng ma’suliyatli davrdir. Bu paytda bolaning savodi chiqishi bilan birga, uning dunyoqarashi shakllanadi, tafakkur qilish malakasi rivojlanadi. Bu davrda bolaning zehnini o‘stirishga qaratilgan har bir mashg‘ulot bola aqlining tarkib topishi va rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun bu davrda, avvalo, ta’lim jarayonini qiziqarli, ta’sirli qilib tashkil etishga, motiv hosil qilish va uni rivojlantirishga e’tibor qaratish lozim.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini o‘qitishni samarali tashkil etish, pedagogik texnologiyalarning mazmuni, shakl va vositalari, ta’lim berishda pedagogik texnologiyalardan to‘g‘ri va unumli foydalanish uslublari, kafolatlangan natijaga erishish uchun olib borilayotgan ta’lim sohasidagi yangiliklarni o‘rganish, amaliyotda foydalanish ishning amaliy ahamiyatini belgilaydi. Ta’lim jarayoni nihoyatda murakkab jarayon bo‘lganligi uchun ta’lim samaradorligi pedagog va o‘quvchi faolliligiga, ta’lim vositalarining mavjudligiga, ta’lim jarayonining tashkiliy, ilmiy, metodik mukammalligiga bog‘liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” / Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – T.: Sharq, 1997.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g'risida”gi Qonuni (1997-yil 29-avgustda qabul qilingan) /Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: Sharq, 1997.

3. Yo‘ldashev J. G., Usmonov S.A. Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy qilish. – T.: Fan va texnologiya, 2008.

Sayyora ALIMBOBOEVA,
Toshkent shahar “Ziyo-zukko” NTM to‘garak rahbari

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLARNING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqolada o‘quvchilarga bilim berishda ta’lim sifatini ko‘tarish, ularning bilim olishlarida yangi zamonaviy metodlardan foydalanish, rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalangan holda ta’lim berish jarayonini takomillashtirish va kelajak avlodning ilm-fanga bo‘lgan intilishlarini yanada oshirishdagi masalar xususida so‘z yuritilgan. Shuningdek, hozirgi kunda ta’lim tizimi va uni rivojlantirish masalalari va ta’lim oluvchilarga chet tilini o‘qitishning samaradorligini oshirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyati ta’lim jarayonidagi qo‘llanilgan ayrim metodlardan misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Interaktiv usullar, guruhlarda ishlash, chet tilini o‘qitish, innovatsion texnologiyalar, ijodkorlik.

В статье говорится о повышении качества образования студентов, использовании в их обучении новых современных методов, совершенствовании процесса образования с использованием опыта развитых стран, повышении стремления будущего поколения к науке. Также в качестве примеров некоторых методов, используемых в образовательном процессе, приведены вопросы системы образования и ее развития и значение инновационных технологий в повышении эффективности обучения студентов иностранному языку.

Ключевые слова. Интерактивные методы, работа в группах, обучение иностранному языку, инновационные технологии, творчество.

The articles discusses the improvement of the quality of education in teaching learners,the use of modern innovative methods in conducting lessons,organizing teaching process,referring to the experience of developed countries, and developing the interest of future generation into science. In this article some methodological samples are given related to innovative technologies used to improve current education system and the issues on its development.

Key words. Interactive methods, group work, foreign language teaching, innovative technologies, creativity, our students.

Jahonga yuz tutgan ilg‘or davlatlar mehnat bozorining asosiy talabi – chet tilida bemalol muloqot qila oladigan, kompyuter texnologiyalardan xabardor va innovatsion g‘oyalarga boy hamda o‘z uslubiga ega bo‘lgan kadrlardir. Bugungi kunda mamlakatimizda chet tillarini o‘rgatish va o‘rganishga bo‘lgan e’tibor har qachongidan ham kuchliroqdir. Respublikamizda xorijiy tillarni o‘rgatishda ularni avval mavjud bo‘lganidek pedagogikaning ancha eskirib qolgan dasturlariga asoslanib o‘qitish emas, balki jahonning yetakchi davlatlari tajribalariga tayangan holda o‘qitish, ta’lim jarayonida rivojlangan, samarali usullar, yangicha dasturlar, innovatsion metodlardan foydalangan holda chet tili o‘qitish sifatini yaxshilash va shuning samarasi o‘laroq mamlakatimizni rivojlantirishda o‘z hissasini qo‘sha oladigan, malakali kadrlarni, kasbining yetuk mutaxassislarini yetishtirish ta’lim dasturining asosiy mazmuniga aylandi.

Maktabda chet tilini o‘rganishdan asosiy maqsad maktab o‘quvchilari o‘rtasida tilga bo‘lgan qiziqish faoliyatini orttirish va chet tilida muloqotni maktab davrida

shakllantirishdan iborat. Boshlang‘ich maktabda dars beruvchi chet tili o‘qituvchisi o‘quvchilari uchun imkon qadar darsni qiziqarli tarzda olib borishga harakat qilishi va bolalarda ijobiylikni shakllantirish kerak bo‘ladi. O‘quvchilar chet tilini yanada qiziqish bilan o‘rganish uchun kayfiyatni shakllantirish, nutqda elementar muloqot qobiliyatlarini o‘rgatish va kichik o‘quvchilarni o‘qish va yozish, tanishtirishga oid quvnoq chet tiliga xos qo‘shiq bilan darslarni yanada qiziqarli tarzda olib borish mumkin.

Kichik maktab o‘quvchilarning nutqiy bilim qobiliyatlarini she’riy va biron bir ajoyib folklor mahalliy va xorijiy tillarda kuzatilgan lingvistik tushunchalar bilan ham boyitish mumkin.

O‘qitishning interaktiv uslublari deyilganda birinchi navbatda talabaning o‘quv jarayonini faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan innovatsion pedagogik uslublar majmui va texnik vositalar tizimi tushuniladi. Interaktiv uslubdagi mashg‘ulotda talaba berilayotgan ma’lumotlarni tinglashi, o‘qishi, ko‘rishi, yozib borishi, mavzu bo‘yicha savollar berishi, o‘z fikrini erkin bayon etishi, amaliy topshiriqlarni bajarishi va o‘zining hayotiy tajribasi bilan bog‘lab, mavzu bo‘yicha nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalar hosil qilishi lozim. Interfaol usullar ta’lim jarayonida qatnashayotgan har bir o‘quvchining faolligiga, erkin va mustaqil fikr yuritishiga asoslanadi. Bunday usullardan foydalangan holda bilim olish o‘quvchi uchun qiziqarli mashg‘ulotga aylanadi. Darsda interfaol usullar qo‘llanilganda o‘quvchilar o‘qituvchi yordamida va hamkorligida mustaqil ishlash ko‘nikma va malakalariga ega bo‘ladilar.

Ko‘pchilik to‘garakni qoloq o‘quvchilar bilan ishlash fakultativ deb tushunishadi, a ba’zilar uy vazifasini qildirishing kerak, lug‘at yodlat ana portfoliosidagi degan tushuncha bilan mensimay yuradi. Aslida fan to‘garaklari yo‘nalishi, mazmuni, ish metodi, o‘qish vaqti va boshqa jihatlari bilan ajralib turadi, ular o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘qishga ijobiy munosabatlarni shakllantirishga yordam berishga qaratilgan, undan tashqari to‘garaklar o‘qishni hayot bilan aloqasini kuchaytirib, fanlararo bog‘liqlikni rivojlantiradi. Bu fan to‘garaklari o‘quvchilarni o‘quv jarayonini faollashtirishda, o‘qish sifatini yaxshilashda yordam beradi. Undan tashqari maktab fakultativ kurslarni ham tashkil etadi. Ular o‘quvchilar, ularning ota-onalari istak va qiziqishlarini hisobga olish bilan ishlab chiqiladi. Fakultativ fanlarni ro‘yxatini aniqlashda faqat o‘quvchilar istaklarini emas, balki ijtimoiy talablar va maktab imkoniyatidan kelib chiqiladi va bu mashg‘ulotlar majburiy umumiy o‘rta ta’lim fanlari bilan uzviy bog‘liqlikda o‘tkazilishi kerak. Yaxshi rejalashtirilmagan, yetarlicha o‘ylab chiqilmagan, shoshilinch tuzilgan va o‘quvchilar imkoniyatlariga moslashtirilmagan dars sifatli bo‘la olmaydi.

Bizga ma’lumki, ta’lim mazmunini standart va o‘quv dasturlaridan keyin albatta, ularga asoslanib yaratiladigan darslik va o‘quv qo‘llanmalarsiz tasavvur qilish qiyin. Ta’lim darslikdan boshlanadi, chunki darsliklarda millat tafakkuri va millat fikri o‘z aksini topadi. Xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida ta’limiy vazifalarni tarbiyaviy ishlar bilan uyg‘unlashtirish lozim, ya’ni o‘quvchilarda mas’uliyat hissi, yuksak ahloq va poklik, Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy merosni e’zozlash ruhini tarbiyalash lozim bo‘ladigan materiallar darsliklarda o‘z ifodasini topishi kerak.

Ta’lim tarbiya tizimidagi islohotlarning muvaffaqiyati ko‘p jihatdan o‘quvchilarga bog‘liq. Shunday ekan, bugungi kun o‘qituvchisi qanday bo‘lishi kerak? – degan haqli savol tug‘iladi. Bugungi kun o‘qituvchisi, bilimli, atroflicha fikrlay oladigan, dunyoqarashi keng, o‘z ustida tinimsiz ishlaydigan, izlanuvchan, o‘z faoliyatida ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarni samarali qo‘llay oladigan ijodkor shaxsga, yoshlarning yuragiga chuqur kirib boradigan yuksak fazilatlar egasiga aylanishini hayotning o‘zi

talab etmoqda. Bugungi kunda zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum bir faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, o'quvchilar tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

Til bu eng muhim aloqa vositasidir. Til yordamida odamlar bir-biri bilan aloqa qiladilar, fikr almashadilar, his-tuyg'ularini va fikrlarini bildiradilar. Til insonning fikrlashi va ongi bilan chambarchas bog'langandir.

Dars jarayonida ta'limiy o'yinlarni qo'llash, bu o'yinlar orqali o'quvchilarda darsga qiziqishi ortadi, hatto o'zlashtirishi past bo'lgan o'quvchilar ham o'yin jarayonida bevosita ishtirok etish orqali o'rganilayotgan tilni yaxshiroq egallash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Buning uchun o'qituvchi avvalo ta'limiy o'yinlarni tashkil qilishni puxta rejalashtirishi kerak. O'yin barcha o'quvchilarga tushunarli bo'lishi, ularning faol ishtirokiga imkon berishi zarur. Bunda o'quvchilarning iqtidori turlicha bo'lishini ham unutmaslik lozim. O'zlashtirish darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar bu o'yinlarni jiddiy qabul qilmasliklari mumkin. Bunday vaziyatlarda o'qituvchi til o'rganish va muloqot asnosidagi ahamiyatini tushuntirish lozim bo'ladi. O'zlashtirayotgan tilni u qadar yaxshi bilmagan o'quvchi kerakli so'zni topa olmay qiynalib qolganida ona tilida gapirishni ham boshlab yuborishi mumkin. Shuning uchun o'qituvchi o'yinni diqqat bilan kuzatib borishi zarur. O'quvchilar nutqidagi xatolar o'yin tugagandan so'ng tuzatiladi. Ta'limiy o'yinlar uchun 5-10 daqiqa ajratish mumkin. Bu o'yinlarni darsning o'rtasida yoki oxirida o'tkazish maqsadga muvofiqdir. Bunday o'yinlarni ikki va undan ortiq o'quvchi yoki sinflar o'rtasida o'tkazilishi, sinf a'zolari o'rtasidagi muloqot hamkorlik va hamjihatlik tuyg'ularini mustahhkamlashga xizmat qiladi. Ta'limiy o'yinlar ikkiga bo'linadi. Ular, kommunikativ va grammatik o'yinlardir.

Kommunikativ o'yinlar o'quvchini muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lsa, grammatik o'yinlar qoidalarni o'rganish va mustahkamlash maqsadida tashkil etiladi.

Kommunikativ o'yinlarga misollar:

"Ta'rifla va chiz" deb nomlanuvchi o'yinda bir o'quvchi qo'lidagi suratni ta'riflaydi, boshqasi esa uning rasmini chizadi, bunda bir o'quvchi bilmagan so'zni boshqasi tushuntiradi, shu tariqa o'zaro fikr almashinadi, muloqotga kirishiladi

"Farqini top" o'yinida esa har bir o'quvchiga bittadan rasm beriladi. Bu rasmlarda 1-2 tadan farq bo'ladi. Har bir o'quvchi qo'lidagi rasmni ta'riflaydi va o'quvchilarga savollar beradi. Rasm o'rtasidagi farqlar aniqlangach, rasm boshqa o'quvchilarga ko'rsatiladi, qiyoslanadi va boshqa farqlar bor bo'lsa, ularni topishga harakat qilinadi.

"Sherigingni top" o'yinida sinf ikki qismga bo'linadi. Har bir o'quvchiga bittadan kartochka beriladi. O'quvchilar savollar yordamida bir xil kartochkali sherigini topadi

Grammatik o'yinlarga misollar:

"Bayroq musobaqasi" o'yini biror fe'lni o'tgan zamon shaklini o'rgatishda qo'l keladi. O'g'il va qiz bolalarni alohida guruhlarga ajratiladi. Doskaga kelishik olmoshlari yoziladi. Boshlang ko'rsatmasi bilan kishilik olmoshlari bilan boshlanuvchi fe'lning o'tgan zamon shaklidagi fe'llardan misollar yozadilar. O'qituvchining "To'xtang" buyrug'idan so'ng jumlalar soni aniqlanadi, xatolar tuzatiladi

"Jumlalarni birlashtir" o'yini. Bunda o'quvchilarga qog'oz tarqatilib, sinfni ikkiga

bo‘linadi. Birinchi guruh أَنْتَ (anta) yoki أَنْتِ (anti) bilan boshlanuvchi gaplarni, ikkinchi guruh أَنَا (ana) bilan boshlanuvchigaplarni yozadi. Barcha qog‘ozlar yig‘ib olinadi va ikkita qutiga joylashtiriladi. O‘quvchilar navbat bilan kelib ikkala qutidan bittadan qog‘oz olib, ikkita jumlani birlashtirib yozadilar. Bunda juda qiziqarli, ba'zan kulgili gaplar hosil bo‘ladi.

Chet tilini o‘qitish jarayonida o‘qituvchining maqsadi o‘quvchida gapirish, tinglab tushunish, o‘qish, yozish ko‘nikmalarini hosil qilib, ularni rivojlantirishdan iborat bo‘ladi. Bu ko‘nikmalarni hosil qilishda yangicha usullardan, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish juda qo‘l keladi. Nutq faoliyati turlaridan biri bo‘lmish yozuv ham chet tilini o‘rganishda katta ahamiyatga ega, biroq o‘rganish jarayonida esa yozishga nisbatan o‘qish yoki og‘zaki suhbatlashishga xohish kuchliroq bo‘ladi. Yozish ham maroqli jarayon ekanligini ko‘rsatish va bu ko‘nikmani shakllantirishda o‘qituvchi yetarli bilim va tajribaga ega bo‘lish bilan birga izlanuvchan hamda biroz ijodkor bo‘lsa, u dars jarayonida qo‘llagan usullar o‘quvchilarning darsda faol ishtirok etishlariga, qiziqib ishlashlariga bilimni yaxshi o‘zlashtirib, o‘z imkoniyatlaridan to‘liq foydalanishlariga, chet tilini o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishga erishiladi. Yozuvni o‘rgatishdan maqsad chet tilidagi so‘zni eshitib to‘g‘ri yozishga harakat qilish.

So‘z boyligini kengaytirish, yangi so‘zlar yodlash, harf orqali so‘zni topish, yangi so‘zlar ishtirokida har xil dialoglar tuzish, testda ma’nosi bir-biriga yaqin va zid bo‘lgan so‘zlarni topish orqali so‘z boyligini kengaytirish mumkin.

Tinglab tushunish nutq faoliyatining asosini tashkil etadi. Tinglab tushunish va gapirish nutq faoliyatining ajralmas qismidir. Tinglab tushunish gapirishga asos yaratayotgan bir vaqtda gapirish fikrni nutqqa olib chiqishga xizmat qiladi. Tinglab tushunish o‘qib tushunish bilan ham bog‘liqdir. Ularning har ikkisi nutq faoliyatining retseptiv turiga kiradi. Qabul qilish – tushunish axborotni tahlil qilish esa, tinglab tushunish eshitish orqali, o‘qib tushunish esa, ko‘rib idrok qilish orqali sodir bo‘ladi.

Ta’limning va hamkorlikning asosiy maqsadi – biror ishni birgalikda bajarishgina emas, balki birgalikda o‘rganish hamdir. Zamonaviy bosqichda hamkorlikda o‘rganishning turli variantlari mavjud. Yangi leksik materiali bilan ishlash. Guruh odatda 12 kishidan tuzilgan bo‘ladi, ular esa kichik guruhlarga 4 kishidan, ya’ni 2 juftdan bo‘lingan bo‘ladi. Avvaliga yangi mavzu tushuntiriladi, keyin kichik guruhlar bilan ishlash boshlanadi. Har bir guruh ishtirokchilari (qatnashuvchilar) so‘zni yoki so‘z-iborani tarjima qilish talab qilingan kartochlarni topshiriq tarzida olishadi. Kartochda yana topshiriq bajarilgandan so‘ng tekshirib, solishtirib ko‘rish uchun kalit ham bo‘ladi. Ishtirokchilar juft-juft bo‘lib ishlaydilar. Oldiniga sheriklardan biri topshiriq beradi va o‘zida kartochkada yozilgan javob – kalit yordamida javobning to‘g‘riligini tekshiradi. Keyin ishtirokchilar rol almashadilar. So‘ngra juftliklar to‘rtlik bo‘lib birlashadilar va yangi so‘z iboralarni yozishni mashq qiladilar. Kuchliroq qatnashchi so‘zni va so‘z iborani aytib turadi, qolganlar yozadi, keyin tekshirib chiqishadi. Agar biror ishtirokchi xato qilsa, xato yozgan so‘zni yoki so‘z iborani bir necha marotaba to eslab qolgunicha qayta yozadi. So‘ng ularga bajarilgan topshiriq yuzasidan hisobot berishlari uchun imkoniyat tarzida yozma topshiriq beriladi. Bu topshiriq esa zarjirsimon tarzda amalga oshiriladi, ya’ni kimdir boshlaydi, boshqasi ketma-ket ilib olib davom ettiradi va hakazo. O‘quvchilarning topshiriqlarni bajarishdagi mustaqilligi darajasini asta-sekin oshirib, ularni topshiriqlarni bajarishga tizimli va ijodiy yondashishga o‘rgatib borish kerak bo‘ladi. Zero, har qanday mashg‘ulotning maqsadi shularga (yoki shunga) qaratilgan bo‘lmog‘i kerak.

Chet tillarini o‘qitishda asosiy e’tibor kommunikatsiyalarni rivojlantirish, muloqot

qilish, aloqa jarayonida tilni o‘zlashtirishga qaratilish kerak. Bunda o‘quvchilarda o‘rganilayotgan tilga qiziqish qobiliyatini uyg‘otish, nutqni, fikrlashni rag‘batlantiradigan vaziyatni yaratish va talaba istagan mavzu bo‘yicha gapirishi, munozarada ishtirok etishi, tafsilotlarni aniqlashi mumkin. Nutq va fikrlash faoliyatini kuchaytirishda rolli o‘yinlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Rolli o‘yinni faollashtirishda jarayonni beradigan tasavvur va xotira, hayotiy tajribada muloqot hissi uyg‘onadi va bu ta’lim samaradorligida talabalarda o‘rganilayotgan tilga nisbatan motivatsiya bo‘lishi, mavzuga qiziqish hissi o‘sishi sabab bo‘ladi. Rolli o‘yin talabada nutqni rag‘batlantirishda faollik oshadi, chunki talabalar o‘zlarini shu vaziyatda bo‘lganda biron bir narsani aytishi, so‘rashi,mavzu haqida bilib olishi bilan birga suhbatdosh bilan nimanidir baham ko‘rish imkoniyatiga egadir.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash mumkinki, dars jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchi-talabalarda ilmiy izlanishga qiziqishni uyg‘otadi, ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Natijada egallangan bilim va ko‘nikmalar amaliyotda ham tadbiq etiladi. Buning uchun o‘qituvchi mahoratli va ijodkor bo‘lishi, mavzuning mazmuniga qarab darsni to‘g‘ri rejalashtirishi, dars davomida barcha talabalarni o‘z darsiga faol ishlashiga erishmog‘i kerak. Darsda innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish o‘qituvchining ko‘p qirrali va rang-barang faoliyatini kompyuter zimmasiga yuklash emas, balki o‘quv jarayonini jadallashtirish, bilim olish amaliyotini faollashtirish, o‘quvchilarda chet tiliga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish va xalqaro ta’lim tajribasini o‘rganish va shu yo‘l bilan ta’lim samaradorligini oshirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiya – erkin va farovon hayotimiz, mamlakatimizni yanada taraqqiy ettirishning mustahkam poydevori. – T.: O‘zbekiston, 2017. 22-bet.

2. Abu Nasr Farobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. Risolalar. – T.: Fan, 1975, 76-bet.

3. Madaminov S.Q. Chet tillarni o‘qitishda innovatsion metodlarning o‘rni va ularning uslubiy tahlili. Magistr dissertatsiyasi. Samarqand – 2018.

4. Ashurova D., Yuldoshev Z. Ta’lim tizimida innovatsion va axborot texnologiyalarini qo‘llash – zamon talabi // Xalq ta’limi. – T., 2006. № 1. 16-17-betlar.

Nigora BOTIROVA,
Buxoro viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o‘rgatish milliy markazi o‘qituvchisi

KASBIY KO‘NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TA’LIM MUHITIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada fanga oid ma’lumotlarning zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari asosida mujassamlashtirish imkoniyatini beruvchi axborot ta’lim muhiti va ulardan kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishda bevosita foydalanish imkoniyatlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar. Ta’lim, axborot, kasbiy ko‘nikma, texnologiya, pedagogik dastur, multimedia, taqdimot, ma’ruza matn, video dars, ta’lim muhiti.

В данной статье рассматривается информационная образовательная среда, дающая возможность воплощения предметной информации на основе современных средств информационных технологий и возможности непосредственного ее использования в формировании профессиональных навыков.

Ключевые слова. Образование, информация, профессиональные навыки, технологии, педагогическая программа, мультимедиа, презентация, текст лекции, видеоурок, образовательная среда.

This article examines the information educational environment, which makes it possible to embody subject information based on modern means of information technology and the possibility of its direct use in the formation of professional skills.

Key words. Education, information, professional skills, technologies, pedagogical program, multimedia, presentation, lecture text, video tutorial, educational environment.

Ilm-fanning tez taraqqiy etishi, texnika-texnologiyalarning jadal ravishda yangilanib borishi, mediamanbalar sonining oshib borishi ta’lim jarayonini zamonaviy pedagogik va axborot kommunikatsion texnologiyalar asosida, o‘quv didaktik vositalardan samarali foydalangan holatda tashkil etish, o‘tkazish va xalqaro baholash dasturlari asosida baholash muhim yo‘nalishlardan hisoblanadi.

So‘nggi yillar adabiyotlarida “Axborotlashgan ta’lim fazosi”, “Axborot ta’lim muhiti” kabi tushunchalar keng qo‘llanilmoqda. Bu atamalar informatika va pedagogikada turlicha talqin qilinmoqda. V.I.Slobodchikov g‘oyasiga ko‘ra, qayerda ta’lim muhiti mavjud bo‘lsa, shu yerda uning mazmun mohiyati, aloqalari va vositalari bo‘ladi A.A.Andreev tadqiqotlarida esa, “Axborotlashgan ta’lim muhiti (ATM) – bu pedagogik tizim va uning ta’minoti birligi bo‘lib, moliyaviy, iqtisodiy, moddiy-texnik, me’yoriy va marketing boshqaruvining quyi tizimidir” – deb ko‘rsatib o‘tiladi O.A. Ilchenko o‘z tadqiqotida “Axborotlashgan ta’lim muhiti – ta’lim jarayoni subyekti inson bilan bog‘liq axborot, texnik va o‘quv metodik ta’minotlarning birgalikdagi tizimli tashkil etish” – deb ta’riflaydi.

B.M.Suropovning ishlarida elektron ta’lim muhitida axborot kommunikatsiya texnologiyalari fanini o‘qitishning metodik ta’minotini takomillashtirilib, unga ko‘ra kasbga yo‘naltirilgan axborot ta’lim mazmuni amaliy dasturlar yordamida o‘zaro optimallashtirilib takomillashtirilgan. Auto Play Media studio 8, Macromedia Flash dasturi, Bandicamdan foydalanib o‘quv resurslari tayyorlangan. Oliy ta’lim iqtisodiyot yo‘nalishlarida “Axborot-kommunakatsiya texnologiyalari” fanining elektron metodik ta’minoti tayyorlangan.

Talabalarda kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirish, ularda muammoli vaziyatlarda aniq qaror qabul qila olish qobiliyatlarini rivojlantirish, ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasidagi fanlar bo‘yicha axborotlar olish imkoniyatiga ega bo‘lishlari uchun fanlararo o‘zaro aloqadorlikka erishish asosida muammoli vaziyatli topshiriqlarni ishlab chiqish va uni tizimlashtirish, ta’limning yangi shakllaridan foydalanish, fundamental bilimlarni o‘zlashtirishda fanlararo uzviylik va uzluksizlikni ta’minlash, umumta’lim fanlarining umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bilan o‘zaro aloqasi ko‘p qirrali muammo bo‘lganligi sababli nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy asoslashda kompetentli yondashuvni joriy etishni taqozo etdi.

Kasb ta’limi tizimida fan, texnika va texnologiyalar rivojining bugungi darajasi bilan bog‘liq bo‘lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi sifatini takomillashtirish jarayoni o‘rtasida bir qator nomunofiqliklar mavjud. Aniqlangan muammolarni nazariy hamda amaliy jihatdan asoslagan holda, kasb ta’limi muassasalarida mutaxassislar tayyorlash jarayoniga zamonaviy axborot kommunikatsiyalarni joriy etishning istiqbolli yo‘nalishlarini belgilash, republika professional ta’lim muassasalari uchun axborot ta’lim portalini hamda u orqali elektron axborot ta’lim muhitini yaratish, uni kasbiy ko‘nikmalarni shakllantiruvchi omil sifatida joriy etish, elektron multimediyali o‘quv metodik majmualarni yaratish va uni ta’lim jarayoniga joriy etish zarur. Ta’lim tizimida elektron axborot ta’lim muhitini yaratish tuzilmalari turli tuman bo‘lib, ta’limga yo‘naltirilgan masofaviy ta’limning dasturiy mahsulotlar orasida elektron ta’lim muhitini qo‘llab-quvvatlashning bir qator maxsus vositalarini ajratish, ulardan masofali ta’lim jarayonini tashkil etishning texnologik muammosini hal etish uchun foydalanilmoqda.

Elektron axborot ta’limni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi aniq talablarga javob beradigan dasturiy ta’minotni to‘g‘ri tanlashga asoslangan. Ushbu talablar o‘quvchining o‘qishga bo‘lgan ehtiyojlari, o‘qituvchi va administratorlarning o‘qitishga bo‘lgan ehtiyojlari bilan belgilanadi. Elektron axborot ta’lim muhitini tashkil qilish vositalariga: dasturiy ta’minot mahsulotlariga mualliflik qilish (Authoring Packages), ta’limni boshqarish tizimlari (Learning Management Systems - LMS), tarkibni boshqarish tizimlari (o‘quv kurslarining mazmuni) (Content Management Systems - CMS), ta’lim kontentini boshqarish tizimlarini o‘rganish (Learning Content Management Systems - LCMS), ta’limni qo‘llab-quvvatlovchi tizimlar (Learning Support Systems-LSS), ta’limiy platformalar (Learning Platforms - LP) va boshqalar kiradi .

Axborot ta’lim muhiti orqali ta’lim olishda darslar sinxron va asinxron turlarga bo‘linadi. Sinxron mashg‘ulotlarda talaba va o‘qituvchi belgilangan vaqtda onlayn rejimida aloqada bo‘lishadi. Darslar real vaqtda, xuddi auditoriyadagi kabi davom etadi. Onlayn rejimida Zoom tizimidan foydalanish, chat-darslarni tashkil etilishi masofali ta’limning sinxron turiga mos keladi.

Asinxron o‘qitishda internetdan o‘quvchilarga topshiriqlar yuboriladi, talaba qachon o‘qish kerakligini va ma’lum bir mavzuni o‘rganishga qancha vaqt ajratishini o‘z tanlaydi, bajaradi, jo‘natadi. O‘qituvchi o‘ziga qulay vaqtda ishni tekshiradi va sharhlarini qoldiradi, bunga misol qilib Moodle tizimida darslarni tashkil etishni keltirishimiz mumkin. Moodledagi ish jarayoni sinxron ham bo‘lishi mumkin.

Keyingi yillarda ommaviy ochiq onlayn kurslar (Massive Open Online Courses, MOOC) yaratishga katta e’tibor qaratilmoqda. MOOC larda hamma maksimal tarzda samarali usul bilan bilimni joylash imkonini beradigan maxsus texnologik platformani o‘zgartiradi. MOOC turli xil mavzularda masofaviy o‘qitishni taklif qiladi va kompyuter hamda Internetga ega bo‘lganlar uchun ochiq tizimdir. MOOC kurslarining maqsadi – o‘qituvchilar va o‘quvchilarni butun dunyo bo‘ylab bir-biri bilan bog‘lash hisoblanadi.

Ushbu platformalar (Moodle, Coursera, Udasity, edX)ni maxsus kompaniyalarning ixtisoslashgan provayderlari yaratishadi.

Coursera platformasiga 2012-yilda asos solingan, foydalanuvchilari 64 milliondan ortiq, kurslari 4500 dan ortiq, mutaxassisliklari 450dan ortiq, 30dan ortiq sertifikatlar olish imkoniyati mavjud. Butun dunyoda Courseradan ta’lim olish 100 foiz deydigan bo‘lsak, shundan 28 foiz amerikaliklar, braziliyaliklar 43 foiz, hindistonliklar 8foiz, kanadaliklar 3,6 foiz, Buyuk Britaniya vakillari 4,4% foiz, avstraliyaliklar 2 foiz, ispaniyaliklar 4 foiz, rossiyaliklar 2 foiz va boshqa mamlakatlar 5 foiz atrofida foydalanadilar.

EdX platformasiga Garvard va Kaliforniya universitetlari tomonidan asos solingan-bu dunyoning ko‘plab universitetlari bilan hamkorlik qiladigan notijorat ochiq ta’lim tizimi bo‘lib, u tyutorlarga video-ma’ruzalarni o‘qishga, talabalarning loyihaviy jamoalarda birgalikdagi ishini tashkil etishga, olingan bilimlarning sifatini baholash, ularni tahlil qilish va masofaviy ta’lim kontentlarini ishlab chiqishga imkon beradigan vositalar to‘plamiga ega tizimdir. Yaratilganidan hozirgacha 55 dan ortiq kurslari mavjud.

Udacity Stenford Sebastyan Tran tomonidan asos solingan notijorat MOOC hisoblanadi. Udacity platformadagi kurslarning umumiy soni 76 tani, ta’lim oluvchilarning (o‘qishni tugatganlar) soni o‘n ming kishini tashkil etdi. Kurslar 3 ta: “Beginner” (dastlabki daraja), “Intermediate” (oraliq daraja), “Advanced” (rivojlangandaraja) darajaga ajratilib, asosan, ingliz tilidagi kurslar hisoblanadi.

Bugungi kunda MOOC geografik to‘siqlarni yengib chiqdi, ammo til to‘siqlari hamon saqlanib turibdi. Deyarli barcha MOOSlar xalqaro tillarda bo‘lib, aynan lotin yozuviga asoslangan o‘zbek tilidagi ommaviy ochiq onlayn kurslar juda kam. Shunga asoslangan holda YUNESKO muntazam loyihalar doirasida ishlab chiqilgan ta’lim portalida kasbiy ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan axborot ta’lim muhiti yaratildi. Axborot ta’lim muhitida professional ta’lim tizimida ta’lim oluvchilarning axborot xavfsizligi fani bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmalarini oshirishga xizmat qiluvchi elektron ta’lim resurlari joylashtirildi.

Elektron ta’lim resurslarini shartli ravishda quyidagi turlarga bo‘lish mumkin:

- elektron o‘quv-tarbiyaviy resurslar; o‘quv materiallarini uzatish elektron resurslari;
- o‘qishni tashkil etish elektron resurslari;
- ta’lim-tarbiyani boshqarishni tashkil etish elektron resurslari. Elektron o‘quv-tarbiyaviy resurslar o‘z navbatida quyidagilardan tashkil topadi:
- elektron o‘quv adabiyotlari (elektron darslik va o‘quv qo‘llanmalar, nashrlar, ma’lumotlar banki, elektron ma’ruza matnlar, o‘quv-uslubiy majmualar) mashg‘ulotlar, mashqlar va boshqalar;
- uslubiy materiallar: dars rejasi, uslubiy tavsiyalar, tadbirlar ssenariysi (intellektual o‘yinlar, teleko‘rsatuvlar, adabiy kechalar va boshqalar), didaktik materiallar, ko‘rgazmali namoyish materiallari (dars bo‘yicha prezentatsiyalar, diagrammalar, jadvallar, rasmlar, videorasm materiallari);
- lug‘atlar: onlayn-ensiklopediya, lug‘at, to‘liq matnli kutubxona, ma’lumotnomalar;
- media resurslar: virtual laboratoriyalar, virtual sayohatlar, virtual muzeylar, ko‘rgazmali qo‘llanmalarning raqamli kutubxonasi va boshqalar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mo‘minov B.B. “Pedagogik dasturiy ta’minot – kompyuterli o‘qitish vositasi Pedagogik ta’lim. –T., 2008.

2. Raximov O. Elektron ta’lim resurslarini yaratish talablari va texnologiyasi. Zamonaviy ta’lim 2016.

Jasur MAMATOV,
T.N. Qori Niyoziy nomidagi O‘zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti doktoranti

O‘SMIR YOSHDAGI O‘QUVCHILARDA DARSGA NISBATAN INTIZOMLI MUNOSABATNI SHAKLLANTIRISH YO‘LLARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda darsga nisbatan intizomli munosabatni shakllantirish yo‘llari, pedagogik imkoniyatlari bayon qilingan. Shuningdek, intizomli munosabatning shakllanganlik darajasini belgilovchi ko‘rsatkichlar ifodalangan.

Kalit so‘zlar. O‘quvchi, o‘smir, dars, intizomli munosabat, tartib-qoida, odob-axloq, hulq-atvor, axloqiy-irodaviy sifatlar, axloqiy madaniyat, axloqiy me’yorlar.

В данной статье описаны пути, педагогические возможности формирования дисциплинированного отношения к уроку у учащихся подросткового возраста. Выражены также показатели, определяющие степень сформированности дисциплинарного отношения.

Ключевые слова. Ученик, подросток, урок, дисциплинированное отношение, порядок, манеры, поведение, морально-волевые качества, нравственная культура, нормы морали.

This article describes the ways and pedagogical possibilities of forming a disciplined attitude to the lesson among teenage students. The indicators determining the degree of formation of the disciplinary attitude are also expressed.

Key words. Student, teenager, lesson, disciplined attitude, order, manners, behavior, moral and volitional qualities, moral culture, moral norms.

Ta’lim-tarbiya inson ijtimoiy faoliyatining tarkibiy qismi sifatida yosh avlodga milliy qadriyatlar va ijtimoiy tajribani taqdim etish asosida ularni ijtimoiy hayotga tayyorlashning asosiy shakli hisoblanadi. Ta’lim-tarbiyaning maqsadi o‘quvchi-yoshlarni atrof-olamga moslashtirish asosida faol harakatlanishga tayyorlashdan iborat. Ushbu jarayonda o‘quvchilar muayyan ijtimoiy madaniy hamda gender me’yorlarni o‘zlashtirishlari kerak. Keng ma’noda ta’lim-tarbiya asrlar davomida o‘zbek xalqi yaratgan madaniy boyliklarni shaxsning ijtimoiy tajribasi va madaniy dunyoqarashiga singdirish shakli hisoblanadi. Mazkur madaniy dunyoqarash o‘quvchi-yoshlarning ongi, his-tuyg‘ulari, xatti-harakatlarida o‘z ifodasini topadi.

Tartib-intizom maktabning davlat muassasasi sifatidagi va umumiy o‘rta ta’lim vazifalarini samarali amalga oshirishning muhim omilidir. “Intizomli munosabat” tushunchasini quyidagicha talqin etish mumkin:

– xulq-atvor qoidalarini ongli bajarish asosida shakllangan shaxsning sifati, o‘qishga ijobiy va mas’uliyatli munosabat, har qanday sharoitda belgilangan talablarga rioya qilgan holda o‘z xulqini nazorat qilish;

– o‘quvchining intizom haqidagi umumiy qoidalarni bilishi, maktabda, uyda va jamoa joylaridagi tartib qoidalarini anglash;

– bu qoidalarga so‘zsiz itoat qilish va astoyidil bajarish;

– faol hayotiy pozitsiyaga, mas’uliyatlilikka, hamdardlikka, jamoadoshlikka ega bo‘lish.

X.Rashidov va S.Alimxodjayevaning ta’kidlashicha, o‘quvchida ongli intizomni tarbiyalashda aniqlik, ijrochilik, ishchanlik, berilgan vazifalarni aniq va o‘z vaqtida bajarishga e’tibor qaratish lozim. Vazifalarning aniq bajarilishi o‘quvchi tomonidan tashabbus ko‘rsatilishini ham ma’qullaydi. Vazifani o‘z vaqtida bajarish, ishchanlik va aniqlik mehnatsevarlik va tirishqoqlikni tarbiyalaydi. Bular esa intizomli o‘quvchi uchun muhim sifatlar bo‘lib, aqliy va jismoniy mehnat, bilim olish uchun doimiy harakat qilish asosiy vazifa hisoblanadi.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda darsga nisbatan intizomli munosabatning shakllanganlik darajasi quyidagi ko‘rsatkichlar bilan belgilanadi:

– o‘quvchilar tomonidan jamoat joylarida, maktabda va shaxsiy xulq-atvorida intizomga rioya qilishni tushunishi;

– o‘qishda, bo‘sh vaqtida jamoa talablari va mehnat intizomi qoidalarini bajarishga tayyorlik va unga ehtiyoj;

– o‘z xulqini nazorat qilish, jamoadagi umumiy intizomning buzilishiga olib keladigan boshqalarning axloqsiz xatti-harakati bilan kurashish.

O‘quvchilarning ma’naviy tarbiyasi masalalari bilan shug‘ullangan olim M.Quronov o‘quvchilarning tarbiyalanganligi shakllanishining ko‘rsatkichi sifatida quyidagilarni keltiradi: shaxsning ijtimoiy yo‘nalganligi; obyektiv zaruriyat, yuzaga kelgan qarama-qarshiliklar, ehtiyojlar va motivlarni anglash asosida faoliyat maqsadini mustaqil shakllantirish qobiliyati; axloqiy-irodaviy sifatlarning yuqori rivojlanishi; xulq-atvorni optimal axloqiy-irodaviy boshqarish tayyorligi va qobiliyati; xulq-atvor vaziyatlarini har tomonlama yechish uchun tajribaning mavjudligi; xatti-harakatni tanlashga ongli munosabat; xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy me’yorlarini ijodiy takomillashtirish, muloqot jarayonida va faoliyatda o‘zaro yordam, samarali munosabatlarni o‘rnatishga tayyorlik va qobiliyati.

Intizomli munosabatni tarbiyalashning asosiy yo‘li – o‘quvchi faoliyatini, uning yashash tarzini, tartibga rioya qilish, xulq-atvor qoidalarini bajarish maqsadida tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishdan iborat.

Xulq-atvor qoidalari intizom talablari va ularning ahamiyati mazmunini ochib beradi. Intizomli munosabatni samarali tarbiyalashning asosiy shartlaridan biri tartibga rioya qilish bo‘lib, u nafaqat organizmning fiziologik funksiyalariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, balki intizom talablarini bajarish malaka va ko‘nikmalarning shakllanishiga ham yordam beradi.

Shuningdek, maktab o‘quvchilarida intizomli munosabatni shakllanishida darsdagi axloqiy psixologik muhit ham ahamiyatga ega. Darsning psixologik muhiti yoki mikroiqlimi – bu o‘quvchilar va o‘qituvchining hissiy emotsional holatidir. Dars vaqtida o‘quvchilar va o‘qituvchi o‘rtasidagi muloqotda xursandchilik, o‘quvchilar orasida esa tetiklik va o‘ziga ishonchlilik, hamfikrlilik hukm sursa bu holatni ijobiy deyish mumkin. Darsning “sog‘lom” mikroiqlimi yana shundaki, o‘quvchilarda xavotir va o‘qituvchi oldidagi qo‘rquv mavjud bo‘lmay, ular o‘zlariga ishonch hissini, o‘qituvchi va sinfdoshlari tomonidan qo‘llab-quvvatlanishini doimo sezadilar. Shu bilan birga o‘qituvchining o‘quvchilarga talabchanligi ham sog‘lom muhitdan dalolat beradi. Darsdagi nosog‘lom muhit esa pessimistik kayfiyat, xavotir, zerikish holatlarini keltirib chiqaradi, bu vaziyat o‘quvchilarning ruhiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va ular o‘z-o‘zidan intizomni buzilishiga olib keladi. Pozitiv mikroiqlim sharoitida o‘quvchilar darsda nafaqat mavzuni o‘zlashtirish uchun samarali mehnat qiladilar, balki namunali xulq bilan ham ajralib turadilar va kamroq charchaydilar.

Maktab intizomi o‘z ichiga o‘quvchilar uchun majburiy bo‘lgan intizom qoidalarining butun bir tizimini, ularning o‘quv va mehnat faoliyatlarini tashkil etish qoidalarini

qamrab oladi va ularning bajarilishi mas'uliyatli amalga oshirilishi lozim. O'quvchilarning intizomli munosabati mohiyati xulq-atvor qoidalarini va maktabda o'rnatilgan tartibga bo'ysunishdan iborat. Bu tartibga bo'ysunish zarurligini anglash o'quvchida barqaror intizomni shakllantiradi va u shaxs sifatiga aylanadi.

O'smir yoshdagi o'quvchilarda darsga nisbatan intizomli munosabatni integral (cheksiz) fazilat sifatida ularda asta-sekin yetilib uning dunyoqarashi, maqsad sari intilishi va irodasi, xulq-atvor ko'nikmalari va odatlari, tashabbuskorligi va mustaqilligi, prinsipialligining shakllanishi va faoliyatda, munosabatlar va muloqot jarayonidagi kamchiliklarga nisbatan murosasiz ekanligida namoyon bo'ladi. Bu sifat ongning bir elementi sifatida o'smir shaxsi tomonidan erishilgan muvaffaqiyatlar va yutuqlar tajribasi orqali ifoda qilinib, shaxsiy va jamoaviy harakatlarning natijasidir. Shuning uchun o'smirlarda uning rivojlanish darajasi yosh xususiyatlariga va tarbiyaviy ishlarning tashkil etilganlik holatiga bog'liq bo'lganligi uchun turlicha bo'lishi mumkin.

Kichik maktab yoshidanoq o'quvchilarda jamoaviy faoliyat intizomi yuzaga keladi. Intizom o'quvchi shaxsini tarbiyalash vositasi va birinchi navbatda intizomlilik xususiyatini shakllantiradi. Intizomlilik o'quvchida tartiblilik, aniqlik kabi xususiyatlarning namoyon bo'lishiga xizmat qiladi. Intizomlilik xususiyat sifatida inson uchun odatiy bo'lgan xulq-atvor usulidir. Intizomlilikning fiziologik asosi o'zgarishli stereotipdir. Biroq intizomlilik – bu ijtimoiy sifat bo'lib, unda axloqiy odatlar va insonning talablarga munosabati namoyon bo'ladi. Kichik maktab yoshida intizomlilikning asosini ijobiy namunaga taqlid qilish tashkil etadi. O'quvchi katta bo'lgan sari intizom mas'uliyat hissi, irodaviy xususiyatlarga bog'liq bo'ladi. Tashqaridan qaraganda intizom o'quvchi shaxsida yuqoridagi xususiyatlarning turg'unligi natijasida mustahkamlanmasa, u holda vaziyat o'zgarishi bilan u ham oson o'zgarishi mumkin.

Intizomli munosabat tajribasi maktab hayoti jarayonida yuzaga keladi. Pedagogik ta'sir shundan iborat bo'lishi kerakki, u o'quvchining hayotiy tajribasini tashkil etishi kerak. Avvaliga intizom har bir ishning elementar sharti sifatida o'qituvchining to'g'ridan to'g'ri talabidir. Talab intizomning asosi, ya'ni o'quvchilar jamoasidagi hayot reglamenti (tartibi) va munosabatlardir. Talablarni tashkil etish esa maktabda, oilada, maktabdan tashqari muassasalarda va jamoat joylarida o'quvchilarni uyushtirishdir.

Uyushgan faoliyat, ya'ni o'qishda, mehnatda sportda o'smir shaxsi barcha ishtirokchilar talablarga rioya qilish zarurligiga ishonch hosil qiladi. O'quvchi faoliyatida talab uning hayotining tashqi jihati va uning ichki ehtiyojiga aylanadi. Talablarni tashkil etishning tashqi vositasi esa tartibdan iborat va u ma'lum bir gigienik va pedagogik asoslarga bog'liq va o'smirning kun tartibi, mehnat va hordiq, boshqa mashg'ulotlarning almashishini nazarda tutadi. Kun tartibi o'smir atrofidagi sharoitlarning muntazamligi va o'zgarib turishini ta'minlaydi, bu esa o'z navbatida dinamik stereotiplar (qolip) tarbiyalanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

O'smirlar jamoasiga qo'yiladigan talablarning bajarilishini nazorat qilish mantiqan to'g'ridir. Talablarni qo'yish malakasi pedagogning turli vaziyat va holatlarga tez va aniq baho berish, dalillarni tahlil qila olish va turli pedagogik vositalarni qo'llay olish qobiliyatiga bog'liq. Talablar faqat baland ovozda keskin emas balki qat'iyat bilan o'quvchining shaxsiga nisbatan hurmat bilan qo'yilishi lozim. O'quvchi buni o'qituvchining ovoz toni orqali seza olsin. Agar o'qituvchi bu shartni bajara olmasa, ortiqcha keskinlik va qat'iylik ayniqsa, o'smir yoshida turli nizolarga, bo'ysunmaslikka olib kelishi mumkin.

Intizomli munosabatni tarbiyalash bolalarning xulq-atvor madaniyati bilan chambarchas bog'liq. Biroq axloqiy madaniyat tushunchasi faqatgina o'quvchilarning intizomi

xarakteristikasi bilan cheklanmaydi. U shaxsning axloqiy namoyon bo‘lishining barcha tomonlarini qamrab oladi. Bu ma’noda axloqiy madaniyat o‘ziga xos atama sifatida insonning barcha xatti-harakatlarining yuqori darajadagi puxta va aniqligini bildiradi. Axloqiy madaniyat tushunchasiga pedagoglar tomonidan insonning barcha sifat va fazilatlari deb qaraladi.

Kundalik ijtimoiy tajriba orqali o‘quvchilar ongli intizomning me’yorlarini o‘zlashtiradilar. Axloqiy madaniyat mazmuni insonlar orasidagi muloqotni, nutq va tashqi ko‘rinish (kiyim, gavdani tutish, imo-ishora, mimika, qadam tashlash)ni tartibga solib turuvchi me’yor va qoidalar majmui bilan belgilanadi. Bundan kelib chiqadiki, axloqiy madaniyat – bu muloqot, nutq va tashqi ko‘rinish madaniyatidir. Bu madaniyatni tarbiyalash uchun o‘qituvchining o‘zi yuksak namuna sohibi bo‘lishi kerak.

O‘smir yoshdagi o‘quvchilarda darsga nisbatan intizomli munosabatni tarbiyalash uchun tizimli va maqsadga yo‘naltirilgan ishlar uning maktabga kelgan kunidan boshlanadi. Intizomli munosabat insonning ichki madaniyati, estetika talablari, jamiyatda qabul qilingan an’analar va urf-odatlar bilan bog‘liq. Aynan insonning ichki madaniyati orqali uning axloqi belgilanadi, boshqa tomondan esa axloqning tashqi tomoni insonning ichki holatiga ta’sir etadi, ya’ni uni bosiq, vazmin, doimo fikri jamlangan bo‘lishga majbur etadi. Tashqi ko‘rinishdagi pala-partishlik, qo‘pollik asta-sekin shaxsda salbiy sifatlarni shakllantiradi. Shuning uchun erta yoshdan bolalarga o‘zini tutish madaniyati va axloqiy tushunchalarhaqidagi bilimlarni singdirish zarurdir. Bolada hali muloqot madaniyati tushunchalari shakllanmagan, jamiyatda qabul qilinagan axloq qoidalarini bilmaganligi sababli ko‘p hollarda qo‘pol muomala qilishi mumkin. Aksariyat hollarda bolalar o‘zlari uchun hurmatli bo‘lgan ota-onalari, kattalarning o‘zini tutishini kuzatib, ularga taqlid qilib muomala odobini o‘rganadilar.

Bolaning o‘z xulq-atvorini, o‘zining xatti-harkatini anglashi ijtimoiy foydali ko‘nikmalarning va intizomning axloqiy me’yorlarini shakllanishining asosiy shartidir. Mana shunday xulq uchun shaxs ongli ravishda jamiyat, jamoa, boshqa odamlar oldida javob berishi va buni jamiyat uchun foydali va zarur ekanligi nuqtai nazaridan tushunishi muhim hisoblanadi.

Shunday qilib, intizom va intizomlilik maktab hayotining barcha tomonlarini qamrab olib ta’lim-tarbiya jarayoniga ham ta’sir etib ta’lim-tarbiya jarayonini mustahkamlash uchun muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rashidov H, Alimxodjayeva S. Dars intizomiga salbiy munosabat: sabablar tahlili va tavsiyalar//Maktab va hayot. – T., 2014.- № 3.- B. 2-7.

2. Quronov M. O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari: Ped.fan.dok. ... diss. – T., 1998. – 316 b.

3. Корнетов, Г. Б. Феномен дисциплины в истории и теории педагогики // Школьные технологии. 2006. - №5. С. 45-50.

4. Рогожникова Р.А. Определение уровня дисциплинированности школьников: Метод пособие / Перм. гос. пед. ун-т. Пермь, 1998. - 51 с.

Barno AMRILLAYEVA,
A.Avloniy nomidagi milliy tadqiqot instituti tayanch doktoranti

UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA TABIIY FANLAR(SCIENCE) NI O‘QITISHDA MUTAFAKKIRLARNING ILMIY ASARLARIDAN FOYDALANISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada bugungi kunda ta’lim tizimidagi ro‘y berayotgan bir qancha o‘zgarishlar, yangi kirib kelgan tabiiy fanlar darsligi, Markaziy Osiyo olimlarining tabiiy fanlar sohasida qilgan ishlari, ulardan tabiiy fanlar (SCIENCE)ni o‘qitishda foydalanish, tabiiy fanlarni integratsiya asosida o‘qitishning ilmiy va tarbiyaviy ahamiyati haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar. Tabiiy fanlar (SCIENCE), integratsiya, Markaziy Osiyo olimlari, “Donishnoma”, “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Fozil odamlar shahri”, o‘quv metodik tayyorgarlik.

В этой статье представлена информация о нескольких изменениях, происходящих сегодня в системе образования, о недавно поступившем учебнике естественных наук, о работе центральноазиатских ученых в области естественных наук, об их использовании в преподавании естественных наук (SCIENCE), о научном и образовательном значении обучения естественным наукам на основе интеграции.

Ключевые слова. Естественные науки (Наука), интеграция, ученые Средней Азии, “мудрец”, “памятники древних народов”, “город добродетельных людей”, учебно-методическая подготовка.

This article provides information about several changes taking place today in the education system, about the recently received textbook of natural sciences, about the work of Central Asian scientists in the field of natural sciences, about their use in teaching natural sciences (SCIENCE), about the scientific and educational significance of teaching natural sciences based on integration.

Keywords. Natural sciences (Science), integration, scientists of Central Asia, “sage”, “monuments of ancient peoples”, “city of virtuous people”, educational and methodological training.

Respublikamizda 2020-2021-o‘quv yilidan boshlab umumiy o‘rta ta‘lim maktablariga fizika, kimyo, biologiya, geografiya va astronomiya fanlari integratsiyasi asosidagi Tabiiy fanlar(SCIENCE) kirib keldi va bosqichma-bosqich amaliyotga joriy etish belgilandi.Tabiiy fanlar, dastlab, 1-2-sinflarda o‘qitila boshlandi, 2021-2022-o‘quv yilidan boshlab 3-6-sinflar uchun darsliklar ishlab chiqildi. Umumiy holda Tabiiy fanlar (SCIENCE) 1-6-sinflarda o‘qitiladi. 1-4-sinflarda Tabiiy fanlarni (SCIENCE) o‘qitish orqali o‘quvchilarda atrof muhit, tabiat, olam, ekologik muammolar tadqiqot o‘tkazishning dastlabki tushuncha va ko‘nikmalari bilan tanishtiriladi. 5-6-sinflarda Tabiiy fanlarni (SCIENCE)o‘qitish orqali o‘quvchilarning 1-4-sinflarda o‘rgangan tushunchalarini, atrof-muhit, tabiat, olam haqidagi tasavvurlari, kognitiv qobiliyati, tafakkuri rivojlantiriladi. O‘quvchining ilmiy jihatdan tushunarsiz bo‘lgan tasavvurlari ilmiy tushunchalarga aylantiriladi. Ularda kognitiv ziddiyatlar paydo bo‘la boshlaydi.

Maktab ta’limining shaxsni har tomonlama rivojlantirish, o‘quvchilarning fundamental, ekologik, politexnik tayyorgarligini kuchaytirish, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikmalar, xatti-

harakatlar usullarini bir vaqtning o‘zida muayyan faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun safarbar qilish qobiliyatini rivojlantirish kabi maqsadlarga o‘quv fanlarining o‘zaro ta’siri va o‘zaro bog‘liqligisiz erishish mumkin emas. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ta’lim mazmunini takomillashtirishda o‘quv fanlararo integratsiyani amalga oshirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, bugungi kun talabidan kelib chiqib, tabiiy fanlarni o‘qitish mazmuni, shaxsni tarbiyalash va rivojlantirishning umumiy maqsadlaridan kelib chiqib, tabiat va jamiyat haqidagi ilmiy qarashlarni, qimmatli ijtimoiy ahamiyatga molik yo‘nalishlarni shakllantirish, tevarak-atrofdagi voqelikka insonparvarlik nuqtayi nazarini singdirishni o‘z ichiga olishi kerak. Pedagogik jarayonda o‘qituvchilarning Tabiiy fanlar(SCIENCE)ni o‘qitishdagi muammolardan biri ularning fanlararo integratsiyani amalga oshirishdagi o‘quv metodik tayyorgarligini takomillashtirishdir. Tabiiy fanlar taraqqiyotida Markaziy Osiyo olimlarining ham xizmatlari katta. Markaziy Osiyoda yashab o‘z asarlari bilan tabiiy fanlar rivojiga katta hissa qo‘shgan olimlarning ishlari va asarlarini o‘rganish tabiiy fanlar (SCIENCE)ni o‘qitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning asarlarida ham aynan tabiiy fanlar integratsiyasini kuzatishimiz mumkin. Ular yashab ilm olgan davrda tabiiy fanlar alohida o‘qitilmagan. Balki, falsafa ta’limoti, mantiq, tibbiyot, handasa, diniy ta’lim kabi sanoqli fanlar bo‘lgan. Qolgan fanlar esa ushbu fanlar tarkibida o‘rganilgan. Jumladan, o‘z davrining yirik mutafakkiri, qomusiy olimi, buyuk faylasuf Abu Nasr Forobiy fikricha, fanlar va umuman bilim borliqdan kelib chiqib insonning ularga bo‘lgan ehtiyojini o‘sib borishi va borliqni uzoq vaqt o‘rganishi jarayonida muttasil, izchil to‘planib boradi. Forobiy qarashlarida turli ilmlar bir-birini inkor va istisno etmaydi, balki,o‘zaro bir biri bilan bog‘liq va dunyoni bilishga hamda baxt-saodatga erishishga xizmat qiluvchi yagona xalqani tashkil etadi. U o‘zining “Fozil odamlar shahri” asaridagi “Ilmlarning kelib chiqishi to‘g‘risida” risolasida ilmlarni olti qismga bo‘ladi: 1. Sonlar to‘g’risidagi ilm – arifmetika. 2. O‘lchash to‘g’risidagi ilm – geometriya. 3. Yulduzlar haqidagi ilm – astronomiya. 4. Musiqa ilmi. 5. Tabiatshunoslik ilmi. 6. Xudoni bilish to‘g‘risidagi ilm.

Ushbu asarida Forobiy aynan tabiiy fanlar integratsiyasiga doir quyidagi fikrlarni keltirib o‘tgan. “.... oy ostidagi dunyoga oid bo‘lgan ilm (tabiatshunoslik ilmi) vujudga keldi. Ilk donishmandlarning ko‘rsatishicha bu ilm sakkiz qismdan iboratdir: bular ya’ni ob havo ilmi, meditsina, fizikadan kelib chiquvchi nigromantiya, obrazlar haqidagi ilm, agrikultura, navigatsiya, narsalarning birini ikkinchisiga aylantirish to‘g‘risidagi alximiya va oynalar to‘g‘risidagi ilm. Tabiat to‘g‘risidagi bu ilm pedagogik ilmlarga nisbatan boy va kengdir. Bu ilm eng keng ilm bo‘lib, o‘zidan oldin keluvchi ilmlarga muhtojdir.....”. Bunda Abu Nasr Forobiy “Tabiat to‘g‘risidagi ilm” deb tabiiy fanlar integratsiyasini, “...o‘zidan oldin keluvchi ilmlar” deb pedagogik ilmlar (arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa ilmi)ni nazarda tutgan.

Yana bir o‘z zamonasining hamma fanlarini – matematika, tabiiy va tarixiy fanlarni egallagan buyuk olim Abu Rayxon Beruniy o‘zining “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asarida kuzatish muammosiga alohida to‘xtalib o‘tadi. “Yil zodiak bo‘yicha bir marta aylanib kelish davri. Bu hodisa obyektivdir. Kuzatish natijasi esa har xildir. Bunga sabab: kuzatish davri qancha katta bo‘lsa, xato miqdori shuncha aniqlasha beradi”. Bugungi kunda ta’lim tizimiga yangidan kirib kelgan. Tabiiy (SCIENCE) fanlarni aynan atrof-muhit, tabiatda, koinotda bo‘layotgan hodisalarni diqqat bilan kuzatish asosida tadqiqotlar, loyihalar o‘tkazish asosida o‘rganiladi. Yana biri osmon va yer globusini yaratganligini misol qilishimiz mumkin. O‘ylab qaraydigan bo‘lsak globusda tushunib ishlay olishimiz uchun biz geografiya, biologiya, matematika, fizika kabi

fanlardan bilimga ega bo‘lishimiz kerak. Yana bir e’tiborli jihati Beruniy modellardan foydalana olgan, lekin o‘sha davrda model tushunchasi bo‘lmagan. Demak, Beruniy fanlar integratsiyasi asosida modellardan foydalanib Yerning shar shaklida ekanligini ko‘rsatish uchun Globus ixtiro etganligidir. O‘sha davrlarda tabiiy fanlar(fizika, ximiya, biologiya, geografiya) alohida fan sifatida qaralmagan. Beruniy asarlari (“Minerologiya”, “Hindiston”, “Geodeziya”, ‘‘Tabiatda dorishunoslik”,...) ga tabiiy fanlarga oid juda ko‘p ma‘lumotlar kiritilgan. Ularning asarlarida nazariy ma’lumotlardan ko‘ra hayotiy misollardan ko‘proq ma’lumotlar keltirilgan.

“Galen va Avitsennani yoqlab xato qilish – boshqalarni yoqlab to‘g‘ri bo‘lishdan yaxshiroqdir”. Ana shu so‘zlar bilan Mikelanjelo yevropada Avitsenna nomi bilan shuhrat topgan ulug’ tabib, mutafakkir va olim Ibn Sinoni sharaflagan edi. X asr qomusiy olimlaridan biri Abu Ali Ibn Sino (980-1037) ham tibbiyot, tabiiy fanlar rivojlanishiga o‘zining katta hissasini qo‘shgan. Ibn Sino ham qadimgi yunonlar kabi, hamma fanlar to‘plamini ya’ni barcha borliqlar haqidagi fanni falsafa fani deb tushunadi. U falsafani nazariy va amaliy qismlarga bo‘linadi deydi. Uning izohlashicha, nazariy qismning vazifasi kishining o‘zidan tashqaridagi, borliq to‘g‘risidagi bilimlarni egallashdan iborat; amaliy qism esa inson faoliyatini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Shuningdek, Ibn Sino fanning nazariy qismlarini uchga: geologiya, matematika va fizika (tabiiy fanlar) ga bo‘ladi.

Ibn Sinoning “Donishnoma” asarida keltirilgan “...har bir narsani kuzatish va tajriba asosida o‘rganish va ular to‘g‘risida tekshirishdan keyingina xulosalar chiqarish kerak..” degan fikr mulohazalarini 5-6-sinflarda tabiiy fanni (SCIENCE) o‘tishda o‘quvchilarda tajribalar va tadqiqot o‘tkazish ko‘nikmalarini shakllantirishda foydalanishimiz mumkin. Bundan tashqari ushbu asarida keltirilgan bir qancha tabiy fanlarga oid ma’lumotlardan ham dars jarayonlarida foydalanishimiz mumkin. Masalan: nasoslarda suvning yuqoriga chiqishi, ichiga havo kiritilmasdan suvli idishga to‘ntarilgan idishlardagi suvning yuqoriga ko‘tarilishi, shamollagan bemorlarga banka qo‘yilgan vaqtda kishi terisining bankaga tortilish sabablarini havo bosimi va bo‘shliq orqali tushuntirish mumkinligi, richag, blok, tishli g’ildiraklar, pona, qiya tekislik, vintda kuchdan yutish mumkinligi, issiq jism yaqinidagi sovuq jism isishi, harakat va ishqalanish natijasida jismlarning isishi, yorug‘lik nuri tushgan jism, yortilmagan jismga qaraganda issiqroq bo‘lishi, quyosh nuri suvni, yerni isitishi haqidagi fikrlaridan yorug‘lik hodisalari, issiqlik uzatilishi, energiya mavzularini o‘tganda foydalanishimiz mumkin.

Hatto tarixga qisqacha kirib borish ham olimlar hamda pedagogika klassiklari fanlararo aloqalar muammosiga katta ahamiyat berganligi va uni o‘quv jarayoniga amaliy tatbiq etish bo‘yicha o‘qituvchilarga ko‘plab qimmatli ko‘rsatmalar qoldirganligi haqida xulosa chiqarishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abu Nasr Forobiy “Fozil odamlar shahri”, Muzaffar Xayrullayev tarjimasi. –T.,1993-yil 174-bet.

2. Abu Rayhon Beruniy “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” , A.Rasulov tarjimasi, Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti, – T.,1968-yil, 23-bet.

3. Ahadova M. “Abu Ali Ibn Sino va fizika, matematika fanlari”, “Fan va texnika seriyasi №15, O‘zbekiston nashriyoti, – T., 1980.

Zohida QORABOEVA,
Namangan davlat universiteti katta o‘qituvchisi

PROFESSIONAL TA’LIM TIZIMIDA MAKTABGACHA TA’LIM TASHKILOTLARIGA KOMPETENTLI KADRLAR TAYYORLASH SIFATINI OSHIRISH OMILLARI

Annotatsiya

Maqolada zamonaviy mehnat bozorining ehtiyojlariga muvofiq uzluksiz ta’lim tizimi tarkibida professional ta’limni yo‘lga qo‘yishning me’yoriy-huquqiy asoslari, pedagogika kollejlarida maktabgacha ta’lim tizimiga malakali kadrlar tayyorlashning maqsad va vazifalari yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar. Professional ta’lim, professional ta’lim muassasalari, o‘rta bo‘g‘in mutaxassislari, klassifikator, malaka talablari, pedagogika kollejlari, umumiy kompetensiya, kasbiy kompetensiya.

В статье освещены нормативно-правовые основы построения профессионального образования в рамках системы непрерывного образования в соответствии с потребностями современного рынка труда, цели и задачи подготовки квалифицированных кадров для системы дошкольного образования в педагогических колледжах.

Ключевые слова. Профессиональное образование, профессиональные образовательные учреждения, специалисты среднего звена, классификатор, квалификационные требования, педагогические колледжи, общая компетенция, профессиональная компетенция.

The article highlights the regulatory and legal foundations for the construction of vocational education within the framework of the system of continuing education in accordance with the needs of the modern labor market, the goals and objectives of training qualified personnel for the system of preschool education in pedagogical colleges.

Key words. Professional education, professional educational institutions, mid-level specialists, classifier, qualification requirements, pedagogical colleges, general competence, professional competence.

Mamlakatimizda mehnat bozori talablariga mos yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, ta’lim sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish, innovatsion ilm-fan yutuqlarini amaliyotga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish maqsadida professional ta’lim tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari ko‘rilmoqda.

Professional ta’lim – ta’lim oluvchilarda ma’lum bir mutaxassislik va kasblar bo‘yicha kasbiy kompetensiyalarni shakllantiradigan va rivojlantiradigan uzluksiz ta’lim tizimi[1] bo‘lib, iqtisodiyotning rivojlanish istiqbollari va kadrlarga bo‘lgan real ehtiyoj hamda ish beruvchilarning takliflari asosida o‘quvchi-yoshlarning ta’lim olishini ta’minlaydigan tizim sanaladi.

Professional ta’limda xalqaro tajriba asosida ta’lim sifatini ta’minlash, yoshlarda tadbirkorlik ko‘nikmalarini, shaxsiy kompetensiyalarni shakllantirish, amaliyotga alohida

[1] O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professoinal ta'lim to‘g‘risida Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi ‘‘O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta'lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida’’gi 466-sonli qaroriga 1-Ilova

urg‘u berish, daromad olishga yo‘naltirish ustuvor o‘rin tutadi[2].

Respublikamizda zamonaviy mehnat bozorining ehtiyojlariga muvofiq uzluksiz ta’lim tizimi tarkibida professional ta’limni takomillashtirish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash, ta’lim xizmatlarining ochiqligi va sifati masalalariga davlat tomonidan alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli, 2020-yil 23- sentabrda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, 2019-yil 6-sentabrdagi “professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5812-sonli Farmoni, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 15-maydagi “O‘zbekiston Respublikasida “Kasbiy malakalar, bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirish milliy tizimi faoliyatini tashkil etish choralari to‘g‘risida”gi 287-sonli, 2020-yil 7-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 466-sonli qarorlarida belgilangan talablardan kelib chiqqan holda professional ta’lim tizimini yangi bosqichga ko‘tarishga doir chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

2019-yil 15-iyul kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan uzluksiz professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirish masalalari bo‘yicha o‘tkazgan yig‘ilishda bu sohadagi muammolar va ularni bartaraf etish chora-tadbirlari xususida so‘z yuritildi.

Yig‘ilishda bugungi kunda barcha soha va tarmoqlarda ulkan ishlar amalga oshirilayotganligi, hududlarda yangi korxonalar ishga tushirilib, ijtimoiy infratuzilma rivojlanib borayotganligi, bularning barchasi malakali mutaxassislarga bo‘lgan talabini oshirish zaruriyatini yuzaga keltirayotganligini, sababi har bir sohaning rivoji, loyihalarning ijrosi yetuk kadrlarga bog‘liq ekanligi alohida ta’kidlandi.

Yig‘ilishda o‘rta bo‘g‘in mutaxassislari va ishchi kasblar bo‘yicha kadrlar tayyorlashning samarali tizimini yo‘lga qo‘yish masalalari muhokama qilindi. Kollejlar negizida professional ta’lim muassasalarining yangi tarmog‘ini shakllantirish vazifasi qo‘yildi. Ushbu muassasalarda boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlanadi hamda o‘qitish muddatlari zarur bilim, malaka va ko‘nikmalarning murakkabligiga qarab turlicha bo‘ladi.

Yig‘ilishda professional tizimni joriy qilishdan oldin uning metodologiyasini yaratish, ta’lim dasturlarini xalqaro talablar asosida yangidan ishlab chiqib, o‘qituvchi va ishlab chiqarish ustalarini tayyorlash, qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish zarurligi ta’kidlandi. Yoshlarni kasb-hunarga qiziqtirish va rag‘batlantirish bo‘yicha takliflar kiritish vazifasi topshirildi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari yangi professional ta’lim tizimini mehnat bozori talablari bilan uyg‘unlashtirish masalasiga alohida to‘xtaldi. Joylarda ishsizlik kuzatilayotgan bir paytda ishchi kasblar bo‘yicha mutaxassislarga katta ehtiyoj borligi qayd etildi.

Ish beruvchilarning talab va takliflariga asosan kadrlarga bo‘lgan real ehtiyojni inobatga olgan holda iqtisodiyot soha va tarmoqlari uchun zarur bo‘lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda jamiyatning kasblar va mutaxassisliklarga bo‘lgan talablarini qondirish, mehnat faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash, mahalliy

[2] Meliboev A.R. Ta'lim tizimi transformatsiyasi jarayonida yangi professional ta'lim tizimining o‘rni. ‘‘Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar’’ ilmiy elektron jurnali. №5, sentabr-oktabr, 2020 y.

va xalqaro ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy innovatsion o‘quv loyihalarini birgalikda amalga oshirish uchun malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish – professional ta’limning asosiy maqsadidir. Bu mamlakatda ishsizlik darajasini kamaytirish, ish o‘rinlarining doimiyligini ta’minlash, mehnat bozorida tajribali kadrlarga bo‘lgan ehtiyojni qondirishga xizmat qiladi.

Xalq ta’limi tizimida professional ta’lim quyidagi vazifalarni bajaradi:

– ish beruvchilarning talab va takliflariga asosan kadrlarga bo‘lgan real ehtiyojni inobatga olgan holda iqtisodiyot soha va tarmoqlari uchun zarur bo‘lgan malakali mutaxassislarni tayyorlash hamda jamiyatning kasblar va mutaxassisliklarga bo‘lgan talablarini qondirish;

– mehnat faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tatbiq qilish bo‘yicha amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlash;

– mahalliy va xorijiy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikni rivojlantirish, zamonaviy innovatsion o‘quv loyihalarini birgalikda amalga oshirish uchun malakali xorijiy mutaxassislarni jalb etish;

– xalqaro tasniflagich darajalari bilan uyg‘unlashgan tabaqalashtirilgan ta’lim dasturlarini hamda o‘qitishning kredit-modul tizimini bosqichma-bosqich joriy etish;

– ta’lim olish bilan birgalikda o‘quvchilarga tadbirkorlik faoliyatini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha zarur bilimlarni berish va ularni kelgusida o‘z biznesini tashkil etishi yuzasidan metodik qo‘llab-quvvatlash tadbirlarini amalga oshirish;

– mamlakat iqtisodiyotini yanada isloh qilish, uni barqaror o‘stirish hamda modernizatsiyalash jarayonlarida samarali ishtirok etishga qodir bo‘lgan kadrlarni tayyorlash maqsadida o‘quv jarayoniga innovatsiya shakllar, texnologiyalar va ishlanmalarni faol qo‘llab, professional ta’lim va ishlab chiqarishning o‘zaro hamkorligini ta’minlash;

– shaxslarning professional ta’lim muassasalarini ixtiyoriy tanlashi va kasb yoki mutaxassislik bo‘yicha bilim olish, shuningdek, “Hayot davomida ta’lim olish” prinsipi asosida kasbiy tayyorgarlik va qayta tayyorlashdan o‘tish imkoniga ega bo‘lish sharoitlarini yaratish;

– professional ta’lim olish orqali shaxsning intellektual, madaniy va ma’naviy rivojlanishga bo‘lgan individual ehtiyojlarini qondirish, o‘quvchilarda vatanparvarlikni, faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish hamda ularda mas’uliyat va ijodiy faoliyatni rivojlantirish[3].

Uzluksiz ta’lim tizimining poydevori bo‘lgan maktabgacha ta’lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ining kengayishi ularning oldiga o‘ziga xos muhim vazifalarni qo‘yilishi bilan tavsiflanadi. Bu vazifalarni to‘laqonli bajarilishi barcha turdagi maktabgacha ta’lim tashkilotlaridagi ta’lim-tarbiya ishlarining samaradorligi bevosita tarbiyachi pedagoglarning faoliyatiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir.

Biroq maktabgacha ta’limni rivojlantirish sohasida davlat siyosatini muvaffaqiyatli yuritishga to‘sqinlik qilayotgan bir qator tizimli muammolar va kamchiliklar qatorida maktabgacha ta’lim tashkilotlarining malakali pedagog kadrlar bilan jamlanmaganligi[4] tarbiyachilar tayyorlash tizimini qayta shakllantirish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

Shu bois, maktabgacha ta’lim tizimi uchun yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan, ta’lim va tarbiyaning ilg‘or texnologiyalarini o‘zlashtirgan pedagog kadrlar va mutaxas-

[3] O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professoinal ta'lim to‘g‘risida Nizom. 2020-yil 7-avgustdagi 466-sonli qaroriga 1-llova

[4] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-maydagi PQ-4312- son Qaroriga 1-ilova.

sislar tayyorlash hamda ular bilan maktabgacha ta’lim tashkilotlarini ta’minlash borasida mavjud muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlari davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tizimi uchun kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorida yuqorida qayd etilgan muammoni hal etish borasida muayyan ishlar rejalashtirildi. Jumladan, qarorda har bir viloyatda pedagogika yo‘nalishida kadrlar tayyorlaydigan ayrim kasb-hunar kollejlari Maktabgacha ta’lim vazirligining pedagogika kollejlari etib qayta tashkil etilishi, vazirlik qayta tashkil etilgan kollejlarning faoliyatiga rahbarlik qiladi va ularning tashkiliy-kadrlar bazasini mustahkamlash bilan shug‘ullanishi[5] ta’kidlab o‘tildi.

Qarorda, shuningdek, yangi pedagogika kollejlariga umumta’lim hamda ixtisoslashtirilgan maktablarning 11-sinf bitiruvchilari, ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat, olimpiya zaxiralari maktab-internatlari, shuningdek, akademik litseylar bitiruvchilari o‘qishga qabul qilinishi, qabul kvotalarini maktabgacha ta’lim vazirligi belgilashi, qayta tashkil etiladigan kollejlarga o‘qishga qabul qilingan o‘quvchilar o‘qishni amaldagi o‘quv dasturlari asosida tugatishlari, 2019-yil 1-sentabrgacha tayyorlov yo‘nalishlari va mutaxassisliklar ro‘yxati, o‘quv reja va dasturlar rivojlangan xorijiy davlatlarning ilg‘or tajribalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilib, tasdiqlanishi, qayta tashkil etiladigan o‘quv muassasalari asosiy faoliyatiga qo‘shimcha ravishda boshqa pullik xizmatlar ko‘rsatishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi.

Bugungi kunda pedagogika kollejlari maktabgacha ta’im tizimi uchun yuqori malakali, zamonaviy fikrlaydigan, ta’lim va tarbiyaning ilg‘or texnologiyalarini o‘zlashtirgan pedagog kadrlar va mutaxassislar tayyorlash, maktabgacha ta’lim nazariyasi va amaliyotini mukammal egallagan, o‘z mutaxassissligi bo‘yicha har tomonlama chuqur va mustahkam kasbiy kompetensiyalarga ega bo‘lgan, mustaqil fikrlay oladigan, davlat va jamiyat talablarini keng omma o‘rtasida targ‘ib qila olishga layoqatli, g‘oyaviy e’tiqodli, ijodkor va intizomda namuna bo‘la oladigan yetuk kadrlarni tarbiyalash hamda ular bilan maktabgacha ta’lim tashkilotlarini ta’minlash vazifasini bajaruvchi ta’lim muassasalari sifatida faoliyat ko‘rsatmoqda.

Ayniqsa, yoshlarimiz ilm-fan, texnika taraqqiyotini jadallashtirishda axborot kommunikatsion texnologiyalari bilan ish yurita oladigan, bilimdon bo‘lishlari davr talabi bo‘lib qolmoqda.

Shu bois, mehnat bozori talablariga mos kadrlar tayyorlashning yangi tizimi, shuningdek, O‘zbekiston Milliy kvalifikatsiya tizimi va ta’limning xalqaro standart klassifikatori (MSKO-2011) doirasidagi professional ta’lim darajalarini hisobga olgan holda O‘zbekiston Respublikasining ‘‘Professional ta’lim yo‘nalishlari, mutassisliklari va kasblari klassifikatori’’ ishlab chiqildi. Klassifikatorda maktabgacha ta’lim yo‘nalishlari ‘‘Pedagogika’’ ta’lim sohasi tarkibida ko‘rsatib o‘tilgan.

Professional ta'lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklari va kasblari klassifikatori[6]

Bilim sohasi: TA’LIM -100 000
Ta’lim sohasi: Pedagogika -110 000

[5] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-maydagi 418-sonli “Maktabgacha ta'lim tizimi uchun kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirl-ri to‘g‘risida”gi Qarori. https://lex.uz/acts/4345157

[6] Professional ta'lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklari va kasblari klassifikatori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 20-fevraldagi “Professional ta’lim yo‘nalishlari, mutaxassisliklari va kasblari klassifikatorini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 131-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

PT kodi	O‘rta professional ta’lim mutaxassis-liklari va kasblari	Klassifikatsiyalar	MMSK bo‘yicha malaka	O‘quv muddati
0.11.02.00	Yo‘nalishi: Maktabgacha ta’lim			
4.11.02.01	Maktabgacha ta’lim yordamchi tarbiyachisi	Maktabgacha ta’lim tashkiloti yordam-chi tarbiyachisi Inklyuziv guruhlarga ega maktabgacha ta’lim tashkiloti yordamchi tarbiyachisi Ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta’lim tashkiloti yordamchi tarbiyachisi Qo‘shma turdagi maktabgacha ta'lim tashkiloti yordamchi tarbiyachisi	3	2
4.11.02.02	Maktabgacha ta’lim	Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi Ko‘p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabga-cha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi Inklyuziv guruhlarga ega maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi Qo‘shma turdagi maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi	3	2

Pedagogika kollejlarining “Maktabgacha ta’lim” yo‘nalishida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi kasbi bo‘yicha kadrlar tayyorlashning zarur bilimlar mazmuni va kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar va pirovard maqsadlarini, shuningdek ta’lim oluvchilarning o‘quv yuklamalari hajmi va standart talablarini bajarilishi nazo-ratini belgilovchi malaka talablari tasdiqlandi. Malaka talablarida maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi kasbi bitiruvchilari egallashi zarur bo‘lgan quyidagi umumiy va kasbiy kompetensiyalar ko‘rsatib o‘tilgan:

4.11.02.02 – Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisi[7]

Коди	Umumiy kompetensiyalar
UK-1.	kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usul-larini tanlay olish;
UK-2.	rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish;
UK-3.	o‘zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish
UK-4.	jamoada va ma’lum vazifani bajarishga yo‘naltirilgan gurug‘da ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy muloqot qilish;
UK-5.	ta’lim olgan tilida fikrini og‘zaki va yozma ravishda bayon qilish;
UK-6.	umuminsoniy fazilatlarga ega bo‘lish, o‘z millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar va qadriyatlarni hurmat qilish;
UK-7.	professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo‘ladigan ma’lumotlarni qidirish; qilish;
UK-8.	kasbiy faoliyatda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash;
UK-9.	kasbga doir hujjatlar bilan ishlash;
UK-10.	kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish.

[7] Malaka talabi. O‘rta maxsus professional ta'lim darajasi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo‘nalishlari bo‘yicha o‘quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengashning 2021-yil 28-avgustdagi 5-son yig‘ilishida ma'qullangan va Vazirlikning 2021-yil 30-avgustdagi 375-son buyrug‘i bilan tasdiqlangan va joriy etilgan.

Kasbiy kompetensiyalar	
K.K.-1.1.	O‘zbekiston Respublikasining ‘‘Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari’’ va MTT o‘quv dasturi asosida ta’lim-tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish va olib borish, maktab ta’limiga sifatli tayyorlash, bolalarni individual ehtiyojlarini hisobga olgan holda variativ dasturlarni qo‘llay olish;
K.K.-1.2.	MTTda o‘tkaziladigan ta’lim-tarbiya jarayonida xorijiy tildan foydalanish, muloqot qilish;
K.K.-1.3.	Maktabgacha ta’lim pedagogikasi, bolalar psixologiyasi va metodik fanlarni bilish. Ta’lim jarayonida zamonaviy innovatsion texnologiya metodlarini samarali amalga oshirishda kompetensiyaviy yondashuv;
K.K.-1.4.	Tarbiyachining me’yoriy hujjatlarni yuritish, guruhlarda rivojlanish markazlarini jihozlash va bolalar faoliyatini tashkil etish;
K.K.-1.5.	Tarbiyalanuvchilarning ota-onasi (qonuniy vasiylari) bilan hamkorlikda ishlash, bolalarni rivojlantirish va tarbiyalashda amaliy yordam va maslahatlar tashkil etish;
K.K.-1.6.	Tarbiyalanuvchilar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ibot qilish, bolalarning sog‘lig‘i va hayotini muhofaza qilish yo‘riqnomasi talablari asosida tegishli qat’iy nazorat olib borish;
K.K.-1.7.	Bolalarga Vatanga muhabbat tuyg‘usini, oila, o‘z xalqining milliy, tarixiy madaniy qadriyatlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, atrof-muhitga ehtiyotkorona munosabatni shakllantirish ishlarida ishtirok etish.

Pedagogika kollejlarida o‘quvchilarning yuqorida qayd etilgan umumiy va kasbiy kompetensiyalarni mukammal egallashlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, o‘quv-metodik va moddiy-texnika bazasi mustahkamlash, ta’lim jarayonida o‘qitish sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan ilg‘or innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, amaliy mashg‘ulotlari va o‘quv amaliyotlarini zamonaviy talablarga javob beradigan maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tashkil etish bo‘yicha ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son Qaroriga 1-ilova.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-maydagi 418-sonli ‘‘Maktabgacha ta’lim tizimi uchun kadrlar tayyorlashni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida’’gi Qarori. https://lex.uz/acts/4345157

3. O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professoinal ta’lim to‘g‘risida Nizom. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-avgustdagi ‘‘O‘zbekiston Respublikasida uzluksiz boshlang‘ich, o‘rta va o‘rta maxsus professional ta’lim tizimini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida’’gi 466-sonli qaroriga 1-Ilova.

Dilnoza G'ANIYEVA,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
"Inson resurslarini boshqarish" kafedrasi tayanch doktoranti

INSON KAPITALI TARAQQIYOTIDA XODIMLARNING KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH INNOVATSION FAOLIYAT VA MUVAFFAQIYATNING KAFOLATI

Annotatsiya

Maqolada inson kapitali taraqqiyotida xodimlarning kompetensiyalarini rivojlantirish mehnat bozorining tarkibiy elementi va iqtisodiyotni innovatsion rivojlanishini belgilovchi omil sifatida ko'rib chiqilgan. Inson kapitalining mohiyati, o'ziga xos xususiyatlari va turlari, inson kapitali to'g'risidagi nazariyalar taraqqiyoti va bosqichlari tahlil qilingan. Shuningdek, innovatsion faoliyat va muvaffaqiyatni rivojlantirish maqsadida inson kapitali bozorini boshqarish modeli taklif etilgan.

Kalit so'zlar: Inson kapitali, mehnat resursi, ishchi kuchi, mehnat potensiali, inson resurslari, inson omili, innovatsion iqtisodiyot, ta'lim tizimi.

В статье рассматривается развитие компетенций работников в области развития человеческого капитала как структурного элемента рынка труда и фактора, определяющего инновационное развитие экономики. Анализируются природа, характеристики и виды человеческого капитала, развитие и этапы теорий о человеческом капитале. В целях развития инновационной активности и достижения успеха предлагается модель управления рынком человеческого капитала.

Ключевые слова: Человеческий капитал, трудовые ресурсы, рабочая сила, трудовой потенциал, человеческие ресурсы, человеческий фактор, инновационная экономика, система образования.

The article discusses the development of employees' competencies in the field of human capital development as a structural element of the labor market and a factor that determines the innovative development of the economy. The nature, characteristics and types of human capital, development and stages of theories about human capital are analyzed. In order to develop innovative activity and achieve success, a model for managing the human capital market is proposed.

Key words: Human capital, labor resources, labor force, labor potential, human resources, human factor, innovative economy, education system.

Yoshlar – har qanday jamiyatning ertasi, kelajagidir. Ular Yangi O'zbekistonning eng katta boyligi, bebaho oltin fondi, qolaversa, istiqbolimiz poydevori hisoblanadi. Bugun yurtimizda ularning zamonaviy ilm-fan va yuqori texnologiyalarni mukammal egallashi uchun barcha kuch hamda imkoniyat ishga solinmoqda. Yangi O'zbekiston o'z oldiga ulkan marralar qo'ygan. Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga kirishilgan. Yoshlar barcha davrlarda jamiyatning faol qatlami sifatida e'tirof etib kelingan. Sharq Uyg'onish davrida ham, jadidlar faoliyatida ham, jamiyatning yangilanishida yoshlarning o'rni beqiyos bo'lgan. Shu jihatdan muntazam shakllanib

boruvchi bu qatlam doimiy yo‘naltirib va qo‘llab-quvvatlab turishni talab etadi. Bu esa, davlat tomonidan yoshlarning mamlakat manfaatlari yo‘lida erkin ijtimoiylashuvi va o‘zini samarali namoyon etishi uchun maqbul sharoit va imkoniyat yaratish hamda yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi yoshlarga oid davlat siyosatini anglatadi.

Inson kapitali tushunchasi XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ilmfan sohasiga keng qo‘llanila boshlandi. Inson kapitali fan va texnika taraqqiy etgan zamonaviy dunyoda eng qimmatga aylangan resurs hisoblanadi. Ammo ushbu tadqiqot yo‘nalishi murakkabligi sababli juda ko‘p o‘rganilmagan masalalarga ega bo‘lib, inson kapitalini barcha ko‘rinishlari baholash va uni o‘lchashning uslubiy qiyinchiliklari mavjud. Shuningdek, hozircha turli uslubiy yondashuvlarga ega yagona me’yoriy-huquqiy baza ham mavjud emas. Zamonaviy dunyoda yuqori texnologiyalarni ishlab chiqish va yanada rivojlantirish, barcha sohalarda innovatsion mahsulotlar va texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiy hayot yangi inson resurslarini talab qiladi. Intensiv ilmiy-texnik transformatsiyalar sharoitida tezda qaror qabul qilishga qodir bo‘lgan o‘z ishiga ijodiy yondashadigan va kreativ fikrlovchi kadrlarni tayyorlash zamon talabiga aylandi.

Bugun dunyo yangi texnologik inqilob davriga kirdi. Iqtisodiyotning barcha jabhalarida, hususan banklarda, savdo va xizmat ko‘rsatish sohalariga yangi texnologiyalar kirib keldi. Biz bunday tezlikda o‘zgarayotgan dunyoga tayyormizmi? Ta’lim tizimimiz, korxonalarimiz, iqtisodiyotimiz modeli bunday o‘zgarishlardan ortda qolmoqda va bu milliy iqtisodiyotimiz uchun tahdid hisoblanadi.

Kapital taraqqiyot tarbiya va ta’limdan boshlanadi. Yosh avlodga yo‘naltirilgan har qanday sarmoya ertaga – kun kelib ming-ming hissa bo‘lib qaytadi. Vaholanki, hozirgi paytda inson kapitaliga nisbatan qarashlar tubdan kengayib, unga qimmatbaho aksiya hamda daromadlar oqimi sifatida qaralmoqda. Bu bejiz emas, albatta. Chunki inson kapitali iqtisodiy rivojlanish bilan chambarchas bog‘liq. Buni dunyoga mashhur hind olimi, iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti sohibi (1998 yil) Amartiya Sen ilmiy asoslab bergan. Uning fikricha, rivojlanish jarayoni faqat moddiy yoki iqtisodiy farovonlikning ortishi emas, balki jamiyatning har bir a’zosiga tanlov erkinligi yuqoriligini nazarda tutadigan shaxsning imkoniyatlarini kengaytirishdir. Davlat nafaqat iste’mol tengligini, birinchi navbatda, ta’lim, sog‘liqni saqlash xizmatlari, shuningdek, siyosiy va fuqarolik huquqlari sohasida teng huquqlilikni ta’minlashi kerak. Bu inson kapitalining o‘sishiga xizmat qiladi. Inson taraqqiyotiga sarmoya kiritib, jamiyat nafaqat mehnat unumdorligini oshirishga, balki tovarlar, ijtimoiy mahsulotlar va xizmatlarni yanada adolatli taqsimlashga ham erishishi mumkin. Shunday qilib, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish maqsadlariga erishish uchun inson kapitalini rivojlantirish vazifasi davlatning ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi ushbu maqsad-muddaolarga hamohangligi bilan ham ahamiyatlidir.

Dunyoga mashhur davlat arbobi, Singapurning birinchi Bosh vaziri Li Kuan Yu “Singapur mo‘jizasi”da “to‘g‘ri siyosat va inson kapitaliga sarmoya tikishimizda”, deya ta’kidlagan edi. Ya’ni inson kapitaliga yo‘naltirilgan 1 dollar mablag‘ 10 yildan so‘ng 100 barobar, 20 yildan so‘ng 1000 barobar bo‘lib qaytadi. Aslida ham shunday.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili T. Shuls, G. Bekker, P. Drukker va boshqalar o‘z nazariyalarida inson kapitalining asosiy ko‘rsatkichi sifatida insonning bilim va intellektini ko‘rsatishadi. Xususan, T. Shuls insonni uning qobiliyati, ta’lim orqali olgan bilimi nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqadi, ya’ni har bir ma’lumotli inson muayyan daromad olish imkoniyatiga ega bo‘lgan faoliyatida foydalanishi mumkin bo‘lgan manbaga ega

hisoblanadi. Xususan, u shunday yozadi: “Agar ta’lim iqtisodiyot uchun muhim bo‘lgan ishlab chiqarishga ta’sir etsa, bu kapital shakli hisoblanadi” G. Bekker inson kapitali nazariyasini investitsiyalar nuqtayi nazaridan rivojlantirdi. Uning nazariyasiga ko‘ra, inson kapitali – bu “har bir kishining bilim, ko‘nikma va motivatsiyasi zahirasidir. Ta’lim, kasbiy tajriba to‘plash, sog‘liqni saqlash, geografik harakatchanlik, daromad va narxlar to‘g‘risida ma’lumot izlash esa unga qilingan investitsiyalar bo‘lishi mumkin”. P. Druker esa shunday yozadi: “Rivojlangan mamlakatlarning raqobatdagi birdan-bir ustunligi malakali ishchi kuchi resurslari bo‘lib qolmoqda. Ishlab chiqarishda band bo‘lgan malakasiz ishchilardan malakali ishchilarning farqi shundaki, ular ishlab chiqarish vositalariga egalik qiladilar: ular bilimlarni o‘zlari bilan olib yuruvchilar hisoblanadilar”. Inson kapitali nazariyasi rus olimlari A. Dobrinin, S. Dyatlov, S. Kurganskiy asarlarida ham o‘z aksini topgan. Ular inson kapitalini “ijtimoiy takror ishlab chiqarishning u yoki bu sohasida maqsadli foydalaniladigan, ishlab chiqarish samaradorligi va mehnat unumdorligining o‘sishiga ko‘maklashadigan, shuningdek, insonning ish haqi (daromadi) o‘sishiga ta’sir ko‘rsatadigan investitsiyalar va inson tomonidan jamg‘arilgan sog‘liq, bilim, ko‘nikma, qobiliyatlar, motivatsiyalarning muayyan zaxirasi natijasida shakllangan kapital” sifatida ko‘rib chiqishgan. Innovatsiya va bilimga asoslangan iqtisodiy rivojlanish nazariyasi 1926-yilda Yozef Alois Shumpeter tomonidan ishlab chiqilgan edi. Jamiyat, davlat tomonidan aholining barcha qatlamlariga va toifalariga ayni miqdor va shakllardagi inson kapitali investitsiyasi sarflanishiga qaramay, inson kapitalining quyidagi turlari shakllanadi va hukm suradi:

– Ijobiy (faol) inson kapitali;
– Salbiy (nofaol) inson kapitali;
– Manfiy inson kapitali.

Ijobiy (aktiv) inson kapitali – o‘zi uchun sarflangan investitsiyani to‘la o‘zlashtirgan va uni jamiyatning rivojlanishi va takomillashuvi shaklida ro‘yobga chiqargan kreativ (yaratuvchi) va innovatsion kapitaldir. Bu yaratuvchanlik va takomillashuv, jumladan, aholining turmush darajasining oshishi, innovatsion salohiyatning yuksalishi, ta’lim tizimining rivoji, ilm-fanning taraqqiyoti, axborot almashinuvi va ta’minoti erkinligi, aholi salomatligining yaxshilanishi kabilarda namoyon bo‘ladi. Chunki, inson kapitalining parametrlari va sifati aholi/shaxsning mentaliteti, ta’lim darajasi, hayotiy tasavvurlari va sog‘liqni saqlash sohasidagi ahvol kabilar bilan o‘lchanadi. Aytish lozimki, ilm-fan, ta'lim va sog‘liqni saqlashga sarflangan investitsiyalar tarixan qisqa muddat ichida samara berishi mumkin, ammo asrlar davomida shakllangan mentalitetni qisqa vaqtda o‘zgartirish qiyin. Shu sababli dunyodagi ilg‘or tajriba va bilimlarni milliy/shaxs mentalitetining ijobiy xususiyatlari bilan uyg‘unlashtirish muhimdir.

Salbiy (passiv) inson kapitali. Inson kapitalining bu turi mamlakat taraqqiyotiga va innovatsion iqtisodiyotga aytarlik hissa qo‘shmaydi, uning butun mohiyati moddiy imkoniyatlarning iste’molchisi bo‘lishdan iboratdir. Passiv inson kapitalini yaxshi ta’lim olmagan, oddiy kustar (qo‘l mehnatiga asoslangan) sanoatda, tovar ayirboshlashga asoslangan tijoratda yoki mexanizatsiyalashmagan qishloq xo‘jaligida band kishilar tashkil etadi deyish mumkin. O‘zbekcha ta'bir bilan aytganda, ‘‘qora mehnat’’ qiluvchilar, ya’ni malaka talab qilmaydigan ishlarda ishlaydigan kishilar passiv inson kapitalini tashkil etadilar.

Inson kapitalining eng tahlil va bahs talab uchinchi turi manfiy inson kapitalidar. Manfiy inson kapitali deganda, nomidan ma’lum bo‘lganidek, o‘ziga sarflangan investitsiyalardan jamiyat uchun hech qanday foyda keltirmagan, na o‘zi yashaydigan jamiyat

iqtisodiyotining rivojiga, na aholi turmush darajasining yuksalishiga, na shaxs sifatida o‘zining rivojlanishiga hissa qo‘shishga yaramagan toifa tushuniladi. O‘zbekcha ifoda bilan aytganda, ‘‘na o‘ziga, na boshqaga foydasi tegmaydigan’’ toifa manfiy inson kapitalini tashkil etadi. Ashaddiy jinoyatchilar, giyohvandlar, korrupsionerlar, ishyoqmaslar, ichkilikbozlar, tekinxo‘rlik bilan kun kechiruvchilar – bir so‘z bilan aytganda, jamiyat va oilasining sarflagan moddiy investitsiyasi, bergan ta’lim-tarbiyasining samarasini yo‘qqa chiqargan kishilar manfiy inson kapitali sifatida namoyon bo‘ladilar. Ana shu toifadagi inson kapitali misolida ba'zi toifadagi kishilar uchun sarflangan investitsiyalar hamisha ham o‘zining ijobiy samarasini beravermasligi ko‘rinadi.

Innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishida inson kapitalining roli haqida o‘tkazilgan nazariy tahlil natijasida muayyan xulosalar qilish mumkin. Asosini inson, birinchi navbatda inson kapitali tashkil etadigan innovatsiyalar va yangi g‘oyalarsiz iqtisodiyotning hozirgi rivojini tasavvur etib bo‘lmaydi. Bilim eng katta xazina bo‘lib, uni hech bir boylik bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Buyuk ajdodimiz Ismoil al-Buxoriy tomonidan “Dunyoda ilmdan o‘zga najot yo‘q va bo‘lmagay” deb bejizga aytilmagan. Jahon taraqqiyotida intellektual salohiyat muhim ahamiyat kasb etib, bilimli va malakali insonning kuchiga bo‘lgan talab tobora kuchayib bormoqda. Chunki dunyoda yuksak ilmiy-texnologik kashfiyotlarni ana shunday salohiyati baland kadrlar yaratadi. Shuningdek, har qanday kashfiyotlardan faqat inson manfaatlari, uning baxt-saodati yo‘lida foydalanmoq lozim. Bugungi globallashuv jarayonida innovatsiya har qanday mamlakatning eng muhim strategik resurslaridan biridir. Ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni muvaffaqiyatli hal etish, yangi sanoat va moliyaviy texnologiyalarni joriy qilish, innovatsiya-investitsiya infratuzilmasini rivojlantirish, intellektual salohiyatni yuksaltirish, eksportbop mahsulot ishlab chiqarish, import o‘rnini bosish, valyuta zaxiralarini to‘plash ma’lum darajada innovatsion faoliyat bilan bog‘liqdir. Haqiqatan ham, inson kapitalini rivojlantirmasdan turib, innovatsion taraqqiyotga erishish mumkin emas.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha harakatlar strategiyasini ‘‘Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili’’da amalga oshirishga oid davlat dasturi to‘g‘risida”gi PF-5635-sonli farmoni. 17.01.2019. http://lex.uz/docs/4168749

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 28.12.2018. https://president.uz/uz/lists/view/2228 “Iqtisodiyot va innovatsiontexnologiyalar” ilmiyelektronjurnali. № 4, iyul-avgust, 2019yil 4/2019 (№ 00042) http://iqtisodiyot.tsue.uz 101

3. Schultz T. Capital Formation by Education //Journal of Political Economy. –1980. – Vol. 68.

Saidbek VALIXANOV,
Andijon davlat universiteti o'qituvchisi

JISMONIY TARBIYANI TASHKIL QILISHDA ILK VA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING FIZIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyalashning aniq vazifalarini samarali amalga oshirish uchun obyektiv qonunlarga tayanish va bolaning anatomik, fiziologik va aqliy xususiyatlarini hisobga olgan holda jismoniy tarbiya jarayonini tashkil qilish muhim ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar. Jismoniy tarbiya, jismoniy sifatlar, rivojlanish, asab tizimi, mushak tizimi, harakat.

Для эффективной реализации конкретных задач физического воспитания детей раннего и дошкольного возраста важно опираться на объективные закономерности и организовывать процесс физического воспитания с учетом анатомических, физиологических и психических особенностей ребенка.

Ключевые слова. Физическое воспитание, физические качества, развитие, нервная система, мышечная система, движение.

For the effective implementation of specific tasks of physical education of children of primary and preschool age, it is important to rely on objective laws and organize the process of physical education taking into account the anatomical, physiological and mental characteristics of the child.

Key words. physical education, physical qualities, development, nervous system, muscular system, movement.

Ta'lim va tarbiya tizimini qayta tashkil etish, uni zamon talablari darajasiga ko'tarish, barkamol, komil insonni tarbiyalash kabi vazifalarni hal etish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablarida bolalarning jismoniy rivojlanishidagi muammolarini aniqlash va uning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni belgilash; doimiy ravishda bolalarning jismoniy rivojlanishini tahlil qilib borish; bolalarning jismoniy rivojlanishi bo'yicha oila bilan hamkorlik qilish; sog'lom turmush tarzining muhimligini tushuntirish va uni ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish[1] muhim vazifa sifatida belgilab qo'yilgan.

"Jismoniy tarbiya" tushunchasi keng ma'noda "ta'lim" tushunchasiga kiritilgan. Bu shuni anglatadiki, jismoniy tarbiya, boshqa ta'lim turlari singari, tabiatan pedagogik jarayonga xos bo'lgan barcha umumiy xususiyatlarga ega bo'lgan pedagogik jarayondir (mutaxassis o'qituvchining yetakchi roli, o'qituvchi faoliyatini pedagogik prinsiplarga muvofiq tashkil etishi va boshqalar). Jismoniy tarbiyaning o'ziga xos xususiyatlari, asosan, harakat faoliyati jarayonida tegishli bilimlarni shakllantirishni va insonning jismoniy sifatlarini hamda uning jismoniy imkoniyatlarini rivojlantirishni ta'minlashdan iborat. Shunga ko'ra, jismoniy tarbiyada ikkita o'ziga xos jihat ajralib turadi: harakatlarga o'rgatish (motor harakatlari) va jismoniy sifatlarni tarbiyalash (harakat qobiliyatlari

[1] O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi vazirining "Maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari"ni tasdiqlash haqidagi 302-son buyrug'i. 2013-yil 19-sentabr

va tananing asosiy tabiiy xususiyatlari).

Jismoniy sifatlar va ular bilan bog‘liq harakat qobiliyatlarini tarbiyalash maktabgacha yoshdagi bolaning jismoniy tarbiyasining muhim jihatlaridan biridir. Bolalarning umumiy jismoniy tayyorgarligi darajasi ularning asosiy jismoniy sifatlari qanday rivojlanganligi bilan belgilanadi: kuch, chaqqonlik, tezkorlik, chidamlilik, moslashuvchanlik. Olimlarning fikriga ko‘ra, jismoniy sifatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi sababli, jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanish qiyin, ba’zi hollarda esa imkonsiz.

Pedagogik nuqtai nazardan, harakat qobiliyati va jismoniy sifatlarning o‘zaro bog‘liqligi jismoniy harakat shakli va mazmunining dialektik birligi sifatida qaraladi. Jismoniy sifatlar ma’lum harakat ko‘nikma va malakalari orqali namoyon bo‘ladi. Harakat qobiliyatlari haqiqatan ham ma’lum jismoniy sifatlar mavjud bo‘lganda mavjud. Bunday yaqin munosabatlar bu ikki jarayonning shartli refleks mexanizmi umumiyligi bilan izohlanadi. Shuning uchun bolaning uyg‘un rivojlanishini ta’minlash uchun ularning parallel rivojlanishi uchun sharoit yaratish kerak. Harakat sifatlarini rivojlantirishni optimallashtirish vazifasi jismoniy tarbiya amaliyotida muhim ahamiyatga ega, chunki harakat faoliyatini amalga oshirish va uni hayotning turli sohalarida muvaffaqiyatli amalga oshirish qobiliyati ularning rivojlanish darajasiga bog‘liq.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarning rivojlanishi notekis bo‘lib, bolaning funksional tizimlarining holatiga va uning harakat tajribasiga bog‘liq. Olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, 3 yoshdan 7 yoshgacha davrlar ajralib turadi. 3,5 va 7 yosh, bunda nafaqat miqdoriy o‘sish, balki funksiyalarni sifat jihatdan qayta tuzilishi, shu bilan birga asosiy energiya ta’minoti tizimlari faoliyatining o‘zgarishi sodir bo‘ladi. Bu jismoniy tarbiyaning ushbu davrlarida maqsadli ta’sir o‘tkazish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan mashg‘ulotlarda vaqtning optimal nisbati vaqtning 50-55 foizini jismoniy sifatlarni tarbiyalashga uchun va vaqtning 45-50 foizini jismoniy harakatlarni o‘rganish uchun ajratilishini ta’minlash kerakligi aniqlandi.

Jismoniy tarbiyaning ikkinchi tomonining mohiyati jismoniy sifatlarga maqsadga muvofiq ta’sir qilish, harakat qobiliyatlarining yo‘naltirilgan rivojlanishini (kuch, tezkorlik, chidamlilik va boshqalarni) ta’minlashdan iborat. Shunday qilib, jismoniy tarbiya – bu jismoniy madaniyat omillaridan maqsadli foydalanishning pedagogik tartibli jarayoni, shu jumladan: motor harakatlariga o‘rgatish (natijada harakatga doir ko‘nikmalar, qobiliyatlar va tegishli bilimlar shakllanadi), individual jismoniy sifatlarni va ular bilan bog‘liq harakat qobiliyatlarini tarbiyalash, shu asosda shaxsiy xususiyatlarni shakllantirish va rivojlantirishga yordam berish. Integral oqilona tashkil etilgan pedagogik tizimda jismoniy tarbiyaning ushbu o‘ziga xos mazmuni aqliy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasi bilan uzviy bog‘liqdir. Jismoniy tarbiya shu munosabat bilan shaxsni har tomonlama tarbiyalashning asosiy omillaridan biri sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Hayotning birinchi yillarida bolaning har tomonlama rivojlanishining asosi jismoniy tarbiya hisoblanadi. Tashkil etilgan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari (maktabgacha ta’lim tashkilotlarida va oilaviy hayotda), shuningdek, bola yurganda, o‘ynaganda, sakraganda, yugurganda va hokazolarda erkin harakatlanish, yurak-qon tomir, nafas olish va asab tizimlarining faoliyatini yaxshilaydi, tayanch-harakat tizimini mustahkamlaydi, metabolizmni yaxshilaydi, bolaning kasalliklarga chidamliligini oshiradi, organizmning himoya kuchlarini safarbar qiladi. Harakat faoliyati orqali bola dunyoni o‘rganadi va uning aqliy jarayonlari rivojlanadi. Bola qanchalik xilma-xil harakatlarni o‘zlashtirsa, sezgi, idrok va boshqa psixik jarayonlarining rivojlanishi uchun imkoniyatlari shunchalik keng bo‘ladi va uning rivojlanishi shunchalik to‘liq amalga oshiriladi. Shuning uchun, agar bu muddat malakali jismoniy tarbiya nuqtai nazaridan o‘tkazib yuborilsa, kelajakda bo‘shliqlarni qoplash, yo‘l qo‘yilgan xatolarni bartaraf etish juda qiyin bo‘ladi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyasining eng keng tarqalgan vazifalari:

Sog‘lomlashtirish vazifalari: a) organizmning atrof-muhit ta’siriga chidamliligiga chiniqish orqali erishish. Tabiatning oqilona me’yorlangan sog‘lomlashtirish omillari (quyosh, suv, havo protseduralari) yordamida bola tanasining zaif himoyasi sezilarli darajada oshadi. Bu esa shamollash va yuqumli kasalliklarga chidamliligini oshiradi; b) tayanch-harakat tizimini mustahkamlash va yassi oyoqlarning oldini olish uchun to‘g‘ri holatni saqlash (ya’ni barcha turdagi faoliyat davomida ratsional holatni saqlash) va tekislikni oldini olish uchun oyoq va pastki oyoq mushaklarini kuchaytirish ko‘nikmalarini shakllantirish. Barcha asosiy mushak guruhlarining uyg‘un rivojlanishi uchun tananing har ikki tomonida mashqlarni bajarish, kundalik hayotda kamroq mashq qiladigan mushak guruhlarini va zaif mushak guruhlarini mashq qilish kerak; v) tana a’zolari va tizimlarining funksional imkoniyatlarini yaxshilashga ko‘maklashish. Bolaning faol harakat faoliyati yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarini mustahkamlashga, organizmdagi metabolik jarayonlarni yaxshilashga, ovqat hazm qilish va termoregulyasiyani optimallashtirishga, turg‘unlikni oldini olishga va hokazolarga yordam beradi. Jismoniy mashqlar, o‘sib borayotgan organizmning shakllari va funksiyalarini rivojlantirishning tabiiy jarayoniga maqbul xarakter beradi, buning uchun qulay sharoit yaratadi va shu bilan bola tanasining barcha tizimlarining normal ishlashiga yordam beradi.

Ta’limiy vazifalari: a) asosiy hayotiy harakat ko‘nikma va malakalarini shakllantirish. Ilk va maktabgacha yoshda, asab tizimining yuqori plastikligi tufayli harakatlarning yangi shakllari juda oson va tez o‘zlashtiriladi, harakat ko‘nikmalarini shakllantirish jismoniy sifatlarni tarbiyalash bilan parallel ravishda amalga oshiriladi; b) jismoniy mashqlarga barqaror qiziqishni shakllantirish, chunki bu uyushgan va muntazam harakat faoliyati uchun barqaror ehtiyoj va ijobiy motivatsiyani shakllantirish uchun eng qulay davrdir. Shu bilan birga, bir qator shartlarga rioya qilish kerak: vazifalarning maqsadga muvofiqligini ta’minlash, ularning muvaffaqiyatli bajarilishi esa bolalarni yuqori faoliyatga undaydi; bajarilgan vazifalarni ijobiy baholash; bolaga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish va uning harakatlarini rag‘batlantirish va boshqalar; v) bolalarni boshlang‘ich jismoniy tarbiya bilan tanishtirish, bu ularning intellektual qobiliyatlarini rivojlantiradi, aqliy imkoniyatlarini va dunyoqarashini kengaytiradi.

Individual rivojlanishning har bir bosqichi (ontogenez) o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, ular bolaning jismoniy tarbiyasini tashkil qilishda hisobga olinishi kerak. Bola tanasini shakllantirishning asosiy biologik qonunlarini hisobga olmasdan oqilona fiziologik va gigienik asoslangan jismoniy tarbiya mumkin emas. Shunday qilib, bola hayotining birinchi yillari organizmning tez o‘sishi va rivojlanishi bilan ajralib turadi, bu dinamik ravishda va shu bilan birga notekis sodir bo‘ladi. Yoshga bog‘liq rivojlanish sur’atlarida sezilarli individual farqlar mavjud bo‘lib, bu pedagogik jarayonga va ayniqsa, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya tarbiyachisi faoliyatiga va ota-onalarga uy sharoitida katta talablar qo‘yadi.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy tarbiyasi jarayonini to‘g‘ri tashkil etish uchun tayanch-harakat tizimi, markaziy asab tizimi rivojlanishining yoshga bog‘liq xususiyatlari, mushak, yurak-qon tomir, nafas olish va boshqa organ tizimlaridagi morfologik va funksional o‘zgarishlar haqida bilimga ega bo‘lish muhimdir.

Bolalardagi asab tizimining yuqori qo‘zg‘aluvchanligi, reaktivligi, yuqori plastikligi kattalarga qaraganda ancha murakkab harakat ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi: rolikda uchish, suzish. Ushbu yoshda asab faoliyati jarayonlari yetarlicha kuchli va harakatchan emas, ammo shartli refleks aloqalari juda kuchli va ularni o‘zgartirish juda qiyin. Shuning uchun jismoniy tarbiya jarayonida bolalarni mashqni texnik jihatdan to‘g‘ri bajarishga o‘rgatish kerak, chunki paydo bo‘lgan mahorat qat’iy va doimiy ravishda o‘rnatiladi. Xatolar bilan o‘rganilgan oddiy harakatlar kelajakda yanada murakkab harakat ko‘nikmalarini to‘g‘ri shakllantirishni imkonsiz qiladi va bu bolaning harakat qobiliyatini to‘liq ochib berishni qiyinlashtiradi.

Bolaning o‘sishi uning jismoniy rivojlanishining aksidir. O‘sish jarayoniga ko‘plab omillar ta’sir qiladi. Bu bolaning ovqatlanishiga, organizmni rivojlanish uchun zarur bo‘lgan barcha oziq moddalar bilan ta’minlashga bog‘liq: oqsillar, yog‘lar, uglevodlar, mineral tuzlar, vitaminlar. O‘sishga irsiy omillar ham ta’sir qiladi. Bundan tashqari, bolaning o‘sishi suyak va tog‘ay to‘qimalarning o‘sishini belgilovchi gormonlar tomonidan tartibga solinadi. Bularga quyidagilar kiradi: qalqonsimon bez gormoni, gipofiz o‘sish gormoni, insulin, jinsiy gormonlar.

Eng muhimi, bola ertalab uyqu paytida o‘sadi. Bolaning o‘sishi ham uning jinsiga bog‘liq.

Skeletning alohida qismlari notekis ravishda kattalashadi. Inson o‘sishi asosan oyoqlarning cho‘zilishi tufayli sodir bo‘ladi. Tug‘ilgandan so‘ng boshning balandligi ikki barobar, tananing uzunligi – 3 marta, qo‘llarning uzunligi – 4 marta, oyoqlar – 5 marta uzayadi.

O‘sishga yilning vaqti ham ta’sir qiladi, eng intensiv o‘sish bahor-yoz davrida ortadi.

Bo‘yi va tana vazni bo‘yicha orqada qolgan bola sekin o‘sish sur’ati bo‘lgan bola sifatida tavsiflanadi. Tana vazni va ko‘krak qafasi aylanasi o‘sishga mos kelsa, jismoniy rivojlanish uyg‘unlashgan deb hisoblanadi. Agar tana vazni yoki ko‘krak qafasi hajmi ma’lum bir balandlik va jinsga mos kelmasa, har bir alohida holatning disgarmonik (nomutanosib) rivojlanish sababini topish va uni yo‘q qilish kerak. 1-jadvalda maktabgacha yoshdagi bolalarning jismoniy rivojlanishi ko‘rsatkichlarini tavsiflovchi individual parametrlar keltirilgan.

1-jadval

Jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari	Yoshi			
	3 yosh	4 yosh	5 yosh	6 yosh
Qiz bolalar				
Tana vazni, kg	13,8-17,1	16,8-19,8	17,5-22	19,9-25,9
Tana uzunligi, sm	96-104	103-110	109-116	115-123
Ko‘krak qafasi aylanasi, sm	52-54	54-56	56-58	58-61
O‘g‘il bolalar				
Tana vazni, kg	14.7-17,5	16-20,1	18-22,9	20-25
Tana uzunligi, sm	99-106	105-111	109-118	115-125
Ko‘krak qafasi aylanasi, sm	53- 54	54 -57	57-58	58-60

3-6 yoshli bolalarning jismoniy rivojlanish ko‘rsatkichlari

Bolalarda mushak tizimi kattalarnikiga qaraganda ancha kam rivojlangan bo‘ladi. Maktabgacha yoshdagi bolada mushaklarning umumiy massasi tana vazniga nisbatan 20-22% ni tashkil qiladi, bu kattalarnikidan 2 baravar kam. Bolaning mushaklari tolali tuzilishga ega bo‘lib, u o‘sib borishi bilan cho‘zilishi bilan birga mushaklar qalinlashadi.

Bolada dastlab oyoq mushaklari, 6-7 yoshdan boshlab esa qo‘l mushaklari rivojlanadi. 5 yoshga kelib, mushaklarning kuchi oshadi. Biroq, mushaklarning tez charchashi va tayanch-harakat tizimining nisbatan zaifligi tufayli, maktabgacha yoshdagi bolalar hali mushaklarning uzoq muddatli kuchlanishiga qodir emaslar.

7 yoshgacha bo‘lgan bolaning skelet mushaklari paylar va bo‘g‘imlarning zaif rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Qorin pressi kam rivojlangan bo‘lib, katta jismoniy zo‘riqishga bardosh bera olmaydi. Haddan tashqari yuk bilan tolalar bo‘shashadi va churralar (grija) paydo bo‘lishi mum-

kin. O‘g‘il bolalarda jinsiy a’zo mushak halqasi yomon rivojlangan, shuning uchun jinsiy a’zo churrasi shakllanishi mumkin.

Bolalarda gavda va oyoq-qo‘llarning katta muskullari yaxshi rivojlangan, ammo orqa miyaning to‘g‘ri holatini saqlash uchun katta ahamiyatga ega bo‘lgan orqa tomonning kichik mushaklari kam rivojlangan bo‘ladi. Shuning uchun bu yoshda bolaning holatini kuzatish kerak. Qo‘lning kichik mushaklari nisbatan kam rivojlangan bo‘ladi, shuning uchun bolalar barmoq harakatlarini aniq muvofiqlashtirishga ega emaslar. Tana vazniga nisbatan pastki oyoq-qo‘llar mushaklarining vazni yuqori oyoq-qo‘llarning massasiga qaraganda intensiv ravishda oshadi, bu bolaning yuqori harakat faolligi bilan bog‘liq.

Mushak apparatini muntazam ravishda mashq qilishni unutmaslik kerak: mushaklarning o‘zgaruvchan tarangligi va bo‘shashishi bilan mashg‘ulotlar statik harakatlarni (uzoq vaqt turish yoki o‘tirish) talab qiladiganlarga qaraganda kamroq charchaydi. Bu yoshdagi bolalarning tez charchashini hisobga olib, jismoniy mashqlarni bajarishda ortiqcha jismoniy kuch sarflashdan saqlanish kerak.

Mushak massasining ko‘payishi hissi ko‘pincha bolalarning imkoniyatlarini haddan tashqari oshirib yuborishiga olib keladi va shuning uchun jismoniy mashqlarni to‘g‘ri bajarish ustidan maxsus nazorat zarur. Suyaklarning o‘sishining kechikishining oldini olish uchun jismoniy tarbiya jarayonida mushak kuchining haddan tashqari rivojlanishiga yordam beradigan mashqlardan qochish kerak. Har qanday mushak guruhlarining bir-biridan ustun o‘sishini oldini olish uchun barcha mushak guruhlarining uyg‘un rivojlanishiga qaratilgan jismoniy mashqlardan foydalanishga harakat qilish kerak.

7 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun tayanch-harakat tizimining rivojlanishi (skelet suyaklari, bo‘g‘im-biriktiruv apparati) hali tugamagan bo‘ladi. Kattalar bilan taqqoslaganda, bolaning suyak tizimi tog‘ay to‘qimalariga boy bo‘lib, ko‘proq organik moddalar va kamroq mineral tuzlarni o‘z ichiga oladi, shuning uchun bolaning suyaklari osongina egilib, noqulay tashqi omillar ta’sirida tartibsiz shaklga ega bo‘lishi mumkin. Skeletning suyaklanishi bolalikning butun davrida astasekin sodir bo‘ladi. Ushbu davrda skeletning 206 suyagining deyarli har biri shakli, hajmi va ichki tuzilishi jihatidan sezilarli darajada o‘zgarishda davom etadi. Bolaning suyak tizimi suyak hosil qilish jarayonining to‘liq emasligi bilan ajralib turadi va ba’zi joylarda (qo‘l kafti suyaklari, umurtqaning ayrim qismlari) tog‘ay tuzilishini saqlab qoladi.

Shuning uchun umurtqa pog‘onasi, ko‘krak qafasi, tos suyaklari, oyoq-qo‘llarining deformatsiyalari (noto‘g‘ri shakllanish) paydo bo‘lishining oldini olish, bolalarning to‘g‘ri holatini, uyqu paytida tananing to‘g‘ri holatini kuzatish juda muhimdir. Shuni esda tutish kerakki, ortiqcha yuklar skeletning rivojlanishiga salbiy ta’sir qiladi, suyaklarning egriligiga olib keladi va aksincha, bu yoshdagi jismoniy mashqlar – yugurish, toqqa chiqish, sakrash suyaklarning o‘sishini rag‘batlantiradi, ularni mustahkamlashga yordam beradi.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, uch yoshgacha bo‘lgan bolalarda harakatlar nomukammal, noto‘g‘ri, harakatlarni ongli ravishda boshqarish hali ham cheklangan bo‘ladi. Umurtqa pog‘onasining ozgina egilishi, oyoq kamarlari, vestibulyar apparatlarning yetarli darajada rivojlanmaganligi, yuqori og‘irlik markazi, oyoq muskullarining zaifligi – bularning hammasi bolaning tez-tez yiqilishiga sabab bo‘ladi. Bu yoshdagi bolalar sekin harakat reaksiyasiga ega, egiluvchan mushaklari yetarlicha rivojlanmagan. Bolalar tez charchashadi. Bolaning miya yarim korteksi, rivojlanishning yuqori sur’atlariga qaramay, hali ham yetarli darajada shakllanmagan; analizatorlarning yetuk emasligi kuzatiladi. Yangi shartli refleks aloqalari osongina yaratiladi, ammo mo‘rt bo‘ladi. Bolalar harakatlarni nosxematik, kelishilmagan (nomuvofiq), ko‘pincha sekin bajaradilar.

Hayotning uchinchi va to‘rtinchi yillarida bolaning harakat tajribasi sezilarli darajada kengayadi va harakatni boshqarishning o‘zboshimchaliklari rivojlanadi. Uch yoshga kelib koptokni uloqtirish

va ushlash, bir joydan yugurish va sakrash, gimnastika narvoniga ko‘tarilish ko‘nikmalari shakllanadi. Bu yoshda bolalar ketma-ket bir nechta jismoniy harakatlarini izchil bajara oladilar, harakat yo‘nalishini o‘zgartiradilar va berilgan surhatga (asosan o‘rtacha) bo‘ysunadilar. To‘rt yoshida bolalar o‘z muvozanatini yaxshi ushlab turadilar, uch g‘ildirakli velosipedda harakatlanadilar.

Besh yoshga kelib, bolaning harakatlari ancha boyib, xilma-xil bo‘lib qoladi, chunki tayanch-harakat tizimining imkoniyatlari kengayadi. Suyaklanishning faol jarayoni tufayli skelet biroz kuchga ega bo‘ladi: tos suyaklarining birlashishi boshlanadi, bachadon bo‘yni va ko‘krak umurtqasining egilishi juda aniqlashadi. Bola statik va dinamik holatlarda ancha barqaror bo‘ladi. Kattalar rahbarligida bolalar harakatning elementar tahlilini o‘tkazishlari, undagi bir nechta xarakterli xususiyatlarni aniqlashlari mumkin. Diqqat, harakat xotirasi, fikrlash va tasavvur yanada barqaror bo‘ladi. Bolalar fazoda yaxshiroq harakat qilishadi va o‘z harakatlarini o‘rtoqlarining harakatlari bilan muvofiqlashtiradilar.

Hayotning beshinchi yilida katta mushak guruhlarini tartibga soluvchi markazlarning morfofunksional yetukligi tufayli harakatlar yanada aniq va baquvvat bo‘ladi, boshlang‘ich pozitsiyasini, harakatlarning yo‘nalishi, amplitudasi va tezligini saqlab qolish qobiliyati paydo bo‘ladi, ushlash va qochish bilan o‘yinlarda ishtirok etish qobiliyati shakllanadi, bu yerda natija nafaqat bitta ishtirokchiga, balki boshqalarga ham bog‘liq bo‘ladi.

6 yoshda asosan umurtqa pog‘onasi shakllanadi, u o‘zgarishga moyil bo‘ladi, shuning uchun bolalarning holatini kuzatib borish kerak. Muayyan vazn, mushaklarning kuchi va ularning funksiyalari oshadi.

Hayotning oltinchi va yettinchi yillarida harakatlarning rivojlanishida sifatli sakrash mavjud, ayniqsa umumiy rivojlanish xarakteridagi mashqlarni bajarishda ekspresivlik, silliqlik va aniqlik paydo bo‘ladi. Bolalar harakat ritmini yaxshiroq o‘rganadilar, tezda bir tempdan ikkinchisiga o‘tadilar. Tana qismlari va obyektlarining fazoviy joylashuvi aniqroq taxmin qilinadi. Bolalar individual mashqlarni bajarishda xatolarni sezishni boshlaydilar, elementar tahlil qilishga qodir bo‘ladilar. Ular tarkibida nafaqat uning asosiy elementlarini, balki tafsilotlarini ham ajrata oladilar. Ular harakatda yanada nozik harakatlarni o‘zlashtira boshlaydilar. Natijada ular yugurish startidan uzoqqa va balandga sakrashlarni, arg‘amchida sakrash, ustun va arqonga chiqish, masofaga va nishonga otish, velosiped uchish hamda suzishni muvaffaqiyatli o‘zlashtiradilar.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, bolaning jismoniy salomatligini shakllantirishda uning organlari va tizimlarining rivojlanish darajasi va xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Rivojlanish darajasi har bir bolaning fiziologik tabiatiga xos bo‘lgan va uning asosiy ehtiyojlari bilan bog‘liq bo‘lgan dastur bilan belgilgilanadi. Bu bolaning individual-barkamol rivojlanishining sharti bo‘lgan asosiy ehtiyojlarini qondirishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. 2017-2021-yillarda Maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadirlari to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2707-son qarori. 2016-yil 29-dekabr.

2. Лешли Д. Работат с маленкими детми, поощрят их развитие и решат проблемы / Пер. с англ. М., 1991.

3. Матвеев Л. П. Теория и методика физической культуры. – 3-е изд., перераб. и доп. / Л. П. Матвеев. - М.: Физкультура и спорт, СпортАкадемПресс, 2008. – С. 544.

4. Nuriddinova M.M. Maktabgacha ta’lim muassasalarida jismoniy tarbiya yo‘riqchilari uchun me’yoriy hujjatlar majmui. –T .: Muxarrir, 2013.

5. Salomova R.S. Jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyoti. – T., 2014.

Surayyo RAXIMOVA,
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari direktor va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti, "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi mudiri

INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARI XODIMLARI MALAKASINI OSHIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Annotatsiya

Maqola maktabgacha ta'lim tashkilotlari xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi faoliyatini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan. Shuningdek, muallif malaka oshirish tizimini innovatsion yondoshuv asosida tashkil etish bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini berib o'tgan.

Kalit so'zlar. Maktabgacha ta'lim, innovatsion yondoshuv, masofaviy ta'lim, malaka oshirish, muammo, jarayon, tizim, dasturlash, baholash, bilim, malaka, ko'nikma.

В статье рассматриваются вопросы совершенствования системы переподготовки и повышения квалификации кадров дошкольного образования. Автор также поделился своими мыслями о том, как разработать инновационный подход к модернизации системы дошкольного образования.

Ключевые слова. Дошкольное образование, инновационный подход, дистанционное обучение, профессиональное развитие, проблема, процесс, система, программирование, оценка, знания, навыки, умения.

The article deals with the issues of improving the system of retraining and advanced training of preschool education. The author also shared his thoughts on how to develop an innovative approach to the modernization of preschool education.

Key word. Preschool education, innovative approach, distance learning, professional development, problem, process, system, programming, evaluation, knowledge, skills, abilities.

Mamlakatimizda yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, o'g'il-qizlarning barkamol insonlar bo'lib ulg'ayishini ta'minlash maqsadida maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 26-sentyabrdagi PQ-3289-son, "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2017-yil 30-sentyabrdagi PQ-3305-son qarorlari qabul qilindi[1]. Unga ko'ra:

– maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish kurslarining o'quv-metodik bazasini shakllantirishni muvofiqlashtirish va tashkiliy-metodik rahbarlikni amalga oshirish;

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 26-sentyabrdagi PQ-3289-son, "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son qarorlari.

– o‘quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishni hisobga olgan holda qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslarining o‘quv rejalari va dasturlarini tizimli ravishda takomillashtirishni ta’minlash;

– maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish jarayonlarining ilmiy muammolariga yo‘naltirilgan fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy izlanishlar olib borilishini muvofiqlashtirish;

– hududiy markazlarda dars beradigan professor-o‘qituvchilar tarkibining kasbiy tayyorgarligini uzluksiz rivojlantirib borish, o‘quv jarayoniga xorijiy mutaxassislar, olimlar va o‘qituvchilarni jalb etish ishlarini tashkil etish;

– hududiy markazlar faoliyati natijadorligini muntazam o‘rganib borish va o‘rganish natijalari yuzasidan tegishli takliflar ishlab chiqish;

– qayta tayyorlash va malaka oshirish kurslari faoliyatini samarali tashkil etish bo‘yicha hududiy markazlar rahbarlarining hisobotlari muhokamasini tashkil etish, muhokama natijalari yuzasidan hududiy markazlar rahbarlari faoliyatiga baho berish kabi dolzarb masalalarni amalga oshirilishiga qaratilgan.

Tinglovchilar bilan doimiy aloqa bog‘lash, tinglovchilarga zarur metodik yordam berish, yakka tartibdagi mashg‘ulotni bajarish yuzasidan nazoratni amalga oshirish va tinglovchilar bilimlarini baholash maqsadida ko‘pgina xizmatlar tashkil etildi. Bu ham bo‘lsa masofaviy ta’lim.

Masofaviy ta’lim fenomenini nazariy anglash to‘g‘risidagi ishlarning xususiyati shundan iboratki, masofaviy ta'lim nazariyasiga bag‘ishlangan ko‘pchilik ishlar pedagogik, tashkiliy, iqtisodiy va boshqa yondashuvlarning sintezi bo‘lib hisoblanadi. Bunda ko‘pgina mualliflar mavjud bo‘lgan ilmiy tushunchalar apparatinining cheklanganligi to‘g‘risida xulosaga keladilar va masofaviy ta’limni mos ravishda yoritish maqsadida nazariy apparatni rivojlantirishda o‘zlarining takliflarini berishga harakat qiladilar.

Oxirgi o‘ttiz yil davomida masofaviy ta’lim ta’lim tizimlari ko‘rinishini o‘zgartirgan holda ta’limiy va axborot madaniyatining olamshumul hodisasi bo‘ldi. “Masofaviy ta’lim” deb umumiy nom bilan birlashgan butun bir ta’lim xizmatlari industriyasi paydo bo‘ldi va tezkor rivojlanmoqda, u ta’lim oluvchilarning juda ko‘pchilik sonini qamrab oladi va o‘zining o‘lchamlari va infrastrukturasining murakkabligi bilan lol qoldiradi.

Yevropa muxbir maktablari assotsiatsiyasi (AECS) prezidentining obrazli ta’biri bo‘yicha: “Masofaviy ta’lim – bu o‘qishdan sal kattaroq, eshitish yoki ko‘rishdan kattaroq, avvalroq tayyorlangan o‘quv materiallaridan kattaroq, texnologiyadan kattaroq, mustaqil o‘rganishdan kattaroq, treningdan kattaroq, ochiq o‘qishdan kattaroq narsadir....”[2].

“Masofaviy ta’lim” tushunchasini kengaytirish maqsadlarida masofadan o‘qitishning amaldagi turlarini solishtirish metodidan foydalanish mumkin, u birinchidan, masofaviy ta’lim nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishdagi tendensiyalarni aniqlash, ikkinchidan, masofaviy ta’lim turlari o‘rtasidagi aloqalarni o‘rnatish, uchinchidan, masofaviy ta’lim metodologiyasini, uning turlari asosidagi didaktik tamoyillarni aniqlash imkonini beradi.

Masofaviy ta’lim nazariyasi va amaliyotining rivojlanishini tahlil qilishda ikki turdagi ta’lim tizimi aniq ajralib chiqadi, ularni farqlash, “masofaviy ta'lim” tushunchasini yetarli darajada aniqlashga urinishda yuzaga keladigan ziddiyatlar mohiyatini tushunishga olib keladi.

“Muxbirli ta’lim” deb nom olgan ta'lim tizimi, tarixan masofaviy ta’limning boshqa turlaridan oldin paydo bo‘lgan. O‘qitishning bu turining asosida masofaviy pochta jo‘natmalari vositasidagi ta’lim kommunikatsiyasi yotadi.

Ikkinchi turdagi ta’lim tizimi axborot-kommunikatsiya vositalari rivojlanishidan paydo

[2] Schachtsiek Bernd Private Provision in Distance Education. /In Report of the 1992 EDEN conference at the Academy of Mining and Metallurgy, Krakow, Poland, pp. 27-35.

bo‘lgan, u auditoriya mashg‘ulotlarini uzoq masofalardagi auditoriyalarga uzatib berish imkonini yaratgan va audio- video- translyasiyalar vositasi bilan masofaviy ta’lim kommunikatsiyasini ta’minlagan.

Muxbirli ta’lim tizimi masofaviy ta’lim g‘oyasini ta’lim jarayonining an’anaviy tashkiliy shakllaridan butunlay farq qiladigan ta’lim shakli sifatida amalga oshiradi.

Masofaviy ta’limning “muxbirli” ta’lim tizimining didaktik prinsiplari ushbu ta’lim shaklida o‘qiyotganlarning psixologik xususiyatlari va ta’limiy ehtiyojlarini amalga oshiradi. Umumiy didaktik tamoyillar sirasiga quyidagilar kiradi:

1. “Muxbirli o‘qitish”, o‘qitish shakli sifatida, ta’lim oluvchilar uchun maxsus o‘quv-metodik va attestatsion materiallarni yaratishni talab qiladigan mustaqil ta’lim faoliyatiga asoslangan;

2. Ta’lim oluvchining ta'limning mazmuni va muddatlarini tanlashdagi mustaqilligini tan olish, oraliq va yakuniy attestatsiyaga va baholashga ta’limning maqsadi va yakuniy natijasi sifatida emas, balki motivatsiya va o‘z-o‘zini nazorat qilish sifatidagi pragmatik munosabatda bo‘lish;

3. Ta’lim beruvchi o‘qituvchi va ta’lim oluvchini mustaqil ta’lim faoliyatiga yo‘naltiruvchi konsultant (ustoz, tyutor)ning rollarini didaktik o‘zaro harakat (dialog) asosida ajratish;

4. Ta’limning variativlikning yanada yuqoriroq darajasini ta’minlovchi va muxbirli kommunikatsiyani yengillashtiruvchi modullar asosida tashkil etilishi;

5. Ta’lim muddatlarining o‘zgaruvchanligi va ularga mos ravishda ta’lim jarayonining shiddati;

6. Kunduzgi mashg‘ulotlar (sessiyalar)ning minimal darajada kamaytirilishi, ularning maqsadga muvofiqligini ta’minlaydigan maxsus shakllarini ishlab chiqish;

Masofaviy ta’limning “muxbirli” didaktik modeliga ko‘ra, an’anaviy auditoriya mashg‘ulotlari (ma’ruza va seminarlar) boshqa shakllar: maxsus o‘quv-metodik materiallar majmuasi ishlab chiqilib, amalga oshiriladigan o‘quvchining o‘z-o‘zini o‘qitish faoliyati, hamda oddiy seminarga o‘xshaydigan va ma’ruzadan chuqur farq qiladigan faol amaliy guruhli mashg‘ulotlar – tyutoriallar bilan almashtiriladi.

Telekommunikatsiya vositalari va kanallari tyutor va tinglovchining o‘quv-metodik materiallarni yetkazish va individual maslahatlar berish jarayonida, guruhning o‘zaro ichki xarakatlarida muloqot qilish va interfaollikni ta’minlash vositasi sifatida foydalaniladi.

Masofadan o‘qitishning “muxbirli” didaktik modelini amalga oshirish o‘qituvchi (tyutor)dan na faqat maslahatlar, balki psixologik qo‘llab-quvvvatlashni ham o‘z ichiga olgan maxsus maxsus malaka va ko‘nikmalarni talab qiladi. Uning uchun tyutor bir necha o‘quv kurslari materiallarini erkin bilishi bilan birga guruhli ishlarni ham tashkil qila olishi lozim.

Masofaviy ta’limning ushbu modeliga ko‘ra, an’anaviy mashg‘ulotlar: ma’ruza va seminarlarning telekommunikatsiya vositalari yordamida ma’lum masofaga uzatilishi ta’minlanadi, bu esa virtual auditoriyada o‘qiyotganlar sonini bir qancha ko‘paytirish imkonini beradi.

Shunday qilib, o‘zining mohiyatiga ko‘ra, an’anaviy va auditoriya mashg‘ulotlarini yetkazib berish g‘oyasidan va uni zamonaviy axborot-kommunikatsiya vositalari yordamida ta’minlashdan iborat bo‘lgan masofaviy ta’limning translyasiyali modeli o‘ziga ma’lum prinsipial cheklovlarni oladi.

Masofaviy ta’limning har xil turlarini solishtirishni yakunlar ekanmiz, uning “muxbirli” turining didaktik modeli belgilar majmui bo‘yicha avvalambor kattalar ta’limiga yo‘naltirilgan bo‘lib, pedagog kadrlar malakasini oshirish tizimida masofaviy ta’limni joriy etishda qo‘l keladi.

Masofaviy ta’limda qo‘llaniladigan axborot-kommunikatsion texnologiyalarga kelinsa, ularning mazmuni pedagogikaning maxsus maqsadlaridan uzoqdir. Qo‘llanish sohalaridan qati nazar, ular axborotni yig‘ish, qayta ishlash, saqlash, tarqatish, aks ettirish va foydalanish-

ning universal texnologiyasidir. Ta'limga ular faqatgina pedagogik maqsadlarga erishishni ta'minlash uchun, ta'lim jarayonida qo'llanilishi lozimligi sababli aloqadordir.

Yuqorida keltirilganlar orasida eng mukammal ishlab chiqilganlari o'quv kurslari va ta'limni boshqarish tizimlarini ta'riflovchi standartlar guruhlaridir. Bu sohalardagi yagona standart xozircha ishlab chiqish va kelishish bosqichida, lekin bir necha standartlar amaliyotda qo'llanilmoqda. Bu standartlar quyidagi tashkilotlar tomonidan yuritiladi:

ADL tarmoqni standartlashtiruvchi tashkilot (SCORM standarti).

AICC tarmoqni standartlashtiruvchi tashkilot.

IMS/GLC sanoat konsorsiumi.

1. ADL (Advanced Distributed Learning) AQSh Mudofaa vazirligi va AQSh Prezidenti Administratsiyasining fan va texnologiyalar sohasidagi siyosat Departamenti tomonidan masofaviy ta'lim sohasidagi standartlarni rivojlantirish maqsadida yaratilgan. Rivojlantirishning bosh yo'nalishlaridan biri kompyuterli va web-o'qitish uchun texnik asosni yaratishdir.

SCORM (Sharable Content Object Reference Model) standartini yaratish ADL konsepsiyasini rivojlantirish yo'lidagi birinchi qadamdir, sababi, bu standart o'quv materiallari tuzilmasini va axborot-ta'lim muhiti interfeysini aniqlaydi. Buning hisobiga o'quv obyektlaridan masofaviy ta'limning SCO (Sharable Content Objects) obyektlari bilan ishlash imkoniyatiga ega bo'lgan turli tizimlarida foydalanish mumkin.

Masofaviy ta'lim tushunchasi va modellarining tahlili quyidagi xulosalarga kelish imkonini beradi:

Masofaviy ta'lim — bu ta'limning tashkiliy-didaktik shakli bo'lib, boshqa shakllardan asosan bilvosita amalga oshiriladigan ta'lim kommunikatsiyasi usuli va xarakteri bilan farq qiladi.

Masofaviy ta'limda qo'llaniladigan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari uning texnologik jarayon, ta'lim jarayonini tashkil etish modeliga bog'liq holda nisbiy vazni o'zgaradigan vositalari hisoblanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, mustaqil ta'lim kasbiy-pedagogik faoliyatga nisbatan adaptiv yoki produktiv funksiyani bajarishi mumkin. Mustaqil ta'limning adaptiv funksiyasi muayyan sharoitlarda kasbiy masalalarni yechishga qaratilgan, produktiv funksiya esa, pedagogning produktiv faoliyatining asosini tashkil etadigan yangi motivlar, qobiliyatlar, muammolarni shakllantirishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 26-sentabrdagi PQ-3289-son, "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son qarorlari.

2. Тихонов А.Н., Иванников А.Д. Технологии дистанционного обучения // Высш. образование в России. – №3 М.: 1994.

3. Круглов Ю.Г. Подготовка учителей без отрыва от производства: Проблемы и значение / Педагогическое образование без отрыва от производства. Ежегодник Учебно-методического объединения по подготовке учителей без отрыва от производства.– №1 – М.: 1990.

4. Тихомиров В.П., Солдаткин В.И, Лобачёв С.Л. Виртуальная образовательная среда: предпосылки, принципы, организация. / Международная Академия Открытого Образования. – М.: Изд-во МЭСИ, 1999. – С.164.

Guzal NAZIROVA,
Qo'qon davlat pedagogika instituti dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA ILMIY-PEDAGOGIK SHART-SHAROITLAR YARATISHDAGI MUAMMOLAR

Annotatsiya

Maktabgacha yosh shaxs rivojlanishining muhim bosqichi hisoblanib, bu davrda bolalarda nutqiy ko'nikmalar shakllanadi, umuminsoniy qadriyatlar va madaniyat olami bilan muloqotda bo'ladi. Nutq bolalarda maktabgacha bolalikda ko'p ma'lumotlarni o'zlashtirishidagi muhim omil sanaladi. Ma'lumki, bolalar tug'ilgan davrida nutqi rivojlanmagan bo'ladi, biroq nutq shakllanishi uchun vaqt talab etiladi. Maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirishda ilmiy-pedagogik shart-sharoitlar yaratishdagi muammolari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar. Nutqiy ko'nikmalar, umuminsoniy qadriyatlar, muloqot, maktabgacha bolalik, muhim omil, nutq rivojlanmaganдшпш, nutq shakllanishi, ilmiy-pedagogik shart-sharoitlar.

Дошкольный возраст считается важным этапом развития личности, в этот период у детей формируются речевые навыки, общность общечеловеческих ценностей и общения с миром культуры. Речь является важным фактором усвоения детьми большого количества информации в дошкольном детстве. Известно, что в период рождения у детей происходит недоразвитие речи, однако для формирования речи требуется время. В статье рассматриваются проблемы создания научно-педагогических условий в развитии речи дошкольников.

Ключевые слова. Речевые навыки, общечеловеческие ценности, общение, дошкольное детство, важный фактор, недоразвитие речи дшпш, речевое формирование, научно-педагогические условия.

Preschool age is considered an important stage of personality development, during this period children develop speech skills, commonality of universal values and communication with the world of culture. Speech is an important factor in the assimilation of a large amount of information by children in preschool childhood. It is known that during the period of birth, speech underdevelopment occurs in children, but it takes time to form speech. The article deals with the problems of creating scientific and pedagogical conditions in the development of speech of preschoolers.

Key words. Speech skills, universal values, communication, preschool childhood, an important factor, underdevelopment of speech, speech formation, scientific and pedagogical conditions.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni kompleks rivojlantirish orqali ularni maktab ta'limiga intensiv tayyorlash masalasi dolzarb sanalmoqda. Mazkur yoshdagi bolalarda kommunikativ kompetentsiyalarni shakllantirish maktab ta'limiga tez va samarali ijtimoiylashish omili hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiya ijtimoiy tavsifga ega bo'lib, uni bolalarda shakllantirish uchun umumdidaktik, xususiy tamoyillarga va innovatsion yondashuvlarga asoslangan jarayonni tashkil etish taqozo etiladi. Ushbu jarayonning texnologik tuzilmasi va didaktik ta'minoti bo'lajak tarbiyachi-pedagoglarda kasbiy kompetentsiya va bolalar nutqini o'stirish metodikasini o'qitishga ham bevosita bog'liqdir. Sanab o'tilgan vazifalar maktabgacha ta'lim mazmuni, unga qo'yiluvchi davlat

ta’lim standarti talablari ko‘lami doirasida amalga oshadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrdagi PQ-2707-son “2017-2021-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g’risida”, 2017-yil 9-sentabrdagi PQ-3261-son “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g’risida”, 2019-yil 8-maydagi PQ-4312-son “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini tasdiqlash to‘g’risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu o‘quv qo‘llanma muayyan darajada xizmat qiladi.

Maktabgacha yosh shaxs rivojlanishining muhim bosqichi hisoblanib, bu davrda bolalarda nutqiy ko‘nikmalar shakllanadi, umuminsoniy qadriyatlar va madaniyat olami bilan muloqotda bo‘ladi. Nutq bolalarda maktabgacha bolalikda ko‘p ma’lumotlarni o‘zlashtirishidagi muhim omil sanaladi. Ma’lumki, bolalar tug’ilgan davrida nutqi rivojlanmagan bo‘ladi, biroq nutq shakllanishi uchun vaqt talab etiladi. Kattalar va tarbiyachi-pedagoglar bolalarda nutqni to‘g’ri rivojlanishiga e’tibor qaratishlari zarur. Nutq bolaning o‘z xatti-harakatlari, faoliyati, istiqboldagi hayotlarini tashkil etish va rejalashtirishlarida, o‘z-o‘zini rivojlantirish va tarbiyalash vositasi hisoblanadi.

Zamonaviy maktabgacha ta’limda nutq o‘stirish metodikasiga bolalar ta’limi va tarbiyasining asosi sifatida qaraladi. Bolalar o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalar nutq orqali odamlar bilan muloqot qilish, intellektual rivojlanish hamda maktab ta’limini samarali o‘zlashtirishlari ta’sir qiladi.

Nutq o‘stirish quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

– Bolalarda nutqni shunday shakllashtirish lozimki, bolalar tengdoshlari va kattalar bilan erkin muloqotda bo‘la olishga o‘rgatish;

– Bolalarning so‘z boyligini boyitish;

– Bolalarda ijodiy nutqni rivojlantirish, ertak, hikoyalarni so‘zlab berish, she’rlarni ifodali o‘qib berishga o‘rgatish;

– Badiiy adabiyotga qiziqtirish;

– Bolalarda fonetik eshitishni rivojlantirish, so‘zlarni to‘g’ri tinglash va ifodali so‘zlashga o‘rgatish.

Insonning yana bir o‘ziga xos xususiyati, o‘ziga xos insoniy ehtiyoji mavjud, bu – boshqa odamlar bilan muloqotga ehtiyojmandlik, ‘‘emotsional muloqotga ehtiyojmandlik’’dir (K.Obuxovskiy). Aynan shu ehtiyoj tufayli dastlab til paydo bo‘lgan. Muloqotga ehtiyojmandlik doimo tilni egallashga olib keladi. Bolaning so‘zlashni o‘rganishining sababi shuki, unga kattalar bilan birgalikdagi faoliyatda ishtirok etishga to‘g’ri keladi, buning uchun esa bolaning unga nimalar deyishayotganliklarini tushunishi va o‘zi ham so‘zlashi lozim. Bu o‘rinda tilning uch sifati (tajribani jamlash va sintez qilish fikrga jamlash – muloqotni amalga oshirish) haqida so‘z yuritish mumkin (V.A.Zveginsev). Tilni tadqiq qilish mustaqil, umumilmiy qiziqishdan tashqari ko‘plab dolzarb amaliy vazifalarni hal etishda ulkan ahamiyatga egadir.

Nutq o‘stirish maktabgacha ta’lim-tarbiyaning umumiy qonuniyatlari, muayyan jamiyatda yagona ijtimoiy maqsadga muvofiq maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash hamda unga ta’lim berishning mohiyati va muammolarini o‘rganadigan fan. Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi ijtimoiy fanlar tizimiga kiruvchi fan sanalib, maktabgacha yoshdagi bolalarni jismoniy va ruhiy kamolotini tarbiyalash, unga ta’lim berish muammolarini o‘rganadi.

Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

– maktabgacha yoshdagi bolalarda turli yosh bosqichlaridagi nutqni rivojlantirish;

– bola nutqiga ta’sir ko‘rsatishning eng samarali yo‘lini to‘g’ri tanlash va bolaning

nafaqat yoshini, balki uning o‘ziga xos xususiyatlarini hisobga

olgan holda o‘zaro birgalikda harakat qilish hamda olingan natijani tahlil qilish;

– bolalar nutqining turli jihatlarini rivojlantirish, aniq uslublari va usullari haqidagi bilimlar o‘zlashtirilishini hamda ularning muloqotlari paytida qo‘llay olinishini ta’minlash;

– maktabgacha yoshdagi bola nutqiga ta’sir ko‘rsatishning o‘ziga xos usullari va uslublarini takomillashtirish.

Shu bilan birga, mashg’ulotlarni tashkil etishda eng mabqul natijalarga erishish uchun quyidagi talablarga rioya qilish zarur bo‘ladi:

– mashg’ulotlarni ularning maqsadi, mazmuni va o‘tkazilish muddatini hisobga olgan holda rejalashtirish;

– bolalarning analitik-sintetik xarakteridagi nutqiy vazifalarni yechish mashg‘ulotlarida mustaqil faoliyatlarini aniq belgilash, predmetlar o‘rtasida aloqalar o‘rnatish, o‘xshashliklarini ajratish;

– tarbiyaviy xarakterdagi aniq masalalarni hal etish (mashg’ulot mazmuni, vaqti va o‘tkazish metodini aniq belgilash);

– bolalarda nutqni shakllantirishga oid mashg‘ulotlarga qiziqish uyg‘otish;

– rejalashtirilayotgan mashg‘ulotlar o‘rtasida izchillikga rioya qilish;

– mashg‘ulotning bosqichlarini o‘tkazish uchun ish vaqtining sariflanishini asosli ravishda aniqlash.

Metodik tamoyillar bolalarni til va nutqni o‘zlashtirish qonuniyatlari ko‘zda tutiladi hamda umumdidaktik tamoyillar to‘ldiriladi.

Metodik tamoyillarga to‘xtalib o‘tamiz, 1) Bolalarning aqliy, sensor va nutqiy rivojlanishining o‘zaro bog’liqligi; 2) Nutq rivojlanishida kommunikativ-faoliyatli yondashuv; 3)Tilni his qilish va sezishni rivojlantirish; 4) Til hodisalarini anglashni shakllantirish; 5) Bolalarda nutqni har tomonlama rivojlantirishning o‘zaro bog‘liqligi; 6) Nutqiy faoliyatni boyitish motivatsiiyasi; 7) Faol nutqiy amaliyotni ta’minlash.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan nutqni rivojlantirish mashg’ulotida bolalarni mantiqiy fikrlashi va tafakkurini rivojlantirishga o‘rgatishda e’tiborga olingan asosiy masalalar quyidagilar:

-Nutqni rivojlantirishga oid asosiy tushunchalar va ularning ta’rifi.

-So‘z zahirasini boyitish yo‘llari va vositalari.

-Hikoya qilib berishga o‘rgatish.

-Mashg’ulotlarning tarbiyaviy yo‘naltirilganligini ta’minlash.

-Mashg’ulotlarni yakka tartibda tashkil etish.

-Qayta hikoya qilib berish usullariga amal qilish.

-Nutqni rivojlantirishni rejalashtirish vositalaridan foydalanish.

O‘zining amaliy, bilish va shaxsiy ehtiyojlarini qondirish uchun bola mavjud vositalardan, vaziyatdan kelib chiqib erkin bildirilgan fikrlardan, nonutqiy vositalardan (imo-ishoralar, yuz ifodasi, harakat) va matnli nutqdan (foydalanilgan vositalar asosida tushunarli bo‘lgan) foydalanadi. Nutqning turlari va shakllari til shaxsining takrorlanmas individual qiyofasini yaratgan xolda o‘zaro hamjihatlikda mavjud bo‘ladi.

Bolalar nutqini to‘g’ri rivojlantirish va mantiqiy fkrlash uchun:

– nutq o‘stirishga doir tevarak-atrof obyektlarini oldindan ajratish va ular bilan tanishtirish:

– bolalarni eslab qolish, mantiqan fkrlashi, so‘zlarni to‘g’ri talaffuz etishi, ahamiyatini tushinishi zarur bo‘lgan so‘zlarni taxminiy ro‘yxatini tuzish:

– bolalarni borliq bilan tanishtirish:

– tashqi olamni bevosita idrok etish, pedmetlarni kuzatish, ushlab ko‘rish, tatib ko‘rish,

u bilan harakat qilishga orgatish:

– eshitgan, kuzatgan hodisalarni to‘g‘ri fikrlashga o‘rgatish zarur.

Mashg‘ulotlar jarayonida tarbiyaning aqliy, ahloqiy, mehnat va boshqa turlari bir maromda bolaning yoshiga mos ravishda olib borilishi hamda ahamiyatli so‘zlarni ularning mavzu jihatdan xilma-xilligi ya’ni sifat tarkibi, ma’nosi bo‘yicha o‘rganishni ta’minlash ham dolzarb masaladir.

Bola nutqining rivoji ko‘p jihatdan uning ruhiyatiga, sog‘lom, tetik o‘sishiga bog‘liq. Bu borada nutq madaniyatini rivoj topishiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk alloma va mutafakkirlar o‘zalarining pedagogik g‘oyalarini ilgari surgan. Jumladan, Yusuf Xos Xojib, Axmad Yugnakiy, Imom al-Buxoriy. Imom at-Termiziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Rudakiy kabi buyuk daholar yaratgan asarlarda nutq va uning inson hayoti, faoliyatdagi ahamiyati erkin misollarda o‘z ifodasini topgan. Shuningdek, Bexbudiy, Fitrat, Qori-Niyoziy, Munavvar Qori, Saidrasul Saidazizov ham o‘zlarining ijod namunalarida bola nutqini o‘stirishda asosan nimalarga eotibor berish kerakligi haqida qimmatli fikrlarni bildirganlar.

Maktabgacha yoshdagi bola nutqini rivojlantirishning asosiy vazifasi bola tomonidan ona tilining har bir yosh bosqichi uchun belgilangan normalari va qoidalarini o‘zlashtirilishi hamda uning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishdan iboratdir. Qayd etish lozimki, bir xil yoshdagi bolalarning nutqiy darajasi bir-biridan mutlaqo farq qilishi mumkin. Maktabgacha yoshda nutqni rivojlantirish (ona tilini egallash) o‘z tabiatiga ko‘ra ko‘p qirrali jarayon hisoblanadi. U aqliy, rivojlanish bilan uzviy bog’langan, chunki insonning rivojlangan tafakkuri – bu nutqiy, til, so‘z-mantiqiy tafakkurdir. Nutqiy rivojlanish, tilni egallash va aqlni, bilishni rivojlantirish o‘rtasidagi o‘zaro bog’liqlik tafakkurni rivojlantirish uchun tilning qanchalik muhim ahamiyatga egaligidan dalolat bermoqda.Buyuk alloma Ibn Sinoning mantiqiy fikrlash haqidagi qarashlarini ko‘rib o‘tamiz. Buyuk vatandoshimiz Ibn Sinoning ”Kitob ash-shifo”, “Kitob an- najod”, “ Donish nomi” asarida mantiqqa doir fikrlarni bayon etilgan. “Mantiq bilingan bilimlar yordamida bilinmaganlarni qanday qilib aniqlashni ko‘rsatadigan, haqiqat sifat bilim va yolg’on nima ekanligini hamda ular qanday turlarga ega ekanligini aniqlab beradigan ilimdir” Yolg’on va rostni ajratish uchun ham inson ilmli bo‘lishi, shu bilan birga mantiqiy fikrlay olishi kerak. “Mantiq, - deb yozadi Ibn Sino,-insonga shunday bir qoida beradiki, bu qoida yordamida inson xulosa chiqarishda xatolardan saqlanadi”. Shu o‘rinda Abu Nasr Forobiy “Bizning maqsadimiz aqlni, xatoga yo‘l qo‘yish mumkin bo‘lgn hollarda, to‘g’ri tafakkurga etaklaydigan, uning yordamida har safar hulosa chiqarayotgan adashishga qarshi ehtiyoji choralarini ko‘rsatadigan sanoatni mantiq sanoatini o‘rganishdir”.

Metodist olimlarning ko‘pchiligi bolalar bog‘chalarida bolalarning nutqini o‘stirish shartlarini to‘g’ri takidlaydilar. Mazkur mualliflarning fikricha, nutq madaniyatining kamchiliklari bola shaxsiyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Xususan, bola tengdoshlari bilan muloqotda qo‘rs, odamovi, quntsiz bo‘lib qoladi. Bundan tashqari, bunday bolada mantiqiy fikrlash va tafakkurining rivojlanishi susayadi tevarak-atrofni o‘rganishga bg’lgan qiziqish pasayadi, keyinchalik esa mashg‘ulotlarda yaxshi o‘zlashtirmaslikka sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Литвак А.Г. Психология слепых и слабовидящих: учеб. пособие /А.Г. Литвак; Рос. гос. пед. ун-т им. А.И. Герцена. СПб.: Изд-во РГПУ, 1998.

2. Малофеев Н.Н. Специальное образование в меняющемся мире.

Россия.: учебное пособие для студентов педагогических вузов: в 2 ч. М.:Просвещение, 2010. Ч.1.

Shaxnoza XO'JAMBERDIEVA,
Namangan davlat universiteti, "Maktabacha ta'lim metodikasi" kafedrasi dotsenti

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI BADIIY ADABIYOT BILAN TANISHTIRISHNING METODIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyot bilan tanishtirish maqsadida elektron didaktik ta'minot yaratishning zaruriyati, afzalliklari keng yoritib berilgan. Shu bilan birga elektron badiiy adabiyotlardan foydalanishning pedagogik tamoyillari va didaktik yondashuvlar tahlili o'z aksini topgan.

Kalit so'zlar. Badiiy adabiyot, elektron badiiy adabiyot, animatsiya, audio va vizual vositalar, multimedia, tamoyillar, modullilik, to'liqlik, boshqaruvchanlik, ko'rgazmalilik, moslashuvchanlik, samaradorlilik, texnik imkoniyat, yig'iluvchanlik, didaktik yondashuvlar.

В данной статье широко освещается необходимость, преимущества создания электронного дидактического обеспечения с целью ознакомления дошкольников с художественной литературой. При этом находит отражение анализ педагогических принципов и дидактических подходов к использованию электронной художественной литературы.

Ключевые слова. Художественная литература, электронная художественная литература, анимация, аудио и визуальные средства массовой информации, мультимедиа, принципы, модульность, полнота, управляемость, наглядность, гибкость, эффективность, технические возможности, коллекционность, дидактические подходы.

In this article, the necessity and advantages of creating electronic didactic support for the purpose of familiarizing preschoolers with fiction are widely highlighted. At the same time, the analysis of pedagogical principles and didactic approaches to the use of electronic fiction is reflected.

Key words. Fiction, electronic fiction, animation, audio and visual media, multimedia, principles, modularity, completeness, manageability, visibility, flexibility, efficiency, technical capabilities, collectability, didactic approaches.

Jahonda ta'lim oluvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash, badiiy-estetik tasavvurlarini ta'limning eng quyi bosqichlaridan boshlab shakllantirib borishga erishish, badiiy adabiyot orqali ularda umuminsoniy sifatlarni erta kamol toptirishga erishish muhim vazifaga aylanmoqda. Badiiy adabiyotni o'rganishga bo'lgan qiziqish, kitob targ'iboti kabi masalalarni hal etish, yoshlarda adabiyot bilan hamnafas yashashga o'rgatish hamma zamonlarda ma'rifat vakillari uchun dolzarb ahamiyat kasb etgan.

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish, mavjud adabiyotlarda aks etgan manbalarni innovatsion yondashuvlar asosida bola ongiga singdirish, og'zaki nutq va badiiy tasavvurlarini shakllantirishning zamonaviy nuqtai nazardan tadqiq etish, baholash hamda yangicha ilmiy konsepsiyalarga asoslangan keng qamrovli tadqiqotlar olib borish zaruriyati yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish va muassasada faoliyat ko'rsatuvchi xodimlarning kasbiy bilim va tayyorgarligini oshirish, yetuk kadrlar bilan to'liq ta'minlash hamda bu orqali maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarning aqliy va jismoniy kamol

topishiga ko‘maklashish vazifalari eng dolzarb vazifalar etib belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmonining 39-maqsadida ham maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish borasida quyidagi bir qator vazifalar qat’iy belgilangan edi: “Bog‘cha xodimlarining professional tayyorgarligi va mahoratini oshirib borishning takomillashtirilgan tizimini joriy etish; 2022 – 2026-yillarda 160 mingdan ziyod pedagog kadrlarning malakasini oshirish; maktabgacha ta’lim-tarbiya jarayonlarini ilmiy asoslangan yondashuvlar asosida takomillashtirish”[1]. Shu ma’noda maktabgacha ta’lim muassasalarida faoliyat yuritayotgan xodimlarning kasbiy tayyorgarligi hamda mahoratini oshirish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarining amaldagi o‘qitish va tarbiyalash tizimi muassasalarda faoliyat yuritayotgan kadrlarni kasbiy malakalarini oshirish maqsadida ularga yaqindan ko‘mak berish, bolalarning pedagogik, psixologik va fiziologik rivojlanishi, fikrlash malakalari hamda aqliy taraqqiyotini oshirishga xizmat qiluvchi o‘quv didaktik ta’minot yaratishga ehtiyoj sezmoqda.

Maktabgacha ta’lim-tarbiya – har bir bolaga individual yondashish, uni shaxs sifatida hurmat qilish, ma’naviy-axloqiy tomondan tarbiyalash, bolaning qiziqish va ehtiyojiga mos tarzda ta’lim berishni nazarda tutadi. Maktabgacha ta’lim mazmuniga joriy etilayotgan yangiliklar, zamonaviy metodlar bola shaxsining shakllanishi, uning mustaqil shaxs sifatida tan olinishi jarayonlari kechadigan muhitda tashkil etilishi katta ahamiyatga ega. Zero, shaxs sifatida shakllangan, kamol topgan bola o‘zini, o‘zligini taniydi va kelajakda millatning, yurtning faxriga aylanadi.

Zamonaviy texnologiyalarning jadal sur'atda axborot-kommunikatsiya hamda innovatsion texnologiyalarning ta’lim tizimiga jadal sur’atlarda tadbiq etilishi o‘qitishning mavjud shakl va mazmuniga ulkan o‘zgarishlar yasamoqda. Bu borada yurtimizda bir qator qarorlarning qabul qilinishi, ta’lim muassasalarini axborot texnologiyalari bilan jihozlashda hamda bilim oluvchilarning eng zamonaviy vositalar orqali ta’lim olishini ta’minlashga erishilmoqda. Bugungi kunda o‘qitish samaradorligini oshirishda, an’anaviy matnli ko‘rinishdagi adabiyotlar, rasmli tarqatmalar darsliklar bilan bir qatorda, zamonaviy yangi avlod elektron o‘quv adabiyotlari: multimediyali (ko‘p axborotli), animatsion elektron darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ma’ruzalar matnlari, elektron dasturlar, ma’lumotlar banki va boshqalar alohida muhim o‘rin egallaydi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim muassasalari tarbiyalanuvchilarni kognitiv, axloqiy va estetik tarbiyalash maqsadida uchun joriy etilgan “mantiqiy fikrlashni o‘rganamiz”, “aqlli bolajon”, “Bobomning ertaklari, “O‘zbek xalq ertaklari” hamda boshqa bir qator badiiy adabiyot namunalarini animatsiyali, tasvirli elektron ko‘rinishda yaratish tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar uchun bir qator qulayliklarni yaratadi.

Elektron badiiy adabiyotlar bilim oluvchilarning tasavvurini kengaytirishga, dastlabki bilimlarini rivojlantirish va chuqurlashtirishga, qo‘shimcha ma’lumotlar bilan ta’minlashga mo‘ljallangan bo‘lib, animatsiyali, ovozli, tasvirli va rasmli ko‘rinishga ega bo‘lganligi bilan ana’anaviy manbalardan farq qiladi. 3D adabiyotlarning yaratilishi bolalarning obrazli tafakkurlari va tasavvurlarini shakllantirish, og‘zaki nutq malakalarini rivojlantiradi. Uzluksiz ta’lim tizimida fan va texnologiyalar rivojlangan sari mazmuni tez o‘zgaruvchan, chuqurlashtirilib o‘qitiladigan bunday elektron o‘quv adabiyotlarni

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “2022 – 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni. 2022-yil 28-yanvar.

tayyorlashga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda.

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun tayyorlangan elektron badiiy adabiyotlardan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish quyidagi bir qator pedagogik tamoyillarga asoslanadi.

1. Modullilik tamoyili. O‘rganilayotgan hafta yoki kun mavzusiga mos tanlangan mavzular manbanini hajmi bo‘yicha kichik, ammo tarkibi bo‘yicha bir butun bo‘lgan modullardan (bo‘limlardan) iborat bo‘lgan bo‘laklarga bo‘lib chiqish lozim. Ya’ni, har bir guruh uchun tanlangan bir nechta faoliyat markazlari uchun alohida bo‘limlarning mavjudligidir.

2. To‘liqlik tamoyili. Har bir guruh uchun yaratilayotgan badiiy adabiyotlarning bo‘lim (modul)lari quyidagi tashkil etuvchi hadlardan: nazariy bilimlar berishga yo‘naltirilgan manbalar, rasmlar, animatsiyalar, mustaqil yechish uchun savolli yoki rasmli topshiriqlar va amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashqlar, kichik amaliy tajribalar, sharhlar ko‘rsatmalarning mavjud bo‘lishi.

3. Ko‘rgazmalilik tamoyili. Har bir guruhlar uchun tavsiya etilayotgan badiiy adabiyotlar (modulda) yangi tushunchalarni o‘rgatish, ijodiy tasavvurlarni shakllantirish, mantiqiy fikrlashga o‘rgatish kabi vazifalarga hal etishga yo‘naltiruvchi manbalarni rangli tasvirlar, rasmli ko‘rgazmalar shaklida berilishi bayon etilayotgan fikr hamda uslublarni tushunarli bo‘lishini, oson o‘zlashtirilishini, bolalar uchun qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi.

4. Boshqaruvchanlik tamoyili. Elektron badiiy adabiyotlarda tarbiyachilar o‘rganilayotgan oy, xafta yoki kun mavzularini tushuntirish jarayonida ekrandagi kadrlarni almashuvini o‘zlari mustaqil boshqara olishlari, istalgan mavzu yoki ma’lumotlarni, illyustratsiya materiallari va multimediyalar ko‘rinishidagi tushunchalar hamda fikrlarni, tasvirlarni bola ko‘z o‘ngida ekranga chiqarish imkoniga ega bo‘lishlari kerak.

5. Moslashuvchanlik tamoyili. Elektron adabiyotlardan foydalanish har qanday sharoitga mos, bolalarning yosh va individual xususiyatlariga, yoshga xos rivojlanish qonuniyatlari, huquqiy me’yoriy talablar darajasidagi ko‘rsatmalarga mos holda tuzilishi, o‘rganilayotgan materialning chuqurligi va murakkabligini hamda ta’lim oluvchining kelgusi ta’lim bosqichilariga bog‘liq holda amaliy yo‘naltirilganligini o‘zgartirib borishga imkoniyat yaratishi kerak.

6. Texnik imkoniyatga egalik tamoyili. Bu tamoyilda tarbiyachilar ta’lim oluvchilarni aqliy faoliyatlarini rivojlantirish jarayonida mavzu mohiyatini tushunish uchun bolalar diqqatini jalb etishga undovchi animatsiyalar, multimedialar, rasmli topshiriqlarni taqdim etishda kompyuterdan foydalanishlari samarali natijaga erishishni kafolatlaydi. Chunki real vositalar, ovozli va vizual ko‘rinishdagi tasvirlar tarbiyalanuvchilarning tasavvurlarini kengaytirishga, fikrlarni og‘zaki nutqda oson va to‘liq ifodalay olishlariga yordam beradi.

7. Yig‘iluvchanlik tamoyili. Elektron badiiy adabiyotni muallif tomonidan yangi bo‘limlar va mavzular, fan-texnika yangiliklari bilan kengaytirib hamda to‘ldirib borish imkonini mavjudligi

8. Faoliyatga yo‘nalganlik tamoyili. Maktabgacha ta’lim muassasasida bolaning kelajak hayotida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beruvchi jismoniy, aqliy va ma’naviy qobiliyati bilish jarayonida, bizni o‘rab turgan atrof-muhitni o‘rganish, nutq o‘stirish, badiiy asarlar tinglash, rasm chizish, qurish-yasash, jismoniy mashqlar bajarish va boshqa faoliyat turlarida rivojlanadi. Bu faoliyatlarda yo‘nalishlar bir-biri bilan uyg‘unlashtirilib – integrallashgan rejalashtirish asosida tashkil etiladi hamda o‘yin shaklida qiziqarli tarzda olib boriladi. O‘yin kichkintoyning tabiiy ehtiyojlari va istaklariga mos kelganligi sababli, o‘yin jarayonida o‘rganayotgan mavzuni quvnoqlik bilan takrorlaydi, yengillik

bilan o‘zlashtiradi.[2] Elektron badiiy adabiyotlarda mazkur faoliyatlarga yo‘naltiruvchi topshiriqlar, ijodiy va harakatli o‘yinlar o‘z aksini topgan bo‘lib, tarbiyachilar bolalarning yoshiga mos, bir nechta funksiyalar (maftunkorlik, kommunikatsiya, davolovchilik, tashxis, kommunikatsiya, millatlararo muloqot, ijtimoiylashuv) ni bajaruvchi o‘yinlar aks ettirilgan bo‘lishi zarur.

Maktabgacha ta’lim muassasasida bolaning kelajak hayotida muvaffaqiyatga erishishiga yordam beruvchi jismoniy, aqliy va ma’naviy qobiliyatlari o‘rab turgan atrof-muhitni o‘rganish, nutq o‘stirish, badiiy asarlar tinglash, rasm chizish, qurish-yasash, jismoniy mashqlar bajarish va boshqa faoliyat turlarida rivojlantirib boriladi. Bu faoliyatlardagi asosiy yo‘nalishlar bir-biri bilan uyg‘unlashtirilib – integrallashgan rejalashtirish asosida, ma’lum yondashuvlar shaklida olib boriladi.

“Yondashuv” tushunchasi yordamida shaxsning kimgadir, kimningdir xatti-harakatiga, fikriga yoki nimagadir munosabati yoritiladi. Pedagogikada “yondashuv” tushunchasi negizida aniq maqsadga qaratilgan pedagogik faoliyatning natijalanganligini ta’minlashga qaratilgan ta’lim beruvchi yoki ta’lim oluvchining o‘zaro faoliyatini aks ettiradi.

Yuqoridagi yondashuvlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy abadiyotlar bilan tanishtirish orqali har bir bola shaxsini yosh bosqichiga mos tarzda sifatli rivojlantirish, ma’rifiy, ma’naviy-axloqiy, badiiy-estetik tasavvurlarini shakllanishiga erishiladi. MTM ta’lim jarayonining maqsadi bolalarda umumiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun ijobiy muhit, tegishli sharoitlar yaratishdan iboratdir.[3]

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarni badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish jarayonining muvaffaqiyatli bo‘lishida pedagogik faoliyat samaradorligini belgilovchi yondashuvlarni to‘g‘ri tanlay olishi, zamonaviy elektron adabiyotlarni yangi avlodini yaratish zarurdir. Chunki badiiy adabiyotlardagi insoniy xislatlar, shaxs va tabiat, jamoa munosabatlar kabi mavzular bolalarni ma’naviy-axloqiy, estetik, hatto irodaviy jihatdan tarbiyalashga yaqindan ko‘mak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son farmoni. 2022-yil 28-yanvar.

2. “Bolajon” tayanch dasturi. Takomillashtirilgan “Bolajon” tayanch dasturi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vaziriligining 2016-yil 28-yanvardagi 1-sonli hay’at yig‘ilishida tasdiqlandi.

3. “Ilk qadam” Maktabgacha ta’lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi, Takomillashtirilgan ikkinchi nashri – T., 2022-yil.

[2] “Bolajon” tayanch dasturi. Takomillashtirilgan “Bolajon” tayanch dasturi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vaziriligining 2016-yil 28-yanvardagi 1-sonli hay'at yig‘ilishida tasdiqlandi.

[3] ‘‘Ilk qadam’’ Maktabgacha ta'lim muassasasining Davlat o‘quv dasturi, Takomillashtirilgan ikkinchi nashri –T.: 2022-yil

Izzat MATYAKUBOV,
Xalqaro Nordik universiteti, "Pedagogika" kafedrasi mudiri, dotsent

FINLANDIYA TA'LIM TIZIMI: TAHLIL, TAJRIBA, SINOV

Annotatsiya

Jahon ta'lim tizimi tajribalari taraqqiy etib bormoqda. Dunyoning yetakchi mamlakatlari ta'lim tizmi shakllari ya'ni, nazariyasi, amaliyoti va o'z tajribalarini yangicha ko'rinishini aynan ta'lim tizimiga olib kirishmoqda. Ushbu maqolada hozirgi kunda bu sohada yetakchilikni qo'ldan boy bermay kelayotgan Shimoliy Yevropa davlatlari, aynan Finlandiya davlatining ta'lim tizimi haqida so'z boradi.

Kalit so'z. Fin ta'limi, Ta'lim, tarbiya, o'quvchi, o'qituvchi, pedagogika, nazariya, amaliyot, kompetensiya, korreksion ta'lim, tenglik,

Опыт мировой системы образования прогрессирует. Ведущие страны мира вносят новый взгляд на формы системы образования, то есть на теорию, практику и собственный опыт. В данной статье речь пойдет о системе образования североевропейских государств, а именно финского государства, которое в настоящее время не упускает лидерства в этой области.

Ключевое слово. Финское образование, образование, воспитание, ученик, учитель, педагогика, теория, практика, компетентность, коррекционное образование, равенство.

The experience of the world education system is progressing. The leading countries of the world are introducing new forms of the education system as theory, practice and their own experience. This article describes the education system of the Nordic European countries, namely Finland, which is currently the leader in this area.

Key words. Finnish education, education, upbringing, student, teacher, pedagogy, theory, practice, competence, special education, equality.

Ta'lim-tarbiya tizmida Jahon tajribalariga tayanadigan bo'lsak har bir xalq, har bir davlat boshqa bir davlatning ta'lim tizimini o'zlashtirsada, o'z qadriyatlari, qarashlari, madaniyati, ajdodlar o'giti, mentaliteti, geografik joylashuvi va boshqa bir qancha kriteriyalarni singdirgan holda o'zlashtiradi va tadbiq qiladi. Bu borada Davlatimiz rahbarining joriy yilning 6-oktabr kuni Sirdaryo viloyatiga tashrifi chog'ida jurnalistlarga bergan intervyusida shunday degan edilar "Darsliklar masalasida ham ancha muammo bor ekan, uning ichiga kirish kerak. Darsliklar saviyasi haqida katta muhokamalar bo'ldi. Finlandiyaning standarti bilan bir xilda 1–4-sinflar uchun darsliklar qiladigan bo'ldik. Nimaga desangiz, Finlandiya xalq ta'limi Yevropa miqyosida, umuman, dunyoda raqobatga chidamli, ko'p tajribani o'zidan o'tkazgan". Bu juda oqilona tanlov!

Nufuzli Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti tomonidan uch yilda bir o'tkaziluvchi xalqaro tadqiqotlarga ko'ra, Finlandiyalik maktab o'quvchilari dunyodagi eng yuqori bilimlar darajasini namoyish etishadi. Ular shuningdek, dunyodagi eng ko'p kitob o'quvchi bolalar hamdir. Bundan tashqari, Finlandiyalik maktab o'quvchilari tabiiy fanlar bo'yicha – dunyoda ikkinchi, matematika bo'yicha esa beshinchi o'rinni egallashadi. Biroq pedagogik jamiyatni quvontiradigani birgina bu natijalar emas. Shunisi ajablanarliki, dunyo miqyosida yuqori ko'rsatkichlarni qayd etishlariga qaramay,

Finlandiyalik maktab o‘quvchilari darslarga u qadar ko‘p vaqt ajratishmaydi.

Finlandiyada o‘rtacha majburiy umumta’lim tizimi ikki bosqichli maktabni o‘z ichiga oladi:

– quyi (alakoulu), 1-6 sinf;

– yuqori (yläkoulu), 7-9 sinf.

Qo‘shimcha 10-sinfda o‘quvchilar o‘z baholarini yaxshilashlari mumkin. So‘ngra bolalar yo professional kollejga yo‘l olishadi, yoki litsey (lukio)da o‘qishni davom ettirishadi.

Finlandiya ta’limi “o‘rta” bosqichining 7 tamoyili:

1. Tenglik

– Maktablar

Mamlakatda na elita va na “bo‘shroq” maktablar bor. Finlandiyadagi eng yirik maktabda 960 nafar o‘quvchi ta’lim oladi. Eng kichigida esa - 11 nafar. Barcha maktablar mutlaqo bir xil jihozlangan, birdek imkoniyatlarga ega va bir xil moliyalashtirilgan. Deyarli barcha maktablar – davlat maktablari bo‘lib, o‘nlab xususiy maktablar bor. Ularning ota-onalar qisman to‘lov kiritishlaridan tashqari yana bir farqi – o‘quvchilarga bo‘lgan talabning yuqoriligida. Qoidaga ko‘ra, bu o‘ziga xos “pedagogik” laboratoriyalar: Montessori, Fren, Mortan, Valdorf maktablari. Ingliz, nemis va fransuz tillarida ta’lim beriluvchi o‘quv muassasalari ham xususiy hisoblanadi.

Yaqin vaqtlargacha finlarga maktab tanlash taqiqlangan edi, bolalar shunchaki eng yaqin oradagi maktabga chiqishardi. Taqiq bekor qilindi, lekin ota-onalarning aksariyati baribir bolalarni yaqin oradagi ta’lim muassasasiga berishni ma’qul ko‘rishmoqda, zero Finlandiyada barcha maktablar birdek yaxshi.

Finlar o‘quvchilarni xususiyatlari yoki tanlovlariga qarab tasniflashmaydi.

Shuningdek, “yaxshi” va “yomon”o‘quvchilar ham yo‘q. O‘quvchilarni bir-biriga taqqoslash ta’qiqlangan. Daho bolalar ham, aqliy salohiyati bo‘shroq bolalar ham “o‘ziga xos” hisoblanib, barcha bilan birga o‘qishadi. Umuman olganda, jamoada nogironligi bo‘lgan bolalar ham ta’lim oladi. Oddiy maktabda inklyuziv ta’lim uchun sinf tashkil qilingan bo‘lishi mumkin. Finlar alohida munosabatga talabgor insonlarni jamiyatga maksimal darajada integratsiya qilishga harakat qilishadi. Bilimi kuchli va bo‘sh o‘quvchilar orasidagi farq - juda kichik.

O‘qituvchilar ham bolalarga bor mehrini beradi, “sevimlilar” ajratilmaydi. Qoidadan har qanday chetga chiqish bunday o‘qituvchi bilan shartnoma buzilishiga olib keladi. Fin o‘qituvchilari faqat ta’lim beruvchi vazifasini bajarishlari kerak. Jamoada barcha o‘qituvchilar – fiziklar ham, musiqa ta’limi ham, adabiyotchilar ham, mehnat o‘qituvchilari ham birdek teng.

– Katta yoshli kishilar (o‘qituvchilar, ota-onalar) va bolalar huquqlari tengligi

Finlar bu tamoyilni “o‘quvchiga hurmat” deb atashadi. Bolalarga 1-sinfdan ularning huquqlari tushuntiriladi, ijtimoiy xizmatchiga katta yoshlilar ustidan shikoyat qilish ham shular jumlasidandir. Bu Finlandiyalik ota-onalarni ularning farzandi - mustaqil shaxs ekanini, ularga so‘z bilan ham, “qamchi” bilan ham ozor yetkazib bo‘lmasligini tushunishga rag‘batlantiradi. Finlandiya mehnat qonunchiligiga ko‘ra, pedagog o‘z kasbidan kelib chiqib o‘quvchini tahqirlashga haqqi yo‘q. Barcha o‘qituvchilar faqat 1 yilga shartnoma imzolashadi, bu muddatni uzaytirish ham, to‘xtatish ham mumkin. O‘qituvchilarga juda yaxshi maosh to‘lanadi: fan o‘qituvchisi - 5000 yevrogacha, yordamchi - 2500 yevrogacha.

2. Bepul

O‘qishning o‘zidan tashqari quyidagilar bepul:

– tushlik;

– ekskursiyalar, muzeylar va sinfdan tashqari har qanday faoliyat;

– bolani uyidan olib ketuvchi va qaytaruvchi transport, agar eng yaqin maktab 2 kilometrdan uzoqda bo‘lsa;

– o‘quv darsliklari, barcha o‘quv qurollari, kalkulyatorlar va hatto planshet-noutbuklar.

Har qanday maqsadlar uchun ota-onalardan pul yig‘ish taqiqlanadi.

3. Individuallik

Har bir bola uchun individual ta’lim va rivojlanish rejasi tuziladi. Individuallik o‘quvchilar tomonidan foydalanilayotgan darsliklar mazmuni, mashg‘ulotlar, sinf va uy ishlari soni hamda ularga ajratilayotgan vaqt, shuningdek ta’lim materialiga ham tegishli.

Finlandiya maktablarida oddiy ta’lim bilan bir qatorda ta’lim jarayonining ikki noyob turi mavjud:

“Bo‘shroq” o‘quvchilar ta’limini qo‘llab-quvvatlovchi – bu boshqa mamlakatlarda repetitorlar bajaradigan ish. Finlandiyada repetitorlik keng tarqalgan ta’lim usuli hisoblanmaydi, maktab o‘quvchilari dars vaqtida yoki undan keyin kerakli o‘quvchilarga qo‘shimcha yordam ko‘rsatishadi.

Korreksion ta’lim – materialni o‘zlashtirishdagi umumiy barqaror muammolar bilan bog‘liq. Masalan, bu ta’lim olib boriluvchi fin tilini tushunmaslik yoki eslab qolish yo matematik qobiliyatining yaxshi emasligi, yohud ba’zi bolalarning asotsial xatti-harakatlari bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Korreksion ta’lim kichik guruhlarda yoki individual tarzda o‘tkaziladi.

4. Amaliyot

“Yo hayotga tayyorlaymiz, yoki – imtihonlarga. Biz birinchisini tanlaymiz”, - deydi finlar. Shuning uchun Finlandiyadagi maktablarda imtihonlar yo‘q. Nazorat ishlari va oraliq test sinovlari – o‘qituvchining qaroriga qarab belgilanadi. Umumta’lim maktabini tugallashda faqat birgina majburiy standart test o‘tkaziladi. Shunisi diqqatga sazovorki, o‘qituvchilar uning natijalari uchun alohida qayg‘urishmaydi, test natijalari uchun birovning oldida javob ham berishmaydi, bolalar ham unga maxsus tayyorgarlik ko‘rishmaydi. O‘rgangan, olgan bilimlarini qanday bo‘lsa o‘sha holda tasvirlab berishadi xolos.

Finlandiya maktablarida hayotda kerak bo‘ladigan bilimlar beriladi. Masalan, biror bir qurilmaning tuzilishi ularga kerak bo‘lmaydi, uni o‘rganishmaydi ham. U yerdagi bolalar bolalikdan portfolio, shartnoma, bank kartasi nima ekanini yaxshi bilishadi. Merosdan soliq fozini yoki kelgusidagi daromadlarini hisoblay olishadi, internetda tashrif-saytini yarata olishadi.

5. Ishonch

Birinchidan, maktab xodimlari va o‘qituvchilar uchun turli tekshiruvlar yo‘q, o‘quvchilarga ta’lim berishga doir turli uslublarni o‘rgatuvchilar ham yo‘q. Mamlakatda ta’lim dasturi yagona, faqat umumiy tavsiyalar bor, xolos. Har bir pedagog o‘zi to‘g‘ri deb bilgan uslubni qo‘llaydi.

Ikkinchidan, bolalarga bo‘lgan ishonch: darslarda o‘quvchi o‘zini qiziqtirgan ish bilan shug‘ullanishi mumkin. Masalan, adabiyot darsida o‘quv filmi namoyish etilayotgan bo‘lsa-yu o‘quvchiga buning qizig‘i bo‘lmasa, u kitob o‘qib o‘tirishi mumkin. O‘quvchi o‘zi uchun nima foydali ekanini o‘zi tanlaydi.

6. Istak-xohish

O‘qishni istagan odam o‘qiydi. Pedagoglar o‘quvchining e’tiborini qaratishga harakat qilishadi, lekin uning o‘rgatilayotgan fanga qiziqishi yoki qobiliyati bo‘lmasa,

darrov “ikki” baho bilan “siylashmaydi”, bolani kelgusida uncha murakkab bo‘lmagan, amaliy jihatdan foydali bo‘lgan kasbga yo‘naltirishadi. Hamma ham samolyot ixtiro qilishi shart emas, avtobuslarni ham kimdir boshqarishi kerak-ku, axir!

Har bir bolaning u yoki bu faoliyatga moyilligini aniqlash “kelajak o‘qituvchisi” tomonidan test va suhbatlar yo‘li orqali amalga oshiriladi.

Umuman olganda, Finlandiya maktabida ta’lim jarayoni yumshoq, biroq bu maktabni jiddiy qabul qilmasa ham bo‘ladi, degani emas. Maktab rejimiga rioya qilish majburiy. Barcha o‘tkazib yuborilgan darslarda qayta o‘tirishga to‘g‘ri keladi. Masalan, 6-sinf o‘quvchisi uchun o‘z jadvalidan “bo‘sh soat”ni belgilaydi yoki 2-sinfning darsiga kirib o‘tiradi. Dars qiladimi, zerikib o‘tiradimi, o‘ziga havola. Kichik yoshlilarga xalaqit bersa, bu hisobga o‘tmaydi, yana boshqa soatda qayta o‘tirishga to‘g‘ri keladi.

O‘qituvchi bergan vazifani bajarmagan, darsda ishlamagan bolaning ota-onasi maktabga chaqirtirilmaydi, tanbeh ham berilmaydi, aqliy qoloqlikda ayblanmaydi ham. Agar ota-ona ham farzandining bunday xatti-harakatlariga befarq qarasa, bola shunchaki keyingi sinfga o‘tmaydi.

9-sinfdan keyin. Katta hayotga jiddiy tayyorgarlik ko‘rish lozim, shuning uchun fin maktablarida qo‘shimcha (majburiy emas) 10-sinf bor.

7. Mustaqillik

Finlandiyada maktab bolani eng asosiysi – mustaqil muvaffaqiyatli hayotga o‘rgatishi kerak deya hisoblanadi. Shu bois u yerda fikr yuritish va o‘z xohishiga ko‘ra bilim olishga o‘rgatiladi. O‘qituvchi yangi mavzularni so‘zlab o‘tirmaydi - barchasi kitobda bor. Yod olingan formulalar emas, ma’lumotnomadan, matndan, internetdan, kalkulyatordan foydalanish - joriy muammolar yechimini topish uchun kerakli resurslarni jalb qilishni bilish muhim.

Finlandiya maktablari bir xil bo‘lsa-da, ulardagi o‘quv jarayonlari turlicha tashkil qilingan.

Qachon va qancha vaqt o‘qiladi?

Finlandiyada o‘quv yili avgustda boshlanadi, ya’ni 8-avgustdan 16-avgustgacha, yagona kun yo‘q. O‘quv yili may oyi oxirida yakunlanadi. Kuzgi yarim yillikda 3-4 kunlik ta’til bor, shuningdek, Rojdestvo munosabati bilan 2 haftalik ta’til beriladi. Bahorgi yarim yillik fevral oyidagi “chang‘i” ta’tilini ham o‘z ichiga oladi, bunda fin oilalari, qoidaga ko‘ra, oilaviy chang‘i uchishga borishadi. Bundan tashqari, bahorgi yarim yillikda Pasxa ta’tili ham bor.

Ta’lim - besh kunlik, faqat kunduzgi smenada. Juma - qisqartirilgan kun.

Nima o‘rganiladi?

1–2 sinf:

Ona (fin) tili va o‘qish, matematika, tabiat, din (e’tiqodiga qarab) yoki hayotiy tushunchalar (dinga qiziqmaydiganlar uchun), musiqa, tasviriy san’at, mehnat va jismoniy tarbiya. Bir darsda biryo‘la bir necha fan o‘tilishi mumkin.

3–6 sinflar:

Ingliz tili o‘rgatila boshlanadi. 4-sinfda - tanlov asosida yana bir chet tili: fransuz, shved, nemis yoki rus tillari. Qo‘shimcha fanlar kiritiladi (tanlov asosida, har bir maktabda har xil): klaviaturada ishlash tezligi, kompyuter bilimlari, daraxt bilan ishlash, xor ijrosi. Deyarli barcha maktablarda musiqiy asboblarda ijro etishni o‘rgatishadi, bolalar 9 yillik ta’lim davomida barcha musiqiy asboblarida o‘ynashni mashq qilib ko‘rishadi.

5-sinfda biologiya, geografiya, fizika, kimyo va tarix qo‘shiladi. 1-sinfdan

6-sinfgacha deyarli barcha fanlardan bir o‘qituvchi kiradi. Jismoniy tarbiya darsi

haftada 1-3 marta istalgan sport o‘yini shaklida o‘tadi (maktabning tanlovi asosida). Darsdan keyin dush qabul qilish majburiy. Adabiyot bizning tushunchamizdagidek o‘qitilmaydi, bu ko‘proq shunchaki o‘qishni eslatadi.

Fan o‘qituvchilari faqat 7-sinfdan kira boshlaydi.

7–9 sinflar:

Fin tili va adabiyoti (o‘qish, o‘lka madaniyati), shved, ingliz tili, matematika, biologiya, geografiya, fizika, kimyo, salomatlik asoslari, din (yoki hayotiy tushunchala musiqa, tasviriy san’at, jismoniy tarbiya, tanlov asosidagi fanlar va mehnat (o‘g‘il va qiz bolalar ajratilmaydi). Barcha birdek sho‘rva tayyorlashni va arralashni o‘rganadi. 9-sinfda ikki hafta davomida “mehnat hayoti” bilan tanishiladi. Bolalar o‘zlari uchun istagan “ishchi o‘rni”ni topib, katta ishtiyoq bilan “ishga” borishadi.

Baho kimga kerak?

Mamlakatda 10 ballik tizim qabul qilingan, ammo 7-sinfgacha faqat so‘zda baho qo‘yiladi: o‘rtadan pastroq, qoniqarli, yaxshi, a’lo. 1-3 sinflarda umuman hech qanday ko‘rinishdagi baholar yo‘q.

Finlandiyada barcha maktablar “Wilma” davlat elektron tizimiga ulangan, bu elektron maktab kundaligidek gap, har bir ota-ona unga kirish uchun shaxsiy kodga ega. Pedagoglar baho qo‘yib, davomatni belgilab, bolaning maktabdagi hayoti haqida xabar berib borishadi; shuningdek psixolog, ijtimoiy xizmatchi, “kelajak o‘qituvchisi”, feldsher ham u yerda kerakli ma’lumotni qoldiradi.

Fin maktablarida baholar xavotir uyg‘otmaydi, ular faqat o‘quvchining o‘zi uchun kerak, qo‘yilgan maqsadga erishishda bolaga motivatsiya berish va o‘zini tekshirish uchun qo‘llaniladi. Baholar o‘qituvchi, maktab nufuziga ta’sir ko‘rsatmaydi va hech qanday ko‘rsatkichlarini buzmaydi.

Yuqoridagi tadqiqotlarga tayanib joriy yilning 2022-yil 8-avgustdagi “Xalqaro Nordik universiteti” mas’uliyati cheklangan jamiyat Nodavlat ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish faoliyati uchun №034528-son Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspektsiyasi litsenziyasiga asosan yangi universitet tashkil qilindi. Bu universitet Shimoliy Yevropa Davlatlari universitetlari bilan yaqin aloqa o‘rnata boshlagan. Jumladan Fillandiyaning bir qator Oliy ta’lim muassasalari bilan shartnomalari mavjud. 4+2, 3+1 kabi ta’lim tizmi shakillantirilgan. Hozirda esa Fin oliy ta’lim muassasalaridan dars berish maqsadida mutaxassislar yetib kelmoqdalar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev ‘‘Finlyandiya standarti bo‘yicha boshlang‘ich sinflar uchun darslik tayyorlandi’’ - Zamin.uz

2. O‘quvchi va o‘qituvchi orzusi: Finlandiya ta’lim tizimi (kun.uz)

3. Matyakubov I.B. “Bolalar musiqiy asarlarini akkompanementlashtirish va aranjirovkasi.” –T., 2022-y.

Нилуфар ЭРГАШЕВА,
Студент 4 курса Узбекского государственного университета мировых языков

ДИДАКТИЧЕСКИЕ ПРИНЦИПЫ ОБУЧЕНИЯ ВТОРОГО ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В УЗБЕКИСТАНЕ

Annotatsiya

Maqolada til universiteti talabalariga ikkinchi chet tilini o'qitish muammosi ko'rib chiqiladi. Muammo didaktika va lingvopedagogika kontekstida o'rganiladi, faqat rivojlanayotgan fanlararo bilim sohasi, ikkinchi chet tilini o'rganayotgan talabalar o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalari, ikkinchi tilni o'qitishga oid fikrlari ko'rib chiqildi. Shuningdek, ikkinchi chet tilini o'qitish metodikasi masalalari ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar. Ikkinchi chet tilini o'qitish, didaktika, til va pedagogik tizim, mustaqil ish, avtonom ta'lim.

В статье рассматривается проблема обучения второму иностранному языку студентов языкового вуза. Проблема изучается в контексте дидактики и лингвопедагогики, только развивающейся междисциплинарной отрасли знания. Рассмотрены результаты опроса студентов, изучающих второй иностранный язык, их мнения относительно преподавания второго языка. В статье затрагиваются также вопросы методики преподавания второго иностранного языка.

Ключевые слова. Обучение второму иностранному языку, ДИДАКТИКА, лингвопедагогическая система, самостоятельная работа, автономное учение.

The article deals with the problem of teaching a second foreign language to students of a language university. The problem is studied in the context of DIDACTICS and linguopedagogy, a newly developing interdisciplinary branch of knowledge. The results of a survey of students studying a second foreign language, their opinions on teaching a second language are considered. The article also touches upon the issues of the methodology of teaching a second foreign language.

Key words. Teaching a second foreign language, DIDACTICS, linguistic pedagogical system, independent work, autonomous teaching.

Проблема востребованности выпускников, конкуренция на рынке труда, желание выпускников продолжить образование в зарубежных вузах повышают требования к подготовке специалистов в языковых вузах. В свете вышесказанного недостаточно владения одним иностранным языком, необходимо, чтобы выпускники языковых вузов владели вторым иностранным языком на профессиональном уровне. Выпускники, владеющие вторым иностранным языком, получают дополнительное конкурентное преимущество в различных сферах деятельности. Второй иностранный язык должен рассматриваться как шанс и возможность получения дополнительной языковой компетенции с экономической, профессиональной перспективой. Министерство образования и науки РФ поддерживает многоязычие в образовании, рекомендует выбор учебных планов, предусматривающих изучение второго иностранного языка. В основной школе предусматривается введение второго иностранного языка в том случае,

если школа выбирает соответствующий вариант учебного плана.

Проблема повышения качества иноязычного образования требует поиска эффективных форм, средств и методов в преподавании иностранных языков, в том числе и в обучении второму иностранному языку. В отличие от школ в вузах обучение второму иностранному языку ведется давно, еще с середины XX века. Несмотря на это, все еще мало учитывается специфика обучения второму языку, зачастую он преподается как первый язык, используются материалы, предназначенные для обучения иностранному языку как первому, не реализуется системный подход к обучению. Обучение основывается на языковом и педагогическом опыте преподавателей без достаточного теоретического осмысления. Это должно быть осмыслено с позиций теории и методики обучения в связи с тем, что недостаточно научных исследований по данной проблеме – с одной стороны, с другой стороны, накоплен опыт, который необходимо подвергнуть анализу и обобщить. Необходимость совершенствования процесса подготовки в языковом вузе диктует проведение исследований качества обучения иностранным языкам.

Одной из основных задач языкового вуза является повышение качества обучения преподаваемых дисциплин, в том числе и второго иностранного языка. Модель обучения второму иностранному языку студентов языкового вуза как лингвопедагогическая система включает цель, субъект (преподаватель), студент как объект и субъект, средства обучения второму языку, содержание обучения второму иностранному языку.

В этой статье описываются некоторые недостатки, при изучение языков в университете. Целями этого исследования являются:

- ознакомиться с языковой политикой, направленной на развитие многоязычия в Узбекистане;

- определить основные источники проблем (положительных и отрицательных) и трудностей в обучении дополнительному иностранному языку в УзГУМЯ;

- определить дидактические принципы в обучении дополнительному иностранному языку.

- продемонстрировать некоторые методы и приемы применения дидактических принципов в обучении дополнительному иностранному языку.

Языковая политика отражена в законах и правилах, которые включают институциональные меры, направленные на хранение, реализацию или поправки к языковым терминам и формам. Язык является функциональным средством в многонациональном обществе. Официальные языки и иностранные языки подлежат практическим аспектам, которые необходимо использовать в учебных заведениях, а также в офисной работе и обучении во всех типах учреждений.

В последние годы Узбекистан установил международные отношения в области экономики, политики и культуры. В частности, мы чувствуем себя активными в области образования: были открыты филиалы престижных европейских институтов, а учителя родного языка были вовлечены в программы подготовки языка, и в программы образовательного обмена и т.д. Учебные программы для непрерывного обучения и изучения иностранных языков на основе стандарта CEFR, IELTS для удовлетворения требований международных стандартов и присоединиться к международному образовательному пространству. Таким образом, необходимо развивать современные языки в Узбекистане, включая создание крупных отношений с другими странами.

Студент лингвистики в Узбекистане изучает иностранный язык как специализацию. В то же время они изучают второй иностранный язык, который будет освоен для педагогической деятельности одновременно. Кроме того, студенты лингвистики сталкиваются с важными вопросами в обучении иностранного языка в течение определенного года профессионального развития.

Принцип рассмотрения дидактики, определения методов преподавания и обучения, а также технических методов временном мировом сообществе и сосредоточение внимания на предыдущем языковом опыте может быть якорем для изучения второго иностранного языка. В связи с этим когнитивная гибкость может сбалансировать языки, это должно учитывать положительные последствия языкового опыта, который может быть доставлен без особых объяснений и практики. Тем не менее, этот принцип также направлен на разработку специальной много конкурентной компетенции для передачи или воспроизведения соответствующих когнитивных стратегий. Предыдущий язык и культурный опыт приводит не только к судебному преследованию, но и к негативным последствиям. Прямая передача когнитивных стратегий может привести к некоторым недостаткам в восприятии речи и привести к некоторым недостаткам, которые могут быть оправданы следующими принципами.

Сосредоточьтесь на разработке коммуникационных стратегий. Обратите внимание на разработку стратегий коммуникации (изучение, изменение и другие компенсационные стратегии) при обучении. Преподавание других языков как дополнительного иностранного языка как учителя иностранного языка или культурные факты – это лингвистические связи или на английском языке или на русском, один лингвистический материал, чтобы понять любой инцидент. Учитель должен использоваться для перевода языка к другому языку. По нашему мнению студенты будут иметь место в создании идей на английском языке. Они взаимодействуют английскую структуру и словарный запас на русском языке или пытаются сохранить свой родной язык при в B2 ,C1. Иногда для предотвращения предыдущего языкового опыта студенты должны использовать стратегии, чтобы находиться в английской языковой среде, просто чтобы успешно овладеть дополнительным иностранным языком. Следовательно, образовательные стратегии, используемые в предыдущем опыте, станут оптимальным источником или инструментом для успешного восстановления дополнительного иностранного языка (словарь, грамматические структуры и их использование).

В данной статье показаны принципы изучения второго иностранного языка в Узбекистане и пути их решения на основе дидактических принципов. С этой целью мы определили принципы и их применения и оценки. Эти принципы позволили понять дидактические принципы и эффективность деятельности и создали перспективу для дальнейших исследований. Известно, что многоязычие - это сложный познавательный процесс, и предыдущие языки дают опыт приобретения нового языка. Мы уверены, что учащиеся, свободно владеющие первым иностранным языком и обладающие когнитивными способностями для овладения дополнительным иностранным языком для определенных целей, будут стремиться освоить новый на основе рекомендуемых принципов, которые облегчат процесс обучения.

В этом смысле учителя родного языка должны применять особые методы и приемы, разработанные на основе дидактических принципов, выработанных

при дополнительном обучении иностранному языку. В качестве исходных основ для овладения иностранным языком существуют различные принципы. Однако предложенные нами принципы можно совместить с основными принципами изучения коммуникативного языка. Практика преподавания двух иностранных языков в Узбекистане - это исследование показывает, что если учащиеся испытывают трудности с овладением С1, мы не можем игнорировать опыт носителей и второго языка, рекомендации по правилам грамматики, сравнительно-контрастный анализ языковых явлений и другие образовательные стратегии. Использование различных методов и приемов, основанных на этих дидактических принципах, напоминает опыт использования инструкций по грамматике "рецепт" для смешивания различных ингредиентов в обучении грамматике, описанном Уотсоном (2015).

Из этого исследования главный вывод состоит в том, что изучения второго иностранного языка в профессиональных целях должно быть спланировано и организовано на основе рекомендуемых дидактических принципов и специальных инструкций. Несомненно, эти принципы позволили организовать рациональный и успешный процесс преподавания и обучения на курсах английского языка в профессиональных целях.

Использованная литература:

1. Амаса С. (2016). Анализ ошибок учащихся турецкого языка EFL: тематическое исследование. Процедура – Социальные и поведенческие науки, 232, 478-487. https://doi.org/10.1016/j.sbspro.2016.10.007

2. Брумфит, К. (1984). Коммуникативная методология в преподавании языка: роль беглости и точности. Кембридж: Издательство Кембриджского университета.

3. Картон, Ф. К. (2007). Переключение кодов у двуязычных детей. Дордрехт, Спрингер.

4. Кайноз, Дж. (2007). Приобретение прагматической компетенции и многоязычия в иноязычных контекстах. В Е. Алкон Солер, М.П. Сафон Жорда (ред.), Межкультурное использование языка и изучение языка, 123-140. Прыгун. https://doi.org/10.1007/978-1-4020-5639-0_7

5. Чемберс, Ф. (1997). Что мы подразумеваем под беглостью? Система, 24(4), 535-544. https://doi.org/10.1016/S0346-251X (97)00046-8

Равшан АБДУХАИРОВ,
Совместного Белорусско-Узбекского межотраслевого института прикладных технических квалификаций (PhD)

РАЗВИТИЕ НЕПРЕРЫВНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ УЧИТЕЛЯ ТРУДОВОГО ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ ЛИЧНОСТНО-ДЕЯТЕЛЬНОСТНОГО ПОДХОДА

Annotatsiya

Maqolada shaxsiy faoliyat yondashuvi asosida mehnat ta'limi o'qituvchisining pedagogik madaniyatini rivojlantirishga yordam beradigan omillar aniqlandi. O'quv jarayoni subyektlarining pedagogik madaniyatini oshirish va ularning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar. Shaxsiyat, o'z-o'zini tarbiyalash, pedagogik faoliyat, rivojlanish, malaka oshirish, usul.

В статье были выявлены факторы, способствующие развитию педагогической культуры учителя трудового обучения на основе личностно-деятельностного подхода. Рассмотрение вопросов повышения педагогической культуры субъектов образовательного процесса и совершенствования их личностных и профессиональных качеств.

Ключевые слова. Личность, самообразование, педагогическая деятельность, развитие, повышение квалификации, метод.

The article identifies the factors contributing to the development of the pedagogical culture of the teacher of labor training based on a personal-activity approach. Consideration of issues of improving the pedagogical culture of the subjects of the educational process and improving their personal and professional qualities.

Key words. Personality, self-education, pedagogical activity, development, professional development, method.

Одно из значений понятия «культура» — уровень развития духовных и материальных ценностей, способностей, возможностей, достигаемых результатов, отвечающих специфике и требованиям педагогического труда. Это и имеют в виду, когда обычно говорят о профессиональной вообще или педагогической культуре в частности.

В последние годы в педагогике высшей школы и системы повышения квалификации появилось понятие “деятельностныйподход в развитии педагогической культуры”, который связывают с практическим моделированием, организацией различных игр, тренингов, постоянным самообразованием. Это означает, что учитель трудового обучения повышает уровень своей профессиональной культуры, используя всевозможные ситуации: на учебных курсах, дома, непосредственно на рабочем месте, при организации экскурсий, внешкольных мероприятий, то есть это и практическая деятельность, деловое общение, учение и обучение. В каждой из таких педагогических ситуаций проявляется реальная педагогическая деятельность, которая способствует обогащению профессиональной культуры.

Педагогическая культура — высшая степень соответствия развитости личности и профессиональной подготовленности педагога к специфике педагогической деятельности. Это личностно посредованный педагогический профессионализм, позволяющий осуществлять педагогическую деятельность на высшем уровне ее социальных, гуманных, нравственных, собственно педагогических, научных и специальных критериев.

Требования к учителю трудового обучения в прежние года ограничивались обязательным наличием у учителя навыков в определенном ремесле. Сегодня ситуация коренным образом изменилась. В высших педагогических образовательных учреждениях созданы факультеты инженерной педагогики. Соответственно перестроили свою деятельность и учреждения переподготовки и повышения квалификации учителей. Однако программы этих образовательных учреждений недостаточно модернизированы, особенно в направлении развития педагогической культуры учителя трудового обучения.

Учеными-психологами (Л.С.Выготский, В.Н.Леонтьев, С.Л.Рубинштейн) обоснован принцип единства сознания и деятельности и их взоимоотношения. В этом аспекте следуют рассматривать проблему развития педагогической культуры учителя трудового обучения на основе личностно-деятельностного подхода. Психологическая карта практической деятельности учителя трудового обучения берет в себя: поиск самостоятельного решения проблемной ситуации; самостоятельное овладения новыми и необходимыми педагогическими знаниями; правильную постановку цели действий, определения конкретных методов и средств выполнения намеченной стратегии, пути и способы закрепления компетенций в определенной области и достижения планируемых результатов.

Объединение обозначенных выше действий составляет сущность координирующей деятельности(А.М.Новиков). От учителя требуется умения определять стратегию и тактику своей педагогической деятельности, что связано с интенсивным овладениемновыми формами, методами и средствами обучения и воспитания, изучением и освоением современной информации в области педагогических знаний. С этой цельно необходимо работать в сотрудничестве с другими учителями трудового обучения, изучать и использовать их ценный инновационный опыт.

С началом активной разработки культурологического направления в философии, социологии, педагогике и психологии проведены исследования, посвященные отдельным сторонам педагогической культуры: изучаются вопросы методологической, нравственно-эстетической, коммуникативной, технологической, духовной, физической культуры личности учителя. В этих исследованиях педагогическая культура рассматривается как важная часть общей культуры учителя, проявляющейся в системе профессиональных качеств и специфике педагогической деятельности.

Профессионально-педагогическая культура учителя выступает частью общей культуры как общественного явления. Носителями педагогической культуры являются люди, занимающиеся педагогической практикой как на профессиональном, так и непрофессиональном уровнях. Носителями профессионально-педагогической культуры являются люди, призванные осуществлять педагогический труд, составляющими которого являются педагогическая деятельность, педагогическое общение и личность как субъект деятельности и общения на профессиональном уровне.

В соответствии с основными теоретическими положениями и принципами личностно-деятельностного подхода учитель рассматривается как субъект образовательного процесса с определенными функциями деятельности и характером общения. С философской и психологической точек зрения, это сложная, практико-ориентированная деятельность с

присущими ей особенностями: понятие субъект постоянно сопоставляется с понятием объект; формированиезнаний субъекта осуществляется, исхода из социально-исторических условий; субъект воспринимается как личность, деятельность которой осуществляется осознанно, её самовосприятие ассоциируется с оценкой себя как ‘‘сознательного’’ субъекта, развивающегося в процессе деятельности; индивидуальность каждого конкретного субъекта можно определить только через отношение к другим субъектам; каждое ‘‘Я’’ является субъектом определенного коллектива.

В процессе исследования были выявлены факторы, способствующие развитию педагогической культуры учителя трудового обучения на основе личностно-деятельностного подхода. Это:

1. Организация в образовательномучреждении развивающейпедагогической среды сотрудничества и педагогического общения учителя трудового обучения с руководителями, коллегами, родителями учащихся.

2. Рассмотрение в комплексе и единстве вопросов повышения педагогической культуры субъектов образовательного процесса и совершенствования их личностных и профессиональных качеств.

Таким образом, в качестве факторов, помогающих развитию педагогической культуры учителя, определены, с одной стороны, механизмы развития личности педагога, с другой – совершенствование педагогической деятельности учителя трудового обучения.

Использованная литература:

1. Abduxairov R.A. Mehnat ta'limi o‘qituvchilarida kasbiy madaniyatni shakllantirish. Metodik qo‘llanma.-Toshkent: Fan va texnologiyala rmarkazining bosmaxonasi, 2011. 86-b.

2. Абдухаиров Р.А. Непрерывность развития профессиональной культуры педагога на основе самоанализа и самоопределения. – Т., 2015. №6, –Б.118–122.

3.Коджаспирова Г.М. Культура профессионального самообразования педагога: Пособие / Под. ред. д-ра психол. наук Забродина Ю.М. – М., 1994. – 344с.

4. Mangal S.K., Fundamentals of Educational Technology, Ludhiana: London Publications, 1994.

5. Xolliyev I., Xusanov J. Kasb-hunar ta'limi: Texnologiya. Ma’naviyat. Mahorat. –T., 2003: O‘qituvchi -256 b.

Bosh muharrir:
Mahmudov Sarvar Yuldashevich

Mas’ul kotib:
Suyarova Lutfiya Muxiddinovna

Bosh dizayner – badiiy muharrir:
Mamasoliyev Akbarali Hamzayevich

TAHRIR HAY’ATI:
Baxtiyor SAIDOV, Risboy JO‘RAYEV, Komiljon MUQIMOV, Ulug‘bek INOYATOV,
G‘ayrat SHOUMAROV, Maqsudjon YULDASHEV, Oynisa MUSURMONOVA, Lola MO‘MINOVA,
Dilyara SHARIPOVA, Barno ABDULLAYEVA, Rohatoy SAFAROVA, Xolboy IBRAGIMOV,
Ravil IS’YANOV, Mirodiljon BARATOV, Sharibboy ERGASHEV, Yashin ISMANDIYAROV,
Muhabbat MIRSALIYEVA, Bahodir MA’MUROV, Shukurullo MARDONOV, Ulfat MAHKAMOV.

JAMOATCHILIK KENGASHI:
Dilshod KENJAYEV, Sobitxon TURG‘UNOV, Nargiza RAXMANKULOVA, Abduhalim MAHMUDOV,
Kamola RISKULOVA, Feruza QODIROVA, Islom ZOKIROV, Ravshan ABDUXAIROV.

Tahririyat manzili:

Toshkent shahar Shayhontoxur tumani Navoiy ko‘chasi, 30-uy.
E-mail: xalq_talimi@xtv.uz Tel: (0 371) 231-16-51, Faks: 231-16-52

Jurnalga yuborilgan maqolalarga javob qaytarilmaydi, jurnalda e’lon qilingan maqolalardan olingan matnlar ‘‘Xalq ta’limi’’ ilmiy-metodik jurnalidan olindi, deb ko‘rsatilishi shart.

Jurnal 2015-yil 20-martdagi 214/2-sonli qarori bilan OAK ilmiy nashrlari ro‘yxatiga kiritilgan.

“TAFAKKUR NASHRIYOTI” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Toshkent shahri, Shayhontoxur tumani, Navoiy ko‘chasi, 30-uy

Bosishga ruxsat etildi: __.__.____-y. Qog‘oz bichimi 70x100 1/16. Ofset bosma usuli.
Shartli b.t. 12,0. Adadi __ ___ nusxa. – buyurtma.
Bahosi kelishilgan narxda.

Ushbu songa mas’ul – Abduqodirova Shoxida Akmalxo‘ja qizi

Jurnalga taqdim etilgan barcha materiallar https://rustxt.ru/antiplagiat sayti hamda https://t.me/check_antiplagiat_bot da monitoring qilinadi.

© “Xalq ta’limi” jurnali, 2022.